

BADALOV NOMOZ JURABOEVICH
RAHMONOV FURQAT ABDUXAKIMOVICH
NAJMIDDINOVA YOKUTXON RUXIDDINOVNA

SERTIFIKATLASHTIRISH
ASOSLARI VA SIFAT
MENEJMENTI

O'QUV
QO'LLANMA
— 2022

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

**«SERTIFIKATLASHTIRISH ASOSLARI
VA SIFAT MENJMENTI»**

O‘QUV QO‘LLANMA

**5310900 - Metrologiya, standartlashtirish va
Maxsulot sifati menejmenti ta‘lim
yo‘nalishi bo‘yicha talabalari uchun**

UDK 531.7 + 683.33 (075)

BBK 30.10 (Я 73)

B 18

“Sertifikatlashtirish asoslari va sifat menejmenti”. O‘quv qo‘llanma 2022 yil; 283 bet.

O‘quv qo‘llanma 5310900 - Metrologiya, standartlashtirish va maxsulot sifat menejmenti (sanoat) yo‘nalishida ta’lim olayotgan bakalavriat talabalari uchun mo‘ljallangan. Ushbu o‘quv qo‘llanmadan sertifikatlashtirish va sifat menejmenti sohalariga aloqador yo‘nalishida ta’lim olayotganlar va ilmiy-texnik xodimlari ham foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchilar:

N.J Badalov: -Jizzax politexnika instituti “Metrologiya va standartlashtirish” kafedrasida dotsenti vasifasini bajaruvchisi.

F.A. Rahmonov: -Jizzax politexnika instituti “Metrologiya va standartlashtirish” kafedrasida katta o‘qituvchisi.

Y.R. Najmiddinova: -Namangan muhandislik qurilish instituti Transport fakulteti, Metrologiya va standartlashtirish kafedrasida dotsenti.

Taxrizchilar:

G‘.X. Mannonqulov: -Respublika “Milliy metrologiya instituti” Davlat muassasasi Jizzax filiali boshligi.

G‘.M SHertoilakov: Jizzax politexnika instituti «Metrologiya va standartlashtirish» kafedrasida mudiri falsafa fanlar doktori.

ANNOTATSIYA

“Sertifikatlashtirish asoslari va sifat menejmenti” o‘quv qo‘llanmasi oliy ta’lim muassasalarida, sertifikatlashtirish bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan. O‘quv qo‘llanmada sertifikatlashtirishning xamda sifat menejmenti rivojlanishi, qonuniy asoslari sertifikatlashtirish faoliyatiga doir asosiy tushunchalar xamda sifat menejmenti tizimini joriy etish va sifatni boshqarish bo‘yicha ishlarni tashkillashtirish to‘g‘risida asosiy ma’lumotlar keltirilgan.

O‘quv qo‘llanmadan kasb-xunar kollejlarda sertifikatlashtirish sohalariga aloqador yo‘nalishlarda ta’lim olayotgan talabalar va texnik xodimlar ham foydalanishlari mumkin.

АННОТАЦИЯ

Учебное пособие «Основы сертификации и управления качеством» предназначено для студентов, изучающих сертификацию в высших учебных заведениях. Учебное пособие содержит основные сведения о развитии сертификации и менеджмента качества, правовых основах сертификационной деятельности, а также о внедрении системы менеджмента качества и организации работы по управлению качеством.

Пособие может быть использовано студентами и техническими специалистами, обучающимися в профессиональных колледжах по специальностям, связанным с сертификацией.

ANNOTATION

The training manual "Fundamentals of certification and quality management" is intended for students studying certification in higher education institutions. The training manual contains basic information about the development of certification and quality management, the legal basis of certification activities, as well as the introduction of the quality management system and the organization of quality management work.

The manual can be used by students and technicians studying in vocational colleges in fields related to certification.

KALIT SO‘ZLAR: audit, axborot,verifkatlash, etkazib beruvchi, jarayon, iste’molchi, infratuzilma, loyixa, maxsulot, menement, talab, nuqson, puxtalik, sinash, sifat, sifatni boshqarish, tavsif, taxlil,tashkilot, ta’mir, tekshirish, tizim, xujjat, tuzatish, texnik ekspert, sinov, protsedra, nomuvofiqlik, muvofiqlik, sertifikat, imkoniyatlar, validatlash, chekinish, akkreditatsiya, maxsulot, xom ashyo, xodimlar, gigenik sertifikat, inspeksion nazorat, organ, deklaratsiya, tovar, qadoqlash, realizatsiya, xavfsizlik, milliy akkreitatsiya, kalibr, material, korxonona, bozor, ko‘rsatkich, kafolat, laboratoriya, sertifikatlashtirish sxemasi, idenfikatsiyalash, kod, raqobat, attestatsiya, xaridor, standart, litsenziyalash.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: аудит, информация, проверка, поставщик, процесс, потребитель, инфраструктура, проект, продукт, управление, требование, дефект, тщательность, тестирование, качество, управление качеством, описание, анализ, организация, ремонт, проверка, система, документ, исправление, технический эксперт, испытание, процедура, несоответствие, соответствие, сертификат, мощность, валидация, отзыв, аккредитация, продукт, сырье, персонал, гигиенический сертификат, инспекционный контроль, орган, декларация, продукт, упаковка, внедрение, безопасность, национальная аккредитация, калибр, материал, предприятие, рынок, показатель, гарантия, лаборатория, схема сертификации, идентификация, код, конкуренция, аттестация, покупатель, стандарт, лицензирование.

KEYWORDS: audit, information, verification, supplier, process, consumer, infrastructure, project, product, management, demand, defect, accuracy, testing, quality, quality management, description, analysis, organization, repair, inspection, system, document , correction, technical expert, testing, procedure, non-conformity, conformity, certificate, capacity, validation, withdrawal, accreditation, product, raw materials, personnel, hygienic certificate, inspection control, authority, declaration, goods, packaging, sales, security, national accreditation, caliber, material, enterprise, market, indicator, warranty, laboratory, certification scheme, identification, code, competition, certification, buyer, standard, licensing.

KIRISH

“Serifikatlashtirish asoslari va sifat menejmenti” o‘quv qo‘llanmada hayotimizning barcha jabhalarida, iqtisodiyotning va sanoatning barcha tarmoqlari uchun o‘ta zarur bo‘lgan, sertifikatlashtirish haqidagi asosiy tushunchalar va ta’riflar, me’yoriy hujjatlar, sertifikatlashtirishning huquqiy va qonuniy asoslari hamda O‘zbekiston respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi kabi masalalari xususida etarli va zarur ma’lumotlar keltirilgan.

O‘quv qo‘llanma mohiyatan hozirgi kunlarda Respublikamizdagi ta’lim va iqtisodiyot borasidagi rivojlanishi va o‘zgarishlari fan-texnika hamda texnologiyani jadal o‘zgarib borishini hisobga olingan holda yaratildi.

O‘quv qo‘llanma sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish faoliyatini paydo bo‘lishi va rivojlanishi tarixiy manbalardan ma’lumki, uzoq tariximizga o‘zaro bog‘liq bo‘lishi bilan bir qatorda, ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga xos bo‘lgan, doimiy ravishda va uzluksiz tarzda rivojlanishda bo‘luvchi faoliyatlar turkumiga mansubdir.

Mustaqil O‘zbekistonimiz juda boy va ko‘hna madaniy va ma’rifiy meroslarga ega bo‘lib, ushbu meros G‘arb falsafasini shakllanishida, buyuk olimlarni va allomalarni muvoffaqiyat qozonishlarida munosib o‘rin egallagan. Bundan tashqari Respublikamiz «Buyuk ipak yo‘li» asosiy tomirida joylashganligi va yirik savdo markazlariga ega bo‘lganligi sababli xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etgan. Ma’lumki, respublikamizda tub iqtisodiy islohotlar orqali bozor munosabatlarini shakllantirishga kirishishda eng avvalo, uning strategik maqsadlari belgilanib olindi. Bu maqsadlar ichida «raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta’minlash» alohida ta’kidlab o‘tilgan.

Iqtisodiy islohotlarning ustivor sanalgan yo‘nalishlarida ham quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin:

-ilg‘or texnologiyalarni joriy qilish orqali tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish;

-aholini oziq-ovqat bilan ta’minlash;

-mamlakatning eksport quvvatidan to‘la-to‘kis foydalanish, uni jadallik bilan rivojlantirish.

Bu borada Respublikamizda qisqa muddat ichida o‘lkan ishlar amalga oshirildi va natijada O‘zbekiston sanoatlashgan hamda iqtisodiy jihatdan buyuk imkoniyatlarga ega davlatlar safiga qo‘shildi. Sertifikatlashtirish faoliyati yuqorida sanab o‘tilgan yo‘nalishlar va sanoatimizning barcha tarmoqlarida ishlab chiqarishdagi zamonaviylikni aks ettirish, texnologik jarayonlarni kompleks

avtomatlashtirish, ishlab chiqarilayotgan va chetdan keltirilayotgan turli xil mahsulotlarning sifati yuqori darajada, me'yoriy xujjatlarning belgilangan talablariga mos bo'lishini, iste'mol mahsulotlarining aholi uchun xavfsizligini ta'minlash, ilg'or, ko'p yillik tajribadan o'tgan jahon andozalaridan foydalanish va ularni respublikamizda tadqiq etish kabilarni o'ziga mujassamlashtirgan. Tabiiyki, barcha soha mutaxassislari qaysi toifada bo'lishidan qat'iy nazar ushbu borada etarli bilim va malakaga ega bo'lishlari lozim.

Sertifikatlashtirish asoslari va sifat menejmentining asosiy maqsadi – talabalarni mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish va ularning sifatini boshqarish masalalarining mazmun mohiyati nimadan iborat, uning kelib chiqishi va rivojlanish tarixi, hozirgi zamonda unga bo'lgan talablar, chet ellarda va Respublikamizda sertifikatlashtirish tartibi va qonun qoidalari, milliy sertifikatlashtirish va akkreditlash tizimlari hamda sifatni boshqarish to'g'risida bilim olishlariga va ko'nikmaga ega bo'lishlariga imkoniyat yaratadi.

Sertifikatlashtirish va sifat menejmenti qo'llanmada xorijiy davlatlarning, xalqaro tashkilotlarning, hamda O'zbekiston Respublikasida sertifikatlashtirishning tashkiliy-uslubiy va huquqiy tomonlari, shuningdek sertifikatlashtirish qoidalariga taalluqli va sifatni boshqarish bo'limlarini o'z ichiga olgan. O'quv qo'llanmada xalqaro standartlarning hamda O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi me'yoriy hujjatlari asosida ishlab chiqilgan uslubiy ko'rsatmalar ham inobatga olingan.

I-BOB. FANGA KIRISH. FANNING MAQSAD VA VAZIFALARI

1§. Faniga kirish. Fanning maqsad va vazifalari

1.1. Faniga kirish. Fanning maqsad va vazifalari. Qo‘llanma to‘plamida hayotimizning barcha jabhalarida, iqtisodiyotning va sanoatning barcha tarmoqlari uchun o‘ta zarur bo‘lgan, sertifikatlashtirish haqidagi asosiy tushunchalar va ta’riflar, me’yoriy hujjatlar, sertifikatlashtirishning huquqiy va qonuniy asoslari hamda O‘zbekiston respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi kabi masalalari xususida etarli va zarur ma’lumotlar keltirilgan.

Qo‘llanma mohiyatan hozirgi kunlarda Respublikamizdagi ta’lim va iqtisodiyot borasidagi rivojlanishi va o‘zgarishlari fan-texnika hamda texnologiyani jadal o‘zgarib borishini hisobga olingan holda yaratildi. Asosan standartlashtirish, sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish faoliyatini paydo bo‘lishi va rivojlanishi tarixiy manbalardan ma’lumki, uzoq tariximizga o‘zaro bog‘liq bo‘lishi bilan bir qatorda, ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga xos bo‘lgan, doimiy ravishda va uzluksiz tarzda rivojlanishda bo‘luvchi faoliyatlar turkumiga mansubdir.

Mustaqil O‘zbekistonimiz juda boy va ko‘hna madaniy va ma’rifiy meroslarga ega bo‘lib, ushbu meros G‘arb falsafasini shakllanishida, buyuk olimlarni va allomalarni muvoffaqiyat qozonishlarida munosib o‘rin egallagan. Bundan tashqari respublikamiz «Buyuk ipak yo‘li» asosiy tomirida joylashganligi va yirik savdo markazlariga ega bo‘lganligi sababli xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etgan.

Ma’lumki, respublikamizda tub iqtisodiy islohotlar orqali bozor munosabatlarini shakllantirishga kirishishda eng avvalo, uning strategik maqsadlari belgilanib olindi. Bu maqsadlar ichida «raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta’minlash» alohida ta’kidlab o‘tilgan. Iqtisodiy islohotlarning ustivor sanalgan yo‘nalishlarida ham quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin:

- ilg‘or texnologiyalarni joriy qilish orqali tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish;
- aholini oziq-ovqat bilan ta’minlash;
- mamlakatning eksport quvvatidan to‘la-to‘kis foydalanish, uni jadallik bilan rivojlantirish.

Bu borada respublikamizda qisqa muddat ichida ulkan ishlar amalga oshirildi va natijada O‘zbekiston sanoatlashgan hamda iqtisodiy jihatdan buyuk imkoniyatlarga ega davlatlar safiga qo‘shildi.

Standartlashtirish faoliyati yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlar va sanoatimizning barcha tarmoqlarida ishlab chiqarishdagi zamonaviylikni aks ettirish, texnologik jarayonlarni kompleks avtomatlashtirish, ishlab chiqarilayotgan va chetdan keltirilayotgan turli xil mahsulotlarning sifati yuqori darajada, me'yoriy hujjatlarning belgilangan talablariga mos bo'lishini, iste'mol mahsulotlarining aholi uchun xavfsizligini ta'minlash, ilg'or, ko'p yillik tajribadan o'tgan jahon andozalaridan foydalanish va ularni respublikamizda tadbiq etish kabilarni o'ziga mujassamlashtirgan. Tabiiyki, barcha soha mutaxassislari qaysi toifada bo'lishidan qat'iy nazar ushbu borada etarli bilim va malakaga ega bo'lishlari lozim.

Sertifikatlashtirish asoslari va sifat menejmenti fanining asosiy maqsadi talabalarni mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish va ularning sifatini boshqarish masalalarining mazmun mohiyati nimadan iborat, uning kelib chiqishi va rivojlanish tarixi, hozirgi zamonda unga bo'lgan talablar, chet ellarda va Respublikamizda sertifikatlashtirish tartibi va qonun qoidalari, milliy sertifikatlashtirish va akkreditlash tizimlari hamda sifatni boshqarish to'g'risida bilim olishlariga va ko'nikmaga ega bo'lishlariga imkoniyat yaratadi.

Sertifikatlashtirish asoslari va sifat menejmenti qo'llanma xorijiy davlatlarning, xalqaro tashkilotlarning, hamda O'zbekiston Respublikasida sertifikatlashtirishning tashkiliy-uslubiy va huquqiy tomonlari, shuningdek sertifikatlashtirish qoidalariga taalluqli va sifatni boshqarish bo'limlarini o'z ichiga olgan.

Aytish kerakki, sertifikatlashtirish bilan sifat tizimi va akkreditlashtirish idoralarining sertifikatlashtirish va tadqiqot amaliyotlarini tadbiq qilish masalalari bevosita bir-biriga bog'liqdir. SHuningdek O'zbekistonda akkreditlash tizimini xalqaro andozalarga uyg'unlashtirilgan tarzda yaratish natijalari ustida olib borilayotgan harakatlar ham ushbu o'quv qo'llanmada e'tiborga olingan.

Mazkur qo'llanmada xalqaro standartlarning, hamda O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi me'yoriy hujjatlari asosida ishlab chiqilgan uslubiy ko'rsatmalar ham inobatga olingan. Mahsulotlar, xizmatlar va ishlarni sertifikatlashtirish mahsulotni o'rnatilgan talablarga va uning sifati bilan to'g'ri bog'liqligini tasdiqlashdir. Sifatsiz mahsulot sertifikatlashtirilishi mumkin emas.

Sertifikatlashtirish asoslari va sifat menejmenti quyidagi yo'nalishlarga: mahsulot (xizmat) iste'molchilarning tanlash layoqatliligi faoliyati; iste'molchilarni nopok va vijdotsiz ishlab chiqaruvchilar (sotuvchi, bajaruvchi)dan himoya qilish; mahsulot (xizmat, ishlar)ni atrof-muhit, yashash va jamiyat sog'lig'i uchun xavfsizligini nazorat qilish; mahsulot (xizmat, ishlar) sifat ko'rsatkichlari va ushbu mahsulotni ishlab chiqargan ishlab chiqaruvchilar (bajaruvchilar)ni

tasdiqlash; tashkilot va xususiy tadbirkorlar faoliyatini Respublikamiz yagona tovar bozorini hamda xalqaro iqtisodiyotda, ilmiy-texnik hamkorlikda va xalqaro savdolarda qatnashishi uchun imkoniyat yaratish sohasida ish olib boradi.

Muvofiqlikni tasdiqlash va baholash tizimi mahsulot sifati va xavfsizligini, ishlar va xizmatlarni nazorat qilish va buning uchun davlat tekshiruvi va nazorati, litsenziyalashtirish, ixtiyoriy sertifikatlashtirish bilan boshqa nazorat shakllarining asosiy mexanizmi bo'lishi bilan ahamiyatlidir.

Respublikamizda sertifikatlashtirishning rivojlantirish istiqboli mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish, shu bilan birga «muvofiqlikni tasdiqlash va baholash» - tizimiga o'tish, hamda bu faoliyatni takomillashtirish bo'yicha «O'zstandart» agentligi tomonidan qabul qilingan konsepsiyada to'liq tarzda yoritib berilgan.

SHu sabablarga ko'ra, ushbu qo'llanma Respublikamizdagi amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ta'lim borasidagi islohotlarga yondashgan holda jumladan, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish sohalaridagi bilimlarni etkazishda standartlashtirish asoslari tayanch faoliyat ekanlagini inobatga olib yaratishga harakat qilindi.

“Sertifikatlashtirish asoslari va sifat menejmenti” qo'llanma to'plamida hayotimizning barcha jabhalarida, iqtisodiyotning va sanoatning barcha tarmoqlari uchun o'ta zarur bo'lgan, sertifikatlashtirish haqidagi asosiy tushunchalar va ta'riflar, me'yoriy hujjatlar, sertifikatlashtirishning huquqiy va qonuniy asoslari hamda O'zbekiston respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi kabi masalalari xususida etarli va zarur ma'lumotlar keltirilgan.

Muvofiqlikni tasdiqlash va baholash tizimi mahsulot sifati va xavfsizligini, ishlar va xizmatlarni nazorat qilish va buning uchun davlat tekshiruvi va nazorati, litsenziyalashtirish, ixtiyoriy sertifikatlashtirish bilan boshqa nazorat shakllarining asosiy mexanizmi bo'lishi bilan ahamiyatlidir. SHu sabablarga ko'ra, ushbu qo'llanmani respublikamizdagi amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ta'lim borasidagi islohotlarga yondashgan holda jumladan, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish sohalaridagi bilimlarni etkazishda standartlashtirish asoslari tayanch faoliyat ekanlagini inobatga olib yaratishga harakat qilindi. O'z istiqloli yo'lida shaxdam qadam tashlab boraётgan, mustaqil O'zbekiston Respublikasida sertifikatlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohalarida muhim va salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Sertifikatlashtirishda yagona qoida va ish tartiblarini belgilash, bularga rioya qilishning nazorati, sertifikatlashtirish natijalari bo'yicha hujjatlarni axborotli ma'lumot bilan ta'minlash.

“O‘zbekiston texnik jixatdan tartibga solish” agentligi tarkibidagi oziq - ovqat va qishloq ho‘jalik mahsulotlarini tekshiruv sinov laboratoriyasi akkreditlangan laboratoriyalardan hisoblanib, shu kungacha muayyan turdagi mahsulotlarga muvofiqlik sertifikatini berish uchun kerakli bo‘lgan sinovlarni bajarmokda.

Respublika hududiga keltiriladigan yoki undan chetga chiqariladigan mollar (mahsulotlar) ning xafvsizligini tasdiqlash bilan bog‘liq bo‘lgan amallar tegishli davlat idoralari bilan kelishilgan holda “O‘zstandart” agentligi tomonidan tayèrlangan alohida hujjat bo‘yicha bajariladi.

Xalqaro sertifikatlashtirishdagi munosabatlar. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida Turkiya va Xitoy davlatlari bilan standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya soxalarida hamkorlik qilish niyatida bitim tuzildi. Bu yo‘ldagi ishlar o‘z mevasini bermokda. Turkiya mutaxassislari Toshkentda bo‘lib, O‘zdavstandart tomonidan uyushtirilgan respublika seminarlarida sertifikatlashtirish sohasida ma’ruzalar bilan qatnashmoqdalar.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish soxalarida ilmiy tadqiqot ishlari ham o‘z yo‘nalishiga egadir. Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish soxalarida asosiy ilmiy - uslubiy baza hisoblanadi. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifati soxalarida hozirgi xalqaro talablarga javob beradigan milliy ilmiy baza yaratadi;

YUqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, savdo – sotiq ishlarida mahsulotning sifati asosiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib qolmoqda. Ishlab chiqarilgan mahsulot xalqaro va milliy standartlashtirish, sertifikatlashtirishning talablariga mos kelishi lozim. Har bir mahsulot o‘z sifatini tasdiqlash uchun sertifikatga ega bo‘lishi lozim.

1.2.Sertifikatlashtirish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar va ISO, ISO/IEC, ILAC tashkilotlarning faoliyati. Hozigi kunda sertifikatlashtirish masalalari bo‘yicha quyidagi tashkilotlar shug‘ullanishmoqda: Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) va uning qismi bo‘lmish muvofiqlikni baholash bo‘yicha Qumita ISO/KASKO, Xalqaro elektrotexnika komissiyasi (MEK) va bu bilan aloqada ishlovchi Elektr qurilmalari muvofiqligini sertifikatlashtirish bo‘yicha Xalqaro komissiya (SEE); Savdo va tarif bo‘yicha Bosh kelishuvi (GATT); Halqaro savdo tashkiloti (VTO); BMT ning Evropa iqtisodiy komissiyasi (EEK. OON); Halqaro savdo markazi (MTS); Rivojlanish va savdo bo‘yicha BMT Konferensiyasi (YUNKTAD); Sinov laboratoriyalarini akkreditlash bo‘yicha Xalqaro konferensiya (ILAK) va boshqalar.



Xalqaro standartlashtirish tashkiloti - (ISO) o'zining ishlanmalari bilan turli xil milliy qonuniy holatlarda sertifikatlashtirish natijalarini o'zaro tan olish ishlari va o'z navbatida sertifikatlashtirish usullarini uyg'unlashtirishda yordam berib kelmoqda. ISO tashkiloti mamlakatlarda sertifikatlashtirish tizimini yaratish va u qaerlarda mavjud bo'lmasa bu bo'yicha reja asosida uslubiy yordam qilib kelmoqda. ISO sertifikatlashtirish sohasida MEK bilan hamkorlikda ko'plab qullanmalar va tavsiyalar ishlab chiqmoqda. Sertifikatlashtirish sohasida asos bo'luvchi ISO/MEK 28 "Uchinchi tomon mahsulotni sertifikatlashtirish tizimi namunaviy umumiy qoidalari" qo'llanma milliy sertifikatlashtirish tizimini yaratish bo'yicha tavsiya sifatida foydalanilmoqda.

Birinchi standartlashtirish milliy tashkiloti - Britaniya Assotsiatsiyasi /British Engineering Standards Association/ 1901 yilda tashkil etilgan bo'lib, biroz keyinroq, birinchi jahon urushi davrida Daniya byurosi, Germaniya qo'mitasi (1918 y.), Amerika qo'mitasi (1918 y.) va boshqalar tashkil topdi. Tashkiliy tuzilmasi keltirilgan.

Standartlashtirish sohasidagi ishlar xalqaro markaz kerakligini taqazo qildi. SHu maqsadda 1926 yili standartlashtirish milliy tashkilotlarning Xalqaro Assotsiatsiyasi (ISA) paydo bo'ldi. ISA ning tarkibiga 20 mamlakat vakillari kirdi.

1938 yili Berlin shahrida standartlashtirish bo'yicha Xalqaro s'ezd ochildi. Unda texnikaning turli sohalari bo'yicha 32 ta qo'mita va kichik qo'mitalar tuzildi. 1939 yili boshlangan ikkinchi jahon urushi ISAning faoliyatini to'xtatib qo'ydi.

Hozirgi Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (International Standards Organization) 1946-1947 yillari tashkil topdi, uni qisqacha ISO deb yuritiladi. Bu nufuzli tashkilot Birlashgan Millatlar Bosh Assambleyasi tarkibida faoliyat ko'rsatib, rivoj topmoqda.

ISONing tuzilishidan ko'zda tutilgan asosiy maqsad - xalqaro miqyosdagi mol almashinuvida va o'zaro yordamni engillashtirish uchun dunyo ko'lamida standartlashtirishni rivojlantirishga ko'maklashish hamda aqliy, ilmiy, texnikaviy va iqtisodiy faoliyatlar sohasida hamdo'stlikni rivojlantirishdir.

Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun:

-dunyo ko'lamida standartlarni va ular bilan bog'liq bo'lgan sohalarda uyg'unlashtirishni engillashtirish uchun choralar ko'rish;

-xalqaro standartlarni ishlab chiqish va chop etish (*agar har bir standart uchun uning faol tashkiliy va kichik qo'mitalarining ikkidan uch qismi ma'qullab ovoz bersa va umumiy ovoz beruvchilarning to'rtidan uch qismi yoqlab chiqsa, standart ma'qullanishi mumkin*);

-o'z qo'mita a'zolarining va texnikaviy qo'mitalarning ishlari haqida axborotlar almashinuvini tashkil qilish;

-sohaviy masalalar bo'yicha manfaatdor bo'lgan boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish ko'zda tutiladi.

ISO rahbar va ishchi qo'mita idoralaridan tashkil topgan. Rahbar idoralari tarkibiga Kengashning yuqori idorasi - Bosh Assambleya, Kengash, ijroiya byurosi, texnikaviy byuro, kengashning texnikaviy qo'mitalari va markaziy sekretariati kiradi.

ISOda prezident, vitse-prezident, g'azinachi va bosh sekretar lavozimlari mavjud. Bosh Assambleya - ISOning Oliy Rahbari bo'lib, ISOning yig'ilishi uch yilda bir marta bo'ladi. Uning sessiyasida prezident uch yil muddat bilan saylanadi.

Bosh Assambleya o'tkazish vaqtida sanoat sohasida etakchi mutaxassislar ishtirokida xalqaro standartlashtirishning muhim muammolari va yo'nalishlari muhokama qilinadi.

ISO kengashi yiliga bir marta o'tkazilib, unda tashkilotning faoliyati, xususan, texnikaviy idoralarning tuzilishi xalqaro standartlarning chop etilishi, kengash idoralarining a'zolarini hamda texnikaviy qo'mitalarning raislarini tayinlaydi va boshqa masalalar ko'riladi.

Xalqaro standartlashtirish tashkilotining tarkibi 91 mamlakatning vakillaridan iborat edi.

Mahsulot sifatini yaxshilash, boshqarish va ta'minlash bo'yicha oxirgi vaqtda qilingan ishlarni mujassamlab, ISO o'zining bir qator me'yoriy hujjatlarini ishlab chiqdi, bu hujjatlarga sifat tizimi sohasida ISO 9000, mehnat xavfsizdigi sohasida ISO 18000 va oziq-ovqat mahsulotlari sifati, xavfsizligi ISO 22000 hamda ekologiya sohasida ISO 14000 seriyali standartlarni ko'rsatish mumkin.

Xalqaro standartlashtirish bo'yicha milliy assotsiatsiyalar federatsiyasi. Me'yoriy xujjatlarni ishlab chiqishda sifat bo'yicha ilmiy tekshirish instituti mavjud. Standartlashtirish shu bugungi holatda tadbirkorlar va savdo tashkilotlari orasidagi bog'lovchilardir. **EES** — tashkiloti standartlashtirish va sertifikatsiyalashga ahamiyatini kuchaytirib, Evropa bozorlariga sifatsiz mahsulotlar keltirmaslik va jahon bozoriga sifatsiz mahsulotlarni chiqarmaslikni bajaradi. Jahon miqyosida barcha mamlakatlar mahsulot, jaraen va "xizmat" sohaslarini sertifikatsiyalashtiradi, ya'ni uning me'yoriy xujjatlar talablariga muvofiqligi tekshiriladi. Bu standartlar jahon standartlariga muvofiq bo'lishi kerak. Bizga ma'lumki, standartlashtirishning asosiy vazifasi Davlat xavfsizligini, mahsulot xavfsizligini, aholini salomatligini, mahsulot sifatini tekshiruvchanlik va almashinuvchanlik resursini hisobga olish, uni tejash, ilmiy yo'nalishdagi

texnologiyani va tashkiliy ishlarni to'g'ri yulga qo'yishdan iborat. YUqoridagi mahsulotlarni hal qilishda Respublikamizda standartlashtirish texnik qo'mitalari standartlashtirishning asosiy vazifalarini bajarib, ixtiyoriy yig'ilgan mutaxassislar majmuasidan iborat.

Texnik mutaxassislar tarmoqlararo yoki davlatlararo standartlash va sertifikatsiyalash ishlari bo'yicha tuziladi. Ularning vazifasi Davlat manfaati va iste'molchi ehtiyojini kondirish, ya'ni yangi me'yoriy xujjatlar (MX) yaratish yoki qayta kurib chiqish, ularning xalqaro me'yoriy xujjatlarga muvofiqligini ta'minlash, standartlash bo'yicha rejalar tuzishdan iborat. Bozor iqtisodieti davrida standartlashtirish va sertifikatsiyalashtirish mahsulot sifatini raqobatbardoshligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Mahsulot jarayon yoki xizmat raqobatbardoshligini yo'nalishga ajratish mumkin.



Xalqaro laboratoriyalarni akkreditatsiya qilish tashkiloti (ILAC).
Sinov laboratoriyalarini akkreditlash bo'yicha Xalqaro konferensiya - (ILAK) 1977 yil (Kopengagen, Daniya)da birinchi bo'lib tashkil etilgan. Konferensiyani ish olib borishidan maqsadi savdoda texnik to'siqlarni sinov laboratoriyalarini akkreditlash yo'li bilan xalqaro darajadagi tamoyillar va usullarni, sinov natijalarini o'zaro ishonchliligini o'rnatish asosiy yo'nilishdir.

ILAK o'zining faoliyati darajasida xalqaro kelishuvni ikki turini ko'zda tutadi:

- akkreditlanmagan laboratoriya sinov sertifikatlari, bayonnomalarni o'zaro tan olish bo'yicha kelishish;
- milliy tizim akkreditlagan sinov laboratoriyalarini o'zaro tan olish bo'yicha kelishish (sertifikatlarni va ulardan foydalanish imkoniyati mavjudligi).

O'tgan asrning o'rtalarida Evropa Ittifoqida (ES) ishlab chiqariladigan va sotiladigan mahsulotlar sifati bo'yicha yangi siyosat qabul qilindi.

ISO va MEK ishlab chiqqan xalqaro qoidalariga asosan laboratoriyalarini akkreditlashdan maqsad sinov laboratoriyalarini aniq sinovlar yoki aniq tur sinovlari (ISO/MEK) o'tkazishga huquq berishdan iborat.

Akkreditlangan sinovlar tushunchasi mahsulotni sertifikatlashtirish faoliyati bilan chambarchas bog'langandir.

ILAK (International Laboratory Accreditation Conference) birinchi marta 1977 yili Kopengagen (Daniya) da chakirilgan. ILAK ning yaratilishidan milliy tizimlarini o'zaro tan olish bilan amaldagi va xalqaro bitimlardagi ma'lumotlarni, mahsulotni sinash natijalarini va boshqa mahsulot sifati haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirishga harakat qilish. 1980 yilda chakirilgan ILAK ning konferensiyasida milliy tizimlarining akkreditlangan laboratoriyalarini o'zaro tan

olish bo'yicha amaldagi ikki va ko'p tomonlama bitimlar haqida ma'ruza tayyorlashga qaror qabul qilindi.

Ish jarayonida ikki xil xalqaro bitimlar borligi namoyon bo'ldi:

1. Laboratoriyalarni akkreditlamasdan sinov natijalarini va sertifikat bayonnomalarini o'zaro tan olish bitimi;

2. Sinov laboratoriyalarining akkreditlash milliy tizimlarini o'zaro tan olish bitimi (tan olishni sertifikatga yozish bilan).

SHu masalalar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan va ularning natijalariga ko'ra shunday bitimlar zarurligi qayd qilindi.

Laboratoriyalarning akkreditlash masalalari hozirgi kunda aktual bo'lib, ular bilan bog'liq bo'lgan materiallarni sistemali ravishda chop etilish zarurati tugildi. SHu masalalarda har doim ILAK o'z materiallarining chop etilishini «Metrologiya» jurnali tahririyati bilan hamkorlikda amalda oshirilishiga qaror qildi.

1983 yili ILAK tashabbusi bilan sinov laboratoriyalari uchun sifat bo'yicha qo'llanma tuzishga tavsiyaviy loyiha tayyorlandi, 1986 yili esa bunday tavsiya qabul qilindi. ISO va MEK lar tomonidan qayta ishlangan bu hujjat ISO - MEK 49 qo'llanmasi nomi bilan ma'lumdir.

ILAK tomonidan ishlab chiqarilgan xalqaro hujjatlar mahsulotni chetga chiqaradigan va chetdan mol olib keladigan mamlakatlardagi savdo – iqtisodiy siyosatiga katta ta'sir o'tkazmoqda. Bunga misol tariqasida EES mamlakatlari tomonidan 1989 yili qabul qilingan akkreditlanuvchi laboratoriyalarga talablar asosini belgilovchi akkreditlar va sertifikatlashtirish idoralari uchun zarur Evropa EN – 45000 standartini ko'rsatish mumkin.

ILAC “O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish” agentligi ILAC va IAF to'laqonli a'zolari hisoblangan davlatlarning ro'yxatlarini e'lon qildi. Ushbu axborot ayrim tovarlarni sertifikatlashtirmay olib kirishlari mumkin bo'lgan tadbirkorlar uchun mo'ljallangan. Eslatib o'tamiz, Prezidentning 12.12.2018 yildagi PQ–4059-son qaroriga muvofiq, ustav kapitalida davlat ulushi 50%dan ko'p miqdorda bo'lmagan tadbirkorlik sub'ektlari uchun (erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilari bundan mustasno) 1.01.2019 yildan boshlab olib kiriladigan mahsulotlarni sertifikatlashtirishning soddalashtirilgan rejimi joriy etilgan (sharhga qarang). CHunonchi, O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan ixtisoslashgan va qishloq xo'jaligi texnikasi, texnologik uskunalari, ularning butlovchi va ehtiyot qismlari, shuningdek majburiy sertifikatlanishi lozim bo'lgan mahsulot ishlab chiqarishda foydalaniladigan nooziq-ovqat xom ashyo, materiallar va buyumlar O'zbekiston hududiga olib kirilayotganda majburiy sertifikatlashtirishdan ozod qilingan. Olib kirilayotgan tovar uchun Xalqaro laboratoriyalarni akkreditatsiya

qilish tashkiloti (ILAC) va Xalqaro akkreditatsiya qilish forumi (IAF) to'laqonli a'zolari hisoblangan davlatlarning sertifikatlashtirish organlari tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatlari yoki sinov bayonnomalari taqdim etilgan taqdirda ushbu norma amal qiladi.

Takrorlash uchun nazorat savollari:

1. Fanning maqsadi va vazifalari.
2. Sertifikatlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilotlar ISO, ISO/IEC tashkilotning faoliyati:
3. Xalqaro standartlashtirish bo'yicha milliy assotsiatsiyalar federatsiyasi EES tashkilotning faoliyati:
4. Xalqaro laboratoriyalarni akkreditatsiya qilish tashkiloti ILAC tashkilotning faoliyati:

2§. Sertifikatlashtirish faoliyati.

2.1. Sertifikatlashtirishning rivojlanishi. Hozirgi vaqtda sertifikat degan atamani tez-tez uchratib turamiz. Bu qanday atama deb so'rasangiz turlicha talqin olishingiz mumkin: kimdir biror malaka olganlik to'g'risidagi tasdiqlovchi hujjat desa, yana kimdir, mahsulotni sifati to'g'risidagi hujjat, ba'zi birovlar esa mahsulotni hududimizga olib kirish yoki olib ketish uchun bojxonaga ko'rsatilishi lozim bo'lgan hujjat deb ta'rif beradi. O'ylaymizki, darsligimizning ushbu bo'limlarini o'qib va o'rganib chiqib shu bilan birga ma'lum ko'nikmaga ega bo'lganingizdan so'ng ushbu atamaga albatta aniq va mukammal javob topasiz. Sertifikat so'zining ma'nosini keltirishdan oldin mavzudan biroz chetga chiqamiz. Ma'lumki, SHarq, jumladan O'zbekistonimiz chet ellarda nafaqat go'zal tabiati va mehnatsevar xalqi bilan, balki o'zining ko'zni qamashtiradigan, rang-barang meva, sabzavot va turli mahsulotlarga serob bozorlari bilan ham mashhurdir. Bundan tashqari, bizning bozorlardagi yana bir o'zgachalik ham bor. Agar rastalar oralab yuradigan bo'lsangiz, sotuvchilar, dehqonlar meva-chevalardan uzatib, totib ko'rishni taklif etishlarini guvohi bo'lasiz (albatta, totib ko'rganlik uchun haq so'ralmaydi). Buni tagida bir ma'no yotadiki, u ham bo'lsa, mahsulotning sifatiga xaridorning o'zi baho bersin, ya'ni, taklif kilinayotgan mahsulot sifati va unga suralayotgan narx mutanosib ravishda belgilanayotganligiga o'zi ishonch hosil qilsin. Qadimdan bizda bir tushuncha bor. Xarid paytida savdo mukammal va to'liq bo'lishi uchun uchta tomon ishtirok etishi kerak. Birinchi tomon – oluvchi (xaridor), ikkinchi tomon – sotuvchi (tayyorlovchi) va uchinchi – xolis tomon.

Uchinchi tomon sotilayotgan buyum yoki mahsulotga qo'yilgan narx ushbu mahsulot ega bo'lgan sifat ko'rsatkichlariga mutanosib ekanligi to'g'risida kafolat bergan. Bunda uchinchi tomon albatta mahsulot to'g'risida o'zining xolisona fikrini haqqoniy bildira olishi, juda ko'p vaqtdan buyon shu faoliyat bilan shug'ullanayotganligi sababli sotilayotgan mahsulotning shu vaqtda va shu bozordagi narxi bir-biriga mos tushushini belgilay oladigan mutaxassis bo'lishi talab etiladi. Savdoning bu turi asosan katta miqdordagi yoki qimmatbaho xarid paytida qo'llanilgan bo'lib, bu holatni hozir ham qoramol, qo'y yoki ot savdolarida uchratishimiz mumkin. O'rtada turuvchi xolis tomon (ularni dallollar deb yuritilgan) savdoni bir muqim bo'lishiga yordam berib, savdo ob'ektiga xos bo'lgan sifat ko'rsatkichlariga tavsif beradi va xolisona baho beradi. Bu shaxsni hozirda ko'p qo'llanilayotgan **broker** bilan tenglashtirish maqsadga muvofiq emas, chunki broker sotilayotgan yoki olinayotgan mahsulotning sifat ko'rsatkichlari to'g'risida etarli baho bera oladigan shaxs sifatida emas, balki sotuvchi tomondan belgilangan narxda mahsulotni sotish yoki sotib olish bilan shug'ullanadi. Biz sertifikatlashtirishni tushuntirish maqsadida tanlagan misolimizda savdo tugagandan so'ng sotuvchi tomon o'z savdosidan, oluvchi tomon esa xarididan va savdo ob'ektining mavjud sifat ko'rsatkichlaridan ishonch hosil qilib, qoniqish hissiga ega bo'ladi. Bu savdoning yana bir muhim xususiyati – uchinchi xolis tomon sifatida alohida ishonchga va nufuzga ega bo'lgan, rostgo'y shaxslargina ishtirok etishi mumkin. Bizdagi mana shu savdo turi bir necha yuz yillardan beri mavjud bo'lib, chet davlatlarda sertifikatlashtirish deb ataluvchi faoliyatga aynan shu asos solgan bo'lsa ham ajab emas.

Sertifikatlashtirish guvohlik berish, qayd yoki shahodat etish, ishonch bildirish ma'nolarini bildiruvchi **certifus** (lotincha) so'zidan olingan bo'lib, kerakli ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofiqligini uchinchi, xolis va tan olingan tomon tarafidan tasdiqlaydigan faoliyatni bildiradi.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqilayotgan turli xil mahsulotlar muayyan sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lishi kerak. Sifat ko'rsatkichlari esa ma'lum, belgilangan talablarga muvofiq /mos/ kelishi lozim. Muvofiqlik o'z navbatida ma'lum standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatlarga mos kelishini talab etadi. Muvofiqlikni sertifikatlashtirish (ya'ni tasdiqlash) mumkin.

"Sertifikatlashtirish" tushunchasi birinchi marta Xalqaro standartlashtirish tashkiloti Kengashining sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha maxsus qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilib va bu muhim tushuncha "Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va sinov laboratoriyalarining akkreditlash sohalaridagi asosiy atamaları va ularning qoidalari" qo'llanmasiga kiritilgan. Qayta ishlangan Xalqaro

standartlashtirish tashkilotining qo‘llanmasida "sertifikatlashtirish" atamasining faqatgina izohlari berilgan:

Sertifikatlashtirish umumiy atama bo‘lib, mahsulot, texnologik jarayon va xizmatlarning sertifikatlashtirishda /muvofiqlikni tasdiqlashda/ uchinchi tomonning qatnashishi va unga xolisona baho berishi tushuniladi. Sifat tizimini baholash sohasidagi taraqqiyot sifat tizimini sertifikatlashtirish /tashkilotning sifatli mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini sertifikatlashtirish/ bo‘yicha yangi dolzarb yo‘nalishni keltirib chiqardiki, ushbu yo‘nalish bugungi kunda keng qo‘llanilib, bozor iqtisodiyotidagi raqobatbardoshlik, o‘zaro savdo-sotiqning samarasi va istiqbolilik darajalarini belgilab beradigan omillardan asosiysi sifatida saxnaga chiqmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng sertifikatlashtirish sohasida juda katta ishlar amalga oshirildi va hozirgi kunda ham bu sohaning rivojlanishi, xalqaro miq‘yosda tan olinishi ustida “O‘zbekiston texnik jixatdan tartibga solish” agentligi tomonidan katta e‘tibor berilmoqda. Binobarin, 1992 yil mustaqillikning ilk yillaridayoq Vazirlar Mahkamasi huzurida standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish Davlat markazi («O‘zdavstandart») va keyinchalik, 2002 yilda, ushbu sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida mustaqil «O‘zstandart» agentligi tashkilotiga aylantirilishi Hukumatimiz tomonidan bu sohaga berilayotgan ahamiyatning maxsul sifatida qarash mumkin. Davlatimiz tomonidan sertifikatlashtirish ishlarini tashkillashtirish, uni tartibga tushirish va bu sohaning qonuniy asosini yaratish maqsadida 1993 yil «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida»gi qonunning qabul qilinishi, buning natijasida ishlab chiqarilayotgan va chetdan olib kirilayotgan mahsulotlarning xavfsizligi to‘g‘risida Qarorning qabul qilinishi, uni amalga oshirish maqsadida qator chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi ham aytib o‘tilgan so‘zlarning yaqqol misolidir.

2.2. Sertifikatlashtirish va sifatni boshqarishning qonuniy va me‘yoriy asoslari. Har qanday faoliyat yoki yo‘nalish nima maqsadni ko‘zlashidan qat‘iy nazar albatta qonunlashtirilishi, tartibga tushirilishi, faoliyatni olib borish esa ma‘lum me‘yoriy hujjatlar asosida olib borilishi talab etiladi. Xuddi shuningdek, sertifikatlashtirish faoliyati ham bundan mustasno emas.

Quyida ushbu sohaning qonuniy asosi va qonunosti hujjatlari to‘g‘risida tushuncha bermoqchimiz. Sertifikatlashtirishning qonuniy va me‘yoriy asoslari va bazasi rasmda keltirilgan.

		QONUNLAR	
		QONUNYI XUJJATLAR	
Prezident farmonlari va xukumat qarorlari		“O‘zbekiston texnik jixatdan tartibga solish” agentligi qarorlari	Vazirlik va maxkamaviy me‘yoriy xujjatlar
Sertifikatlashtirish tartibi va qoidalari bo‘yicha tashkiliy-uslubiy hujjatlar		Sertifikatlashtirishni o‘tkazish jarayoni talablariga me‘yoriy hujjatlar	Sertifikatlashti-rishda muvofiqlikni baholash usuli (tartibi) me‘yoriy hujjatlari
Sertifikatlashtirish bo‘yicha qoidalar va tartiblar		Xalqaro, davlatlararo, Davlat standartlari va boshqa me‘yoriy	Davlat standartlari va uslubiy qo‘llanmalar va boshqalar

Sertifikatlashtirishning qonuniy va me‘yoriy bazasi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan sertifikatlashtirish masalalari bo‘yicha qabul qilingan qonunlar:

-O‘zbekiston Respublikasining «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida»gi qonuni;

-O‘zbekiston Respublikasining «Standartlashtirish to‘g‘risida»gi qonuni;

-O‘zbekiston Respublikasining «Oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligi to‘g‘risida»gi qonuni;

-O‘zbekiston Respublikasining «Iste‘molchilar xukukini ximoya qilish to‘g‘risida»gi qonuni;

-O‘zbekiston Respublikasining «O‘simliklarni karantini to‘g‘risida»gi qonun;

-O‘zbekiston Respublikasining «Reklama to‘g‘risida»gi qonuni va xokazolar.

O‘zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimining asos bo‘luvchi me‘yoriy hujjatlari:

-O‘z DSt 1.10 O‘zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi.

-Asosiy atamalar va ta‘riflar;

-O‘z DSt 5.0: O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi.

Asosiy qoidalar;

-O‘z DSt 5.2 O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi.

Sertifikatlashtirish idorasiga umumiy talablar;

-O‘z DSt 5.4 O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi.

Tekshirish va nazorat idoralariga qo‘yiladigan talablar;

-O‘zDSt 5.5 O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi.

Asosiy atamalar va ta'riflar;

-O'zDSt 5.6 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi.
Sifat tizimini sertifikatlashtirish idoralariga talablar;

-O'zDSt 5.8 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi.
Muvofiqlik belgisini tasdiqlash. Qo'llash qoidalari.

-O'zRH51-014 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi.
Sifat bo'yicha Ekspert-auditorlar. Tayyorlash va baholash talablari;

-O'zRH51-021 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi.

-O'zRH51-024 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi.

Sertifikatlashtirish bo'yicha hujjatlarni ekspert baholash;

-O'zRH51-025 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi.

Sifat tizimlari va ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish. Asosiy qoidalari;

-O'zRH51-026 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi.

Apellyasiyalarni ko'rib chiqish tartibi;

-O'zRH51-027 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi.

Sifat tizimlarini sertifikatlashtirish. O'tkazish tartibi;

-O'zRH51-032 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi.

Ishlar haqini to'lash tartibi;

O'zRH51-035 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi.

Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish. O'tkazish tartibi;

-O'zRH51-103 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi.

Sertifikatlashtirilgan sifat tizimlari va ishlab chiqarishlari inspeksion tekshiruv;

-O'zRH51-044 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi.

Majburiy sertifikatlashtirish qoidalari rioya qilish yuzasidan Davlat nazorati va tekshiruvi. Umumiy talablar;

-O'zRH51-061 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi.

Xizmatlarni sertifikatlashtirish. O'tkazish tartibi;

-O'zRH51-074 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi.

Mahsulotni identifikatsiyalash yuzasidan yo'riqnoma;

-O'zRH51-085 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi.

Oziq-ovqat mahsulotlari va jihozlari va ularni ishlab chiqarish yuzasidan yo'riqnoma, Davlat qaydi tartiblari;

O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi me'yoriy hujjatlari:

-O'z DSt 16.0 O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi.

Umumiy qoidalar.

-O'zDSt16.1 O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi.

Sertifikatlashtirish idoralari va tekshirish idoralarini akkreditlashini o'tkazish tartibi.

-O‘zDSt 16.2 (EN 45013) O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Sertifikatlashtirish idorasi xodimlariga talablar.

O‘z DSt 16.3 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Standart namunalarni tayyorlash, attestatlash va ishlatish huquqi bo‘lgan yuridik shaxslarni akkreditlash. Tashkillashtirish va o‘tkazish tartibi.

O‘z DSt 16.4 (ISO/MEK 17025) O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Sinash, o‘lchash laboratoriyalariga quyiladigan umumiy talablar va ularni akkreditlash tartibi.

O‘z DSt 16.5 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Hujjatlarni metrologik ekspertizasi va o‘lchashlarni bajarish usullarini attestatsiyalash huquqi bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarni akkreditlash. Tashkillashtirish va o‘tkazish tartibi.

O‘z DSt 16.6 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. O‘lchashlarni bajarish usulini nazoratini tashkillashtirish huquqi bo‘lgan yuridik shaxslarni akkreditlash. Tashkillashtirish va o‘tkazish tartibi.

-O‘zDSt16.7 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Inspeksion faoliyati mavjud firmalarga talablar.

O‘z DSt 16.8 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Ishlab chiqarish laboratoriyalarini attestatlash. Umumiy talablar va o‘tkazish tartibi.

O‘zRH51-018 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Akkreditlangan laboratoriyalarining faoliyatini inspeksion tekshiruvini utkazish tartibi.

O‘zRH51-104 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Sertifikatlashtirilgan maxsulotlarni inspeksion tekshiruvini utkazish tartibi.

O‘zRH51-105 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Akkreditlangan sertifikatlashtirish idoralari faoliyatining inspeksion tekshiruvini utkazish tartibi

O‘zRH51-112 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Putur etkazmasdan nozorat laboratoriyalarini akkreditlash

O‘zRH51-121 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Putur etkazmasdan nazorat. O‘quv va imtihon markazlarini akkreditlash.

O‘zRH51-131 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Putur etkazmasdan nazorat. Sertifikatlashtirish idorasi xodimlarini akkreditlash.

O‘zRH51-054 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Sinov laboratoriyalari sifat bo‘yicha qo‘llanmasi. Ishlab chiqish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma; O‘zRH51-056 O‘zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Sertifikatlashtirish idoralari sifat bo‘yicha qo‘llanmasi. Ishlab chiqish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma;

SHu bilan birga aytib o'tish kerakki, 2007 yilning sentyabr oyidan O'zbekistonda sinov va kalibrlash laboratoriyalarini akkreditlashda yangi xalqaro standart «O'z DSt ISO\IEC 17025 «Sinov va kalibrlash laboratoriyalari kompetentligiga qo'yiladigan umumiy talablar»» joriy qilinib, Milliy akkreditlash tizimida akkreditatsiyaga talabgor laboratoriyalar ushbu standart talablari asosida tekshiriladi.

Sifatni boshqarish me'yoriy hujjatlari:

O'z RH 51-057 Sifat tizimi hujjatlari tarkibi va turlari. O'z T 51-087 Sifat tizimi hujjatlashtirilgan protseduralari va tarkibini aniqlash bo'yicha tavsiyalar;

O'zRH51-090 Sifat dasturini ishlab chiqish bo'yicha uslubiy ko'rsatma;

O'z T 51-094 Xizmatlarga sifat tizimini joriy qilish tartibi;

O'z DSt ISO 9001 Sifat menedjmenti tizimi. Talablar.;

O'z DSt ISO 9000 Sifat menedjmenti tizimi. Asosiy qoida va lug'atlar (ISO 9000);

O'z DSt ISO 9004 Sifat menedjmenti tizimi. Sifatni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar (ISO 9004, IDT);

O'z DSt ISO 10006 Sifat menedjmenti tizimi. Sifat menedjmenti loyihasi bo'yicha rahbariy ko'rsatma (ISO 10006, IDT);

O'z DSt ISO 10007 Sifatni ma'muriy boshqarish. Ma'muriy boshqarish konfiguratsiyasi bo'yicha rahbariy ko'rsatma;

O'z DSt ISO 10013 Sifat bo'yicha qo'llanmani ishlab chiqish bo'yicha uslubiy ko'rsatma;

O'z DSt ISO/TR 10014 Sifatni iqtisodiy boshqarish bo'yicha rahbariy ko'rsatma;

O'z DSt ISO 10015 Sifatni boshqarish. O'kitish bo'yicha rahbariy ko'rsatma;

O'z DSt ISO/TR 10017 Sifat menedjmenti tizimini hujjatlashtirish bo'yicha tavsiya. O'z DSt ISO 9001 doirasida statistik usullarni qo'llash bo'yicha rahbariy ko'rsatma;

– O'z DSt ISO 19011 Sifat menejmenti tizimi va/yoki ekologik menejmenti tizimi auditori bo'yicha rahbariy ko'rsatma.

Takrorlash uchun nazorat savollar:

1. Sertifikatlashtirishning rivojlanish tarixi
2. Sertifikatlashtirish nima
3. Sertifikatlashtirish va sifatni boshqarishning me'yoriy asoslari
4. Sertifikatlashtirish va sifatni boshqarishning qonuniy asoslari

3§.Sertifikatlashtirishning me'yoriy va qonuniy asoslari.

3.1.O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish soxasidagi qonun va xuquqiy xujjatlari. Mazkur Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar ishlatilmoqda:

«sertifikatlashtirish milliy tizimi» - davlat miqyosida amal qiladigan, sertifikatlashtirish o'tkazishda o'z tartib va boshqaruv qoidalariga ega bo'lgan tizim;

«mahsulotlarni sertifikatlashtirish» (matnda bundan keyin «sertifikatlashtirish» deb yuritiladi) - mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlashga oid faoliyat;

«muvofiqlik sertifikati» - sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga binoan berilgan hujjat;

«muvofiqlik belgisi» - muayyan mahsulot yoxud xizmat aniq standartga yoki boshqa normativ hujjatga mos ekanligini ko'rsatish uchun mahsulotga yoxud ko'rsatilgan xizmatga doir hujjatga qo'yiladigan, belgilangan tartibda ro'yxatga olingan belgi;

«mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) sertifikatlashtirish tizimi» ayni bir xil standartlar va qoidalar qo'llaniladigan muayyan mahsulotlar, ishlar yoki xizmatlarga taalluqli sertifikatlashtirish tizimi;

«sifat bo'yicha ekspert-auditor» — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkazilgan, muvofiqlikni baholash sohasidagi ishlarni olib borish uchun tegishli malakaga ega bo'lgan mutaxassis;

«sertifikatlashtirish bo'yicha inspeksiya organi» — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan, sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ustidan sertifikatlashtirish organlarining topshirig'iga ko'ra inspeksiya nazoratini amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

«sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ustidan inspeksiya nazorati» — sertifikatlashtirilgan mahsulotlarning sertifikatlashtirilayotganda belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladigan sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy takroriy baholash tartib-taomili.

Sertifikatlashtirishning maqsad va vazifalari

Sertifikatlashtirish:

odamlarning hayoti, sog'lig'i, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki hamda atrof muhit uchun xavfli bo'lgan mahsulotlar realizatsiya qilinishini nazorat etib borish;

mahsulotlarning jahon bozorida raqobat qila olishini ta'minlash;

mamlakat korxonalari, qo'shma korxonalar va tadbirkorlar xalqaro miqyosdagi iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikda va xalqaro savdo-sotiqda ishtirok etishlari uchun sharoit yaratish;

iste'molchini tayyorlovchining (sotuvchining, ijrochining) vijdotsizligidan himoya qilish;

mahsulot tayyorlovchisi (sotuvchisi, ijrochisi) ta'kidlagan sifat ko'rsatkichlarini tasdiqlash maqsadlarida amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirish majburiy va ixtiyoriy tusda bo'ladi.

Sertifikatlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlari

Sertifikatlashtirish sohasidagi munosabatlar mazkur Qonun va unga muvofiq chiqariladigan O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari bilan, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa — Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Xalqaro shartnomalar va bitimlar

Basharti, xalqaro shartnoma yoki bitimda sertifikatlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, u holda xalqaro shartnoma yoki bitimning qoidalari qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish organlari

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi (bundan buyon matnda «O'zstandart» agentligi deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining milliy sertifikatlashtirish organidir.

«O'zstandart» agentligi mazkur Qonunga muvofiq:

sertifikatlashtirish sohasida davlat siyosatini amalga oshiradi, sertifikatlashtirish o'tkazish yuzasidan umumiy qoidalarni belgilaydi, ular to'g'risida rasmiy axborotlar e'lon qilib boradi;

sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish dasturlarining loyihalarini ishlab chiqadi hamda ularni Hukumat muhokamasiga taqdim etadi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda sertifikatlashtirishning xalqaro tizimlariga qo'shilish to'g'risida qarorlar qabul qiladi, shuningdek sertifikatlashtirish natijalarini o'zaro e'tirof etish to'g'risida bitimlar tuzadi, sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabatlarda va xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi;

majburiy ravishda sertifikatlanadigan mahsulotlarning ro'yxatini belgilaydi va uni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdig'iga kiritadi;

sertifikatlashtirilgan mahsulotlarning, attestatsiyadan o'tkazilgan sifat bo'yicha ekspert-auditorlarning davlat reestrlarini yuritadi;

majburiy sertifikatlashtirish talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

sertifikatlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlari normalari buzilganligi uchun muvofiqlik sertifikatlarining va muvofiqlik belgilarining amal qilishini to'xtatib turadi hamda ularni bekor qiladi.

“O‘zbekiston texnik jixatdan tartibga solish” agentligining sertifikatlashtirish sohasidagi faoliyatini moliyaviy ta'minlash manbai — O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag‘i, shuningdek “O‘zbekiston texnik jixatdan tartibga solish” agentligi ko‘rsatayotgan xizmat uchun olinadigan haqdan iborat.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirishga akkreditatsiya qilingan organlar:

mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimlarini tuzadilar va ularning amal qilishini ta'minlaydilar;

sertifikatlashtirishni tashkil etadilar va o'tkazadilar;

milliy muvofiqlik sertifikatlarini rasmiylashtiradilar, beradilar yoki chet el muvofiqlik sertifikatlarini e'tirof etadilar;

sertifikatlangan mahsulotlar ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Tegishli sertifikatlashtirish tizimi belgilagan tartibda akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalari (markazlari) muayyan mahsulotlarning sinovini yoki muayyan sinov turini amalga oshiradilar hamda sertifikatlashtirish maqsadlari uchun bayonnomalar beradilar.

“O‘zbekiston texnik jixatdan tartibga solish” agentligi o‘z vazifalarining bir qismini mahsulotlarni sertifikatlashtirish organlariga va sinov laboratoriyalariga (markazlariga) o‘tkazishga haqlidir.

Sertifikatlashtirish ob'ektlari va sub'ektlari

Mahsulotlar, shu jumladan dasturiy va boshqa ilmiy-texnikaviy mahsulotlar sertifikatlashtirish ob'ektidir.

“O‘zbekiston texnik jixatdan tartibga solish” agentligi, akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organlari, sinov laboratoriyalari (markazlari), sertifikatlashtirish bo'yicha inspeksiya organlari, sifat bo'yicha ekspert-auditorlar, muvofiqlikni baholash faoliyatida ishtirok etadigan xodimlar, shuningdek mahsulotlari sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar sertifikatlashtirish sub'ektlaridir.

Sertifikatlashtirish sub'ektlari - yuridik shaxslar sertifikatlashtirish milliy tizimi doirasida sertifikatlashtirish tizimlari tuzishlari mumkin. Yuridik shaxslarning sertifikatlashtirish tizimlari «O‘zstandart» agentligi belgilagan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart.

Muvofiqlik sertifikati va muvofiqlik belgisi

Mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligi tasdiqlangani taqdirda sertifikatlashtirish organi muvofiqlik sertifikati beradi, tayyorlovchi ana shu sertifikat asosida muvofiqlik belgisini ishlatish huquqiga ega bo'ladi.

Sertifikatlashtirish tizimida foydalaniladigan muvofiqlik sertifikatlarining, namunalari, milliy muvofiqlik belgisining shakllari va hajmlari «O'zstandart» agentligi tomonidan tasdiqlanadi.

Muvofiqlik sertifikatlari, muvofiqlik belgilari, sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalarining (markazlarining) akkreditatsiya qilinganlik to'g'risidagi guvohnomalari "O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish" agentligi tomonidan belgilangan tartibda Davlat reestridan o'tkazilishi shart.

Davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazilmagan muvofiqlik sertifikatlari, muvofiqlik belgilari, sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalarining (markazlarining) akkreditatsiya qilinganlik to'g'risidagi guvohnomalari haqiqiy emas.

Muvofiqlik sertifikatidan, muvofiqlik belgisidan foydalanish huquqini arizachi boshqa yuridik yoki jismoniy shaxsga berishi man etiladi.

Sertifikatlashtirish faoliyatini amalga oshirish

Mahsulotlarni sertifikatlashtirishga akkreditatsiya qilingan organlar va sinov laboratoriyalari (markazlari) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berilgan akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma asosida sertifikatlashtirish faoliyatini hamda sertifikatlashtirish maqsadida sinovlar o'tkazish faoliyatini amalga oshiradilar.

Mahsulotlar sertifikatlashtirilayotganda arizachiga sertifikatni yoki muvofiqlik belgisini qo'llash huquqi muvofiqlik sertifikatini bergan akkreditatsiya qilingan tegishli sertifikatlashtirish organi bilan tuzilgan bitim asosida beriladi.

Odamlarning hayoti, sog'lig'i, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar etkazishi mumkin bo'lgan mahsulotlarni tayyorlash, ulardan foydalanish, ularni tashish yoki saqlash xavfsizligini ta'minlovchi talablar bo'lmagan taqdirda, «O'zstandart» agentligi davlat boshqaruvining tegishli organlari bilan birgalikda bunday talabnomalarning kechiktirmay ishlab chiqilishi va amalga kiritilishini ta'minlaydi.

Majburiy sertifikatlashtirishni o'tkazish shartlari

Majburiy sertifikatlashtirish ishlab chiqarishni tekshirishni, mahsulot xususiyati normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash uchun uni sinashni, sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ustidan inspeksiya nazoratini o'z ichiga oladi.

Sinovlar akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalari (markazlari) tomonidan tegishli normativ hujjatlarda belgilangan usullarda, bunday hujjatlar bo'lmagan

taqdirda esa tegishli sertifikatlashtirish organlari ishlab chiqqan usullarda amalga oshiriladi.

Majburiy sertifikatlashtirish ishlari uchun arizachi qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda haq to'laydi.

Arizachi o'z mahsulotini majburiy sertifikatlashtirishdan o'tkazishga sarflagan mablag'lar summasi shu mahsulot tannarxiga qo'shiladi.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan, ammo muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lmagan mahsulotni targ'ib qilish man etiladi.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarga qo'yiladigan talablar

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlar quyidagi hollarda:

sertifikatlashtirishga taqdim etilmagan bo'lsa;

sertifikatlashtirish talablariga muvofiq emasligi sababli sertifikatlashtirishdan o'tmagan bo'lsa;

agar sertifikatning amal qilish muddati tugagan yoki uning amal qilishi to'xtatib qo'yilgan (bekor qilingan) bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilinishi mumkin emas.

Qonunga xilof tarzda muvofiqlik belgisi bosilgan mahsulotlarni realizatsiya qilish man etiladi.

CHetdan olib kelinadigan va chetga olib chiqib ketiladigan mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasiga etkazib berish uchun tuziladigan kontraktlar (shartnomalar) shartida mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi, «O'zstandart» agentligi tomonidan berilgan yoki e'tirof etilgan muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilari bo'lishi nazarda tutilishi kerak.

Milliy muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilari yoki boshqa davlatlarning «O'zstandart» agentligi tomonidan e'tirof etilgan muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilari bojxona yuk deklaratsiyasi bilan birgalikda arizachi (mahsulot etkazib beruvchi) tomonidan bojxona organlariga taqdim etiladi hamda ushbu hujjatlar mahsulotni tegishli bojxona rejimiga joylashtirish uchun asos bo'ladi.

Olib kirilayotgan mahsulotning xavfsizligini tasdiqlovchi hujjat bo'lmagan taqdirda, bojxona organlari uni sertifikatlashtirishdan o'tkazish to'g'risidagi masala hal etilguniga yoki chet el sertifikati milliy sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga muvofiq e'tirof etilmaguniga qadar bunday mahsulotni tegishli bojxona rejimiga joylashtirishga yo'l qo'ymaydi, bundan vaqtincha saqlash va bojxona ombori bojxona rejimlari mustasno.

Nazorat yo‘sinidagi tekshiruv

Sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ustidan inspeksiya nazorati muvofiqlik sertifikatini bergan sertifikatlashtirish organlari yoki sertifikatlashtirish bo‘yicha inspeksiya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish

Har qanday mahsulot normativ hujjatlarning talablariga muvofiq ekanligini tasdiqlash uchun u yuridik va jismoniy shaxsning tashabbusi bilan ixtiyoriy sertifikatlashtirishdan o‘tkazilishi mumkin.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirishni amalga oshiruvchi sub‘ektlar

Ixtiyoriy sertifikatlashtirishni «O‘zstandart» agentligi belgilab qo‘ygan tartibda akkreditatsiya qilingan yuridik va jismoniy shaxslar amalga oshirishga haqlidir.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish tizimlari

Sertifikatlashtirish qoidalari va tartibini belgilovchi ixtiyoriy sertifikatlashtirish tizimlarini akkreditatsiya qilingan organlar «O‘zstandart» agentligi bilan kelishgan holda belgilaydilar.

Sertifikatlashtirish organlarining va sinov laboratoriyalarining (markazlarining) javobgarligi

Sertifikatlashtirish organi:

muvofiqlik sertifikatini asossiz va qonunga xilof tarzda berganlik uchun;
arizachiga nisbatan qonunga xilof xatti-harakatlar qilganlik uchun;
arizachining tijorat siri hisoblangan ma‘lumotlarni oshkor etganlik uchun javobgar bo‘ladi.

Akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyasi (markazi) sertifikatlashtirish organiga sinovlarning natijalari haqida noto‘g‘ri ma‘lumot berganlik uchun javobgar bo‘ladi.

Sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalari (markazlari) mazkur moddada aytib o‘tilgan xatti-harakatlar natijasida arizachiga etkazilgan zararining o‘rnini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to‘la hajmda qoplashlari shart.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo‘lgan sertifikatlashtirilmagan mahsulotni realizatsiya qilganlik uchun tayyorlovchining (tadbirkorning) mansabdor shaxslari, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkor - tayyorlovchilar ma‘muriy javobgarlikka tortiladi.

Ma‘muriy jazo chorasi qo‘llanilganligi tayyorlovchilarni (tadbirkorlarni) majburiy sertifikatlashtirishni o‘tkazishdan ozod qilmaydi.

3.2.Sertifikatlashtirish tizimi, milliy sertifikatlashtirish tizimi. Milliy sertifikatlashtirish tizimi vazifalari, qatnashuvchi idoralar, sertifikatlashtirish tartibi

Mazkur Nizom ishlab chiqariladigan va chetdan keltiriladigan mahsulotlarni sertifikatlashtirish (keyingi o‘rinlarda matnda sertifikatlashtirish deb ataladi) tartibini belgilaydi.

Mahsulotlarning har bir turi bo‘yicha sertifikatlashtirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkaziladigan sertifikatlashtirishning tegishli qoidalari bilan belgilanadi.

Sertifikatlashtirish davomida ilgari tekshirilgan xavfsizlik bo‘yicha tavsifga ta’sir etmaydigan mahsulotning dizayni yoki tashqi tavsiflari o‘zgarishi zamonaviylashtirilgan mahsulotga qo‘shimcha sertifikatlashtirish o‘tkazilishiga olib kelmaydi. Mahsulot xavfsizligi bo‘yicha majburiy tavsiflar standartlashtirish bo‘yicha tegishli normativ hujjatlarda belgilanadi.

Mazkur Nizomning amal qilishi majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirishga tatbiq etiladi.

Majburiy tartibda sertifikatlashtiriladigan, shuningdek ularning muvofiqligi muvofiqlik deklaratsiyasi bilan tasdiqlanishi mumkin bo‘lgan mahsulotlar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Sertifikatlashtirishni amalga oshirish ilovaga muvofiq sxema bo‘yicha, qoidaga ko‘ra, ikki bosqichda o‘tkaziladi.

Birinchi bosqich bir vaqtning o‘zida, zaruriyatga ko‘ra, veterinariya va fitosanitariya xulosalari tegishli ravishda davlat veterinariya nazorati va o‘simliklar karantini bo‘yicha davlat xizmati organlarida rasmiylashtirilgan holda «O‘zstandart» agentligi tomonidan akkreditatsiya qilingan davlat sanitariya nazorati organlarida sanitariya-epidemiologik xulosa rasmiylashtirilishini o‘z ichiga oladi. Bunda tadbirkorlik faoliyati sub’ekti:

sanitariya-epidemiologik xulosani rasmiylashtirish uchun ariza bilan birgalikda belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organlariga (keyingi o‘rinlarda sertifikatlashtirish organlari deb ataladi) muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish yuzasidan ariza berishga;

zarurat bo‘lganda tegishli xulosalar olish uchun veterinariya va fitosanitariya nazorati organlariga mustaqil ravishda murojaat qilishga haqlidir.

Ikkinchi bosqich - sertifikatlashtirish organlari tomonidan muvofiqlik sertifikati berishdir.

Sertifikatlashtirish organlari tadbirkorlik sub’ektlarining yozma arizasiga muvofiq davlat sanitariya nazorati organlarida, davlat veterinariya nazorati va o‘simliklar karantini bo‘yicha davlat xizmati organlarida, shuningdek ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat organlarida sertifikatlashtirishni o‘tkazish va barcha zarur xulosalarni olish yuzasidan agentlik xizmatlari ko‘rsatishga haqlidir.

Bunda namunalar tanlab olinishi, shuningdek ular to'g'ri tanlanganligi va ular tegishli davlat organlariga taqdim etilishi uchun sertifikatlash organlari javob beradilar.

Ko'rsatib o'tilgan xizmatlarga haq to'lash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida deklaratsiyalangan tariflar bo'yicha amalga oshiriladi.

Mahsulotning (transport vositalaridan tashqari) muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va berish muddati barcha zarur hujjatlar (sinov protokollari, tadqiqot dalolatnomalari, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, fitosanitariya xulosalari, ekologik ekspertiza xulosasi) berilgan vaqtdan boshlab uch ish kunidan oshmasligi lozim.

Sanitariya-epidemiologik, veterinariya, fitosanitariya va ekologiya sertifikatlari (xulosalar) sertifikatlashtirilayotgan mahsulotlarga normativ hujjatlarda tegishli ravishda sanitariya-epidemiologik, veterinariya, fitosanitariya yoki ekologik normalar va talablar mavjud bo'lgan taqdirda rasmiylashtiriladi.

Sanitariya-epidemiologiya xulosasini olish uchun ariza beruvchi davlat sanitariya nazoratining hududiy organiga qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlangan shakldagi ariza bilan murojaat qiladi.

Oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilar arizaga texnologik yo'riqnoma va retseptura ilova qiladi.

O'zbekiston Respublikasi ilgari ishlab chiqarilmagan va ilk bor olib kelingan oziq-ovqat qo'shimchalari, maxsus joriy etiladigan biologik aktiv moddalar yoki oziq-ovqat xomashyosi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyalarini qo'llash bilan bog'liq ishlab chiqarishni tashkil etishda yoxud mahsulotlarni chetdan keltirishda ariza beruvchi tegishli ruxsatnomani olish uchun O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga murojaat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi ruxsatnomani uch ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda beradi. Laboratoriya tadqiqotlarini o'tkazish xarajatlarini qoplash uchun O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadigan tariflar bo'yicha to'lov undiriladi.

Taqdim etilgan hujjatlar o'rganib chiqilgandan keyin davlat sanitariya nazoratining hududiy organi tomonidan belgilangan tartibda joyning o'ziga borib laboratoriya sinovlari o'tkazish va ishlab chiqarish ob'ektini saqlash shart-sharoitlarini tekshirish uchun mahsulotlarning namunalari tanlab olinadi. Mahsulotlarni gigienik ko'rsatkichlarni aniqlash uchun sinash O'zbekiston Respublikasi Milliy akkreditatsiya tizimida akkreditatsiya qilingan davlat sanitariya nazoratining hududiy organlari laboratoriyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Agar mahsulot kelib chiqishiga ko'ra hayvonot yoki o'simlik dunyosiga tegishli bo'lgan taqdirda, davlat sanitariya nazoratining hududiy organi ariza beruvchidan hujjatlar olingan sanadan keyingi kundan kechikmay veterinariya yoki fitosanitariya xulosasi berish bo'yicha vakolatli organlarga murojaat qiladi.

Veterinariya yoki fitosanitariya xulosasi davlat veterinariya nazoratining tuman (shahar) organlari yoki o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati organlari tomonidan beriladi.

Davlat veterinariya nazorati organi 20 kungacha bo'lgan muddat bilan belgilangan tartibda ajratib qo'yish-cheklash tadbirlari (karantin) belgilashi mumkin. Bunda veterinariya xulosasi berish tartiboti karantin muddati tamom bo'lgunga qadar to'xtatib turiladi.

Veterinariya yoki fitosanitariya xulosasi tayyorlash va berish muddati uch ish kunidan oshmasligi kerak.

Veterinariya yoki fitosanitariya xulosasi berilganligi uchun O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan belgilanadigan va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida deklaratsiyalangan tariflar bo'yicha, biroq bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan ortiq bo'lmagan summada to'lov undiriladi.

Veterinariya va fitosanitariya xulosalari olinishi hisobga olingan holda sanitariya-epidemiologik xulosani rasmiylashtirish va berish muddati tegishli sinov metodlari uchun normativ hujjatlarda nazarda tutilgan muddatlarga qarab belgilanadi.

Laboratoriya tadqiqotlarini o'tkazish, sanitariya-epidemiologik xulosasini rasmiylashtirish va berish xarajatlarini qoplash uchun davlat sanitariya epidemiologiya nazorati organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadigan tariflar bo'yicha to'lov undiriladi.

Veterinariya va fitosanitariya xulosalari berish bo'yicha vakolatli organlarning xizmatlariga ariza beruvchi tomonidan haq to'lash davlat sanitariya nazoratining hududiy organlari orqali yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Ishlab chiqariladigan mahsulotga sanitariya-epidemiologik xulosaning amal qilish muddati — 3 yil.

CHetdan olib kelinayotgan mahsulotga sanitariya-epidemiologik xulosa mahsulotning yaroqlilik davriga, yaroqlilik muddatiga ega bo'lmagan mahsulotga esa — muddati ko'rsatilmadan beriladi.

Aynan bir xil tovarlarga bir tashqi savdo shartnomasi (kontrakti) doirasida sanitariya-epidemiologiya xulosasi bir kalendar yilidan oshmagan muddatga bir marotaba beriladi.

Import qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining yorliqlarida qayd etilgan mahsulotning yaroqlilik muddatlari O'zbekiston Respublikasida amal qiluvchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda qayd etilgan yaroqlilik muddatlaridan farq qilgan taqdirda, akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriya majmualari tomonidan ularning qayd etilgan yaroqlilik muddatiga muvofiqligi va xavfsizlik ko'rsatkichlariga tahlillar o'tkazilib, ijobiy baholanganidan so'ng respublika hududiga import qilinishiga ruxsat etiladi.

Bolalar oziq-ovqat mahsulotlari, bolalar o'yinchoklari, energetik ichimliklar akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyalar tomonidan toksikologik tahlillar o'tkazilib, xavfsizlik ko'rsatkichlari bo'yicha ijobiy baholanganidan so'ng respublika hududiga import qilinishiga ruxsat etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik agentligi O'zbekiston Respublikasida amal qiluvchi texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiqlik (nomuvofiqlik) to'g'risida berilgan sanitariya-epidemiologik xulosalarning elektron reestrini yuritadi hamda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining rasmiy veb-sahifasiga joylashtirib boradi.

Sanitariya-epidemiologik xulosa ariza beruvchiga davlat sanitariya nazoratining hududiy organi rahbarining imzosi bilan beriladi, u ushbu organning muhri bilan tasdiqlanadi, unga sinovlar protokoli nusxalari ilova qilinadi.

Agar sanitariya-epidemiologik ekspertiza bilan bir vaqtda mahsulotning fitosanitariya yoki veterinariya normalari va qoidalariga muvofiqligi sinovdan o'tkazilgan taqdirda, ariza beruvchiga tegishli xulosalar ham beriladi.

Quyidagilar sanitariya-epidemiologiya xulosasini berishni rad etish uchun asos hisoblanadi:

sanitariya-epidemiologik xulosa rasmiylashtirib berish vaqtida oziq-ovqat mahsulotining yaroqlilik muddati 60 foizdan kam bo'lganida (ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan umumiy yaroqlilik muddatiga nisbatan foizda);

xalqaro akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyalar tomonidan o'tkazilgan oziq-ovqat mahsulotlari uchun tahlil bayonlari bo'lmasa;

yuqumli kasalliklarni keltirib chiqaruvchi mikroorganizmlar bilan zararlanganligi aniqlanganda;

radioaktiv ko'rsatkichlarning me'yorlardan yuqoriligi aniqlanganda;

oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibida genetik modifikatsiyalangan organizmlar (GMO) belgilangan me'yorlar darajasidan yuqori bo'lganda (amaldagi

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq tarkibida GMO mavjudligiga tekshiriladigan oziq-ovqat mahsulotlari uchun tatbiq etiladi);

parazitlar yoki ularning tuxumlari aniqlanganda;

laboratoriya sinovlarining salbiy natijalari;

hujjatlar to'liq taqdim etilmagan taqdirda.

Sanitariya-epidemiologiya xulosasini berishni rad etish bo'yicha qaror qabul qilingan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik agentligi, uning hududiy yoki tuman (shahar) markazlari tomonidan uning aniq sabablari va qonun hujjatlarida belgilangan normalarini ko'rsatgan holda ariza beruvchiga yozma shaklda ma'lum qilinadi.

Muvofiqlik sertifikatlarini rasmiylashtirishda takroriy sinovlar o'tkazilishi taqiqlanadi va ularni berishda, idoraviy bo'ysinishidan qat'iy nazar, belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyalar tomonidan amalga oshirilgan sinovlarning ijobiy natijalari asos bo'ladi.

Ariza beruvchi sanitariya-epidemiologik xulosa yoxud fitosanitariya va veterinariya xulosalari berishning rad etilishi yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

O'tkazilgan laboratoriya tahlillari natijasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan yoki import qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol qilishga hamda foydalanishga yaroqsiz deb topilgan taqdirda, mas'ul sanitariya vrachi tomonidan bir kun muddatda ikki nusxada dalolatnoma tuziladi. Bunda oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqaruvchi yoki uni olib keluvchi to'g'risidagi ma'lumotlar, oziq-ovqat mahsulotining qaerdan keltirilganligi, nomi va turi, og'irligi, miqdori, to'plami, ishlab chiqarilgan sanasi, yaroqlilik muddati, oziq-ovqat mahsulotining qadoq turi, ushbu mahsulotning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga nomuvofiqligi ko'rsatiladi.

Tuzilgan dalolatnoma va hujjatlar to'plami Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik agentligi, uning hududiy yoki tuman (shahar) markazi rahbariga taqdim etiladi. Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik agentligi, uning hududiy yoki tuman (shahar) markazi rahbari tomonidan dalolatnoma asosida bir kun muddatda iste'molga yaroqsiz deb topilgan oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish, undan foydalanish yoki respublikaga import qilishni taqiqlash to'g'risida qaror imzolanadi.

Iste'molga yaroqsiz deb topilgan oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish, undan foydalanish yoki respublikaga import qilishni taqiqlash to'g'risidagi qaror ikki nusxada tayyorlanadi, birinchi nusxasi bir ish kuni ichida arizachiga beriladi,

ikkinchi nusxasi - Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik agentligi, uning hududiy yoki tuman (shahar) markazida saqlanadi.

Iste'molga yaroqsiz deb topilgan oziq-ovqat mahsuloti turiga qarab, tegishli tashkilotlar bilan kelishgan holda qayta ishlash yoki yo'q qilish usuli va shartlari belgilanadi. Iste'molga yaroqsiz deb topilgan oziq-ovqat mahsulotidan qayta ishlashda foydalanish yoki uni yo'q qilish usullari va shartlari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik agentligi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi tomonidan amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol qilishga yoki foydalanishga yaroqsiz deb topilgan taqdirda, yuk egasi oziq-ovqat mahsulotini qonunchilikda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqib ketish huquqiga ega.

Iste'molga yaroqsiz deb topilgan oziq-ovqat mahsuloti qayta ishlashda foydalanish yoki yo'q qilishga qadar alohida joyda (rezervuarda), hisobda to'plami, ishlatish (qayta ishlash) yoki yo'q qilish usullari va shartlari aniq ko'rsatilgan holda saqlanishi shart.

Iste'molga yoki foydalanish uchun yaroqsiz deb topilgan mahsulotning to'liq saqlanishi uchun mas'uliyat qonunchilikda belgilangan tartibda uning egasi zimmasiga yuklanadi. Iste'molga yaroqsiz deb topilgan mahsulotni qonunchilikda belgilangan tartibda ekspertiza qilish, yo'q qilish usullari va shartlarini belgilash, qayta ishlash, saqlash, tashish, yo'q qilish yoki O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqib ketish bilan bog'liq xarajatlar mahsulotning egasi hisobidan amalga oshiriladi.

Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish sertifikatlash organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirish organini tanlash arizachi tomonidan mustaqil amalga oshiriladi.

Ariza beruvchi istalgan vaqtda, sertifikatlashtirish organlari esa birinchi talabga ko'ra quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

a) muvofiqlik sertifikati majburiy tartibda bo'lishi kerak bo'lgan mahsulot turlarining ro'yxati yoki ro'yxatdan ko'chirma;

b) akkreditatsiya qilish sohasiga taalluqli bo'lgan mahsulotni sertifikatlash qoidalari;

v) sertifikatlashtirish bo'yicha xizmatlar narxlari (tariflari) preyskuranti;

g) davlat vakolatli organida akkreditatsiya qilinganlikni tasdiqlovchi hujjat.

Sertifikatlashtirish organi ko'rsatib o'tilgan hujjatlar nusxalarini taqdim etganlik uchun nusxalarni tayyorlash xarajatlaridan ortiq bo'lmagan miqdorda to'lov undirishga haqlidir.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish uchun ariza beruvchi sertifikatlashtirish organiga ariza bilan murojaat qiladi. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

ishlab chiqarilayotgan mahsulotga normativ hujjat nusxasi;

mahsulotni markirovka qilish namunasi (mahsulot to'g'risida axborot);

sanitariya-epidemiologik xulosa nusxasi. Ariza beruvchi tomonidan ayni bir vaqtda sanitariya-epidemiologik xulosa va muvofiqlik sertifikati olishga ariza berilgan taqdirda sanitariya-epidemiologik xulosa nusxasi, u mazkur Nizomning 3-bandiga muvofiq, belgilangan tartibda rasmiylashtirilgandan keyin taqdim etiladi.

CHetdan olib kelinayotgan mahsulotni sertifikatlashtirish uchun mahsulotni markirovka qilish namunasi (mahsulot to'g'risida axborot) taqdim etiladi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sertifikatlashtirish maqsadida sertifikatlashtirish organlariga standartlash bo'yicha rasmiy, "O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish" agentligi tomonidan tasdiqlangan normativ hujjatlar nusxalari taqdim etiladi, boshqa hollarda, shu jumladan o'z ehtiyojlari uchun, tasdiqlanmagan nusxalardan foydalanilishi mumkin.

Arizada nazarda tutilgan taqdirda, sertifikatlashtirish organi ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sertifikatlashtirish ishlarini sanitariya-epidemiologik xulosa (veterinariya va fitosanitariya xulosalari) nusxalarini olish muddatini kechiktirgan holda boshlashi mumkin.

Bu holda sertifikatlashtirish organi ishlab chiqarilayotgan mahsulotga muvofiqlik sertifikatini faqat ariza beruvchi tomonidan ijobiy natijalarga ega bo'lgan hujjatlarning barcha zarur nusxalari taqdim etilgandan keyin berishga haqlidir.

Sertifikatlashtirish organi ariza berilgan kundan boshlab ikki kun muddatda joyiga borib sertifikatsiya sinovlarini o'tkazish uchun mahsulot namunalarini tanlab oladi va identifikatsiya qiladi.

Namunalar soni, tanlab olish tartibi, identifikatsiya qilish va saqlash qoidalari mahsulotga normativ hujjatlarda belgilanadi.

Ma'lum turdagi mahsulotni sertifikatlash maqsadida sinovlar protokolini rasmiylashtirish va berish muddati ushbu turdagi mahsulotni texnik tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar bilan belgilanadigan uslublarga muvofiq sinovlardan o'tkazishning umumiy davom etish vaqtidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Ariza beruvchi o'z mahsulotining tanlab olinishida va sinovlarida qatnashish huquqiga ega. Bunda laboratoriyada maxfiylikni ta'minlash chora-tadbirlari ko'rilishi kerak.

Namunalarning saqlanishi, sifati va sinovlarining ishonchliligi uchun "O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish" agentligi tomonidan akkreditatsiya qilingan laboratoriya (markaz) javob beradi. Sinovlar protokollarini mas'ul mutaxassislar imzolaydi va laboratoriya rahbari tasdiqlaydi.

Ariza beruvchi sertifikatlashtirish organiga akkreditatsiya qilingan laboratoriyalardagi mahsulot sinovlari bo'yicha qo'shimcha hujjatlarni taqdim etishi mumkin. Agar mahsulotni alohida parametrlari bo'yicha sinovlar turli sinov laboratoriyalarida o'tkazilgan bo'lsa, u holda sinovlarning ijobiy natijalari bilan birga barcha zarur protokollarning mavjudligi mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligining ijobiy bahosi hisoblanadi.

Respublikada chetdan keltiriladigan, majburiy tartibda sertifikatlanishi kerak bo'lgan mahsulotga normativ hujjat mavjud bo'lmaganda, sifat va xavfsizlik bo'yicha sertifikatsiya sinovlari mahsulotning ana shunday turlari talablariga muvofiqligi yuzasidan amalga oshiriladi.

CHetdan olib kelinayotgan mahsulotning zarur normativ hujjati yoki texnik tasnifnomalar mavjud bo'lmasa, mazkur mahsulotni sertifikatlash mahsulotning ana shunday turlariga xos hujjatlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Laboratoriya sinovlarining salbiy natijalari, shuningdek hujjatlarning to'liq bo'lmagan komplektini taqdim etish muvofiqlik sertifikati berishni rad etish uchun asos hisoblanadi, bu to'g'rida sertifikatlashtirish organi ariza beruvchiga aniq qonunchilik normalarini ko'rsatgan holda yozma ravishda xabar qiladi.

Xulosa berishni rad etganlik yuzasidan ariza beruvchi belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

Sertifikatlashtirish organi taqdim etilgan hujjatlar va sinovlarning ijobiy natijalari asosida ikki ish kuni mobaynida muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtiradi.

CHetdan olib kelinayotgan mahsulotlarga muvofiqlik sertifikati ularning yaroqlilik muddatiga (mahsulot yaroqliligining kafolatli muddatiga), yaroqlilik muddatiga (mahsulot yaroqliligining kafolatli muddatiga) ega bo'lmagan mahsulotlarga esa amal qilish muddati ko'rsatilmasdan, ko'plab ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun — 3 yilga beriladi. Ko'plab ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun berilgan muvofiqlik sertifikatining amal qilish davrida ishlab chiqarilgan mahsulotlar sertifikatlangan deb hisoblanadi.

«Aynan bir xil tovarlarga bir tashqi savdo shartnomasi (kontrakti) doirasida muvofiqlik sertifikati bir kalendar yilidan oshmagan muddatga bir marotaba taqdim etiladi.

Ko'plab ishlab chiqariladigan mahsulotga muvofiqlik sertifikatini berish uchun sertifikatlashtirish organi ariza beruvchida mahsulotni ko'plab ishlab chiqarish uchun shart-sharoitlar mavjudligini aniqlash maqsadida mahsulot ishlab chiqariladigan ob'ektlarni belgilangan tartibda tekshiradi. Tekshirish natijalari bo'yicha dalolatnoma rasmiylashtiriladi, undan muvofiqlik sertifikatini berish to'g'risida qaror qabul qilishda foydalaniladi.

O'tkazilgan tekshirishlar natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar muvofiqlik sertifikatida keltiriladi.

Tekshirishni o'tkazish muddati, ishlab chiqarishning shakli va toifalariga ko'ra, sinovlar uchun namunalar tanlab olingan vaqtdan boshlab 10 ish kunidan oshmasligi kerak. Tekshirish o'tkazilganligi uchun to'lov amalda sarflangan vaqt bo'yicha va belgilangan tartibda tasdiqlangan xarajatlar kalkulyasiyasiga binoan undiriladi.

Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va berish muddati sertifikatlashtirish organidan ushbu Nizomda nazarda tutilgan barcha zarur hujjatlar olingan vaqtdan boshlab uch ish kunidan oshmasligi kerak.

Ko'plab ishlab chiqariladigan mahsulot uchun muvofiqlik sertifikatini bergan sertifikatlashtirish organi har yili kamida bir marta, mahsulotning sertifikatlashtirishda belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida, sertifikatlashtirilgan mahsulotni inspeksiya nazorati tekshiruvini o'tkazadi.

Inspeksiya nazorati natijalari bo'yicha muvofiqlik sertifikatining amal qilishi tasdiqlanishi yoki to'xtatib turilishi yoxud belgilangan tartibda bekor qilinishi mumkin.

Laboratoriya sinovlarini o'tkazganlik, muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirganlik va berganlik uchun to'lov tartibi, ariza beruvchiga muvofiqlik belgisini qo'llash huquqi berilganligi uchun bir yo'la to'lanadigan bir martalik yig'imlar miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda «O'zstandart» agentligi tomonidan belgilanadi.

Sertifikatlashtirish organi e'tirof etish to'g'risida bitim tuzilgan MDH mamlakatlaridan va uzoq xorijiy mamlakatlardan olib kelinadigan mahsulotga sertifikatlarni e'tirof etish huquqiga ega.

E'tirof etish tartiboti sertifikatlashtirish organining mahsulotni sertifikatlashtirish tartibida, «O'zstandart» agentligining normativ hujjatlariga muvofiq belgilangan bo'lishi kerak.

Xalqaro tizimlar va bitimlar doirasida amalga oshiriladigan sertifikatlarni e'tirof etish ushbu tizimlar va bitimlarda belgilangan, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan qoidalarga muvofiq o'tkaziladi.

Sertifikat talablarga muvofiq bo'lgan, O'zbekiston Respublikasida belgilangan ana shunday talablardan qolishmaydigan mahsulot uchun e'tirof etiladi.

Normativ hujjatlarda sertifikatlashtirish uchun shart bo'lgan yoki kontraktda belgilangan qo'shimcha talablar mavjud bo'lgan taqdirda mahsulot ushbu talablarga muvofiqlik yuzasidan sinab ko'rilishi kerak.

Olingan hujjatlar va materiallarni tahlil qilish, shuningdek mahsulotni identifikatsiyalash asosida sertifikatlashtirish organi chet el muvofiqlik sertifikatini e'tirof etish (etmaslik) to'g'risida qaror qabul qiladi.

Eksport qiluvchi mamlakatning Milliy sertifikatlashtirish tizimiga berilgan muvofiqlik sertifikatini e'tirof etish uni import qiluvchi mamlakatning muvofiqlik sertifikatiga qayta rasmiylashtirish va YAgona davlat reestriga kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ariza beruvchi o'z xohishiga ko'ra tasniflash Evropa tovar raqamlanishi uyushmasi (GS1) tomonidan kodlashtirish borasida korxonaning ro'yxatdan o'tkazish raqamini hamda ishlab chiqariladigan tovarning bir kun mobaynida beriladigan raqamli kodini olish uchun «GS1 Uzbekistan»ga murojaat qiladi.

«O'zstandart» agentligi tomonidan, belgilangan tartibga muvofiq shtrixli kodning original-maketi tayyorlanadi va beriladi.

Kod berish bo'yicha xizmatlar qiymati, shuningdek a'zolik badallari miqdori GS1 Uzbekistan qatnashchilari tomonidan belgilanadi. SHtrixli kodning original maketlarini tayyorlash va berish shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Takrorlash uchun nazorat savllar:

1. Sertifikatlashtirish bo'yicha asosiy tushunchalar.
2. Sertifikatlashtirish milliy tizimiga iod asosiy qoidalar.
3. Sertifikatlashtirish tizimining maqsadi, vazifalari.
4. Sertifikatlashtirish tizimining faoliyat turlari.

4§. Sertifikatlashtirish bo'yicha asosiy tushunchalari

4.1. Sertifikatlashtirish bo'yicha asosiy tushunchalar. Mazkur kursda qo'llaniladigan atama va ta'riflar ISO/MEK 2, O'z DSt ISO 9000, O'z DSt 5.5 standartlariga mos bo'lib quyidagi tushunchalar atama va ta'riflar mutanosiblik bilan qo'llaniladi:

Sertifikatlashtirish jarayoni, shunday uslubki, unda vositachi hisoblanmish – uchinchi tomon yozma ravishda guvohlik bildirib, mahsulot, jarayon yoki xizmatni qo'yilgan talablar darajasiga mosligini e'tirof qiladi.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan turli xil mahsulotlar muayyan ko'rsatkichlarga javob berishi kerak. Bu ko'rsatkichlar esa ma'lum belgilangan talablarga muvofiq kelishi lozim. Muvofqlik o'z navbatida mahsulot yoki xizmatlarning ma'lum standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatlardagi shu mahsulot yoki xizmatlarga belgilangan ko'rsatkichlarga mos kelishini talab etadi. Muvofqlikni sertifikatlashtirish mumkin. Xo'sh sertifikatlashtirish tushunchasi nima?

Sertifikatlashtirish deganda talab etilgan ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofqligini tasdiqlaydigan faoliyat tushuniladi.

"Sertifikatlashtirish" tushunchasi birinchi marta Xalqaro standartlashtirish tashkiloti Kengashining sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha maxsus qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilib, uning "Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va sinov laboratoriyalarining akkreditlash sohalaridagi asosiy atamalari va ularning qoidalari" qo'llanmasiga kiritilgan.

Muvofqlik - atamasi mahsulot, jarayon, xizmatga belgilangan barcha talablarga rioya qilishni o'z tarkibiga oladi. Bunda muvofqlikni uchta ko'rinishi

Muvofqlik bayonoti, muvofqlikni attestatlash, muvofqlikni sertifikatlashtirish degan tushunchalar mavjud. Muvofqlik bayonoti deb etkazib beruvchining mahsulot, jarayon va xizmatlarning aniq bir standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatga to'la-to'kis muvofqligi xaqida butun ma'suliyatni o'z ustiga olganligini bayon etishiga aytiladi. Bu atamani so'nggi vaqtlarda "o'z-o'zini sertifikatlashtirish" tushunchasi bilan almashilayotgani qayd qilinmokda. O'z-o'zini sertifikatlashtirish deganda mahsulot ishlab chiqaruvchi tomon butun mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan holda mahsulotning talab etilgan darajada sifatligi haqidagi kafolatni o'z zimmasiga oladi.

Muvofqlikni attestatlash deganda uchinchi tomon tarafidan "sinov laboratoriyasining bayonoti" tushunilib, ma'lum namuna mahsulotga bo'lgan talablarni belgilovchi ma'lum standartlar yoki boshqa hujjatlar bilan muvofiq ekanligini bayon etishiga aytiladi.

Sertifikatlashtirish jarayoni deganda mahsulot /buyum, mol/ yoki xizmat muayyan standart yoki texnikaviy shart talablariga mos kelishini tasdiqlash maqsadida o'tkaziladigan faoliyat tushunilib, ushbu faoliyat natijasida mahsulot /buyum, molning/ o'rnatilgan talablarga iste'molchini ishontiradigan tegishli hujjat – sertifikat beriladi.

Yana bir zarur atamalardan biri "sertifikatlashtirish tizimi" bo'lib u quyidagicha ta'riflanadi:

Sertifikatlashtirish tizimi - muvofqlikning sertifikatlashtirish faoliyatini

o‘tkazish uchun ish tartibi qoidalariga va boshqarishiga ega bo‘lgan tizimdir.

"Sertifikatlashtirish tizimi" atamasidan tashqari Sertifikatlashtirish sxemasi /sxema sertifikatsii/ kiritilib, ushbu faoliyat muvofiqlikni sertifikatlashtirishda uchinchi tomon faoliyatining olib boradigan ish hajmi, ketma-ketligi, tartibi va sertifikatlashtirish sub'ekti bilan o‘zaro munosabatini belgilaydi.

Sertifikatlashtirish faoliyatida qo‘llaniladigan uchta tushuncha to‘g‘risida to‘xtalib o‘tamiz: sertifikatlashtirish tizimidan foydalanish, sertifikatlashtirish tizimida qatnashuvchi va sertifikatlashtirish tizimi a‘zosi.

Sertifikatlashtirish tizimidan foydalanish – guvohnoma talabgoriga sertifikatlashtirish tizimining qoidalariga muvofiq berilgan sertifikatlashtirishdan foydalanish imkoniyati tushuniladi.

Sertifikatlashtirish tizimida qatnashuvchi – deb ushbu tizimning qoidalariga binoan faoliyat ko‘rsatadigan, lekin tizimni boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lmagan sertifikatlashtirish qatnashuvchisi tushuniladi.

Sertifikatlashtirish tizimi a‘zosi deganda ushbu tizimning qoidalariga binoan faoliyat ko‘rsatadigan va tizimni boshqarishda ma‘lum darajada ishtirok eta oladigan sertifikatlashtirish qatnashuvchisi tushuniladi.

Sertifikatlashtirish ikki xil bo‘ladi:

Majburiy va ixtiyoriy. Ishlab chiqarilgan yoki iste‘mol etiladigan mahsulot uchun uning tashqi muhitga, inson salomatligiga ta‘siri asosiy mezon hisoblanadi. Tashqi muhitga, inson salomatligi va uning xavfsizligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatuvchi mahsulotlar, majburiy sertifikatlashtirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi, unday mahsulotlar ro‘yxati Davlat tomonidan tasdiqlanib, bu ro‘yxatga kiritilmagan mahsulotlar esa sertifikatlashtirilishi ixtiyoriydir.

Majburiy sertifikatlashtirish deganda sertifikatlashtirish xuquqida ega bo‘lgan idora tomonidan tasdiqlangan ro‘yxatga kiritilgan mahsulot, jarayon, xizmatning standartlardagi talablarga muvofiqligini tasdiqlash tushuniladi.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish deganda ishlab chiqaruvchi /bajaruvchi/, sotuvchi /ta‘minlovchi/ yoki iste‘molchi tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o‘tkaziladigan mahsulot sertifikatlashtirilishi tushuniladi.

Hozirgi sharoitda tashqi mamlakatlar bilan savdoni, mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarni, fan va texnikani rivojlanishi uchun, hamda chiqarilayotgan mahsulotlarni sifatini yaxshilash, ularning raqobatdoshlik qobiliyatini oshirish uchun muntazam ravishda sinovlardan o‘tkazish ehtiyoji ortib bormoqda. Sinovlarni ko‘pincha uchinchi tomon deb ataluvchi tashkilot amalga oshiradi.

Uchinchi tomon tarafidan olib boriladigan sertifikatlashtirish ishlab chiqaruvchilarning ishonchiga sazovor bo‘lmoqda va shu sababli bunday yo‘l keng qo‘llanilib, samarali olib borilmoqda. Turli mamlakatlarda uchinchi tomon

tarafidan bajarilayotgan sertifikatlashtirish tizimini tashkil etish amalda shuni ko'rsatmoqdaki, uni turlicha tashkil qilish mumkin ekan. Sertifikatlashtirish tarixini ko'rib chiqadigan bo'lsak bu faoliyat bilan ishlab chiqaruvchi assotsiyasiyalar, yirik iste'molchilar, standartlashtirish milliy tashkilotlari shug'ullanib turli tizimlarni yaratganlar. Masalan, Fransiya va Angliyada 60-yillar boshida iste'molchilar tomonidan harbiy maqsadlar uchun ishlatiladigan elektronika mahsulotlarini sertifikatlashtirish tizimi yaratildi.

Sertifikatlashtirish tushunchasi keng ma'noda uchinchi tomon tarafidan o'tkaziladigan texnikaviy me'yorga, ish uslubiga, qoidaga muvofiqligini qamrab olgan har qanday tekshiruvdir. SHuning uchun sertifikatlashtirishni tekshiruv deb hisoblab, bosim ostidagi idishlarni, portlash havfidan himoyalangan qurilmalarning, kemalarning, suzish vositalarining, tayyorlarning, aviatsiya qurilmalarining, atom reaktorlarining va tog' texnikasining ishlatilishdagi havfsizligini ta'minlash maqsadida texnikaviy nazorat o'rnatuvchi idoralar shartli tekshiruvni amalga oshiradi.

Akkreditatsiya – bu nufuzli idora tomonidan, boshqa bir tashkilot yoki shaxsni rasmiy ravishda aniq ishlarni bajarishda to'la huquqli vakolat berilganligini e'tirof etishidir.

Mahsulot – ma'lum faoliyat yoki jarayon natijasidir. Mahsulot tushunchasiga quyidagicha izohlar keltirilgan:

Mahsulotning to'rtta toifasi bor:

- xizmatlar (yuk tashish, bank xizmati, sug'urta faoliyati va x.z.);
- dasturiy vositalar (kompyuter dasturi, lug'at, o'quv dasturlari);
- texnik vositalar (motorning qismi);
- qayta ishlanadigan materiallar.

Mahsulotning turlari uning turli umumiy toifalariga kiradigan vazifalar yoki shu vazifani bajarish uchun qo'llanilayotgan elementlarni o'z tarkibida mujassam qilinishi bilan belgilanadi. Mahsulotni xizmatlar, dasturiy vositalar, texnik vositalar yoki qayta ishlanadigan materiallar qatoriga kiritish shu mahsulot uchun belgilangan vazifaning ustunlik qiladigan elementiga bog'liq. Masalan, etkazib beriladigan mahsulot - "avtomobil", - texnik vositalar (masalan, shinalar), qayta ishlanadigan materiallar (yonilg'i, sovutish suyuqligi), dasturiy vositalar (motorni dasturli boshqarish, haydovchi uchun qo'llanma) va xizmatlar (avtomobildan foydalanish to'g'risidagi sotuvchi tomonidan beriladigan tushuntirishlar) dan iborat.

Xizmat - etkazib beruvchi va iste'molchining o'zaro hamkorligida amalga oshirilgan kamida bitta harakat natijasidir. Xizmatlar odatda nomoddiy bo'ladi. Xizmat ko'rsatish quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

-iste'molchi etkazib bergan moddiy mahsulot ustida bajarilgan faoliyat (masalan, ta'mir talab avtomobil);

iste'molchi etkazib bergan nomoddiy mahsulot ustida bajarilgan faoliyat (masalan, soliq miqdorini aniqlash uchun zarur bo'lgan daromad to'g'risida ariza);

nomoddiy mahsulotni berish (masalan, bilimlarni berish ma'nosidagi axborot);

iste'molchilar uchun qulay sharoitlarni yaratib berish (masalan, mehmonxonalarda va oshxonalarda).

Dasturiy vosita axborotga ega bo'ladi va u odatda nomoddiy bo'ladi, shuningdek yondashuvlar, operatsiyalar yoki protseduralar shaklida ham bo'lishi mumkin.

Texnik vosita odatda moddiy bo'ladi va uning miqdori hisoblab topiladigan tavsif bilan ifodalanadi. Qayta ishlanadigan materiallar odatda moddiy bo'ladi va ularning miqdori uzluksiz tavsif bilan ifodalanadi. Texnik vositalar va qayta ishlanadigan materiallar ko'pincha tovar (mahsulot)lar deb ataladi.

Uslubiyat (metodika) – faoliyatni rasmiy amalga oshirish yo'lidir.

Izoh: Uslublar ma'lumki, odatda hujjatlashtiriladi.

Hujjatlashtirilgan uslublar o'zida quyidagilarni ifoda etadi:

- faoliyatni maqsadi va doirasi;
- kim tomonidan va nima bajarilishi kerak;
- qachon, qaerda va qay tarzda amalga oshirilishi kerak;
- qanday manbaalar, hujjatlar va qanday jihozlar ishlatilishi kerak;
- bular qay yo'sinda nazorat qilinishi va qayd etilishi kerak.

Uslublar ma'lumki, odatda, bir necha xodimlarni javobgarlik va vakolatini aniqlaydi hamda sifat sohasi dasturiga yoki xususiyatlarga tayanadi.

Ishchi yo'riqnomalari ko'pincha uslublardan yoki texnologiyadan ko'chirma bo'ladi va bir xodimga yoki ish o'ringa yoziladi, shu sababli tanyanchga ehtiyoj sezilmaydi.

4.2.Sertifikatlashtirish milliy tizimi oid asosiy qoidalar. O'zbekiston Respublikasida sertifikatlashtirish tizimining quyidagi sertifikatlashtirish turlari amalga oshiriladi:

- Majburiy sertifikatlashtirish;
- Ixtiyoriy sertifikatlashtirish;

Majburiy sertifikatlashtirishga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan maxsus ro'yxatga kiritilgan, ishlab chiqariladigan, olib kiriladigan va olib chiqiladigan, sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlar kiradi.

YUkoridagi ro'yxatga, fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va mulkning xavfsizligini, atrof muhitni muhofaza qilish, o'zaroalmashinuvchanlik va moslashuvchanlikni ta'minlash bo'yicha me'yoriy hujjatlarda talablari belgilangan, mahsulotlar yoki xizmatlar kiritiladi. Bu ruyxatdan tashkari Oliy Majlis tomonidan qabul kilinadigan Qonunlarga asosan, Prezident farmonlariga asosan ma'lum xizmatlar va mahsulotlar uchun ham xudi shunday talablar qo'yilishi mumkin.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirishga O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident farmonlari, hamda hukumat qarorlariga asosan ro'yxatga kiritilmagan xizmatlar yoki mahsulotlar kirishi mumkin, bu vaqtda ishlab chiqaruvchi, etkazib beruvchi yoki iste'molchilar (keyinchalik - so'rovchi) tashabbusi bilan ixtiyoriy tartibda sertifikatlashtirish o'tkaziladi.

Sertifikatlashtirishni o'tkazish bosqichlari. Milliy sertifikatlash tizimi doirasida sertifikatlashtirish ishlari so'rovchi tomonidan tanlangan sertifikatlashtirish sxemasi bo'yicha aniqlangan tizim doirasida olib boriladi. Sertifikatlashtirish tartibi va uning o'rnatilgan qoidalari mavjud bo'lib, sertifikatlashtirishning asosiy bosqichlari sertifikatlashtirish ob'ekti va turlariga bog'liq bo'lmagan o'zgarmas jarayon deb hisoblash mumkin.

Odatda qabul qilingan va sertifikatlashtirish jarayonining umumiy sxemasi rasmda keltirilgan. Buni quyidagi beshta asosiy bosqichga bo'lishimiz mumkin:

- 1.Sertifikatlashtirishga ariza.
- 2.Sertifikatlashtirish bo'yicha qaror qabul kilish.
- 3.Sertifikatlashtirish ob'ektini muvofiqligini o'rnatilgan talablar bilan baholash
- 4.Muvofiqlikni baholash natijalarini tahlili va uni rasmiylashtirish.
- 5.Sertifikatlashtirish ob'ekti ustidan inspeksiya nazorat.

Sertifikatlashtirishning asosiy bosqichlari. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi. O'zbekiston Respublikasida mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 6 iyuldagi №318-sonli «Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qaroriga binoan "O'zstandart" agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda quyidagi ishlarni amalga oshirishadi:

– chetdan keltirilayotgan mahsulotlardan akkreditatsiya qilingan idoralar va laboratoriyalar tomonidan sinov o'tkazish uchun namuna olishning cheklangan normalarini belgilash;

– akkreditatsiya qilingan idoralar va laboratoriyalar o'rtasida sinovlarning takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida sinovlar turlarini belgilash;

– o‘zlariga qarashli akkreditatsiya qilingan laboratoriyalarda mahsulotlarni sinovdan o‘tkazish xizmatlariga tariflarni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida (uning hududiy bo‘linmalarida) oldindan deklaratsiya qilish.

Muvofiqlik sertifikatlari mavjudligini tekshirish faqat majburiy tartibda sertifikatlanadigan mahsulotlarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

"O‘zbekistonda texnik jixatdan tartibga solish" agentligida "Standartlashtirish to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunida belgilangan standartlashtirish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlar toifalarini tayyorlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomning hamda Majburiy tartibda sertifikatlanadigan bir turdagi mahsulotlarning har bir turini ularda sertifikatlashtirishning tegishli me‘yoriy hujjatlarda belgilangan xavfsizlik ko‘rsatkichlari ko‘rsatilgan Qoidalarining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkazadi va majburiy tartibda sertifikatlanadigan mahsulotlarning nomenklatura ro‘yxati, ularning sifatini va xavfsizligini belgilovchi me‘yoriy hujjatlarni ko‘rsatgan holda, nashr etilishini hamda bojxona, soliq va akkreditatsiya qilingan idoralarga jo‘natadi. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartiboti sxemasi keltirilgan.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartiboti sxemasi.

Ariza beruvchi (tadbirkorlik sub'ekti)	1	Hududiy sanitariya nazorati organi (gigienik xulosa)	1a	Veterinariya uchastkalari (bo‘limlari) (veterinariya xulosasi)
	2		1b	
			1v	
		Muddat: 14 kungacha	1g	Karantin xizmatlari (fitosanitariya xulosasi)
	3	EAN Uzbekistan (ariza beruvchining xohishiga ko‘ra, shtrix-kod berish to‘g‘risida ma‘lumotnoma)		Muddat: 3 kungacha
	4			Sertifikatlashtirish tartibotining umumiy muddati 10 kundan 30 kungachani tashkil etadi.
			Muddat: 1 kun	
	5		Sertifikatlash bo‘yicha akkreditatsiya qilingan organlar	
6	(muvofiqlik sertifikati)			
Muddat: 10 kungacha				

Rasmdagi izohlar:

1. Ariza beruvchi zarur hollarda gigienik xulosa olish uchun hududiy sanitariya nazorati organiga zarur hujjatlarni ilova qilgan holda ariza beradi.

Hududiy davlat sanitariya nazorati organi belgilangan tartibda joyiga borgan holda laboratoriya sinovlari o'tkazish uchun mahsulotlardan namuna oladi va ob'ektni tekshiradi.

1a. CHorva mahsulotlari uchun hududiy sanitariya nazorati organi ariza beruvchidan hujjatlar olingan kundan keyingi kechikmasdan tuman (shahar) veterinariya xizmati organiga buyurtmanoma jo'natadi.

1b. Veterinariya xizmati organi uch kun muddatda hududiy sanitariya nazorati organiga veterinariya xulosasini yoki xulosa berishni rad etishga sabab bo'lgan aniq qonun hujjatlari normalarini ko'rsatgan holda yozma javob yuboradi.

Veterinariya xizmati organi 20 kungacha izolyasiyalash-cheklash (karantin) choralari belgilash huquqiga ega. Bunda veterinariya xulosasini berish tartiboti karantin muddati tugagunga qadar to'xtatib turiladi.

1v. O'simlik mahsulotlari uchun hududiy sanitariya organi ariza beruvchidan hujjatlar olingan vaktning keyingi kunidan kechikmasdan tuman (shahar) o'simliklar karantini davlat xizmati organiga buyurtmanoma jo'natadi.

1g. O'simliklar karantini davlat xizmati organi ikki kun muddatda fitosanitariya xulosasi yoki salbiy xulosa beradi.

2. Laboratoriya sinovlari, shuningdek veterinariya hamda fitosanitariya xulosalaridan ijobiy natija olinganda, hududiy sanitariya nazorati organi ariza beruvchiga gigienik xulosa beradi.

3,4. Ariza beruvchi o'z xohishiga ko'ra, tashkilot va ishlab chiqaradigan mahsuloti shtrixli kodda foydalaniladigan tovar kodini olish uchun "GS1 Uzbekistan" ("EAN Uzbekistan") ga murojaat qilishi mumkin.

5. Ariza beruvchi muvofiqlik sertifikatini olish uchun sertifikatlash bo'yicha akkreditatsiya qilingan idoraga zarur hujjatlarni ilova qilgan holda ariza taqdim etadi. (Ariza gigienik xulosa olish uchun beriladigan ariza bilan bir vaqtda berilishi mumkin).

6. Sertifikatlash bo'yicha akkreditatsiya qilingan idora 15 ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda muvofiqlik sertifikatini yoki aniq qonun hujjatlari normalarini ko'rsatgan holda yozma rad javobini beradi.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi umumiy qoidalari.

YUqoridagi Qarorda mahsulotlarni sertifikatlashtirishning umumiy tartibi belgilangan. Ushbu Qaror asosida ishlab chiqilgan sertifikatlashtirish tartibi, muddatlari va ketma-ketligi belgilangan holda "O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish" agentligi tomonidan «Mahsulotlarni sertifikatlash qoidalari» ishlab chiqilib, 2005 yil 18 martda Adliya Vazirligida N 1458-sonli hujjat sifatida kuchga

kiritilgan.

Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi «O‘zstandart» agentligi tomonidan ishlab chiqilib, O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida sertifikatlashtirishning tegishli qoidalari sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

«Mahsulotlarni sertifikatlash qoidalari»da ko‘rsatilganidek sertifikatlashtirilgan mahsulotlarga qo‘shimchalar yoki o‘zgartirishlar kiritilishi davomida ilgari tekshirilgan xavfsizlik bo‘yicha mahsulot tavsifiga salbiy ta‘sir etmaydigan bo‘lsa, yangi chiqarilayotgan mahsulotga qo‘shimcha sertifikatlashtirish o‘tkazilishi talab etilmaydi. Mahsulot sertifikatlashtirilishi uchun talab etiladigan xavfsizlik majburiy tavsiflari standartlashtirish bo‘yicha tegishli me‘yoriy hujjatlarda belgilanadi.

Ushbu qoidadagi talablar mahsulot yoki xizmatlarni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish davomida tadbiq etilishi mumkin.

YUqorida keltirilgan qaror va qoidaga asosan majburiy sertifikatlashtiriladigan mahsulotlar ro‘yxatidan ma‘lum qismi ularning tegishli talablarga muvofiqligini deklaratsiyalash yo‘li bilan tasdiqlanishi mumkin bo‘ladi.

Sertifikatlashtirishni amalga oshirish qoidasiga asosan ilovaga muvofiq sxema bo‘yicha, ikki bosqichda o‘tkaziladi.

Birinchi bosqich - bir vaqtning o‘zida, zaruriyatga ko‘ra, veterinariya va fitosanitariya xulosalari tegishli ravishda davlat veterinariya nazorati va o‘simliklar karantini bo‘yicha davlat xizmati organlarida rasmiylashtirilgan holda "O‘zstandart" agentligi tomonidan akkreditatsiya qilingan davlat sanitariya nazorati organlarida gigienik sertifikat rasmiylashtirilishini o‘z ichiga oladi. Bunda tadbirkorlik faoliyati sub’ekti:

-gigienik sertifikatni rasmiylashtirish uchun ariza bilan birgalikda belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish idoralariga (keyingi o‘rinlarda sertifikatlashtirish idoralari deb ataladi) muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish yuzasidan ariza berishga;

-zarurat bo‘lganda tegishli xulosalar olish uchun veterinariya va fitosanitariya nazorati organlariga mustaqil ravishda murojaat qilishga haqlidir.

Ikkinchi bosqich - sertifikatlashtirish idoralari tomonidan muvofiqlik sertifikati berishdagi faoliyat.

Bunda akkreditatsiyadan o‘tgan Idoralar sertifikatlashtirish faoliyatiga qo‘shimcha ravishda, tadbirkorlik sub’ektlarining yozma arizasiga muvofiq davlat sanitariya nazorati organlarida, davlat veterinariya nazorati va o‘simliklar karantini bo‘yicha davlat xizmati organlarida, shuningdek tabiatni muhofaza qilish davlat organlarida sertifikatlashtirishni o‘tkazish va barcha zarur xulosalarni olish yuzasidan agentlik xizmatlari ko‘rsatishga haqlidir.

Bunda namunalar tanlab olinishi, shuningdek ular to'g'ri tanlanganligi va ular tegishli davlat organlariga taqdim etilishi uchun sertifikatlash Idoralari javobgarlikni o'z zimmlariga olishga majbur.

Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va berishning umumiy muddati ishlarning murakkabligi darajasiga, ko'p mehnat talab qilishi va o'ziga xosligiga qarab, barcha zarur hujjatlar taqdim qilingan vaqtdan boshlab 10 ish kunidan 1 oygacha doirada belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 6 iyulda №318-sonli «Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorigacha oldingi xatboshida keltirib o'tilgan talab yo'q edi, buning oqibatida sertifikatlashtirish ishlari asossiz ravishda cho'zilib, tadbirkorlarning noroziligiga sabab bo'lar edi. SHu bilan birga ushbu Qaror asosida tadbirkorlarga sertifikatlashtirish jarayonlarining xolisligini ta'minlash maqsadida ham qator qulayliklar yaratildi.

4.3. Sertifikatlashtirish tizimining maqsadi, vazifalari va faoliyat turlari. Sertifikatlashtirish tizimining maqsadi muvofiqlikni sertifikatlashtirishni amalga oshirish uchun tadbirlar, tartiblar va boshqaruv qoidalarini ishlab chiqishdir.

Sertifikatlashtirish tizimining asosiy vazifalari quyidagilar:

-sertifikatlashtirishda qo'llaniladigan hujjatlarning yagona tizimini tashkil qilish;

-yagona atama va ta'riflarni ishlab chiqish;

-bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirishning qoida va tartiblarini ishlab chiqish;

-sertifikatlashtirish uchun o'tkaziladigan sinovlarning qoidalarini ishlab chiqish (bundan keyin sertifikatlashtirish sinovlari);

-sertifikatlashtirish qatnashchilarining davlat boshqaruv idoralari bilan o'zaro hamkorlik tartiblarini aniqlash.

Sertifikatlashtirish milliy tizimi O'zbekiston Respublikasining qonuniy va me'yoriy hujjatlariga muvofiq faoliyat olib boradi.

O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimida quyidagi faoliyat turlari olib boriladi:

-Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish;

-Sifat tizimlarini va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish;

-Majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga rioya qilinishi ustidan nazorat olib borish;

YUqoridagi keltirib o'tilgan faoliyat yo'nalishlari bo'yicha ekspert-auditorlarni tayyorlash va attestatlash kabi faolit turlarini yuritadi.

Bundan tashkari hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Akkreditlash tizimi ham mavjud bo‘lib u quyidagi faoliyat turlarini olib boradi:

-Sinash laboratoriyalarini (markazlarini) akkreditlash;

-Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo‘yicha idoralarni akkreditlash;

-Sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish idoralarini akkreditlash;

-Tekshirish idoralarini akkreditlash;

-Sertifikatlashtirilgan mahsulot, sertifikatlash-tirilgan sifat tizimlari va ishlab chiqarishlar, akkreditlangan idoralar va sinash laboratoriyalari (markazlari)ni inspeksion tekshirish;

O‘zbekiston Sertifikatlashtirish Milliy Tizimi sertifikatlashtirish bilan shug‘ullanuvchi chet davlatlar tizimi va tashkilotlar, hamda shaxslar uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalarini tan olish sharti bilan ochiq deb hisoblanadi.

Sertifikatlashtirish mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlarning quyidagi talablarga muvofiqligini yoki nomuvofiqligini tasdiqlash bo‘yicha ish olib boradi:

-Davlatlararo standartlarga (MHD – mustaqil hamdo‘stlik davlatlari);

-Mahsulotga bo‘lgan talablarni belgilovchi O‘zbekiston Respublikasi hududida qabul qilingan va rasman nashr qilingan me‘yoriy hujjatlarga (keyinchalik MH);

-O‘zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish Milliy tizimiga Sertifikatlashtirish Idorasi sifatida a‘zo bo‘lgan sertifikatlashtirish tizimlari doirasidagi xalqaro va milliy chet el standartlariga.

O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi quyidagi tizimlar bilan o‘zaro bog‘lanishda faoliyat olib boradi:

O‘zbekiston Respublikasining davlat standartlashtirish tizimi;

O‘zbekiston Respublikasining o‘lchashlar birligini ta‘minlash davlat tizimi;

O‘zbekiston Respublikasining akkreditlash tizimi;

MDH davlatlarining sertifikatlashtirish milliy tizimlari, shuningdek, bu ishni boshqarish uchun maxsus huquqga ega bo‘lgan davlat boshqaruv idoralari boshchiligida faoliyat ko‘rsatayotgan muvofiqlikni tekshiruvchi boshqa tizimlar (Davtog‘kontexnazorati, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Davlat tabiatni muhofaza qilish qumitasi, O‘zbekiston Respublikasining Davlatarxitektqurilish qumitalari) bilan o‘zaro bog‘liqlikda faoliyatini olib boradi.

Takrorlash uchun nazorat savllar:

1. Sertifikatlashtirish bo‘yicha asosiy tushunchalar.
2. Sertifikatlashtirish milliy tizimiga irod asosiy qoidalar.
3. Sertifikatlashtirish tizimining maqsadi, vazifalari.
4. Sertifikatlashtirish tizimining faoliyat turlari.

II-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SERTIFIKATLASHTIRISH FAOLIYATI

5§. O‘zbekiston Respublikasida sertifikatlashtirish faoliyati

5.1. O‘zbekiston Respublikasining milliy sertifikatlashtirish tizimi.

O‘zbekiston Respublikasida sertifikatlashtirish tizimining quyidagi sertifikatlashtirish turlari amalga oshiriladi:

- Majburiy sertifikatlashtirish;
- Ixtiyoriy sertifikatlashtirish;

Majburiy sertifikatlashtirishga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan maxsus ro‘yxatga kiritilgan, ishlab chiqariladigan, olib kiriladigan va olib chiqiladigan, sertifikatlashtirilishi lozim bo‘lgan mahsulotlar kiradi.

YUkoridagi ro‘yxatga, fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i va mulkining xavfsizligini, atrof muhitni muhofaza qilish, o‘zaroalmashinuvchanlik va moslashuvchanlikni ta‘minlash bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarda talablari belgilangan, mahsulotlar yoki xizmatlar kiritiladi. Bu ruyxatdan tashkari Oliy Majlis tomonidan qabul kilinadigan Qonunlarga asosan, Prezident farmonlariga asosan ma‘lum xizmatlar va mahsulotlar uchun ham xudi shunday talablar qo‘yilishi mumkin.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirishga O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident farmonlari, hamda hukumat qarorlariga asosan ro‘yxatga kiritilmagan xizmatlar yoki mahsulotlar kirishi mumkin, bu vaqtda ishlab chiqaruvchi, etkazib beruvchi yoki iste‘molchilar (keyinchalik - so‘rovchi) tashabbusi bilan ixtiyoriy tartibda sertifikatlashtirish o‘tkaziladi.

5.2.Sertifikatlashtirishni o‘tkazish bosqichlari. Milliy sertifikatlash tizimi doirasida sertifikatlashtirish ishlari so‘rovchi tomonidan tanlangan sertifikatlashtirish sxemasi bo‘yicha aniqlangan tizim doirasida olib boriladi. Sertifikatlashtirish tartibi va uning o‘rnatilgan qoidalari mavjud bo‘lib, sertifikatlashtirishning asosiy bosqichlari sertifikatlashtirish ob‘ekti va turlariga bog‘liq bo‘lmagan o‘zgarmas jarayon deb hisoblash mumkin. Odatda qabul qilingan va sertifikatlashtirish jarayonining umumiy sxemasi 2-rasmda keltirilgan. Buni quyidagi beshta asosiy bosqichga bo‘lishimiz mumkin:

1. Sertifikatlashtirishga ariza.
2. Sertifikatlashtirish bo‘yicha qaror qabul qilish.
3. Sertifikatlashtirish ob‘ektini muvofiqligini o‘rnatilgan talablar bilan baholash

4. Muvofiqlikni baholash natijalarini tahlili va uni rasmiylashtirish.

5. Sertifikatlashtirish ob'ekti ustidan inspeksiya nazorat.

O'zbekiston Respublikasida mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi. O'zbekiston Respublikasida mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 6 iyuldagi №318-sonli «Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qaroriga binoan "O'zstandart" agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda quyidagi ishlarni amalga oshirishadi:

-chetdan keltirilayotgan mahsulotlardan akkreditatsiya qilingan idoralar va laboratoriyalar tomonidan sinov o'tkazish uchun namuna olishning cheklangan normalarini belgilash;

-akkreditatsiya qilingan idoralar va laboratoriyalar o'rtasida sinovlarning takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida sinovlar turlarini belgilash;

-o'zlariga qarashli akkreditatsiya qilingan laboratoriyalarda mahsulotlarni sinovdan o'tkazish xizmatlariga tariflarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida (uning hududiy bo'linmalarida) oldindan deklaratsiya qilish.

Muvofiqlik sertifikatlari mavjudligini tekshirish faqat majburiy tartibda sertifikatlanadigan mahsulotlarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

“O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish” agentligida "Standartlashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida belgilangan standartlashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar toifalarini tayyorlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomning hamda Majburiy tartibda sertifikatlanadigan bir turdagi mahsulotlarning har bir turini ularda sertifikatlashtirishning tegishli me'yoriy hujjatlarda belgilangan xavfsizlik ko'rsatkichlari ko'rsatilgan Qoidalarining O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazadi va majburiy tartibda sertifikatlanadigan mahsulotlarning nomenklatura ro'yxati, ularning sifatini va xavfsizligini belgilovchi me'yoriy hujjatlarni ko'rsatgan holda, nashr etilishini hamda bojxona, soliq va akkreditatsiya qilingan idoralarga jo'natadi. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi umumiy qoidalari. YUqoridagi Qarorda mahsulotlarni sertifikatlashtirishning umumiy tartibi belgilangan. Ushbu Qaror asosida ishlab chiqilgan sertifikatlashtirish tartibi, muddatlari va ketma-ketligi belgilangan holda «O'zstandart» agentligi tomonidan «Mahsulotlarni sertifikatlash qoidalari» ishlab chiqilib, 2005 yil 18 martda Adliya Vazirligida N 1458-sonli hujjat sifatida kuchga kiritilgan.

Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi «O‘zstandart» agentligi tomonidan ishlab chiqilib, O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida sertifikatlashtirishning tegishli qoidalari sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

«Mahsulotlarni sertifikatlash qoidalari»da ko‘rsatilganidek sertifikatlashtirilgan mahsulotlarga qo‘shimchalar yoki o‘zgartirishlar kiritilishi davomida ilgari tekshirilgan xavfsizlik bo‘yicha mahsulot tavsifiga salbiy ta‘sir etmaydigan bo‘lsa, yangi chiqarilayotgan mahsulotga qo‘shimcha sertifikatlashtirish o‘tkazilishi talab etilmaydi. Mahsulot sertifikatlashtirilishi uchun talab etiladigan xavfsizlik majburiy tavsiflari standartlashtirish bo‘yicha tegishli me‘yoriy hujjatlarda belgilanadi.

Ushbu qoidadagi talablar mahsulot yoki xizmatlarni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish davomida tadbiq etilishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan qaror va qoidaga asosan majburiy sertifikatlashtiriladigan mahsulotlar ro‘yxatidan ma‘lum qismi ularning tegishli talablarga muvofiqligini deklaratsiyalash yo‘li bilan tasdiqlanishi mumkin bo‘ladi.

Sertifikatlashtirishni amalga oshirish qoidasiga asosan ilovaga muvofiq sxema bo‘yicha, ikki bosqichda o‘tkaziladi.

Birinchi bosqich - bir vaqtning o‘zida, zaruriyatga ko‘ra, veterinariya va fitosanitariya xulosalari tegishli ravishda davlat veterinariya nazorati va o‘simliklar karantini bo‘yicha davlat xizmati organlarida rasmiylashtirilgan holda "O‘zstandart" agentligi tomonidan akkreditatsiya qilingan davlat sanitariya nazorati organlarida gigienik sertifikat rasmiylashtirilishini o‘z ichiga oladi. Bunda tadbirkorlik faoliyati sub’ekti:

-gigienik sertifikatni rasmiylashtirish uchun ariza bilan birgalikda belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish idoralariga (keyingi o‘rinlarda sertifikatlashtirish idoralari deb ataladi) muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish yuzasidan ariza berishga;

-zarurat bo‘lganda tegishli xulosalar olish uchun veterinariya va fitosanitariya nazorati organlariga mustaqil ravishda murojaat qilishga haqlidir.

Ikkinchi bosqich - sertifikatlashtirish idoralari tomonidan muvofiqlik sertifikati berishdagi faoliyat.

Bunda akkreditatsiyadan o‘tgan idoralar sertifikatlashtirish faoliyatiga qo‘shimcha ravishda, tadbirkorlik sub’ektlarining yozma arizasiga muvofiq davlat sanitariya nazorati organlarida, davlat veterinariya nazorati va o‘simliklar karantini bo‘yicha davlat xizmati organlarida, shuningdek tabiatni muhofaza qilish davlat organlarida sertifikatlashtirishni o‘tkazish va barcha zarur xulosalarni olish yuzasidan agentlik xizmatlari ko‘rsatishga haqlidir.

Bunda namunalar tanlab olinishi, shuningdek ular to‘g‘ri tanlanganligi va

ular tegishli davlat organlariga taqdim etilishi uchun sertifikatlash Idoralari javobgarlikni o'z zimmalariga olishga majbur.

Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va berishning umumiy muddati ishlarning murakkabligi darajasiga, ko'p mehnat talab qilishi va o'ziga xosligiga qarab, barcha zarur hujjatlar taqdim qilingan vaqtdan boshlab 10 ish kunidan 1 oygacha doirada belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 6 iyulda №318-sonli «Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorigacha oldingi xatboshida keltirib o'tilgan talab yo'q edi, buning oqibatida sertifikatlashtirish ishlari asossiz ravishda cho'zilib, tadbirkorlarning noroziligiga sabab bo'lar edi. SHu bilan birga ushbu Qaror asosida tadbirkorlarga sertifikatlashtirish jarayonlarining xolisligini ta'minlash maqsadida ham qator qulayliklar yaratildi.

Gigienik sertifikatni, veterinariya va fitosanitariya xulosalarini rasmiylashtirish va berish tartibi. Gigienik, veterinariya, fitosanitariya va ekologiya sertifikatlari (xulosalar) mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish bosqichlaridan boshlang'ichi bo'lib, mahsulotlarga me'yoriy hujjatlarda tegishli ravishda gigienik, veterinariya, fitosanitariya yoki ekologik me'yor va talablar mavjud bo'lgan taqdirda o'tkaziladi.

Gigienik sertifikatni olish uchun ariza beruvchi davlat sanitariya nazoratining hududiy organiga ariza bilan murojaat qiladi.

YUkorida keltirilgan Qaror talablari asosan sertifikatlashtirishga ariza berilganda ishlab chiqariladigan, sertifikatlashga taqdim qilinayotgan mahsulotga me'yoriy hujjatning nusxasi ilova qilinishi kerak (Davlatlararo standart - DS, O'zbekiston Respublikasi Davlat standarti - OzDSt, Texnik shartlar - TSh; ishlab chiqariladigan oziq-ovqat mahsulotlari uchun - O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishilgan texnologik yo'riqnoma va retseptura).

CHetdan olib kelinayotgan sertifikatlashtirilishi majburiy bulgan mahsulotlarga gigienik sertifikat olish uchun qo'shimcha ravishda:

-bojxona hududiga kelganlik to'g'risidagi belgi qo'yilgan holda tovarga ilova qilinadigan hujjatlarning (tovar-transport yuk xati, invoys, schyot-faktura) nusxalari;

-mahsulotni ishlab chiqargan davlatga tegishlilik to'g'risidagi sertifikati (tovarning kelib chiqishi to'g'risida ishonchli axborot mavjud bo'lmagan taqdirda) nusxalari taqdim etiladi.

Ilgari sertifikatlanmagan (sinalmagan) maxsus qo'llaniladigan biologik aktiv moddalar yoki oziq-ovqat xom-ashyosi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyalarining oziq-ovqat qo'shimchalari qo'llash bilan bog'liq ishlab

chiqarishni tashkil etishda yoki mahsulotlarni chetdan keltirishda davlat sanitariya nazoratining hududiy organi tegishli ruxsatnoma olish uchun O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga murojaat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ruxsatnoma berish 3 ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi. Laboratoriya sinovlarini o'tkazish xarajatlarini qoplash uchun Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan va Moliya vazirligida deklaratsiyalangan tariflar bo'yicha, biroq eng kam oylik ish haqining 10 baravaridan ortiq bo'lmagan summada to'lov undirilishi belgilangan.

Taqdim etilgan hujjatlar o'rganib chiqilgandan keyin davlat sanitariya nazoratining hududiy organi tomonidan belgilangan tartibda joyning o'ziga borib laboratoriya sinovlari o'tkazish va ishlab chiqarish ob'ektini tekshirish uchun mahsulotlarning namunalari tanlab olinadi. Mahsulotlarni gigienik ko'rsatkichlarni aniqlash uchun sinash Milliy akkreditatsiya tizimida akkreditatsiyadan o'tgan davlat sanitariya nazoratining hududiy organlari laboratoriyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Agar mahsulot kelib chiqishiga ko'ra hayvonot yoki o'simlik dunyosiga tegishli bo'lgan taqdirda, davlat sanitariya nazoratining hududiy organi ariza beruvchidan hujjatlar olingan sanadan keyingi kundan kechikmay veterinariya yoki fitosanitariya xulosasi berish bo'yicha vakolatli organlarga murojaat qiladi.

Veterinariya yoki fitosanitariya xulosasi davlat veterinariya nazoratining tuman (shahar) organlari yoki o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati organlari tomonidan beriladi.

Davlat veterinariya nazorati organi 20 kungacha bo'lgan muddat bilan belgilangan tartibda ajratib qo'yish-cheklash tadbirlari (karantin) belgilashi mumkin. Bunda veterinariya xulosasi berish tartiboti karantin muddati tamom bo'lgunga qadar to'xtatib turiladi.

Veterinariya yoki fitosanitariya xulosasi tayyorlash va berish muddati uch ish kunidan oshmasligi kerak.

Veterinariya yoki fitosanitariya xulosasi berilganligi uchun Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan belgilanadigan va Moliya vazirligida deklaratsiyalangan tariflar bo'yicha, biroq eng kam oylik ish haqiga teng summada to'lov undiriladi.

Veterinariya va fitosanitariya xulosalari olinishi hisobga olingan holda gigienik sertifikatni rasmiylashtirish va berish muddati 14 ish kunidan ortiq bo'lmamasligi kerak.

Mahsulotlarni sinashning aniq muddati sinovlarning tegishli usullari uchun me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan muddatlarga qarab belgilanadi.

Gigienik sertifikat berish ishlarini amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun davlat sanitariya nazoratining hududiy organlari tomonidan belgilanadigan va Moliya vazirligida deklaratsiyalangan tariflar bo'yicha, biroq eng kam oylik ish haqining 10 baravaridan ortiq bo'lmagan summada to'lov undiriladi.

Veterinariya va fitosanitariya xulosalari berish bo'yicha vakolatli organlarning xizmatlariga ariza beruvchi tomonidan haq to'lash davlat sanitariya nazoratining hududiy organlari orqali yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mustaqil ravishda amalga oshirilishi mumkin.

Ishlab chiqariladigan mahsulotga gigienik sertifikat 3 yildan kam bulmagan muddatga berilishi shart, chetdan keltirilayotgan mahsulot uchun esa mahsulotning yaroqlilik davriga beriladi.

Gigienik sertifikat ariza beruvchiga davlat sanitariya nazoratining hududiy organi rahbarining imzosi bilan beriladi va muhri bilan tasdiqlanadi, hujjatga utkazilgan sinovlar bayonnomasi nusxalari ilova qilinadi.

Agar gigienik sertifikatlashtirish bilan bir vaqtda mahsulotning fitosanitariya yoki veterinariya normalari va qoidalariga muvofiqligi sinovdan o'tkazilgan taqdirda, ariza beruvchiga tegishli xulosalar ham beriladi.

Laboratoriya sinovlarining salbiy natijalari hamda hujjatlar to'liq turkumda taqdim etilmasligi gigienik sertifikat berish rad etilishi uchun asos bo'lib hisoblanadi, bu haqda davlat sanitariya nazoratining hududiy organi qonunchilikning aniq normalarini ko'rsatgan holda ariza beruvchiga yozma ravishda ma'lum qiladi.

Qaror kuchga kirgan kundan boshlab mahsulotlar sinovi olib borilganda akkreditatsiya qilingan laboratoriyalar tomonidan bir-birini takrorlovchi sinovlar o'tkazilishi ta'qiqlanadi.

Ariza beruvchi gigienik sertifikat yoxud fitosanitariya va veterinariya xulosalari berishning rad etilishi yuzasidan belgilangan tartibda ularning yuqori tashkilotlariga shikoyat qilishi mumkin.

5.3. Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va berish tartibi. Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish sertifikatlash idoralari tomonidan amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirish idorasini tanlash arizachi tomonidan mustaqil amalga oshiriladi.

Ariza beruvchi istalgan vaqtda, sertifikatlashtirish idoralari esa arizachining birinchi talabi asosida quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

a) majburiy tarzda sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulot turlarining ro'yxati yoki ro'yxatdan ko'chirma;

b) Idora sertifikatlashtirish doirasiga taalluqli bo'lgan mahsulotni sertifikatlash qoidalari;

v) sertifikatlashtirish bo'yicha xizmatlar narxlari (tariflari) preyskuranti;

g) davlat vakolatli organida akkreditatsiya qilinganlikni tasdiqlovchi hujjat.

Sertifikatlashtirish idorasi, ko'rsatib o'tilgan hujjatlar nusxalarini taqdim etganda ularning nusxalarini tayyorlash uchun ketgan harajatlarnigina so'rovchidan undirishga haqli.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish uchun ariza beruvchi sertifikatlashtirish idorasiga ariza bilan murojaat qiladi. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

-ishlab chiqarilayotgan mahsulotga me'yoriy hujjat nusxasi;

-mahsulotni yorliqlash namunasi (mahsulot to'g'risida axborot);

-gigienik sertifikat nusxasi.

Ariza beruvchi tomonidan ayni bir vaqtda higienik sertifikat va muvofiqlik sertifikati olishga ariza berilgan taqdirda higienik sertifikat nusxasi talab etilmaydi.

CHetdan olib kelinayotgan mahsulotni sertifikatlashtirish uchun quyidagilar taqdim etiladi:

-ishlab chiqarilayotgan mahsulotga me'yoriy hujjat nusxasi (u mavjud bo'lganda);

-mahsulotni yorliqlash namunasi (mahsulot to'g'risida axborot);

-bojxona hududiga etib kelganligi to'g'risida belgi qo'yilgan ilova hujjat (tovar-transport yuk xati, invoys, schyot-faktura)lar nusxasi.

Ariza nazarda tutilgan taqdirda, sertifikatlashtirish idorasi sertifikatlashtirish ishlarini higienik sertifikat (veterinariya va fitosanitariya xulosalari) nusxalarini olish muddatini hisobga olgan holda kechiktirib boshlashi mumkin.

Bu holda sertifikatlashtirish idorasi muvofiqlik sertifikatini faqat ariza beruvchi tomonidan ijobiy natijalarga ega bo'lgan hujjatlarning barcha zarur nusxalari taqdim etilgandan keyin berishga haqlidir.

Sertifikatlashtirish idorasi ariza berilgan kundan boshlab ikki kun muddatda joyiga borib sertifikatlash sinovlarini o'tkazish uchun mahsulot namunalarini tanlab oladi va identifikatsiya qiladi.

Namunalar soni, tanlab olish tartibi, identifikatsiya qilish va saqlash qoidalari mahsulotga berilgan me'yoriy hujjatlarda belgilanadi.

Ariza beruvchi o'z mahsulotining tanlab olinishida va sinovlarida qatnashish huquqiga ega. Namunalarning saqlanishi, sifati va sinovlarining ishonchliligi uchun sinov o'tkazishga taqdim qilingan laboratoriya (markaz) javobgar hisoblanadi. Sinovlar bo'yicha bayonnomalarini mas'ul mutaxassislar imzolaydi va laboratoriya rahbari tasdiqlaydi.

Ariza beruvchi sertifikatlashtirish idorasiga akkreditatsiya qilingan laboratoriyalardagi mahsulot sinovlari bo'yicha qo'shimcha hujjatlarni taqdim etishi mumkin. Agar mahsulotni alohida ko'rsatkichlari bo'yicha sinovlar turli sinov laboratoriyalarida o'tkazilgan bo'lsa, u holda sinovlarning ijobiy natijalari bilan birga barcha zarur bayonnomalarning mavjudligi mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligining ijobiy bahosi hisoblanadi.

Respublikaga chetdan keltiriladigan, majburiy tartibda sertifikatlanishi kerak bo'lgan mahsulotga me'yoriy hujjat mavjud bo'lmaganda, sifat va xavfsizlik bo'yicha sertifikatlashtirish sinovlari mahsulotning ana shunday turlari talablariga muvofiqligi yuzasidan amalga oshiriladi.

Arizachi tomonidan chetdan olib kelinayotgan mahsulotga zarur me'yoriy hujjat yoki texnik tasnifnomalar taqdim etilmagan taqdirda, mazkur mahsulotni sertifikatlash mahsulotning ana shunday turlariga hujjatlar bo'yicha yoki gigienik sertifikat asosida, uni identifikatsiya qilgan holda amalga oshiriladi (oziq-ovqat mahsulotiga va oziq-ovqatga qo'shiladigan qo'shimcha mahsulot uchun).

Laboratoriya sinovlarining salbiy natijalari, shuningdek hujjatlarning to'liq bo'lmagan komplektini taqdim etish muvofiqlik sertifikati berishni rad etish uchun asos hisoblanadi, bu to'g'rida sertifikatlashtirish idorasi ariza beruvchiga aniq qonunchilik normalarini ko'rsatgan holda yozma ravishda xabar qiladi.

Xulosa berishni rad etganlik yuzasidan ariza beruvchi belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

Sertifikatlashtirish idorasi taqdim etilgan hujjatlar va sinovlarning ijobiy natijalari asosida ikki ish kuni mobaynida muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtiradi.

Muvofiqlik sertifikati chetdan olib kelinayotgan mahsulotlarga mahsulot yaroqliligining kafolatli muddatiga, ko'plab ishlab chiqariladigan mahsulot uchun esa - 3 yilga beriladi.

Ko'plab ishlab chiqariladigan mahsulotga muvofiqlik sertifikati berish uchun sertifikatlashtirish idorasi ariza beruvchidan mahsulotni ko'plab ishlab chiqarish uchun shart-sharoitlar mavjudligini aniqlash maqsadida mahsulot ishlab chiqariladigan ob'ektlarni belgilangan tartibda tekshiradi. Tekshirish natijalari bo'yicha dalolatnoma rasmiylashtiriladi, undan muvofiqlik sertifikati berish to'g'risida qaror qabul qilishda foydalaniladi. O'tkazilgan tekshirishlar natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar muvofiqlik sertifikatida keltiriladi.

Tekshirishni o'tkazish muddati, ishlab chiqarishning shakli va toifalariga ko'ra, sinovlar uchun namunalar tanlab olingan vaqtdan boshlab 10 ish kunidan oshmasligi kerak. Tekshirish o'tkazilganligi uchun to'lov amalda sarflangan vaqt bo'yicha va belgilangan tartibda tasdiqlangan xarajatlar kalkulyasiyasiga binoan undiriladi.

Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va berish muddati sertifikatlashtirish idorasi tomonidan sinovlar natijalari olingan vaqtdan boshlab 5 ish kunidan oshmasligi kerak.

Ko'plab ishlab chiqariladigan mahsulot uchun muvofiqlik sertifikatini bergan sertifikatlashtirish idorasi har yili kamida bir marta, mahsulotning sertifikatlashtirishda belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida, sertifikatlashtirilgan mahsulotni inspeksiya nazorati tekshiruvini o'tkazadi.

Inspeksiya nazorati natijalari bo'yicha muvofiqlik sertifikatining amal qilishi tasdiqlanishi yoki to'xtatib turilishi yoxud belgilangan tartibda bekor qilinishi mumkin.

Laboratoriya sinovlarini o'tkazganlik, sertifikatni rasmiylashtirganlik va berganlik uchun to'lov tartibi, litsenziya ajratmalari miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda "O'zstandart" agentligining yo'riqnomasi hujjatlari asosida belgilanadi.

CHet el muvofiqlik sertifikatlarini e'tirof etish. Sertifikatlashtirish idorasi e'tirof etish to'g'risida bitim tuzilgan MDH mamlakatlaridan va uzoq xorijiy mamlakatlardan olib kelinadigan mahsulotga sertifikatlarni e'tirof etish huquqiga ega.

E'tirof etish tartiboti sertifikatlashtirish idorasining bir turdagi mahsulotni sertifikatlashtirish tartibida, "O'zstandart" agentligining me'yoriy hujjatlariga muvofiq belgilangan bo'lishi kerak.

Xalqaro tizimlar va bitimlar doirasida amalga oshiriladigan sertifikatlarni e'tirof etish ushbu tizimlar va bitimlarda belgilangan, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan qoidalarga muvofiq o'tkaziladi.

Sertifikat talablarga muvofiq bo'lgan, O'zbekiston Respublikasida belgilangan ana shunday talablardan qolishmaydigan mahsulot uchun e'tirof etiladi.

Me'yoriy hujjatlarda sertifikatlashtirish uchun shart bo'lgan yoki kontraktda belgilangan qo'shimcha talablar mavjud bo'lgan taqdirda mahsulot ushbu talablarga muvofiqlik yuzasidan sinab ko'rilishi kerak.

Olingan hujjatlar va materiallarni tahlil qilish, shuningdek mahsulotni identifikatsiyalash asosida sertifikatlashtirish idorasi chet el muvofiqlik sertifikatini e'tirof etish (etmaslik) to'g'risida qaror qabul qiladi.

Eksport qiluvchi mamlakatning Milliy sertifikatlashtirish tizimiga berilgan muvofiqlik sertifikatini e'tirof etish uni import qiluvchi mamlakatning muvofiqlik sertifikatiga qayta rasmiylashtirish va YAgona davlat reestriga kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Mahsulotni shtrixli kodlashtirish. Ariza beruvchi o'z xohishiga ko'ra tasniflash Evropa tovar raqamlanishi uyushmasi (EAN) hozirgi vaqtda GS1 tomonidan kodlashtirish borasida korxonaning ro'yxatdan o'tkazish raqamini hamda ishlab chiqariladigan tovarning bir kun mobaynida beriladigan raqamli kodini olish uchun "EAN Uzbekistan"ga murojaat qiladi.

"O'zstandart" agentligi tomonidan, belgilangan tartibga muvofiq shtrixli kodning original - maketi tayyorlanadi va beriladi.

Kod berish bo'yicha xizmatlar qiymati, shuningdek a'zolik badallari miqdori "EAN Uzbekistan" qatnashchilari tomonidan belgilanadi. SHtrixli kodning original - maketlarini tayyorlash va berish qiymati O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida deklaratsiya qilingan tariflar bo'yicha belgilanadi.

Takrorlash uchun nazorat savollar:

1. O'zbekiston Respublikasining milliy sertifikatlashtirish tizimi.
2. Sertifikatlashtirishni o'tkazish bosqichlari.
3. O'zbekiston Respublikasida mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi.
4. O'zbekiston Respublikasida mahsulotlarni sertifikatlashtirish qoidalari.

6§. Sertifikatlashtirish milliy tizimida qatnashuvchi idoralar

6.1. Sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarda qatnashuvchi korxonalar.

O'zbekiston Respublikasi Sertifikatlashtirish milliy tizimi (O'z SMT)da sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarni quyidagi tashkilotlar amalga oshiradi:

-Mahsulotlarni sertifikatlashtirishni bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar;

-Sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirishni sifat tizimi va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar;

-O'zbekiston Respublikasida aniq mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan sertifikat-lashtirish idorasi bo'lmagan taqdirlarda uni sertifikatlashtirish masalasini sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idora «O'zstandart» agentligi hal qiladi;

-Sertifikatlashtirish sinovlarini akkreditlangan sinash laboratoriyalari (markazlar) amalga oshirishadi;

-Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralarni akkreditlashni sertifikatlashtirish milliy idorasi rahbari tasdiqlagan komissiya O'z

DSt 5.2 O‘z SMT. Sertifikatlashtirish idorasiga qo‘yiladigan umumiy talablar standartiga muvofiq o‘tkazadi;

-Sinash laboratoriyalari (markazlari)ni akkreditlashni akkreditlash bo‘yicha idora O‘z DSt 5.3 O‘z SMT. Sinash laboratoriyalari (markazlari)ni akkreditlash. Asosiy qoidalari standarti talablariga muvofiq o‘tkziladi.

-Ekspert-auditorlarni attestatlash O‘z RH 51-014 O‘z SMT Ekspert-auditorlarga qo‘yilgan talablar rahbariy hujjatiga muvofiq amalga oshiriladi.

6.2. O‘zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimining tashkiliy tuzilmasi.

Bugungi kunda o‘z istiqloli yo‘lida, bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat qurilishi sari shahdam qadam tashlab borayotgan, mustaqil O‘zbekiston Respublikasida standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohalarida muhim va salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqilgan me‘yoriy hujjatlarga binoan muvofiqlik sertifikatlashtirishining asosiy maqsadlari:

- mahsulot, jarayon va xizmatlarda fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ining xavfsizligini ta‘minlash, tashqi-muhitni asrash, buyum (tovarlar)ni bir xilligi va o‘zaro almashinuvchanligi masalalari, hamda iste‘molchini himoya qilish;

- xalqaro savdoda texnikaviy to‘siqlarni bartaraf qilish, tovarlar (buyumlar, jarayon va xizmatlar)ni raqobatdoshlik qobiliyatini oshirishdan iborat.

Sertifikatlashtirish milliy tizimining tashkiliy tuzilishi;

- O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish bo‘yicha milliy idorasi;

- bir xil mahsulotni setrifikatlashtirish bo‘yicha idora;

- bir xil mahsulotni, sifat tizimini va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish bo‘yicha akkreditlangan idoralari;

- akkreditlangan sinov laboratoriyalari.

Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan sertifikatlashtirish milliy idorasi qilib, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish O‘zbekiston Davlat markazi – «O‘zstandart» agentligi belgilangan.

«O‘zstandart» agentligiga qarashli turli soha va tarmoqlarni o‘z ichiga olgan bir xil nomdagi bo‘limlar ham bor. Bularga standartlar va mahsulotni sertifikatlashtirish bo‘yicha davlat nazorati va o‘lchash vositalarini davlat qiyoslovidan o‘tkazish va attestatlash sohaviy bo‘limlari kiradi.

Standartlar va mahsulotni sertifikatlashtirish bo‘yicha davlat nazorati sohaviy bo‘limlar: og‘ir sanoat, mashinasozlik, engil sanoat, oziq-ovqat, mahalliy sanoat hamda agrosanoat kompleksi doirasida o‘z faoliyatini amalga oshiradi.

O‘lchash vositalarini davlat qiyoslovidan o‘tkazish va attestatlash tarmoq

bo‘limlari esa massalar, radiotexnika, ionli nurlanish, geometrik, mexanik, elektrik, magnitli, bosim, sarflanish, haroratli hamda fizik-kimyoviy kattaliklarni qiyoslovdan o‘tkazadi. O‘zstandart agentligi tarkibidagi asosiy bo‘limlar keltirilgan.

“O‘zbekiston texnik jixatdan tartibga solish” agentligining ilmiy-uslubiy markazi etib O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish ilmiy tadqiqot instituti tayinlangan. Uning tashkiliy tuzilishi rasmda keltirilgan.

Sertifikatlashtirish milliy idorasi quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha o‘z faoliyatini amalga oshirmoqda:

-Respublikada sertifikatlashtirishni qo‘llash va takomillash-tirishning umumiy siyosatini ishlab chiqish, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tegishli davlat idoralari bilan aloqalarni o‘rnatish;

-sertifikatlashtirish masalalari bo‘yicha boshqa mamlakat va xalqaro tashkilotlarning vakillari bilan, o‘zaro kelishilgan asosda aloqalarni o‘rnatish, kerak bo‘lsa, bu tashkilotlar faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining qatnashishini ta‘minlash;

-sertifikatlashtirishda yagona qoida va ish tartiblarini belgilash, bularga rioya qilishning nazorati, sertifikatlashtirish natijalari bo‘yicha hujjatlarni axborotli ma‘lumot bilan ta‘minlash.

Vazirlar Mahkamasi qarorini bajarish yo‘lida O‘zstandart agentligi o‘zining viloyat markazlarini tuzib, ularning ishlariga har taraflama ko‘mak ko‘rsatmoqda. 1993 yilning 28 dekabridan boshlab "Mahsulotlarni va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida" qonun kuchga kirib, bu qonun asosida sertifikatlashtirish va sifatni ta‘minlash borasidagi barcha ishlar mutlaqo yangicha ruknda yo‘lga qo‘yila boshlandi.


Respublikadagi sinov laboratoriyalarini akkreditlash ishlari ham jadal qadamlar bilan amalga oshirilmoqda. Hozirgi vaqtda 256 ta laboratoriya milliy sertifikatlashtirish tizimida akkreditlangan bo‘lib, bu mahsulot ishlab-chiqarishning hamma sohasi bo‘yicha etarli darajada sinovlarni olib borish imkoniyatini beradi.

“O‘zbekiston texnik jixatdan tartibga solish” agentligi tarkibidagi oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini tekshiruvchi sinov laboratoriyasi akkreditlangan laboratoriyalardan hisoblanib, shu kungacha muayyan turdagi mahsulotlarga muvofiqlik sertifikati berish uchun kerakli bo‘lgan sinovlarni bajarmoqda.

Respublika hududiga keltiriladigan yoki undan chetga chiqariladigan tovarlar (mahsulotlar)ning havfsizligini tasdiqlash bilan bog‘liq bo‘lgan amallar tegishli davlat idoralari bilan kelishilgan holda «O‘zstandart» agentligi tomonidan tayyorlangan alohida hujjat bo‘yicha bajariladi.

Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida Turkiya va Xitoy davlatlari bilan standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohalarida hamkorlik qilish niyatida bitim tuzildi. Bu yoʻldagi ishlar oʻz mevasini bermoqda. Turkiya mutaxassislari Toshkentda boʻlib, «Oʻzstandart» agentligi tomonidan uyushtirilgan Respublika seminarlarida sertifikatlashtirish sohasida maʼruzalar bilan qatnashmoqdalar.

Oʻzbekiston Respublikasi Mustaqil davlatlar hamdoʻstligi qatoriga kiruvchi mamlakatlar bilan standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohalarida bitimlar tuzgan boʻlib, oʻzaro iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni uzluksiz ravishda rivojlantirish borasida keng doirada faoliyat yuritib kelinmoqda.



YUqoridagilardan koʻrinib turibdiki, savdo-sotiq ishlarida mahsulotning sifati asosiy koʻrsatkichlardan biri boʻlib qolmoqda. Ishlab chiqarilgan mahsulot xalqaro va milliy standartlashtirish, sertifikatlashtirishning talablariga mos kelishi lozim. Har bir mahsulot oʻz sifatini tasdiqlash uchun sertifikatga ega boʻlishi kerak, demak, mahsulot sertifikatlashtirishni oʻtmoqligi lozim. Qanchalik koʻp mahsulotlar sertifikatga ega boʻlsa, shunchalik korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning iqtisodiy holati yaxshilanadi.

6.3. Sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idora. O'zbekiston Davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tuzilmasini takomillashtirish va uning faoliyatini tashkil etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil №93 sonli va 2004 yil 5 avgustda № 373-sonli qarori qabul qilindi va bu qarorga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2003 yil 9 dekabrda PF-3358-son Farmonini bajarish yuzasidan hamda standartlashtirish, metrologiya va mahsulotlar hamda xizmatlarni sertifikatlashtirish tizimini yanada takomillashtirish, uning zamonaviy xalqaro normalar va talablarga muvofiqligini ta'minlash, shuningdek xalqaro standartlardan foydalanish asosida mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida ushbu qarorni qabul qildi. Qarorga binoan O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi ("O'zstandart" agentligi)ning tashkiliy tuzilmasi va markaziy boshqaruv apparati belgilangan. "O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish" agentligi sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idora bo'lib hisoblanadi.

Sertifikatlashtirish milliy idorasi – "O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish" agentligi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

-O'z SMT ning yagona qoida va tadbirlarini, ularga rioya etilishi ustidan nazoratni, sertifikatlashtirish natijalari bo'yicha hujjatlarni ro'yxatga olishni, respublika va horijiy iste'molchilarni ma'lumot bilan ta'minlashni belgilaydi;

-Muvofiqlik belgisini va uni qo'llash qoidalarini belgilaydi;

-O'z SMT ni mukammallashtirish bo'yicha dastur loyihalarini tuzadi va ularni Hukumat muhokamasiga taqdim etadi;

-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda xalqaro sertifikatlashtirish tizimlariga qo'shilish haqida qaror qabul qiladi, shuningdek, sertifikatlashtirish natijalarini o'zaro tan olish haqida bitimlar tuzadi;

-O'zbekiston Respublikasini boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha o'zaro munosabatlarda vakili bo'ladi;

-Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlar va xizmatlar ro'yxatini tuzadi va olib boradi;

-Respublikada sertifikatlashtirish ishlarini tashkil qiladi va muvofiqlashtiradi hamda ularni o'tkazilishining to'g'riligi ustidan inspeksion nazoratni amalga oshiradi;

-Bir turdagi mahsulotlarni, sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni, sertifikatlashtirish bo'yicha idoralarni va sinash laboratoriyalarini (markazlarini) akkreditlaydi;

-Ekspert-auditorlarni attestatlaydi va ularning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi;

-O‘z SMT Davlat reestrini olib boradi;

-Mahsulotlarni sertifikatlashtirish, sertifikatlash-tirish bo‘yicha idoralarni va sinash laboratoriyalarini (markazlarini) akkreditlash bo‘yicha ishlarga haq to‘lash shakli va tartibini belgilaydi;

-O‘z SMT qoidalarini buzganligi uchun muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilarining amalini bekor qiladi va to‘xtatadi, sertifikatlashtirish bo‘yicha idoralarni va sinash laboratoriyalari (markazlari)ni akkreditlangani haqida guvohnomani bekor qiladi;

-Sertifikatlashtirish va akkreditlash natijalari bo‘yicha appelyasiyalarni ko‘rib chiqadi;

-O‘z SMT davlat reestri asosida sertifikatlashtirish bo‘yicha ma‘lumotlarni chop etadi va manfaatdor tomonlarning undan bemalol foydalanishlarini ta‘minlaydi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun SMI vazifalarini tekshirish, ilmiy-texnikaviy, jamoat tashkilotlarini, iste‘molchilar jamiyatlarini jalb etib, yuqoridagi vazifalarni O‘zbekiston Respublikasi hududlarida SMI vazifalarini, bu vakolatlarni “O‘zbekiston texnik jixatdan tartibga solish” hududiy filiallar berganda ular bajarishi mumkin.

6.3.1. “O‘zbekiston texnik jixatdan tartibga solish” hududiy filiallar. Vazirlar Mahkamasi qarorini bajarish yo‘lida “O‘zbekiston texnik jixatdan tartibga solish” agentligi o‘zining viloyat markazlarini tuzib, ularning ishlariga har taraflama ko‘mak ko‘rsatmoqda. 1993 yilning 28 dekabridan boshlab "Mahsulotlarni va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida" qonun kuchga kirib, bu qonun asosida sertifikatlashtirish va sifatni ta‘minlash borasidagi barcha ishlar mutlaqo yangicha ruknda yo‘lga qo‘yila boshlandi.

Respublikadagi sinov laboratoriyalarini akkreditlash ishlari ham jadal qadamlar bilan amalga oshirilmoqda. Hozirgi vaqtda 256 ta laboratoriya milliy sertifikatlashtirish tizimida akkreditlangan bo‘lib, bu mahsulot ishlab-chiqarishning hamma sohasi bo‘yicha etarli darajada sinovlarni olib borish imkoniyatini beradi.

O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish sohasida Respublika sinov va sertifikatlashtirish markazi va hududiy standartlashtirish va metrologiya boshqarmalari (SMB) faoliyat olib borishadi. Respublika sinov va sertifikatlashtirish markazi o‘z tarkibiga 17 ta hududiy markazlarni tashkil qiladi. Hududiy standartlashtirish va metrologiya boshqarmalarining namunaviy tuzilmasi 6-rasmda keltirilgan.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish hududiy markazalari – SMSHM sertifikatlashtirish sohasida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

-Mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilari (bajaruvchilari)ga va etkazib beruvchilarga sertifikatlashtirish qoidalari haqida ma'lumot beradilar;

-Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish (BMS) doirasida sertifikatlashtirish tadbirlari bo'yicha markaziy sertifikatlashtirish idoralari (MSI), bosh usuliyat markazlari (BUM) bilan o'zaro munosabatda bo'ladi;

-Sertifikatlashtirish qoidalariga rioya qilish ustidan davlat tekshiruvini (nazoratini), hamda ular tomonidan sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ustidan inspeksion nazoratni amalga oshiradilar;

-Hududda sertifikatlashtirilgan mahsulot reestrini olib boradilar;

-Sertifikatlashtirish bo'yicha hududiy idoralar va sinash laboratoriyalari (markazlari)ni akkreditlash bo'yicha «O'zstandart» agentligining topshirig'iga binoan komissiya tuzish va ularda ishtirok etish va ularning faoliyati ustidan inspeksion nazorat qilishni amalga oshirishidilar.

Sertifikatlashtirish va tekshirish bo'yicha vazifalarni amalga oshirish uchun SMSHMLar umumiy asoslarda O'z DSt 5.2, O'z DSt 5.3 va O'z DSt 5.4 standartlariga muvofiq akkreditlanishi kerak. SMSHM akkreditlangandan so'ng sinov turlari va sertifikatlashtirilgan mahsulot turlari bo'yicha akkreditlashning ma'lum sohasida faoliyat ko'rsatish huquqini oladi.

6.3.2. Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish idoralari.

Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlagan idoralar quyidagi vazifalarni amalga oshirishadilar:

-Muayyan turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibini ishlab chiqadi;

-bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish (BMS) tizimida sertifikatlashtirilishi kerak bo'lgan muayan turdagi mahsulotlarni aniqlashda ishtirok etish;

-Muayyan turdagi mahsulotni sertifikatlashtirishi o'tkaziladigan me'yoriy hujjatlar fondini aniqlash va yuritish;

-Sertifikatlashtirishni tashkil qilish va o'tkazish;

-Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish, berish va tan olish;

-Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarning reestrini yuritish;

-Berilgan mahsulotni sertifikatlashtirish natijalari haqida ma'lumot berish;

-O'zDSt51-032 standartida o'rnatilgan tartib asosida sertifikatlashtirish ishlarining mehnat sarfi va qiymatining hisob-kitob me'yorlarini aniqlash;

-Sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inspeksion nazorat o'tkazish.

Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, O'z SMT qoidalarini bajarayotgan va

O‘zDSt5.2 standarti talablariga javob beruvchi tashkilotlar sertifikatlashtirish bo‘yicha idoralar sifatida akkreditlanishi ham mumkin.

6.3.3 Akkreditlangan sinash laboratoriyalari.

Akkreditlangan sinash laboratoriyalari (markazlari) O‘z SMTda quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishadi:

-Mahsulotni sertifikatlashtirish bo‘yicha sinovlarni o‘tkazish va sinov dalolatnomalarini berish;

-Sertifikatlashtirilgan mahsulot namunalarini, agar bu sertifikatlashtirish tartibida nazarda tutilgan bo‘lsa, inspeksion (tekshirish) sinovlarini o‘tkazish;

-Sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirishda (sinovlarni o‘tkazishning to‘g‘riligi borasida) ishtirok etish;

Sinash laboratoriyalari (markazlari) sifatida «O‘zstandart» agentligi va uni hududiy idoralarining laboratoriyalari, ilmiy-tekshirish va konstruktorlik tashkilotlarining sinov markazlari, boshqa laboratoriyalar va mulkchilik ixtiyoriy shaklidagi markazlar akkreditlanishi mumkin.

6.4. Sertifikatlashtirish ob‘ektlari va sub‘ektlari.

O‘zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimida sertifikatlashtirishning quyidagi ob‘ektlari mavjud:

-Mahsulotlar;

-Jarayonlar;

-Sifat tizimlari va ishlab chiqarishlar;

-Xizmatlar;

-Xodimlar.

O‘zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimida sertifikatlashtirishda quyidagi sub‘ektlari mavjud:

-Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo‘yicha idoralari;

-Sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish idoralari;

-Sinov laboratoriyalari;

-Ekspert-auditorlar.

O‘zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimida sertifikatlashtirish ob‘ektlari va sub‘ektlari O‘z DSt 5.0 O‘z SMT. Asosiy qoidalar standartiga muvofiq ro‘yxatga olinadi. Ushbu standartga asosan O‘z SMT da quyidagi Reestrlarni yuritish amalga oshiriladi:

-Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo‘yicha akkreditlangan idoralar;

-Sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish bo‘yicha akkreditlangan idoralari;

- Akkreditlangan sinav laboratoriyalari (markazlari);
- Attestatlangan ekspert-auditorlar;
- Sertifikatlashtirilgan mahsulotlar;
- Sertifikatlashtirilgan sifat tizimlari va ishlab chiqarishlar;
- Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirishning ro'yxatga olingan tizimlari.

O'z SMT Davlat reestrini yuritish qoidalarini O'z RH 51-021 O'z SMT. Davlat reestrini olib borish tartibi rahbariy hujjatida belgilangan. Sertifikatlashtirish bo'yicha milliy idora davlat reestrining me'yorlarini, shuningdek, sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar va tizimning boshqa ishtirokchilaridan olingan axborotlarni nashr qilib boriladi.

Sertifikatlashtirish, akkreditlash va tekshirish o'tkazish bo'yicha harajatlarni O'z RH 51-032 O'z SMT. Ishlar haqini to'lash tartibi rahbariy hujjatida o'rnatilgan tartib bo'yicha shartnoma orqali so'rovchilar to'lashadi.

Takrorlash uchun nazorat savollar:

1. Sertifikatlashtirish milliy tizimida qatnashuvchi idoralar.
2. Sertifikatlashtirish milliy tizimining tashkiliy tuzilmasi.
3. Sertifikatlashtirishda qatnashuvchi idoralarning vazifalari.
4. Sertifikatlashtirish ob'ektlari va sub'ektlari

III-BOB. SERTIFIKATLASHTIRISH.

7§. O‘zbekiston Respublikasida maxsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi.

7.1.O‘zbekiston Respublikasida maxsulotlarni sertifikatlashtirishni tartibi: Mahsulotlarni sertifikatlash qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 6 iyuldagi 318-sonli «Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorining 6-bandiga muvofiq ishlab chiqilgan va O‘zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish Milliy tizimida Respublikada ishlab chiqariladigan va chetdan keltiriladigan mahsulotni sertifikatlashtirishga tayyorlash va o‘tkazishga umumiy talablarni belgilaydi.

Majburiy sertifikatlanadigan mahsulotlarni sertifikatlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari «O‘zstandart» agentligining alohida me‘yoriy-huquqiy hujjatlari bilan tartibga solinadi. Mahsulotlarni, shu jumladan dasturiy va boshqa ilmiy-texnikaviy mahsulotlarni sertifikatlash mazkur Qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi. Mahsulotlarni sertifikatlashni tashkil qilish va o‘tkazish ishlari belgilangan tartibda akkreditsiya qilingan sertifikatlashtirish organlari (keyinchalik matn bo‘ylab SO) tomonidan amalga oshiriladi. Bojxona rasmiylashtiruvda O‘zbekiston Respublikasi bojxona organi muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddatini, shuningdek, muvofiqlik sertifikatida ko‘rsatilgan tovarning nomini haqiqatda olib kelingan tovarning nomi bilan tekshiradi.

Sertifikatlashning alohida chizmalari mahsulotlarni sertifikatlash bo‘yicha tegishli qoidalarida va mahsulotlarga talablarni o‘z ichiga olgan boshqa normativ hujjatlarda belgilanadi. Bunda tekshirishlar hajmiga qarab sertifikatlashtirish chizmasining murakkabligi, mahsulotning xavfsizlik darajasiga bog‘liq holda aniqlanadi. Har bir muayyan holatda SO arizachining taklifini, etkazib beriladigan mahsulot hajmi va muddatini, sinash usullarini, ishlab chiqarishning o‘ziga xos xususiyatlarini va uning barqarorligining buzilish xavfi mavjudligini, shuningdek mazkur mahsulotning iste‘molchilar uchun potensial xavfini hisobga olgan holda sertifikatlash chizmasini tanlaydi.

Xalqaro tizimlar yoki bitimlar doirasida sertifikatlashtirish ushbu hujjatlarda nazarda tutilgan chizmalar bo‘yicha bajariladi.

Sertifikatlashtirishda, mahsulot muvofiqligini tasdiqlanishi lozim bo‘lgan xususiyatlar (ko‘rsatkichlar) ro‘yxati, tekshirish va sinash usullari keltirilgan, sertifikatlashtiriladigan mahsulotga me‘yoriy hujjatlar (keyinchalik matn bo‘ylab MH)da belgilangan talablarga mos ekanligi tasdiqlanadi.

MHda sertifikatlashtirish sinovlari to'g'risida bo'lim keltirilmagan yoki davlatlararo standartlarni qo'llanishi ko'rsatilmagan bo'lsa, u holda SO me'yoriy hujjatda yoki xalqaro standartlarda ko'rsatilgan tavsiflar majmuidan birinchi navbatda xavfsizlik bo'yicha talablarni belgilovchi ko'rsatkichlarni tanlaydi.

Sertifikatlashtirishda, muayyan mahsulot uchun MHdan tashqari, mahsulotning majburiy talablarini belgilovchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga va boshqa rasmiy nashr etilgan MH larga ham amal qilish lozim.

Mahsulot sinovlarini o'tkazishda, takrorlashga yo'l qo'ymaslik maqsadida, akkreditlangan sinov laboratoriyalari (keyinchalik matn bo'ylab — ASL) boshqa ASL da o'tkazilgan sinov natijalarini o'zaro tan olishlari lozim.

Sertifikatlashtirish ishlariga haq to'lash, arizachi tomonidan muvofiqlikni baholash ishlari natijalaridan qat'i nazar, qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bunda, sertifikatlashtirish ishlari to'lov oldindan amalga oshirilgandan so'ng bajariladi.

Sertifikatlashtirishni o'tkazish tartibi. O'z SMTda mahsulotlarni sertifikatlash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a) SO ga sertifikatlash yuzasidan ariza berish va uni ko'rib chiqish;
- b) taqdim etilgan mahsulot MH va arizaga ilova qilgan boshqa hujjatlarni tahlil qilish;
- v) ariza bo'yicha qaror qabul qilish;
- g) sinov dasturini tayyorlash va tasdiqlash (6 va 9-chizmalardan tashqari);
- d) namunalarni identifikatsiya qilish, tanlab olish va laboratoriyaga etkazish (6 va 9-chizmalardan tashqari);
- e) namunalarni ASL da sinovdan o'tkazish (6 va 9-chizmalardan tashqari);
- j) mahsulotni ishlab chiqarish sharoitlarini baholash (sertifikatlashning 3, 4 va 5-chizmalari uchun);
- z) sifat tizimini baholash (5 va 6-chizmalari uchun);
- i) mahsulotning muvofiqligini deklaratsiyalash (9-chizma);
- k) olingan natijalarni tahlil qilish, muvofiqlik sertifikatini berish yoki uni berishni rad etish;
- l) muvofiqlik sertifikatini O'zR SMT Davlat reestrda ro'yxatga olish.

Taqdim etilgan mahsulot uchun MHda sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, fitosanitariya yoki ekologik talablar mavjud bo'lganda, SO sanitariya-epidemiologiya va veterinariya ekspertizalarini, fitosanitariya nazorati yoki ekologik ekspertizadan o'tkazish zarurligini aniqlaydi.

Mazkur amallar sertifikatlashtirish sinovlari bilan bir vaqtning o'zida o'tkazilishi mumkin va arizachiga muvofiqlik sertifikatini berishdan avval, bu amallar tegishli hujjatlarni taqdim etilishi bilan tugallanishi lozim.

SO, tadbirkorlik sub'ektlarining yozma arizasiga muvofiq, sertifikatlashtirishni o'tkazishda davlat sanitariya nazorati idoralaridan, davlat veterinariya nazorati idoralaridan va o'simliklar karantini bo'yicha davlat idoralaridan, shuningdek tabiatni muhofaza qilish davlat idoralaridan barcha zarur xulosalarni olishga oid agentlik xizmatlarini ko'rsatishga haqlidir. Bunda namunalarni to'g'ri tanlab olinganligi va ularni tegishli davlat idoralariga taqdim etilishida javobgarlik SO ga yuklatiladi.

SO arizachining talabiga muvofiq, quyidagi axborotlarni tayyorlashi va taqdim etishi lozim:

majburiy tartibda sertifikatlanadigan mahsulot turlari ro'yxati yoki bu ro'yxatdan ko'chirma;

SO ning akkreditatsiya doirasi bo'yicha mahsulotni sertifikatlashtirish qoidalari;

sertifikatlashtirish xizmatlari bo'yicha xizmatlariga haq to'lash preyskuranti (tariflari);

«O'zstandart» agentligi tomonidan berilgan akkreditatsiya guvohnomasi.

Mahsulotni O'z SMTda sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun arizachi mazkur Qoidalarning 2-ilovasida* keltirilgan shaklda arizani tegishli SO ga yuboradi.

Arizachi mahsulotni sertifikatlashtirish organi va sertifikatlash qoidalari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lmagan taqdirda, bu to'g'risidagi ma'lumotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha Milliy idora (keyinchalik matn bo'ylab — SMI) dan yoki uning hududiy idorasidan olishi mumkin.

CHetdan keltiriladigan mahsulotni sertifikatlashtirishda quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

ishlab chiqariladigan mahsulotga me'yoriy hujjat nusxasi (amalda bor bo'lgan taqdirda);

mahsulot yorlig'idan namuna yoki mahsulot to'g'risida ma'lumot;

mahsulotning O'zbekiston Respublikasi bojxonasi hududiga kelganligi to'g'risidagi belgi qo'yilgan tovarga qo'shib jo'natiladigan hujjat nusxasi (tovar-transport yuk xati, invoys, hisob-faktura);

amalda bor bo'lgan taqdirda, davlat sanitariya nazorati idorasining laboratoriyasida o'tkazilgan sinovlarning natijalarini o'z ichiga olgan sanitariya-epidemiologiya xulosasi va sinov bayonnomalari, MHda belgilangan boshqa talablar (veterinariya va fitosanitariya xulosalari, ekologik ekspertiza);

olib kirilayotgan mahsulotning aniq hajmi (soni) ko'rsatilgan tashqi savdo shartnomasi (kontrakti) va mahsulotni etkazib beruvchi hamda qabul qiluvchi o'rtasida tuzilgan kelishuv(lar) nusxasi (mahsulotlarni 7A chizmasi asosida sertifikatlashtirilganda).

Agar arizachi ayni vaqtda sanitariya-epidemiologiya xulosasini va muvofiqlik sertifikatini olishga ariza bergan bo'lsa, bunday holda sanitariya-epidemiologiya xulosasining nusxasi uni belgilangan tartibda rasmiylashtirgandan keyin beriladi.

Majburiy tartibda sertifikatlashtiriladigan, chetdan keltirilgan mahsulotga respublikada MH mavjud bo'lmagan taqdirda, sifat ko'rsatkichlari va xavfsizlik bo'yicha sertifikatlash sinovlari o'xshash turdagi mahsulotga bo'lgan talablarga muvofiq amalga oshiriladi.

Arizachi tomonidan chetdan keltirilgan mahsulotga zarur bo'lgan MH yoki xavfsizlik bo'yicha texnik tavsiflar taqdim etilmasa, mazkur mahsulotni sertifikatlash o'xshash turdagi mahsulot hujjatlari bo'yicha yoki identifikatsiya qilish orqali sanitariya-epidemiologiya xulosasi asosida amalga oshiriladi.

MHga ega bo'lmagan, sanitariya-epidemiologiya xulosasi talab etilmaydigan, shuningdek, sinovlarni amalga oshirish uchun ASL mavjud bo'lmagan taqdirda mahsulotlarni sertifikatlash identifikatsiya yo'li bilan o'tkaziladi.

Ishlab chiqariladigan mahsulotni sertifikatlash uchun quyidagi hujjatlar taqdim etishi lozim:

ishlab chiqariladigan mahsulotga MH nusxasi;

mahsulot yorlig'ining namunasi (mahsulot to'g'risida axborot);

amalda bor bo'lgan taqdirda, davlat sanitariya nazorati idorasining laboratoriyasida o'tkaziladigan sinovlarning natijalarini o'z ichiga olgan sanitariya-epidemiologiya xulosasi va MH da belgilangan boshqa talablar to'g'risidagi ma'lumotlar (veterinariya va fitosanitariya xulosalari, ekologik ekspertiza).

Agar arizachi ayni vaqtda sanitariya-epidemiologiya xulosasi va muvofiqlik sertifikatni olishga ariza taqdim etgan bo'lsa, bunday holda sinov bayonnomalari bilan sanitariya-epidemiologiya xulosasi nusxasi uni belgilangan tartibda rasmiylashtirgandan so'ng beriladi.

Arizada ko'rsatilgan mahsulotni sertifikatlash uchun ariza berilgan paytda akkreditlangan SO mavjud bo'lmagan taqdirda, ariza SMIGA yoki uning hududiy organiga sertifikatlash ishlarini tashkil etish va sertifikatlash sinovlari o'tkaziladigan ASLni aniqlashi uchun yuboriladi.

Arizada keltirilgan mahsulotni sertifikatlashtirish uchun bir nechta SO mavjud bo'lsa, arizachi o'zining xohishiga ko'ra ularning bittasiga murojaat qilishi mumkin.

Ariza berilgandan so'ng SO uni ko'rib chiqib, taqdim etilgan hujjatlarni tahlil qiladi va arizani olgandan keyin ikki kundan kechiktirmay, arizachiga mahsulotlarni sertifikatlashning belgilangan tartibiga asoslanadigan sertifikatlashtirishning barcha asosiy shartlari, shu jumladan sertifikatlashtirish chizmasi va sertifikatlashtirishni amalga oshirish uchun MH, sinovlarni

o'tkazadigan ASL ko'rsatilgan qarorni ma'lum qiladi. Qarorning tavsiya etilgan shakli mazkur Qoidalarning 3- ilovasida* keltirilgan.

Sertifikatlashtiriladigan mahsulotning MHda gigienik, veterinariya, fitosanitariya yoki ekologik normalar va talablar mavjud bo'lsa, qarorda sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, fitosanitariya, xulosalarni yoki ekologik ekspertizani olish zarurligi ham ko'rsatiladi.

Mahsulotga (transport vositalaridan tashqari) muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va berish muddati barcha zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim etilgan paytdan boshlab (sinov bayonnomalari, ishlab chiqarishni baholash dalolatnomasi, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, fitosanitariya, xulosalarni yoki ekologik ekspertizani) uch ish kunidan oshmasligi kerak. Tez buziladigan mahsulotlarga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va berish barcha zarur hujjatlar (sinov bayonnomalari, ishlab chiqarishni baholash dalolatnomasi, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, fitosanitariya xulosalari) taqdim etilgan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirishda MHning barcha talablarini tekshirish zarurligini SO har bir muayyan holda, o'zidagi qo'shimcha hujjatlarni (sifat tizimiga yoki ishlab chiqarishga sertifikat, vakolatli tashkilotlarda o'tkazilgan sinov bayonnomalari, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, fitosanitariya xulosalari, ekologik ekspertiza, etkazib beruvchining texnik hujjatlari va boshqalar)ni hisobga olib aniqlaydi.

Bunda, sanitariya-epidemiologiya xulosalarini SO ga taqdim etishda, unga davlat sanitariya nazorati idorasida bajarilgan sinov bayonnomalari bilan birga berilishi lozim.

Agar qo'shimcha hujjatlarda ASL da muayyan ko'rsatkichlar bo'yicha o'tkazilgan sinovlarning natijalari mavjud bo'lsa, u holda SO bu natijalardan qo'shimcha sinovlarsiz muvofiqlikni baholashda foydalanishi mumkin. Bunda sinovlarning o'tkazilgan vaqti hisobga olinib, ushbu muddat mahsulot MH bo'yicha yaroqlilik muddatidan oshmasligi kerak.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirishda SO arizachining takliflarini inobatga olgan holda sertifikatlashtiriladigan mahsulot tavsiflari ro'yxatini va ularni aniqlash usullarini belgilaydi. Agar SO tomonidan sinovlar uchun tanlangan tavsiflar ro'yxati mahsulotga tegishli bo'lgan MH talablaridan farq qilsa, u holda ariza bo'yicha qarorda ushbu ko'rsatilishi.

Sertifikatlashtirish maqsadida sinovlar ASLda o'tkaziladi. Sertifikatlashtirish paytida tegishli ASL mavjud bo'lmagan taqdirda, SMI sertifikatlashtirish organining murojaatiga asosan, sinov natijalarining ob'ektivligining ta'minlovchi sinovlarni o'tkazish joyini va sharoitlarini aniqlaydi.

Mahsulotning muayyan turini sertifikatlash maqsadida sinov bayonnomalarini rasmiylashtirish va berish muddati, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me'yoriy hujjatlar bo'yicha o'tkaziladigan sinov usullariga muvofiq, ushbu mahsulotning barcha sinovlarining davomiyligidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun mahsulot namunalarini tanlab olish va identifikatsiya qilish ariza berilgandan ikki kundan kechiktirilmagan muddatda SO tomonidan joyiga chiqqan holda amalga oshiriladi.

Namunalarning miqdori, tanlab olish, identifikatsiya qilish va saqlash tartibi majburiy tartibda sertifikatlanadigan mahsulotning MHda, shu jumladan sinash metodlarida belgilanadi.

Respublikaga chetdan keltiriladigan mahsulot to'pidan sertifikatlash uchun tanlab olinadigan namunalar sonini sinash usullari belgilangan MHga muvofiq sinovlarni o'tkazishni hisobga olgan holda SO aniqlaydi. Bunda akkreditlangan organlar va laboratoriyalar SMI tomonidan chetdan keltirilgan mahsulotlardan namuna olishning cheklangan normalariga rioya qilishi zarur.

Sertifikatlashtirishga taqdim etilgan mahsulot namunalarini tanlab olishda identifikatsiya qilish amali, mahsulotni sertifikatlash qoidalariga muvofiq, ushbu Qoidalarning 5-ilovasiga* muvofiq namunalarni identifikatsiya qilish va tanlab olish dalolatnomasini rasmiylashtirgan holda amalga oshiriladi.

Agar identifikatsiya natijalariga ko'ra arizachi tomonidan taqdim etilgan namunalar MH talablariga nomuvofiq yoki sertifikatlashtiriladigan mahsulot turi belgilangan namunada emasligi ma'lum bo'lsa, namunalar tanlab olinmaydi va arizachiga asoslangan rad javobi beriladi.

Ishlab chiqariladigan mahsulot namunalarini tanlab olish va identifikatsiya qilish dalolatnomasi ikki nusxada rasmiylashtiriladi va ularning bittasi arizachiga beriladi.

Bojxonada saqlanayotgan import tovarlarni sertifikatlashtirish uchun namunalarni tanlab olish SO tomonidan, bojxona organining mansabdor shaxsi va tovar egasi yoki uning vakili ishtirokida o'tkaziladi. Bunda SO vakili tomonidan namunalarni identifikatsiya qilish va tanlab olish to'g'risidagi dalolatnoma uch nusxada tuziladi va ikkinchi nusxasini bojxona idorasiga taqdim etiladi.

Arizachi o'zining xohishiga ko'ra sertifikatlanadigan mahsulotning texnik tavsiflarini taqdim etishi mumkin.

Arizachi, shuningdek SO ga mahsulotni yaratish va ishlab chiqarishni tashkil etishda o'tkazilgan sinov bayonnomalarini yoki O'zbekiston Respublikasining akkreditlash tizimidan akkreditlangan yoki tan olingan mahalliy yoki xorijdagi

sinov laboratoriyalari tomonidan amalga oshirilgan sinovlar to'g'risidagi hujjatlarini taqdim etishi mumkin.

Arizachi yoki uning vakili iltimosiga ko'ra, ASL da sinovlarni o'tkazish sharoitlari bilan tanishish imkoniyati berilishi lozim. Arizachi mahsulotini sinashda ishtirok etish huquqiga ega. Bunda ASLda maxfiylikni ta'minlash chora-tadbirlari ko'rilgan bo'lishi zarur.

Namunalarning sinovi sifati va natijalarning haqqoniyligiga, shuningdek, sinov bayonnomalarining saqlanishiga sinovlarni amalga oshirgan ASL mas'ul hisoblanadi. Sinov bayonnomalari sinovlarni bajarish bo'yicha vakolatli mutaxassislar tomonidan imzolanadi va ASL rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Sinov bayonnomalari arizachiga va SO ga taqdim etiladi. Agar mahsulotning sinovlari alohida parametrlar bo'yicha turli ASL da o'tkazilgan bo'lsa, u holda mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligi bo'yicha sinov natijalarining ijobiyligi, barcha ijobiy bayonnomalarning mavjudligi hisoblanadi.

Sinovlarning salbiy natijalari, shuningdek hujjatlar to'plami to'liq taqdim etilmagan taqdirda, SO arizachiga qonunchilikning aniq normalarini ko'rsatgan holda muvofiqlik sertifikatini berishni rad etganligi to'g'risida xulosa beradi.

Agar chetdan keltirilgan mahsulotning sifat va xavfsizlik talablari tasdiqlanmagan taqdirda SO rasmiy ravishda murojaatchiga va Davlat bojxona qo'mitasiga ushbu tovarni nomuvofiq ekanligi to'g'risida xulosa taqdim etadi.

Sinash davrida butunlay yoki qisman buzilgan, shuningdek sinash davrida buzilmagan mahsulot bo'yicha hisobdan chiqarilganligi (qaytarib berilganligi) to'g'risidagi dalolatnoma murojaatchi (yoki uning vakili) ishtirokida ushbu Qoidalarining 6-ilovasiga* muvofiq tuziladi.

Sertifikatlashtiriladigan mahsulotni ishlab chiqarish sharoitlarini baholash SO tomonidan ishlab chiqilgan va «O'zstandart» agentligi tomonidan tasdiqlangan mahsulotlarni sertifikatlash qoidalarida belgilanadi.

O'rganish natijalari bo'yicha muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirib berishda foydalaniladigan dalolatnoma tuziladi.

Ishlab chiqarish sharoitlarini o'rganish muddati namunalar tanlab olingan paytdan boshlab 10 kundan oshmasligi kerak.

Ishlab chiqarish sharoitlarini o'rganish to'g'risidagi ma'lumotlar muvofiqlik sertifikatida keltiriladi.

SO sinov bayonnoma(lari), ishlab chiqarish sharoitlarini baholash va arizachi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqqandan keyin, muvofiqlik sertifikatini beradi yoki berishni rad etadi.

Sertifikatlashtirish jarayonini o'tkazishning umumiy muddati, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me'yoriy hujjatlar bo'yicha o'tkaziladigan sinov

usullariga muvofiq, ushbu mahsulotning barcha sinovlarining davomiyligidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Muvofiqlik sertifikatini blanki raqamlangan, himoya qilish darajasiga ega, javobgarligi belgilangan hujjat hisoblanadi. Muvofiqlik sertifikatini blanki ushbu Qoidalarining 7-ilovasiga* muvofiq tayyorlanadi va «O‘zstandart» agentligi tomonidan beriladi.

Sertifikat davlat yoki rus tillarida rasmiylashtiriladi. Rasmiylashtirilgan muvofiqlik sertifikatini O‘z SMT Davlat reestrda ro‘yxatga olinadi. Ro‘yxat raqami mavjud bo‘lgandagina sertifikat haqiqiy hisoblanadi.

Muvofiqlik sertifikatini:

chetdan keltirilgan mahsulotga — mahsulotning yaroqlilik muddatiga;

bitta tashqi savdo shartnomasi (kontrakti) doirasida chetdan keltirilgan mahsulotga — bir kalendar yilidan oshmagan muddatga;

seriyalab ishlab chiqariladigan mahsulotga esa — 3 yil muddatga beriladi.

Muvofiqlik sertifikatini bir xil nomdagi yoki o‘xshash mahsulotlar guruhiga beriladi va uning amal qilishi haqiqatda O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilgan mahsulotlarning miqdoriga taalluqli bo‘ladi, lekin muvofiqlik sertifikatida ko‘rsatilgan miqdordan ko‘p emas (bunda, bitta tashqi savdo shartnomasi (kontrakti) doirasida — mahsulotning modeli, turi, artikuli va (yoki) boshqa identifikatsiya belgilarini ko‘rsatgan xolda shartnoma bo‘yicha chetdan keltirilgan mahsulotning hajmi (soni)ga).

Bahsli masalalarni hal etish, shuningdek «O‘zstandart» agentligi tomonidan SO faoliyatini inspeksiya nazorati maqsadlari uchun namunalarni tanlab olish dalolatnomalari, ishlab chiqarishni baholash dalolatnomasi, sinov bayonnomalarining nusxalari, muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati davomida, yoki kamida bir yil davomida saqlanishi lozim. Sinov bayonnomalarning nusxalarini saqlash tartibi va muddatlari mahsulotlarni sertifikatlashtirish qoidalarida va SO hamda sinov laboratoriyalarining hujjatlarida belgilanadi. Belgilangan saqlash muddatlari tugagan hujjatlar arxivga topshiriladi yoki yo‘q qilinadi.

Berilgan muvofiqlik sertifikatini asosida, belgilangan sertifikatlashtirish chizmasini hisobga olgan holda, arizachiga muvofiqlik sertifikatini qo‘llash va muvofiqlik belgisidan foydalanish huquqini berish to‘g‘risida bitim tuziladi. Mazkur bitimda sertifikatlashtirilgan mahsulotni muvofiqlik belgisi bilan tamg‘alash usuli va inspeksiya nazoratining shartlari kelishib olingan bo‘lishi kerak.

Sertifikatlangan, seriyali ishlab chiqariladigan mahsulot (qadoq, idish va yuk jo‘natuv hujjatlari) tayyorlovchi-tashkilotning mas’ulligi ostida muvofiqlik belgisi bilan tamg‘alanadi.

Sertifikatlashtirilgan mahsulotning bir qismi, muvofiqlik sertifikatining nusxasi asosida, tayyorlovchi-tashkilot tomonidan realizatsiya qilinishi mumkin.

Sertifikat aslining egasi tomonidan berilgan nusxalar mahsulotga qo‘shib jo‘natiladigan hujjatga muvofiq ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Har bir nusxada uning qayd etilgan raqami, realizatsiya qilinadigan mahsulotning miqdori ko‘rsatiladi.

Muvofiqlik sertifikati amalda bo‘lgan davrda ishlab chiqarilgan mahsulot sertifikatlashtirilgan deb hisoblanadi va qayta sertifikatlashtirilmaydi. Mahsulot sertifikatlashtirilganligini tasdiqlovchi asos sifatida muvofiqlik belgisi va mahsulotga qo‘shib yuboriladigan va ekspluatatsiya hujjatlardagi ishlab chiqarish sanasi xizmat qiladi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotga berilgan muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati tugashidan kamida bir oy oldin, arizachi ishlab chiqarilayotgan mahsulotini qayta sertifikatlashtirish maqsadida SO ga ariza berish huquqiga ega. Bunda SO inspeksiya nazoratining natijalarini hisobga olib, sertifikatlashtirish chizmasini o‘zgartirishi mumkin.

Mahsulot konstruksiyasiga (tarkibiga) yoki uni ishlab chiqarish texnologiyasiga mahsulotning tavsiflariga ta’sir etishi mumkin bo‘lgan, sertifikatlashtirishda tasdiqlanadigan o‘zgartirishlar rejalashtirilganda tayyorlovchi-tashkilot bu to‘g‘risida to‘g‘irlovchi amallarni o‘tkazish zaruriyati yuzasidan qaror qabul qilish uchun SO ni xabardor qilishi lozim.

Seriyali ishlab chiqariladigan mahsulotga muvofiqlik sertifikatini bergan SO bir yilda kamida bir marotaba mahsulotning sertifikatlashtirishda belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida, sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inspeksiya nazoratini o‘tkazadi. Inspeksiya nazoratida sertifikatlashtirishning chizmasiga qarab, mahsulotning sinovi va/yoki ishlab chiqarish sharoitlarini baholash amalga oshiriladi.

Inspeksiya nazorati natijalari bo‘yicha muvofiqlik sertifikatining amal qilishi va muvofiqlik belgisini qo‘llash tasdiqlanishi, to‘xtatilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

Sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan o‘tkaziladigan inspeksiya nazoratining hajmi, inspeksiya nazoratini o‘tkazish qoidalarida belgilanadi.

SO sertifikatning amal qilishini to‘xtatilganligi yoki bekor qilinganligi va muvofiqlik belgisining arizachi tomonidan qo‘llanilishi to‘g‘risida tayyorlovchini va SMIning xabardor qilishi shart.

SMI tegishli davlat boshqaruv idoralariga va ommaviy axborot vositalariga bekor qilingan sertifikatlar to'g'risida ma'lumot berish zarurligini aniqlaydi.

Majburiy sertifikatlashtiriladigan tovarlarni muvofiqlik sertifikatisiz muomalaga chiqarish. O'zbekiston Respublikasining hududiga olib kirilgan bojxona rasmiylashtiruviga muvofiqlik sertifikatisiz ruxsat etilgan tovarlar:

tabiiy ofatlar, harbiy mojarolar, texnogen falokatlar va h.k. larda yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan tovarlar;

respublikada qurilish va boshqa pudrat ishlarini amalga oshirish uchun xorijiy xodimlarning shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan respublikaga chetdan keltirilgan oзуqaviy va boshqa tovarlar;

mamlakat hududida bojxona va boshqa imtiyozlarga ega bo'lgan xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlarning diplomatik va konsullik vakolatxonalarini va boshqa xalqaro tashkilotlar huzuridagi xorijiy davlatlar vakolatxonalarining rasmiy (xizmat yuzasidan) foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlar;

O'zbekiston Respublikasi tashkilotlar va korxonalarining normal ish olib borishi uchun zarur bo'lgan material-texnik ta'minot jihozlari, asbob-uskunalar, yoqilg'i va mazkur korxonalar tomonidan ijaraga olingan, xalqaro miqyosda yuk tashishni amalga oshiruvchi transport vositalari;

bojxona organiga deklarant tomonidan shartnoma (kontrakt) nusxasi va sertifikatlashtirish organining sertifikatlashtirish sinovlarini o'tkazish zaruriyati mavjudligi haqidagi xati taqdim etilgan holda sertifikatlashtirish sinovlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan tanlanma va namunalar (miqdorini hisobga olgan holda, vazni, hajmi va boshqalar);

ekspluatatsiya qilish joyida sinov natijalariga ko'ra SO tomonidan beriladigan sertifikat, shuningdek, tovarni olib kelgan shaxs tomonidan texnologik uskunalar to'liq yig'ilib, sozlanganidan va sinovdan o'tkazilganidan so'ng sertifikatlashtirishdan o'tkazish bo'yicha majburiyat olgan shaxs, hamda SO tomonidan shu turdagi texnologik uskunalarni sertifikatlashtirishdan o'tkazish bo'yicha taqdim etgan xatiga asosan texnologik uskunalarning tarkibiy qismlari;

jismoniy shaxslarga nisbatan O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga chetdan olib kelingan notijorat maqsadlar uchun mo'ljallangan tovarlar (transport vositalaridan tashqari).

Tijorat maqsadida jismoniy shaxslar tomonidan chetdan keltirilgan bir xildagi (bir turdagi) tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvi, tovarlarning bojxona qiymatidan qat'iy nazar muvofiqlik sertifikati mavjud bo'lgan taqdirda o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

7.2. Sertifikatlashtirish chizmalarini qo‘llanilishi. 1-chizma mahsulot turini sertifikatlashtirishda qo‘llaniladi va mahsulotni majburiy ko‘rsatkichlari birinchi navbatda xavfsizlik bo‘yicha ASL da sinashni nazarda tutadi. Mazkur chizma mahsulotga aniq MH mavjud bo‘lmagan taqdirda ham qo‘llaniladi.

2- chizma mahsulot turini sertifikatlashda qo‘llaniladi va mahsulotni majburiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha ASL da sinashni nazarda tutadi. Mazkur chizma savdo nuqtalaridan (iste‘molchidan) olingan namunalarni sinovlardan o‘tkazish yo‘li bilan mahsulotni inspeksiya nazoratidan o‘tkazishni nazarda tutadi.

3-chizma ishlab chiqariladigan mahsulotni sertifikatlashtirishda qo‘llaniladi va majburiy ko‘rsatkichlarni tekshirish uchun mahsulotni ASL da sinashni va ishlab chiqarishni baholashni nazarda tutadi. Mazkur chizmada korxonada mahsulotlarni sinovlardan o‘tkazish yo‘li bilan mahsulotni inspeksiya nazoratidan o‘tkazishni nazarda tutadi.

4-chizma ishlab chiqariladigan mahsulotni sertifikatlashtirishda qo‘llaniladi va majburiy ko‘rsatkichlarni tekshirish uchun mahsulotni ASL da sinashni va ishlab chiqarish sharoitlarini baholashni nazarda tutadi.

Mazkur chizmada, savdo nuqtasidan (iste‘molchidan) yoki ishlab chiqarishdan olingan namunalarni sinovlardan o‘tkazish yo‘li bilan mahsulotni, inspeksiya nazoratini o‘tkazish nazarda tutilgan.

5-chizma ishlab chiqariladigan mahsulotni sertifikatlashtirishda qo‘llaniladi va majburiy ko‘rsatkichlarni tekshirish uchun mahsulotni ASL da sinashni va ishlab chiqarish sharoitlarini baholashni yoki sifat tizimini baholashni nazarda tutadi. Mazkur chizmada mahsulotni sinovlardan o‘tkazish va ishlab chiqarishni tekshirish (yoki sifat tizimini baholash) yo‘li bilan inspeksiya nazoratini o‘tkazish nazarda tutilgan.

6-chizma sifat tizimini sertifikatlashtirishda qo‘llaniladi va uni baholashni hamda keyinchalik inspeksiya nazoratini o‘tkazishni nazarda tutadi.

7-chizma mahsulot to‘pining sertifikatlashtirishda qo‘llaniladi va mahsulotni sinashni nazarda tutadi.

7A-chizma bitta tashqi savdo shartnomasi (kontrakti) doirasida keltirilgan mahsulotni (transport vositalaridan tashqari) sertifikatlashtirishda qo‘llaniladi va mahsulotni ASLda majburiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha sinashni nazarda tutadi.

8-chizma har bir mahsulotni (buyum) sertifikatlashtirishda qo‘llaniladi.

9-chizma mahsulotni sertifikatlashtirishda qo‘llaniladi va mahsulotning xavfsizlik talablariga muvofiqligini deklaratsiya qilishni nazarda tutadi.

3; 4; 5; 7; 7A, 8; 9 chizmalar bo‘yicha sertifikatlashtirilgan mahsulotlar muvofiqlik belgisi bilan tamg‘alanishi mumkin.

JADVALI

CHizma raqami	Akkreditlangan sinov laboratoriyalarining sinovi yoki muvofiqlikni baholashning boshqa dalili	Ishlab chiqarish sharoitlarini baholash yoki sifat tizimini baholash	Sertifikatlangan mahsulot ustidan inspeksiya nazorati (Sifat tizimini)
1.	Mahsulot turining sinovi	—	—
2.	Mahsulot turini sinovdan o'tkazish	—	Savdodan (iste'molchidan) olingan namunalarning sinovi
3.	Mahsulot turini sinovdan o'tkazish	Ishlab chiqarishni baholash	Ishlab chiqaruvchidan olingan namunalarni sinash
4.	Mahsulot turini sinovdan o'tkazish	Ishlab chiqarishni baholash	Savdo (iste'molchidan) va ishlab chiqarishdan olingan namunalarni sinovdan o'tkazish
5.	Mahsulot turini sinovdan o'tkazish	Ishlab chiqarishni baholash yoki sifat tizimini baholash	Namuna sinovi va sifat tizimini baholash (ishlab chiqarishni o'rganish)
6.	—	Sifat tizimini baholash	Boshqaruv tizimining holatini baholash
7.	Mahsulot to'pini sinovdan o'tkazish	—	—
7A.	Mahsulot to'pini sinovdan o'tkazish	—	—
8.	Har bir namunani sinash	—	—
9.	Muvofiqlik bo'yicha deklaratsiya va unga ilova qilingan hujjatlarni ko'rib chiqish	—	—

Takrorlash uchun nazorat savollar:

1. O'zbekiston Respublikasida maxsulotlarni sertifikatlashtirishni tartibi.
2. Maxsulotlarni sertifikatlashtirishni
3. Maxsulotlarni sertifikatlashtirishni qoidalari va tartiblari
4. Mahsulotlarning muvofiqligini tasdiqlash.

8§. Muvofiqlikni tasdiqlash va baxolash uchun maxsulotnisinash.


8.1. Muvofiqlikni tasdiqlash va baxolash uchun maxsulotni sinash.

Sertifikatlashtirish maxsulotni sinash. Amaldagi hamma sertifikatlashtirish tartibida mahsulotning nazoratli sinovlarini o'tkazishga asoslangan, uning belgilangan me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligi aniqlanadi. Tizim qoidalariga binoan sinovlarning korxonani o'zida mahsulotni tayyorlash jarayonida hamda iste'molchiga yuborishdan oldin o'tkaziladi. Bundan tashqari odatda sertifikatlashtirish doirasida sertifikatlashtirilgan mahsulotning sifatini barqarorligi uchun nazoratli tekshiruvni vaqti-vaqti bilan o'tkaziladi. Sertifikatlashtirish uchun o'tkaziladigan sinovlar tartibi (10-rasm), ba'zan uni sertifikatlashtirish sinovlari ham deb atalib, amaliy har qanday sinovlarga xos bo'lgan, mahsulotning sanoatda, ishlab chiqarishda ko'p yillar ichida shakllangan umumiy qoidalariga bo'ysunadi. Lekin sertifikatlashtirish sinovlarini tashkil qilish va o'tkazish uslubiyati o'ziga xos hususiyatlariga ega. Har bir sinov va uning natijalari uchinchi tomon tarafidan sertifikatlashtirish uchun ishlatilishi ko'zda tutilib, faqat sertifikatlashtirish idorasi tomonidan mahsulotning sinovlarini o'tkazish uchun xuquqli akkreditlangan sinov laboratoriyalarida yoki uning tashkilotlarida o'tkaziladi. Sinovlarni o'tkazish va uni tartibi xalkaro yoki milliy sertifikatlashtirish tizimlarining qoidalarida to'liq va aniq qilib belgilangan. Sertifikatlashtirish tartibiga qarab, ushbu mahsulotning bir turdagi nusxasi, to'dadan tanlanmasi yoki mahsulotning nusxasi sinovlardan o'tishi mumkin. Mahsulotning tavsiflari va parametrlari, ularga bo'lgan talablar me'yoriy hujjatlarda berilgan bo'ladi. SHuning uchun ularni aniq va ishonchlilik bilan sinovlar va o'lchashlar natijasida aniqlash imkonini beradi.

8.2. Sertifikatlashtirish natijalarini rasmiylashtirish. Mahsulot yoki buyum ma'lum tekshiruvdan o'tganligini, tekshiruvning xaqqoniyligini yoki sertifikatlashtirish idorasi tomonidan tekshirilganligini isbotlaydigan dalil - tamg'a, etiketka, sertifikat, ilova qilib yuboriladigan ro'yxat, sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ro'yxati yoki korxonaya tayyorlovchilarning ro'yxati hisoblanadi.

Muvofiqlik sertifikati - "Tegishlicha belgilangan mahsulot, jarayon yoki xizmatlarning ma'lum standartga yoki boshqa me'yoriy hujjatga mos kelishiga ishontiradigan va sertifikatlashtirish tizimi qoidalari asosida tashkil etilgan hujjat"dir.

Muvofiqlik sertifikatini sertifikatlashtirish idorasi yoki uning nomidan akkreditlangan idora tomonidan berilishi mumkin. ISO ta'rifiga binoan:



Muvofiqlik sertifikat - "Tegishlicha belgilangan mahsulot, jarayon yoki xizmatlarning ma’lum standartga yoki boshqa me’yoriy hujjatga mos kelishiga ishontiradigan va sertifikatlashtirish tizimi qoidalari asosida tashkil etilgan hujjat"dir.

Muvofiqlik belgisi deganda ushbu mahsulot, jarayon yoki xizmat ma’lum standartga yoki boshqa me’yoriy hujjatga mos kelishini kafolatlovchi sertifikatlashtirish tizimi qoidalari asosida berilgan yoki ishlatiladigan va ma’lum tartibda himoya qilinadigan belgi tushuniladi.

Muvofiqlik belgisini faqat mahsulotning hamma tavsiflarini belgilangan standart bo'yicha qamrab olgan bo'lgan hollardagina ishlatish tavsiya etiladi.

Sertifikatni, ham mahsulot standartlarining to'liq texnikaviy talablariga, ham alohida talablarni belgilovchi standartlar asosida berilishi mumkin.

Sertifikat berish tartibi va (yoki) muvofiqlik belgisini qo'yish, hamda uni amalda to'xtatish yoki bekor qilish, standart shakli va muvofiqlik belgisining ramzi, sertifikatlashtiriluvchi hujjatlarda belgilanadi va mahsulotning ushbu turini sertifikatlashtirish qoidasida ko'rsatiladi.

Sertifikatda qayd etiladigan ma'lumotlar quyidagilardan iborat:

-sertifikatlashtirish idorasining nomi va manzili;

-tayyorlovchining nomi va manzili;

-mahsulotni va uning to'ldasini belgilanishi, seriya raqami, sertifikatlashtirishga tegishli bo'lgan model yoki mahsulot turi;

-tegishli standartga havola;

-vakil-shaxsning imzosi va vazifasi.

Quyidagi keltirilgan hollarda sertifikat bekor qilinishi mumkin:

-agar mahsulot (buyum, mol)ning tarkibiga yoki uni ishlab chiqarish texnologiyasiga o'zgartirishlar kiritilsa, bu esa o'z navbatida sertifikatlashtirish bo'yicha qilinayotgan tekshiruvda uning tavsiflariga o'zgarishlar olib kelsa, hamda shu mahsulot namunalarining sinovlari qo'shimcha bayonnomadagi standart talablariga mosligi tasdiqlanmasa;

-ishlab chiqarish texnologiyasining buzilishi va korxonatayyorlovchi mahsulotning sifati pasaysa yoki material bilan ta'minlovchi tomonidan komplektlash detallari, yig'ish qismi tegishli standartlar talablarini buzilishiga olib kelsa.

Sertifikatlashtirish natijalarini, Tizim idorasi tomonidan sertifikatlashtirish ishlari to'g'risidagi ma'lumotlarni har doim chop etilishi lozim. Bu ma'lumotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-sertifikatlashtirilgan mahsulot ro'yxati;

-akkreditlangan sinov tashkilotlarining ro'yxati;

-attestatlangan korxonalardagi sertifikatlashtirilgan mahsulot ro'yxati;

-sertifikatlashtirish hujjatlarining ro'yxati.

Bu ro'yxatlarni sertifikatlashtirish milliy idorasi bo'yicha qilinadigan ishlarda qatnashuvchi vazirliklarga yuboriladi.

8.3. Sertifikatlashtirilgan mahsulotni davlat ro'yxatiga olish.

Iste'molchilarni muayyan mahsulot sertifikatlashtirilganli to'g'risida, uni ishlatilishida sertifikat yoki uning nushasi hamda muvofiqlik belgisi bilan xabardor

qilishni amalga oshiriladi.

Muvofiqlik sertifikat – bu kerakli ishonchlilik bilan mahsulot yoki xizmat, identifikatsiyalangan shaklda muayyan standart yoki boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini bildirishini, ta'minlovchi sertifikatlashtirish milliy tizimi qoidalari bo'yicha berilgan hujjat. Sertifikat standartning barcha talablariga, hamda alohida bo'limi yoki hujjatning o'zida aniq bayon qilingan mahsulotning muayyan tavsifiga, aloqador bo'lishi mumkin. Sertifikatda taqdim qilanayotgan ma'lumot, sinov, ishlab chiqarishni baholash va boshqa tekshiruv natijalari bilan uni solishtirish imkoniyatini ta'minlab, u nima asosida berilganligini mu'lum qiladi. Har bir sertifikat davlat reestrda rasmiy ro'yxatga olinishi shart. Sertifikatlashtirish bo'yicha idora dastlabki ro'yxatga olinishini individual indentifikatsion raqami bo'lmish va qat'iy hisobot hujjatlari bo'lib hisoblangan, sertifikat blankasini to'ldirish vaqtida o'tkazadi. Sertifikatlarni yakuniy ro'yxatga olishni, sertifikatlashtirish bo'yicha idora kundalik taqdim qilayotgan hujjatlar asosida sertifikatlashtirish milliy idorasi o'tkazadi. Sertifikatda davlat reestri bo'yicha tarkib topgan ro'yxat raqami sertifikatlashtirish bo'yicha idora va arizachi haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni beradi. Ob'ektlarni baholash va muvofiqlikni tasdiqlashni ro'yxatga olish umumiy tartibi O'z RH 51-021 da belgilangan. Davlat reestri bo'yicha baholangan ob'ektlarni ro'yxat raqami tuzilmasi rasmda keltirilgan.

SHuningdek, ob'ektlarni ro'yxatga olish kodlari ro'yxati O'z RH 51-021:2004 belgilangan va u jadvalda keltirilgan.

Muvofiqlik sertifikatlarining ro'yxat raqamidan sertifikatlashtirish bo'yicha idora kodi sifatida, sertifikatlashtirishni o'tkazgan, sertifikatlashtirish bo'yicha idoraning akkreditlash haqidagi shahodatnoma tartib raqami qo'llaniladi.

Milliy akkreditlashtirish bo'yicha idora kodida **MAI** davlat tilida akkreditlashtirish milliy idora bosh harflari bo'yicha belgisi mavjud.

XX. XXX. XX. XXX. XXXXX

Ro'yxatga olingan ob'ektni tartib raqami
Akkreditlashtirish idorasi yoki sertifikatlashtirish idorasi kodi
Ro'yxatga olingan ob'ekt kodi
Muvofiqlikni baholash tizimini harfli belgilanishi
O'zbekiston Respublikasiining belgisi

Davlat reestrda ro'yxatga olish raqamining umumiy tuzilishi.

SHunga o‘xshash sertifikatlashtirish bo‘yicha milliy idora **SMI**, milliy sertifikatlashtirish tizimi **SMT**, akkreditlashtirish milliy tizimi **AMT** belgilanadi. Quyida sertifikatlashtirilgan mahsulotlar, sifat tizimi va xizmatlarga sertifikatlarni ro‘yxatga olingan raqamlari hamda akkreditatsiya guvohnomalar ro‘yxat raqamlariga misollar keltirilgan.

OB‘EKT LARNI RO‘YXATGA O LISH KODLARI RO‘YXATI

№	Ro‘yxatga olinadigan ob‘ektni nomlanishi	Kod
1	Mahsulotlarga sertifikat	01
2	Xizmatlarga sertifikat	02
3	Xorijiy sertifikatlar	03
4	Menejment tizimiga sertifikat	04
5	Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish idoralarining akkreditlanganligi to‘g‘risidagi guvohnoma	05
6	Mahsulotlarni sertifikatlashtirish idoralarining akkreditlanganligi to‘g‘risidagi guvohnoma	06
7	Laboratoriyalarni (markaz) akkreditlanganligi to‘g‘risidagi guvohnoma	07
8	Sifat bo‘yicha eksperta-auditorlarni attestatlash	08
9	Transport vositalarining turini maqullash	09
10	Xorijiy davatlardi attestanlangan sifat bo‘yicha ekspert-auditorlarning attestati	10
11	Nazorat (inspeksiya) idoralarini akkreditlanganligi to‘g‘risida guvohnoma	11
12	Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimini ro‘yxatga olish guvohnomasi	12
13	Xodimlarning layoqatliligi sertifikati	13
14	Muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiya	14
15	Eksperta-metrologlar attestati	15
16	Putur etkazmasdan nazorat sohasidagi xodimlarning layoqatliligi sertifikati	16

Masalan, akkreditlangan sertifikatlashtirish idoralar va laboratoriyalar sifat bo‘yicha ekspert-auditorlarni attestatlanganligi O‘zstandart Agentligining rasmiy saytida chop etiladi.

Arizachi mahsulotini reklama qilishda, mavjud muvofiqlik sertifikati va muvofiqlik belgisini, hamda sertifikatlashtirilgan sifat menejmenti tizimini yoki ishlab chiqarishni reklama qilish huquqiga ega.

Majburiy sertifikatlashtirishda turgan mahsulotni, lekin, u muvofiqlik sertifikatiga ega bo‘lmasa, reklama qilish qat‘iyan taqiqlanadi.

**Ro'yxatga olingan ob'ektlar to'g'risida ma'lumotlarni
qayd qilish kartochkasida yozish misoli misoli.**

№	YOzuvlarning nomlanishi	Misol
1	Davlat reestri bo'yicha ro'yxatga olish raqami	UZ.AMT.06.MAI.055
2	Blankani qayd qilish raqami	—
3	Ro'yxatga olingan sanasi	21.11.2007
4	Amal qilish muddati	3 yil
5	Tashkilotning nomlanishi (to'liq)	«Uzbek – turk test markazi» Sertifikatlashtirish idorasi o'zbekiston-turkiya qo'shma korxonasi
6	Tashkilotning nomlanishi (qisqacha)	«Uzbek – Turk test markazi» SI
7	Mahkamaga qarashliligi (mavjud bo'lganda)	–
8	Manzil	Toshkent, CHoponota ko'chasi, 9V
9	Telefon	50-01-01
10	Elektron manzil	uzttm@yandex.ru
11	Rahbar F.I.SH. (arizachi)	SHukurlaev SH.M
12	Ob'ektning nomlanishi (SI, SL, menejment tizimi, xodim, mahsulot, ...)	Sertifikatlashtirish bo'yicha idora
13	Qo'llanish sohasi/akkreditatsiya	to'qimachilik, poyafzal va mebel mahsulotlari
14	Sertifikatlash/akkreditlash o'tkazishda, me'yoriy hujjatlarga muvofiqligi to'g'risida ma'lumot	O'z DSt 5.2
15	IN o'tkazishning davriyligi	12 oyda 1 marta
16	Akkreditlashtirish (sertifikatlashtirish) idorasining qarori sanasi	17.07.2000 yildagi akkreditlash to'g'risida qaror.
17	Akkreditlash, sertifikat to'g'risidagi guvohnomani tasdiqlash, faoliyatni to'xtatish yoki bekor qilish haqida ma'lumotlar	Akkreditatsiya Kengashi nazorat dalolatnomasiga asosan 20.07.2006 yildagi № 35 qarori bilan tasdiqlagan
18	Davlat reestriddan chiqarish	

UZ. SMT. 01. 129. 00022 (sertifikatlashtirish idorasi mahsulotga bergan muvofiqlik sertifikatini ro'yxat raqami)

UZ. SMT. 04. 001. 00011 (sertifikatlashtirish idorasi menejment tizimiga bergan muvofiqlik sertifikatini ro'yxat raqami)

UZ. SMT. 02. SMI. 00011 (Sertifikatlashtirish milliy idorasi xizmatga bergan muvofiqlik sertifikatini ro'yxat raqami)

UZ. AMT. 07. MAI. 043 (Akkreditlashtirish milliy idorasi laboratoriyani, akkreditlashtirish haqidagi bergan guvohnomani ro'yxat raqami). Sertifikatlashtirish idoralari berilgan, bekor qilingan sertifikatlar hisobi to'g'risida va sertifikatlashtirish faoliyati haqidagi, ma'lumotlarni Sertifikatlash milliy idorasiga taqdim qiladi. Ular o'zining faoliyati va berilgan sertifikatlar haqida qiziquvchi tashkilotlarni xabardor qilishi mumkin.

O'zstandart Agentligi sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni reestrini boshqa ob'ektlarni ro'yxatga olish, bekor qilingan sertifikatlar to'g'risida ma'lumotlar bo'yicha umumiy ro'yxatga olishni ishlarini olib boradi.

Har bir ob'ektni ro'yxatga olish vaqtida jadvalda keltirilgan ma'lumot kartasini to'ldirish tavsiya etiladi.

Takrorlash uchun nazorat savollar:

1. Muvofiqlikni tasdiqlash va baxolash uchun mahsulotni sinash.
2. Sertifikatlashtirish mahsulotni sinash.
3. Sertifikatlashtirish natijalarini rasmiylashtirish.
4. Sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davlat ro'yxatiga olish.

9§. Sertifikatlash ob'ektlarni inspeksion nazorati.

9.1.Sertifikatlash ob'ektlarni inspeksion nazorati. Akkreditlashtiruvchi idora ("O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish" agentligining inspeksion nazorat bo'limi) yilida bir marta akkreditlangan ob'ektlar faoliyatining inspeksion nazoratini o'tkazadi. Inspeksion nazoratni o'tkazishga talablar Adliya vazirligida 20.04.2005 yil №1472 sonli ro'yxatga olingan «Akkreditlangan sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar va sinov laboratoriyalari (markazlar) faoliyatlarining inspeksion nazoratini o'tkazish qoidalari»da belgilangan.

Me'yoriy hujjatlar, sifat tizimining hujjatlashtirilgan protseduralari, akkreditatsiya sohasi hamda sertifikatlashtirish va sinash bo'yicha hujjatlar inspeksion nazorat ob'ektlari bo'lib hisoblanadi.

Inspeksion nazorat akkreditlashtiruvchi idora bilan tuzilgan kelishuvga muvofiq rejalashtirilgan tartibda amalga oshiriladi. Ushbu kelishuvga binoan akkreditlashtiruvchi idora rahbari har yili tasdiqlovchi, ob'ekt faoliyati inspeksion nazoratining yillik reja-grafigini tuziladi.

Sertifikatlashtirish bo'yicha idora faoliyatining rejadan tashqari inspeksion nazorati, sertifikatlashtirish protsedurasi bo'yicha arizachiga noqonuniy munosabatdagi faoliyati va muvofiqlik sertifikatini noqonuniy berishi va asoslanmagan dalillar to'g'risida rasmiy tasdiqlashi muayyan aniq dalillarda keltirilgan, shuningdek, arizachining tijorat sirlarini oshkora qiluvchi ma'lumotlar kelgan holatlarda o'tkaziladi.

Inspeksion nazoratni o'tkazish uchun akkreditlovchi idoraning ya'ni inspeksion nazoratni amalga oshiruvchi komissiya tarkibi va uni o'tkazishning aniq muddatini ko'rsatuvchi buyrug'i asos bo'lib hisoblanadi. Inspeksion nazoratni o'tkazish muddati o'ttiz kalendar kundan oshmasligi lozim.

Inspeksion nazoratni sifat bo'yicha ekspert-auditorlar amalga oshirishadi. Ob'ekt akkreditatsiya sohasiga bog'liqligidan komissiya tarkibiga inspeksion nazorati vaqtida ko'riladigan masalalar bo'yicha malakali mutaxassislarni (sinov turlari bo'yicha ekspertlar, tayyorlovchining vakillari, iste'molchilarni huquqlarini himoya qilish jamiyati, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari) kiritish mumkin. Komissiya a'zolari maxfiylikni ta'minlash bo'yicha talablarga rioya qilishlari shart.

Inspeksion nazorat, akkreditlovchi idora rahbari tasdiqlagan dastur bo'yicha o'tkaziladi. Inspeksion nazorat dasturida tekshirish ob'ekti va maqsadi, inspeksion nazoratni o'tkazish bo'yicha ishlar tartibi va hajmi tarkib topgan bo'lishi shart.

Inspeksion nazorat boshlanishidan oldin Komissiya rahbari tekshirilayotgan tashkilot rahbarini inspeksion nazorat maqsadi va shartlari, komissiya a'zolari bilan tanishtirishi, hamda buyruq va dasturni bir nusxasini berishi va ular olganligini to'g'risida tilxat olishi shart.

Sertifikatlashtirish bo'yicha idora faoliyatining rejali inspeksion nazoratida quyidagilar tekshiriladi:

-baholashning mustaqilligi;

-laboratoriyalar bilan o'zaro faoliyati;

-tanlash dalolatnomasi va identifikatsiyasi mavjudligi hamda muvofiqligi, sinov bayonnomalari, sertifikatlashtirish bo'yicha ishlab chiqarish ko'rigi dalolatnomalari, sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni inspeksion nazoratining reja-grafigi;

-muvofiqlik sertifikatini berish to'g'risida qabul qilingan qarorlarni asoslanganligi, muvofiqlik sertifikatini to'g'ri rasmiylashtirilganligi,

sertifikatlashtirish bo'yicha qaror qabul qilish uchun foydalanilgan MH lardagi ma'lumotlar va muvofiqlik sertifikatidagi ma'lumotlarning muvofiqligi;

-berilayotgan muvofiqlik sertifikatlarini ro'yxatga olinishi;

-muvofiqlik sertifikatlarining blanklarini qat'iy hisobi;

-arizachilarining da'vo, shikoyatlari tahlil va hisobi;

-akkreditlashtirish haqida guvohnoma;

-mahsulot va xizmatlarga MH ta'minlanganligi, ularni amal qilish muddati, ularga o'zgarishlarni o'z vaqtida kiritilishi;

-muvofiqlik sertifikati va belgisidan noto'g'ri qo'llanilganligi uchun sertifikatlangan mahsulot tayyorlovchisiga qo'llanilgan choralari;

-xodimlarning malakasi va layoqatligini muvofiqligi, bajaridigan vazifalari, xodimlarni attestatsiyalash va malakasini oshirishga taaluqli qabul qilingan faoliyati, lavozim va ishchi yo'riqnomalarning mavjudligi;

-sertifikatlashtirish bo'yicha idora faoliyati va shuningdek laboratoriya xizmatlari bilan aloqador ma'lumotlarning maxfiylikini ta'minlanishi;

-akkreditlashtirish idorasi, hamda uning qarorlarini bajarishda o'zaro faoliyati.

Laboratoriya faoliyatining rejali inspeksion nazoratida quyidagilar tekshiriladi:

-sinov (o'lchash)larni o'tkazishda mustaqillik va xolislik;

-akkreditlashtirish idorasi, sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar va boshqa akkreditlangan sinov laboratoriyalari bilan o'zaro faoliyati va shuningdek, akkreditlashtiruvchi idoraning, laboratoriya faoliyati bilan aloqador qarorlarini bajarish;

-laboratoriya akkreditlashtirish sohasiga muvofiq, sinov bayonnomalarini mavjudligi va muvofiq rasmiylashtirilishi, to'liq va to'g'ri taqdim etilishi, ularni yuritish va saqlash tizimi;

-arizachilarning da'vo, shikoyatlari tahlili va hisoboti;

-akkreditlashtirish to'g'risidagi guvohnoma;

-mahsulotlarga MHlarni ta'minlanganligi, ularni amal qilish muddati, ularga o'zgarishlarni o'z vaqtida kiritilishi;

-xodimlarning malakasi va layoqatligini muvofiqligi, bajaridigan vazifalari, xodimlarni attestatsiyalash va malakasini oshirishga taaluqli qabul qilingan faoliyati, lavozim va ishchi yo'riqnomalarning mavjudligi;

-inshoatning holati, inshoatning mikroklimatik parametrlarini qurilish va sanitariya me'yorlari hamda qoidalri talablariga muvofiqligi;

-sinovlarning o'tkazish sharoitlarini muvofiqligi, laboratoriya akkreditlashtirish sohasi va sinov usullariga MHlarida o'rnatilgan xavfsizlik

talablari va me'yorlariga ta'sir qiluvchi zararli ishlab chiqarish omillari va xavfli parametrlar;

-qiyoslangan o'lchov vositalari va attestatlangan sinov qurilmalari, boshqa texnikaviy vositalar shuningdek, davlat standart namunalari, boshqa toifadagi standart namunalar, attestatlangan aralashmalari, ularni metrologik ta'minlash maqsadida va sifat menejmenti tizimi protseduralari va sinov (o'lchash) usullari talablariga muvofiqligi holatlari;

-sinaladigan (o'lchanadigan) namunalar va yozuvlarni yuritish (talabnomani qabul qilish, tanlanma dalolatnomasi, ro'yxatga olish, namunalarni saqlash sharoitlari va utillashtirish) bilan murojaat qilishga talablarga rioya qilish;

-laboratoriya faoliyati bilan hamda u xizmatlaridan foydalanayotgan sertifikatlashtirish bo'yicha idora va nazorat idoralari bilan aloqador ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash;

-laboratoriyalararo solishtirish natijalari. Zaruriyat bo'lganda, agarda laboratoriyalararo solishtirish o'tkazilmasa, laboratoriya layoqatliligini tasdiqlash maqsadida nazorat sinovi (o'lchashi) o'tkaziladi. Nazorat sinovi (o'lchash)ga yo'naltirilgan mahsulotlar turi, mahsulotlarning tekshiriladigan tavsiflari, namunani (proba) tanlash va tayyorlash, nazorat sinovi (o'lchash) dasturida o'rnatilgan tavsiflar qiymatining anonimligini ta'minlash.

Inspeksion nazorati vaqtida nomuvofiqliklar topilganda nomuvofiqlik to'g'risidagi bayonnoma rasmiylashtiriladi. Komissiya inspeksion nazorati natijalari bo'yicha akkreditatsiya mezonlariga ob'ektning muvofiqligi umumiy baholanishidan tarkib topgan, ikki nusxa dalolatnoma tuzadi, ulardan biri tekshirilayotgan sertifikatlashtirish bo'yicha idora yoki laboratoriya rahbariga topshiriladi va ikkinchisi akkreditlashtirish idorasiga taqdim etish uchun komissiya rahbarida qoladi. Inspeksion nazorati dalolatnomasini komissiyaning barcha a'zolari va tekshirilgan ob'ekt rahbari imzolab ya'ni inspeksion nazorat natijalari bilan kelishmovchiliklar holatlarida o'zining fikrlarini bayon etishi mumkin.

Inspeksion nazorat natijalari bo'yicha 5 kun davomida inspeksion nazorat dalolatnomasi tuzilgan kun bilan akkreditlashtiruvchi idora akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomani amal qilishini tasdiqlash, to'xtatish yoki bekor qilish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Inspeksion nazorat natijalari ijobiy bo'lganda akkreditlashtirish haqidagi guvohnomasini tasdiqlash to'g'risidagi qaror qabul qilinadi.

Inspeksion nazorati vaqtida nomuvofiqliklar bartaraf etilmaganligi mavjud bo'lsa, lekin to'g'rilovchi amallar yo'li bilan ikki oydan ko'p bo'lmagan muddatda bartaraf qilinishi mumkin bo'lsa, akkreditlashtirish haqidagi guvohnomani amal qilinishini to'xtatish to'g'risidagi qarorni qabul qilinadi.

Akkreditatsiya sohasida intizomga rioya qilmasligi shuningdek, akkreditlashtiruvchi idoraning qarorida oʻrnatilgan muddatlarda aniqlangan nomuvofiqliklar boʻyicha toʻgʻrilovchi amallarni bajarmaganligi holatlarida akkreditlashtirish haqidagi guvohnomani amal qilinishini bekor qilish haqidagi qaror qabul qilinadi.

Inspeksion nazorati natijalari boʻyicha akkreditlashtirish haqidagi guvohnomasi bekor qilingan sertifikatlashtirish boʻyicha idora yoki laboratoriya Davlat reestridan chiqariladi va akkreditlashtiruvchi idora bu toʻgʻrisida qiziquvchi shaxslar va tashkilotlarni xabardor qiladi.

Inspeksion nazorat natijalari boʻyicha qabul qilingan qarorlar tekshirilgan obʻektga qaror uch kun davomida joʻnatiladi.

Inspeksion nazorat natijalari bilan kelishmovchiliklar boʻlgan holatlarda qiziquvchi tomon “Oʻzbekiston texnik jixatdan tartibga solish” Agentligiga yoki bevosita sudga murojaat qilishi mumkin. “Oʻzbekiston texnik jixatdan tartibga solish” Agentligi qaroridan oʻrnatilgan qonunchilik tartibida sudga shikoyat qilinishi mumkin.

9.2. Sertifikatlashtirilgan SMT ning inspeksion nazorati:

1. Inspeksion nazorat rejali va rejadan tashqari boʻlishi mumkin.


2. Rejali inspeksion nazorati sertifikat amal qilish muddati davomida yilida kamida bir marta oʻtkaziladi.

3. Rejali inspeksion nazoratda umumiy tekshirish hajmi qoʻshilib, sifat menejmenti tizimining 1/2 elementlaridan kam boʻlmasligi lozim. Har bir inspeksion nazoratda tanlab olish asosida joriy qilingan sifat tizimining standart talablariga javob bera olishi, avvalgi tekshirishlarda aniqlangan nomuvofiqliklarning bartaraf qilinganligi, ichki audit natijalari va doimiy yaxshilanish mavjudligi tekshiriladi.

4. Rejadan tashqari inspeksion nazorat quyidagi holatlarda oʻtkaziladi:

- sertifikatlashtirish idorasi sertifikatlangan SMTdan jiddiy kamchiliklar aniqlanganligi haqidagi nazorat qiluvchi tashkilotlar dalolatnomalari maʼlumotlarini, yoki ommaviy axborot vositalari orqali tanqidiy chiqishlar qilinganligi toʻgʻrisidagi va shu bilan birga sertifikat oluvchining ishlab chiqaradigan mahsulot sifatiga isteʼmolchilar tomonidan shikoyatlar mavjudligi haqidagi maʼlumotlarni olsa; - tashkilotning tashkiliy tuzulmasi, ishlab chiqarish texnologiyasi va shartlari, asosiy ishlab chiqarishda ishlovchi mutaxassislar tarkibida juda katta miqdordagi son oʻzgarishlari yuzaga kelgan boʻlsa.

Sertifikatlashtirilgan sifat menejmenti tizimining inspeksion nazorati protsedurasi ketma-ketligi.



Agar inspeksion nazoratda oldingi o'tkazilgan tekshirishlar bo'yicha aniqlangan nomuvofiqlikni bartaraf etish bo'yicha rejalashtirilgan to'g'rilovchi

amallar bajarilmagan deb topilsa, sertifikatlashtirish idorasi berilgan sertifikatni uch oy muddatga to'xtatish to'g'risidagi qarorni rasmiylashtiradi.

5. Rejadan tashqari inspeksion nazoratda audit ob'ektlari sabablarga bog'liqligi va inspeksion nazoratni o'tkazish zaruriyatining kelib chiqishi bilan belgilanadi.

6. Sertifikatlashtirish idorasi inspeksion nazoratni o'tkazish bo'yicha tuzilgan shartnomadagi oldindan to'lovlar amalga oshirilganidan so'ng, inspeksion nazorat o'tkazish bo'yicha komissiyani tuzadi va inspeksion nazorati bo'yicha komissiya raisini tayinlaydi. Rahbariy hujjatlar talablariga muvofiq (inspeksion nazorat) audit mehnat hajmi va ob'ektlarni tekshirish qiyinchiligi hamda sonini inobatga olib komissiya a'zolarining ishtirokchilari aniqlanadi.

7. Sertifikatlash idorasi sertifikatlashtirilgan SMT inspeksion nazoratini o'tkazish rejasini tuzib chiqadi.

8. Inspeksion nazorat natijalari, xulosalari va tavsiyalarini komissiya o'rnatilgan shakl bo'yicha dalolatnoma ko'rinishida rasmiylashtirib, sertifikatlashtirish idorasiga taqdim qiladi.

9. Inspeksiya nazorati natijalari ijobiy bo'lsa sertifikatlashtirish idorasi muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddatini tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qiladi.

Takrorlash uchun nazorat savollar:

1. Sertifikatlash ob'ektlarni inspeksion nazorati.
2. Inspeksion nazoratning axamiyati.
3. Sertifikatning maxiyati.
4. Sertifikatlashtirilgan maxsulot, xizmat, jarayon, sait tizimi va xodimlarni inspeksion nazoratini o'tkazish.

10§. O'zbekiston Respublikasi akkreditlashtirish milliy tizimining asosiy qoidalari.

10.1. O'zbekiston Respublikasi akkreditlashtirish milliy tizimining asosiy qoidalari. O'zbekiston Respublikasida akkreditlashtirish tizimini ishlab chiqishdan maqsad mahalliy mahsulotlar, xizmatlar yoki jarayonlarning muvofiqligini tasdiqlovchi sertifikatlar va boshqa hujjatlarni xalqaro tan olinishi uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Bu shart-sharoitlar O'zbekiston Respublikasining xalqaro akkreditlashtirish tizimi (ILAC, IAF)ga qo'shilishi va tan olish bo'yicha kelishuv tuzishda asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tan olish xorijiy akkreditlashtirish tizimlari, bu tizimning xilma xil qiymatlilikini hisobga

olgan xolda akkreditlashtirish milliy tizimiga ishonishga asoslangan. Bunda sinov natijalari muvofiqligi va sertifikatlangan mahsulot sifati ko'rsatkichining barqarorligi muvofiqlikni tasdiqlash bo'yicha reglamentlangan xalqaro standartlarga muvofiq akkreditlangan sertifikatlashtirish va nazorat idoralari, sinash, kalibrlash (qiyoslash) laboratoriyalari faoliyatlarining layoqatliligi bilan kafolatlanishi ko'zda tutilgan.

O'zbekistonda mustaqil akkreditlashtirish milliy tizimi 1998 yilda yaratildi. Tizimni yaratish akkreditlash yo'li bilan tashkilotlar muvofiqligini baholash sohasida davlatning o'rini kuchaytirishni yo'lga qo'yadi. Akkreditlash muvofiqlikni tasdiqlash sohasida o'zining layoqatliligini bahosini olishni ixtiyoriy istovchi sub'ektlar munosabatida amalga oshiriladi.

Akkreditlash tizimi – akkreditlashni amalga oshirish uchun protsedura va boshqaruvning o'z qoidalariga ega bo'lgan tizim.

Tizimning me'yoriy asosi (bazasi) 10-rasmda ko'rsatilgan xalqaro standartlar bo'lib hisoblanadi. Tizimning qonuniy hujjatlariga 17.07.2006 yil Adliya Vazirligida №1596 sonli ro'yxatga olingan «Sertifikatlashtirish sohasidagi nazorat idoralari, bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralari, sinov (o'lchash) laboratoriyalar (markazlar)ni akkreditlash qoidalari» taaluqlidir.

Tizimda «akkreditatsiya» atamasi «o'rnatilgan talablarga mahsulotlar, xizmatlar, xodimlar va sifat tizimining muvofiqlikni baholash va tasdiqlash bo'yicha muayyan ishlarni bajarish uchun huquqiga egaligini rasman tan olish» deb ta'riflangan.

Akkreditlashtiruvchi idora bu «o'rnatilgan talablarga mahsulotlar, xizmatlar, xodimlar va sifat tizimining muvofiqlikni baholash va tasdiqlash bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun rasmiy vakolat beruvchi, davlat boshqaruv idora». O'zbekiston Respublikasida akkreditlashtirish idorasi sifatida O'zstandart Agentligi vakolatlangan.

Akkreditlashtirish bo'yicha Kengash bu «o'tkazilgan akkreditlash natijalari bo'yicha qaror qabul qiluvchi milliy akkreditlash tizimining rahbariy idorasi».

Akkreditlash sohasi, bu «muvofiqlikni tasdiqlash bo'yicha aniqlangan faoliyat sohasida muayyan ishlarni, ya'ni akkreditlashga taqdim qilingan va berilgan arizani bajarish».

Tizim quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

-milliy darajada tizimni tan olish;

-o'zining qoida va protseduralirining mavjudligi;

-akkreditlashtirish ob'ektlarining ishchi holati masalalari va xorijiy va xalqaro akkreditlash tizimlari bilan munosabatlarni rivojlantirish bo'yicha tizimini takomillashtirish;

-tizimda barcha yuridik va jismoniy shaxslarni qatnashishiga imkoniyatlar mavjudligi;

-tizim a'zolarining layoqatliligini xodimlar etarli malakasi, ularni vakolatlari va texnikaviy vositalar bilan ta'minlash;

-akkreditlash natijalari va protseduralari xolisligi, adolatsiz qarorlar va kamsitishlar (haq-huquqlarini chegaralash) mavjud emasligi;

-tizimda o'rnatilgan qatnashchilar yoki barcha qiziquvchilarga munosabati bo'yicha tayyorligi:

-akkreditlash natijalarini yuridik yoki jismoniy shaxslar ta'sirlaridan mustaqilligi;

-qarorlarni qabul qilish va ushbu tamoyillarga rioya qilish uchun tizimda rahbarlarning javobgarligi;

-tizim tuzilmasining ma'qulligi va akkreditlash protseduralari xarajatlarini kamaytirish;

-akkreditlash ob'ektlari haqidagi, tijorat qiziqishiga taaluqli ma'lumotlarning maxfiyligi;

-akkreditlashtirishning barcha qatnashchilari uchun tekshirish va baholash usullari ochiqligi va maqbulligi.

Tizim xalqaro akkreditlashtirish tizimlari bilan kelishuv asosida o'zaro faoliyat olib boradi.

Akkreditlashtirishning maqsadlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

-mahalliy mahsulotlar, xizmatlar va jarayonlar xavfsizligi, sifati va raqobatbardoshligini oshirish;

-xalqaro kelishuvlarda texnikaviy to'siqlarni bartaraf etish;

-sinov laboratoriyalari, qiyoslash va kalibrlash bo'yicha laboratoriyalar, nazorat va sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar, metrologik xizmatlar va standartlashtirish bo'yicha xizmatlar faoliyatlari natijalarini xalqaro tan olinishini ta'minlash va texnikaviy layoqatliligini oshirish.

Akkreditlashtirish vazifalari bo'lib me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq jismoniy shaxslar va tashkilotlar faoliyatini huquqiy rasman tasdiqlash hisoblanadi.

Tizimda akkreditlashtirish ob'ektlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

-sinov laboratoriyalari;

-qiyoslash va kalibrlash laboratoriyalari;

-mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar;

-menejment tizimlarini sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar;

-tekshiruv (nazorat) idoralar;

-yuklash oldi inspeksiyasi bo'yicha maslahat firmalar;

-sifat bo'yicha ekspert-auditorlar.

Majburiy akkreditlashtirish ob'ektlariga, qonunchilik faoliyatida amalga oshiriluvchi boshqariladigan sohalar kiradi.

Sertifikatlashtirish, standartlashtirish, metrologiya, sinash, nazorat, kalibrovka (qiyoslash) sohalarida o'zining faoliyati natijalarini xalqaro tizim darajasida va Tizim qoidalari bo'yicha ixtiyoriy tartibda akkreditlangan kelishuvlar bo'yicha tan olinishga erishuvchi ob'ektlar bo'lishi mumkin.

Birga qo'shiluvchi faoliyatlar, ikki va undan ortiq akkreditatsiya sohalarini, ushbu sohalar bo'yicha ob'ektlarning barchasi akkreditlanishi lozim. Bunda akkreditlash bir vaqtning o'zida barcha talab qilingan sohalar yoki akkreditlash tartibiga qo'shimcha sohalar, bosqichma-bosqich o'tkazilishi mumkin.

Xalqaro laboratoriyalarni akkreditatsiya qilish tashkiloti (ILAC). *Sinov laboratoriyalarini akkreditlash bo'yicha Xalqaro konferensiya - (ILAK) 1977 yil (Kopengagen, Daniya)da birinchi bo'lib tashkil etilgan.*

Konferensiyani ish olib borishidan maqsadi savdoda texnik to'siqlarni sinov laboratoriyalarini akkreditlash yo'li bilan xalqaro darajadagi tamoyillar va usullarni, sinov natijalarini o'zaro ishonchliligini o'rnatish asosiy yo'nilishdir.

ILAK o'zining faoliyati darajasida xalqaro kelishuvni ikki turini ko'zda tutadi:

-akkreditlanmagan laboratoriya sinov sertifikatlari, bayonnomalarni o'zaro tan olish bo'yicha kelishish;

-milliy tizim akkreditlangan sinov laboratoriyalarini o'zaro tan olish bo'yicha kelishish (sertifikatlarni va ulardan foydalanish imkoniyati mavjudligi).

O'tgan asrning 90-yillarining o'rtalarida Evropa Ittifoqida (ES) ishlab chiqariladigan va sotiladigan mahsulotlar sifati bo'yicha yangi siyosat qabul qilindi.

ISO va MEK ishlab chiqqan xalqaro qoidalariga asosan laboratoriyalarini akkreditlashdan maqsad sinov laboratoriyalarini aniq sinovlar yoki aniq tur sinovlari (ISO/MEK Rukovodstvo 2.86) o'tkazishga huquq berishdan iborat.

Akkreditlangan sinovlar tushunchasi mahsulotni sertifikatlashtirish faoliyati bilan chambarchas bog'langandir.

ILAK (International Laboratory Accreditation Conference) birinchi marta 1977 yili Kopengagen (Daniya) da chakirilgan. ILAK ning yaratilishidan milliy tizimlarini o'zaro tan olish bilan amaldagi va xalqaro bitimlardagi ma'lumotlarni, mahsulotni sinash natijalarini va boshqa mahsulot sifati haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirishga harakat qilish.

1980 yilda chakirilgan ILAK ning konferensiyasida milliy tizimlarining akkreditlangan laboratoriyalarini o'zaro tan olish bo'yicha amaldagi ikki va ko'p tomonlama bitimlar haqida ma'ruza tayyorlashga qaror qabul qilindi.

Ish jarayonida ikki xil xalqaro bitimlar borligi namoyon bo'ldi:

Laboratoriyalarni akkreditlamasdan sinov natijalarini va sertifikat bayonnomalarini o'zaro tan olish bitimi;

Sinov laboratoriyalarining akkreditlash milliy tizimlarini o'zaro tan olish bitimi (tan olishni sertifikatga yozish bilan).

SHu masalalar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan va ularning natijalariga ko'ra shunday bitimlar zarurligi qayd qilindi.

Laboratoriyalarning akkreditlash masalalari hozirgi kunda aktual bo'lib, ular bilan bog'liq bo'lgan materiallarni sistemali ravishda chop etilish zarurati tugildi. SHu masalalarda har doim ILAK o'z materiallarining chop etilishini «Metrologiya» jurnali tahririyati bilan hamkorlikda amalda oshirilishiga qaror qildi.

1983 yili ILAK tashabbusi bilan sinov laboratoriyalari uchun sifat bo'yicha qo'llanma tuzishga tavsiyaviy loyiha tayyorlandi, 1986 yili esa bunday tavsiya qabul qilindi. ISO va MEK lar tomonidan qayta ishlangan bu hujjat ISO - MEK 49 qo'llanmasi nomi bilan ma'lumdir.

ILAK tomonidan ishlab chiqarilgan xalqaro hujjatlar mahsulotni chetga chiqaradigan va chetdan mol olib keladigan mamlakatlardagi savdo – iqtisodiy siyosatiga katta ta'sir o'tkazmoqda. Bunga misol tariqasida EES mamlakatlari tomonidan 1989 yili qabul qilingan akkreditlanuvchi laboratoriyalarga talablar asosini belgilovchi akkreditlar va sertifikatlashtirish idoralari uchun zarur Evropa EN – 45000 standartini ko'rsatish mumkin.

ILAC/O'zstandart» agentligi ILAC va IAF to'laqonli a'zolari hisoblangan davlatlarning ro'yxatlarini e'lon qildi. Ushbu axborot ayrim tovarlarni sertifikatlashtirmay olib kirishlari mumkin bo'lgan tadbirkorlar uchun mo'ljallangan. Eslatib o'tamiz, Prezidentning 12.12.2018 yildagi PQ-4059-son qaroriga muvofiq, ustav kapitalida davlat ulushi 50%dan ko'p miqdorda bo'lmagan tadbirkorlik sub'ektlari uchun (erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilari bundan mustasno) 1.01.2019 yildan boshlab olib kiriladigan mahsulotlarni sertifikatlashtirishning soddalashtirilgan rejimi joriy etilgan (sharhga qarang). CHunonchi, O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan ixtisoslashgan va qishloq xo'jaligi texnikasi, texnologik uskunalari, ularning butlovchi va ehtiyot qismlari, shuningdek majburiy sertifikatlanishi lozim bo'lgan mahsulot ishlab chiqarishda foydalaniladigan nooziq-ovqat xom ashyo, materiallar va buyumlar O'zbekiston hududiga olib kirilayotganda majburiy sertifikatlashtirishdan ozod qilingan. Olib kirilayotgan tovar uchun Xalqaro laboratoriyalarni akkreditatsiya qilish tashkiloti (ILAC) va Xalqaro akkreditatsiya qilish forumi (IAF) to'laqonli a'zolari hisoblangan davlatlarning sertifikatlashtirish organlari tomonidan berilgan

muvofiqlik sertifikatlari yoki sinov bayonnomalari taqdim etilgan taqdirda ushbu norma amal qiladi.

10.2. Akkreditatsiyalashtirish. Akkreditlashtirish tizimining tashkiliy tuzilmasi. Akkreditlashtirish milliy tizimi tuzilmasiga quyidagilar kiradi:

- akkreditlashtirish bo'yicha kengash;
- akkreditlashtirish bo'yicha idora (O'zstandart Agentligi);
- ilmiy-uslubiy markaz (SMSITI);
- akkreditlashtirish ob'ektlari;
- akkreditatsiya bo'yicha ekspert-auditorlar (baholovchilar).

Tizimning tuzilma sxemasi rasmda keltirilgan.

Akkreditlashtirish bo'yicha kengash milliy darajada va davlat boshqaruv idoralari vakillari, akkreditlashtirish ob'ektlari, hamda ishlab chiqaruvchilar, mahsulot iste'molchilari, tekshirish va nazorat ob'ektlari va o'lchash vositalaridan foydalanuvchilar shuningdek, boshqa qiziquvchi tashkilotlardan tarkib topgan.

Akkreditlashtirish bo'yicha kengashning vazifalari:

- akkreditlashtirish sohasidagi yagona siyosatni olib boradi va rivojlantiradi;
- sertifikatlashtirish va sinov natijalarini xalqaro tan olinishiga imkoniyat yaratish;
- akkreditlashtirish sohasidagi xalqaro hamkorlikka imkoniyat yaratish;
- baholashda olingan natijalar va akkreditatsiya komissiyasini shakllantirish bo'yicha akkreditlashtirish idoralari maslahat berish;
- sertifikatlashtirish idoralari va akkreditlashtirish laboratoriyalari faoliyatlarini muvofiqlashtiradi, hamda akkreditlashtirish idorasida apellyasiya komissiyasi ko'rib chiqishini nazorat qiladi.

Kengash o'zining davriy yig'lishini yig'adi va umumiy tashkilot bo'lib hisoblanadi. Tashkilotning yig'ilishni tayyorlash, qabul qilingan qarorlarni bajarilish masalalri bo'yicha doimiy ishlar uchun kengashning kotibati yaratilgan.

Kengash qarorni qabul qilish va bajarish uchun kelishmovchiliklar bo'yicha ishchi guruh va apellyasiya bo'yicha komissiya tuzadi.

Zaruriyat bo'lganda tizimda bir nechta akkreditlashtirish bo'yicha idoralar tuziladi.

Akkreditlashtirish bo'yicha idora quyidagi yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshiradi:

- akkreditlashtirishni o'tkazish uchun boshqaruv va protsedura qoidalarini o'rnatadi;
- akkreditlashtirish bilan navbatdagi inspeksion nazoratini o'tkazadi;

-akkreditlangan ob'ektlar, ya'ni nomi, ob'ekt rahbari va manzili, akkreditatsiya sohasi va akkreditatsiya attestatining amal qilish muddati to'g'risidagi ma'lumotlardan tarkib topgan reestrini yuritadi;

-xorijiy akkreditlangan sinov laboratoriyalari, sertifikatlashtirish va nazorat idoralari, kelishuv doirasidagi O'zbekiston Respublikasida tan olingan muvofiqlik sertifikatini va sinov bayonnomalari ro'yxatini yuritadi;

-akkreditlashtirish masalalari bo'yicha milliy tizimlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasida akkreditlashtirish natijalari haqida qiziquvchi tashkilotlar va xalqaro akkreditlashtirish tizimlarni xabardor qiladi va tizim hujjatlarini aktualligini (dolzarbligini) ta'minlaydi.

Ilmiy-uslubiy markaz tizimda quyidagi vazifalarni bajaradi:

-tizimning me'yoriy bazasini ishlab chiqadi va takomillashtiradi;

-ularni akkreditlashtirish maqsadi uchun tashkilot hujjatlarini ekspertizadan o'tkazadi;

-akkreditlashtirish bo'yicha idora topshirig'i bo'yicha akkreditlangan ob'ektlarni faoliyatini inspeksion nazorati va qayta akkreditlashtirishda, akkreditatsiya bo'yicha komissiya ishlarida qatnashadi;

-akkreditlashtirish bo'yicha ekspert-auditorlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;

-qiziquvchi tashkilotlar va shaxslarga akkreditlashtirish tartibi, mezonlari va qoidalari bo'yicha maslahat beradi.

Akkreditlashtirish tizimida akkreditlashtirishga hohish istagini bildirgan tashkilot va shaxslar (akkreditlashtirish ob'ektilari):

-talab etilgan akkreditlashtirish sohasiga muvofiq aniqlangan ish turlarini bajarishga tayyorgarligini ta'minlaydi;

-akkreditlashtirish idoralari va akkreditlashtirish jarayonida tizimning boshqa qatnashchilari bilan o'zaro faoliyatda akkreditlashtirishga ariza beradi;

-o'rnatilgan tartibga muvofiq akkreditlashtirish bo'yicha ishlarga (uning natijalaridan mustaqil) to'lovlarni bajaradi.

Akkreditlashtirish milliy tizimining tashkilish sxemasi.

Akkreditlangan tashkilot va shaxslar:

-o'rnatilgan qoidalar bo'yicha akkreditatsiya sohasiga muvofiq qat'iy rioya qilgan holda ishlarni bajaradi;

-akkreditatsiya shartlarini buzgan holatlarda muvofiqlikni tasdiqlash bo'yicha faoliyati to'xtatiladi yoki tugatiladi yoki akkreditatsiya attestati to'xtatiladi yoki bekor qilinadi;

-oʻrnatilgan talablarga (shuningdek sifat tizimi) muvofiq tashkilot qoʻllab-quvvatlaydi;

-akkreditlashtirish sohasidagi oʻziga xos ishlarni bajarishda tashkiliy tuzilmasi, texnikaviy qurilmalari va boshqa shartlarning oʻzgarishi haqida faoliyati toʻgʻrisida maʼlumotlarni akkreditlovchi idoraga taqdim etadi;

-akkreditlashtiruvchi idoraning inspeksion nazorati faoliyati va muvofiq toʻgʻrilovchi amallarni qabul qilishda zaruriy sharoitlarni yaratadi.

Takrorlash uchun nazorat savollar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi akkreditlashtirish tartibi asosiy qoidalari.
2. Akkreditlashtirish tamoillari.
3. Akkreditlashtirish tartibi.
4. Inspeksion nazorati.

11-§. Mahsulotlarni ixtiyoriy ekologik markirovkalash

Mahsulotlarni ixtiyoriy ekologik markirovkalash Oʻzbekiston respublikasida mahsulotlarni ixtiyoriy ekologik markirovkalash tizimini joriy etish Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasi va Germaniya Federativ Respublikasi oʻrtasida koʻp qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2019-yil 1-fevraldagi PQ-4145-son [qarorini](#) ijro etish yuzasidan, shuningdek, mahsulotlarning xossalari toʻgʻrisida fuqarolarning xabardorligini taʼminlash, mahsulotlarning ekologik xavfsizligini kafolatlash va ushbu sohada xalqaro standartlarga bosqichma-bosqich oʻtish hisobiga Oʻzbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan mahsulotlar eksporti hajmlarini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror chiqqan.

11.1.Oʻzbekiston Respublikasida mahsulotlarni ixtiyoriy ekologik markirovkalash tartibi Nizom “Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida”, “Isteʼmolchilarning huquqlarini himoya qilish toʻgʻrisida”, “Ekologik nazorat toʻgʻrisida”, “Muvofiqlikni baholash toʻgʻrisida”, “[Standartlashtirish toʻgʻrisida](#)”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan ixtiyoriy ekologik markirovkalash tartibini belgilaydi. Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

ekologik markirovkalash — mahsulot va uni yaratish, ishlab chiqarish va undan foydalanish jarayonlari hamda uning ekologik xavfsizlikka muvofiqligi haqidagi ekologik ma'lumotlar to'plami;

bir xil mahsulotlar guruhi — bir xil funksiyalarni bajaradigan mahsulotlar guruhi;

ekologik xavfsizlik mezonlariga muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya (keyingi o'rinlarda muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya deb ataladi) — ishlab chiqaruvchi, import qiluvchi, distribyutor, sotuvchi yoki istalgan boshqa manfaatdor tomonning o'z faoliyati va mahsulotlar mustaqil uchinchi taraf tomonidan ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalanganligi haqida sertifikat mavjud bo'lmagan mahsulotlar to'g'risidagi arizasi;

hayot sikli — resurslarni qazib olish yoki xomashyo sotib olish yoxud tabiiy resurslardan, xomashyodan mahsulot ishlab chiqarishdan ularni atrof-muhitga joylashtirishga yoki utilizatsiya qilishgacha bo'lgan izchil va o'zaro bog'liq bosqichlar;

ariza beruvchi — mahsulotlarni ekologik markirovkalash uchun sertifikat olishga talabgorlik qiluvchi tadbirkorlik subekti;

ekologik xavfsizlik belgisi — mahsulotlarga yoki ularning qadog'iga va ilova qilinadigan hujjatlarga bosish uchun mo'ljallangan, mahsulot to'g'risidagi bosma materiallarda, shuningdek, texnik byulletenlardagi mahsulotning ekologik xavfsizligini tavsiflovchi belgi;

ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalangan mahsulotlarning inspeksiya nazorati (keyingi o'rinlarda inspeksiya nazorati deb ataladi) — ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalangan mahsulotlarni ular ekologik xavfsizlik mezonlariga muvofiqlikni baholashda belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida davriy (takroran) baholash tartibotlari;

ekologik xavfsizlik mezonlari — mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalash huquqini olish uchun mahsulotlar muvofiq bo'lishi kerak bo'lgan texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilanadigan ekologik xavfsizlik talablari;

ekologik markirovkalash organi — belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tgan, mahsulotlarning ekologik xavfsizlik mezonlariga muvofiqligini baholaydigan uchinchi tomon hisoblangan yuridik shaxs;

mahsulotning hayot siklini baholash — axborot to'plash, shuningdek, mahsulotlarning butun hayot siklida atrof-muhitga ehtimoli bo'lgan ta'sirini taqqoslash va chiqish oqimlarini baholash;

ekologik markirovkalash dasturi — ekologik markirovkalash organi rahbari tomonidan tasdiqlanadigan hujjat, mahsulotning butun hayot sikli

bosqichida mahsulotning ekologik xavfsizligini baholash ishlari unga muvofiq olib boriladi;

mahsulotni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikat — tadbirkorlik subektiga o‘zi ishlab chiqaradigan mahsulotlar uchun ekologik xavfsizlik belgisidan foydalanish huquqini beruvchi, ekologik markirovkalash organi tomonidan beriladigan hujjat;

ekologik menejment tizimi (atrof-muhitni boshqarish tizimi) — ma’muriy boshqarish umumiy tizimining bir qismi, u ekologik siyosatni ishlab chiqish, joriy etish, amalga oshirish, tahlil qilish va rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan tashkiliy tuzilma, rejalashtirish, javobgarlik, usullar, tartibotlar, jarayonlar va resurslarni o‘z ichiga oladi;

texnik ekspert — mahsulotlarning ekologik xavfsizlik mezonlariga muvofiqligini baholash ishlarida ishtirok etish uchun maxsus bilimlar yoki tajribaga ega bo‘lgan shaxs;

ekologik xavfsizlik — tabiiy muhit va inson, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarining xo‘jalik faoliyati va boshqa faoliyatning ehtimoliy salbiy ta’siridan, tabiiy va texnogen tUSDagi favqulodda vaziyatlardan va ularning oqibatlaridan himoyalanganligi holati.

Ekologik xavfsizlik belgisi ushbu Nizomga [1-ilovaga](#) muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan mahsulotlarni ularga berilgan ekologik xavfsizlik toifasiga binoan markirovkalash uchun qo‘llaniladi.

Ekologik xavfsizlik belgisi mahsulotga yoki yorliqqa (qadoqqa), ilova qilinadigan hujjatlarga yoki mahsulotlarni reklama qilishda joylashtiriladi.

Ekologik markirovkalash tartibotidan o‘tmasdan va mahsulotni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikat mavjud bo‘lmaganda tovar, mahsulotning tavsifida va nomlanishida, teng ravishda reklamada ekologik xavfsizlik belgisidan foydalanish, mahsulotning ekologik xavfsizligiga tegishli biror-bir xossalarini ko‘rsatish, shuningdek, “ekologik toza”, “ekologik xavfsiz”, “ekologik qulay” degan yozuvlardan foydalanish taqiqlanadi.

Ekologik markirovkalash organi. Ekologik xavfsizlikka muvofiqlikni baholash qonunchilikda belgilangan tartibda tuzilgan shartnomaga muvofiq ariza beruvchining ekologik markirovkalash organiga ixtiyoriy murojaati asosida amalga oshiriladi. Ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalash tartiboti Milliy akkreditatsiya tizimida akkreditatsiyadan o‘tgan ekologik markirovkalash organi tomonidan o‘tkaziladi. Ekologik markirovkalash organi ekologik markirovkalash tartiboti uchun javob beradi. Ekologik markirovkalash organi o‘z faoliyatida mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalash sertifikatini olishga talabgor bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilardan, shuningdek, ekologik

markirovkalash sohasidagi siyosatni tartibga soluvchi davlat vakolatli organidan (keyingi o‘rinlarda vakolatli organ deb ataladi) mustaqil bo‘lishi kerak. Ixtiyoriy ekologik markirovkalash ishlarini olib borish uchun ekologik markirovkalash organida quyidagilar bo‘lishi kerak:

- unga muvofiq ekologik xavfsizlikni baholash tartiboti amalga oshiriladigan sifat menejmenti tizimi;

- ixtiyoriy ekologik markirovkalash tartibotini o‘tkazish vazifalari bajarilishini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnik baza;

- mahsulotlarni ekologik markirovkalash ishlarini bajarish uchun o‘z laboratoriyasi (ixtiyoriy ekologik markirovkalash o‘tkazilayotganda amalga oshiriladigan sinovlarning bir qismini o‘tkazish uchun akkreditatsiyadan o‘tgan sinov laboratoriyalari bilan shartnoma tuzishga ruxsat beriladi).

Ekologik xavfsizlikka muvofiqlikni baholash faoliyatida qatnashuvchi xodimlar akkreditatsiya bo‘yicha Milliy organ tizimida normativ hujjatlar talablariga muvofiq akkreditatsiya organi tomonidan sertifikatlangan bo‘lishi kerak.

Ekologik markirovkalash organi:

- mahsulotlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilangan ekologik xavfsizlik mezonlariga muvofiqligini aniqlash maqsadida markirovkalash bo‘yicha ishlar xolis va izchil o‘tkazilishini ta‘minlashga;

- maxfiylikka rioya qilishga va ishlarni bajarish, mahsulotning hayot siklini tekshirish chog‘ida o‘ziga ma‘lum bo‘lgan ma‘lumotlar oshkor qilinishining yoki istalgan maqsadlarda foydalanishning oldini olishni ta‘minlashi, axborotni soxtalashtirishdan himoya qilishi shart.

Ekologik xavfsizlik mezonlari. Ekologik xavfsizlik mezonlari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar bilan belgilanadi. Ekologik xavfsizlik mezonlarini ishlab chiqish O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik talablariga muvofiq va xalqaro standartlar hisobga olingan holda amalga oshirilishi kerak.

Ekologik xavfsizlik mezonlarini ishlab chiqishda quyidagi ekologik jihatlar hisobga olinishi zarur:

- mahsulotlarni ishlab chiqarish, iste‘mol qilish, foydalanish, saqlash, tashish, utilizatsiya qilish va qayta ishlash chog‘ida atrof-muhitga, xususan, iqlim o‘zgarishiga, biologik xilma-xillikka, energiyani tejashga, tabiiy resurslarga ta‘sir darajasi, shuningdek, mahsulotni utilizatsiya qilish jarayonida hosil bo‘lgan chiqindilarning ta‘siri darajasi;

-xavfli moddalarni xavfsizrog'iga almashtirish va eng yangi texnologiyalarni qo'llash;

-mahsulotlardan foydalanish (sotish) va undan qayta foydalanish muddatini uzaytirish natijasida uning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish;

-mahsulotlar hayot siklining turli bosqichlarida iqtisodiy foyda olish bilan atrof-muhitga, shu jumladan, inson sog'ligiga yuklama o'rtasidagi umumiy muvozanat;

-ekologik markirovkalashning boshqa milliy, mintaqaviy va xalqaro dasturlari tomonidan belgilangan ekologik mezonlar.

Ekologik xavfsizlik mezonlari yangi texnologiyalar, yangi mahsulotlar, yangi ekologik axborotlar va bozor sharoitidagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda har besh yilda qayta ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi kerak. Ekologik xavfsizlik mezonlarini ishlab chiqish ekologik markirovkalash organlari, tarmoq vazirliklari, idoralar va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Ekologik markirovkalash organi va tarmoq vazirliklari va idoralar ekologik xavfsizlik mezonlarini ishlab chiqish va/yoki qayta ko'rib chiqish tashabbusi bilan chiqishi va/yoki unda ishtirok etishi mumkin. Ekologik xavfsizlik mezonlari tasdiqlangunga qadar keng jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish uchun ommaviy axborot vositalarida, shuningdek, vakolatli organning veb-saytida e'lon qilinishi kerak. Ekologik xavfsizlik mezonlari loyihasi bir kalendar oy mobaynida muhokama qilinadi. Jamoatchilik muhokamasi natijalari bo'yicha tushgan asoslangan takliflar va e'tirozlar ekologik xavfsizlik mezonlarini qayta ko'rib chiqishda hisobga olinadi. Takliflarni rad etish yoki ekologik xavfsizlik mezonlariga kiritish to'g'risidagi qaror asoslangan bo'lishi lozim.

Mahsulotlarning ekologik xavfsizlik mezonlari:

-mahalliy, mintaqaviy va global ekologik omillarni, shuningdek, mavjud texnologiyalarni hisobga olgan holda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilanishi kerak;

-mahsulotning atrof-muhitga va inson sog'lig'iga eng sezilarli ta'siri chegaralashi va mahsulotlarning muhim ekologik jihatlarini belgilashi lozim;

-belgilangan talablarni baholash uchun zarur bo'lgan nazorat usullari bilan aniqlanishi kerak;

-tekshiriladigan minimal ko'rsatkichlarga, chegara darajalariga ega bo'lishi lozim;

-muddatlarni, sinash usullarini va texnik hujjatlarni belgilashda mahsulotning tegishli toifasi bo'yicha normativ-huquqiy bazaga muvofiq bo'lishi kerak;

-mahsulotlarning toifasi tegishli bo'lgan tegishli tarmoqning rivojlanishini va ekologik xavfsizlik mezonlarini hisobga olish zarur.

Ekologik xavfsizlik mezonlari manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan muhokama qilingandan va kelishilgandan keyin belgilangan tartibda tasdiqlanadi va ularning amal qilish muddatlari belgilanadi. Tasdiqlangan ekologik xavfsizlik mezonlari vakolatli organ tomonidan ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi va uning veb-saytida joylashtiriladi.

11.2.Mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatlash tartibi. Mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatlash ariza berilgan mahsulotlarning ekologik xavfsizlik talablariga muvofiqligini aniqlashga qaratilgan izchil harakatlarni amalga oshirishni nazarda tutadi va mahsulotning atrof-muhitga ta'siri ko'rsatkichlarining haqiqiy qiymatiga asoslanadi. Mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatlash jarayoni markirovkalash organi va ariza beruvchi o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatlash xalqaro standartlar talablariga muvofiqlikka uchta tipi bo'yicha amalga oshiriladi. Mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikat faqat mahsulotning ekologik xavfsizlik mezonlariga muvofiqligini baholash tartibotining ijobiy natijalari olingan taqdirda berilishi mumkin. Ariza berilgan mahsulot turining ekologik xavfsizlik mezonlariga muvofiqligini baholash ekologik markirovkalash dasturi doirasida amalga oshiriladi. Ekologik markirovkalash dasturi ushbu Nizomga [2-ilovaga](#) muvofiq shakl bo'yicha ariza berilgan mahsulotning har bir turi uchun alohida ishlab chiqiladi. Ekologik markirovkalash dasturi ekologik markirovkalash organi tomonidan tasdiqlanadi. Mahsulotlarning ariza berilgan turining ekologik xavfsizlik talablariga muvofiqligini baholash xalqaro standartlar talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Mahsulotlarning ariza berilgan turining 2 tip bo'yicha ekologik xavfsizlik talablariga muvofiqligini baholash ariza beruvchi tomonidan ushbu Nizomga [3-ilovaga](#) muvofiq shakl bo'yicha muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya taqdim etilishi orqali amalga oshiriladi. Ishlab chiqilgan ekologik markirovkalash dasturi quyidagilarni nazarda tutadi: I tip bo'yicha — ariza beruvchining tashabbusi, III tip bo'yicha — mahsulot hayot siklining barcha bosqichlarida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq mahsulotning ekologik xavfsizlik mezonlariga muvofiqligini baholashga qaratilgan izchil harakatlar amalga oshirilishi. Mahsulotlarning ekologik xavfsizlik mezonlariga muvofiqligi to'g'risidagi tasdiqlovchi hujjatlar ekologik markirovkalash organi tomonidan

mustaqil ravishda shakllantiriladi. Ushbu holatda ariza beruvchilar markirovkalash organiga zarur tasdiqlovchi hujjatlarni to'plashda yordam berishi mumkin.

Mahsulotlarning ekologik xavfsizlik mezonlariga muvofiqligini baholashda ekologik markirovkalash organi tomonidan ariza beruvchining xohishiga ko'ra quyidagi hujjatlar tayyorlanadi:

- ushbu mahsulotga nisbatan atrof-muhitni muhofaza qilish talablari belgilangan va ko'rsatilgan standartning nusxasi (tashkilot standarti, texnik yo'riqnomasi, texnologik jarayon va boshqalar);

- sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, fito-sanitariya xulosalari, muvofiqlik sertifikatining nusxalari (qonunchilikda bunday talablar mavjud bo'lsa);

- tasdiqlangan ekologik xavfsizlik mezonlariga muvofiq hayot siklining barcha bosqichlarida mahsulotlarning ekologik tavsiflarini sinash bayonnomalarining nusxalari;

- ekologik menejment sertifikatining nusxasi (agar mavjud bo'lsa).

Bundan tashqari, ekologik markirovkalash organi:

- xomashyo tarkibiy qismlarining ekologik xavfsizligi, ularni qazib olish/etkazib berish usullari haqidagi;

- ishlab chiqarish texnologiyasi va uning atrof-muhitning barcha tarkibiy qismlariga ta'siri haqidagi;

- oxirgi ikki kalendar yilda ariza beruvchi tomonidan tabiatni muhofaza qilish qonunchiligining buzilmaganligi to'g'risidagi;

- mahsulotni ishlab chiqarish va iste'mol qilish bosqichida hosil bo'lgan chiqindilarning shakllanishi, topshirilishi, utilizatsiya qilinishi, olib chiqib ketilishi yoki qayta foydalanilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni oladi.

Ekologik markirovkalash organi atmosferaga tashlanmalar manbalarini va ifloslantiruvchi moddalarning suv tizimlariga oqovalarini, tuproq qoplamasining holatini va chiqindilarni saqlash joylarini laboratoriya tekshiruvidan o'tkazish ishlarini tashkil etadi. Laboratoriya tadqiqotlarini olib borish uchun ariza beruvchi yoki uning topshirig'iga binoan ekologik markirovkalash organi ekologik markirovkalash dasturiga muvofiq zarur tekshirishlarni o'tkazish uchun akkreditatsiyadan o'tgan sinov laboratoriyalarini jalb qiladi. Laboratoriya tadqiqotlari mahsulotlarni 1 va 3 tiplar bo'yicha ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatlash maqsadida amalga oshiriladi. Dasturda ko'rsatilgan barcha chora-tadbirlar amalga oshirilgandan va I va III tiplar bo'yicha ijobiy natijalar olinganidan so'ng ariza beruvchiga mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalash huquqi uchun sertifikat beriladi. 2 tipdagi ekologik markirovkalash bo'yicha ariza beruvchi muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya bilan birgalikda mahsulotning ekologik xavfsizligini tasdiqlovchi hujjatlarni, shu

jumladan, laboratoriya tadqiqotlari natijalarini taqdim etadi va ro'yxatga olinadi, shundan keyin ariza beruvchi ekologik xavfsizlik belgisidan foydalanish huquqiga ega bo'ladi.

Markirovkalash organi tomonidan mahsulotlarni ixtiyoriy ekologik markirovkalash tartibotidan o'tkazish muddatlari ixtiyoriy ekologik markirovkalash tipiga va tuzilgan ekologik markirovkalash dasturiga bog'liq ravishda quyidagichani tashkil etadi:

-1 tip ekologik markirovkalash bo'yicha — 1 oydan ortiq emas;

-2 tip ekologik markirovkalash bo'yicha — 20 ish kunidan ortiq emas;

-3 tip ekologik markirovkalash bo'yicha — 2 oydan ortiq emas.

Ariza beruvchi va ushbu jarayonga jalb qilingan ekologik markirovkalash organi o'z vakolatlari doirasida yig'ilgan va taqdim etilgan hujjatlarning xolisligi va ishonchliligi uchun to'liq javob beradi.

11.3. Mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatni rasmiylashtirish va berish tartibi.

Mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatni rasmiylashtirish va berishning umumiy qoidalari

Mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikat berish ushbu Nizomga 4-ilovaga muvofiq sxema bo'yicha amalga oshiriladi. Agar mahsulotning ariza berilayotgan turini ekologik markirovkalash bo'yicha bir nechta organ mavjud bo'lsa, ariza beruvchi o'z ixtiyori bilan ulardan biriga murojaat qilish huquqiga ega. Mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalash tayyorlovchining javobgarligi ostida amalga oshiriladi. Mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatning amal qilish muddati davrida ishlab chiqarilgan mahsulotlar sertifikatlangan hisoblanadi va qayta sertifikatlanmaydi. Ekologik xavfsizlik belgisi hamda foydalanish va ilova qilinadigan hujjatlardagi mahsulot tayyorlangan sana, mahsulotlar ekologik xavfsizlik belgisi bilan sertifikatlanganligining tasdig'i hisoblanadi.

1 va 3 tiplar bo'yicha mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatlash bo'yicha ishlarni olib borish tartibi. 1 va 3 tiplar bo'yicha mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatlash ishlarini olib borish uchun ariza beruvchi ushbu Nizomga 5-ilovaga muvofiq zarur hujjatlar to'plamini ilova qilgan holda ariza topshiradi.

Ekologik markirovkalash organi taqdim etilgan hujjatlarni tahlil qiladi va quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

-hujjatlar to'liq bo'lganda — mahsulotlar ekologik xavfsizlik mezonlariga muvofiqligini baholash ishlarini amalga oshirish to'g'risida;

-agar hujjatlar to'liq bo'lmasa — uch ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda hujjatlarni qaytarish haqida.

Ekologik markirovkalash organi mahsulotlar ekologik xavfsizlik mezonlariga muvofiqligini baholash ishlarini o'tkazish haqida qaror qabul qilganidan so'ng bir ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda ekologik markirovkalash dasturini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

Ekologik markirovkalash organi mahsulotlarning ekologik xavfsizlik mezonlariga muvofiqligini baholash ishlarini olib borish davomida:

-normativ hujjatlar talablariga muvofiq namunalarni identifikatsiyalash, saralash va laboratoriyaga etkazib berish;

-normativ hujjatlar talablariga muvofiq akkreditatsiyadan o'tgan sinov laboratoriyasida namunalarni sinovdan o'tkazish ishlarini amalga oshiradi.

Ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatlanishi kerak bo'lgan mahsulotlarni sinash mahsulotlarni sertifikatlashtirish Milliy tizimining sertifikatlashtirish qoidalariga muvofiq namunalarni tanlash maqsadida taqdim etilgan mahsulotlarni identifikatsiyalash orqali amalga oshiriladi. Namunalarni identifikatsiyalash va tanlash tartiboti namunalarni identifikatsiyalash va tanlash dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Agar identifikatsiyalash natijalari bo'yicha ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan namunalar normativ hujjatlarga muvofiq bo'lmasa yoki ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalangan mahsulotning asosiy namunasi hisoblanmasa, namunalar tanlanmaydi va ariza beruvchiga sabablari ko'rsatilgan holda rad javobi beriladi. Namunalar soni, tanlash tartibi, ularni identifikatsiyalash va saqlash qoidalari ekologik markirovkalanadigan mahsulotga normativ hujjatlarda, shu jumladan, sinov usullarida belgilanadi. Ariza beruvchi o'z xohishiga ko'ra sertifikatlanadigan mahsulotning texnik tavsiflarini taqdim etishga haqlidir. Muayyan turdagi mahsulotlarni sinash bayonnomasini rasmiylashtirish va berish muddati texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar bilan belgilanadigan usullarga muvofiq amalga oshiriladigan ushbu turdagi mahsulotlarni sinovdan o'tkazishning umumiy davomiyligidan kelib chiqib belgilanadi. Akkreditatsiyadan o'tgan sinov laboratoriyalarining aniq ko'rsatkichlar bo'yicha sinov natijalari mavjud bo'lgan qo'shimcha hujjatlardan ekologik markirovkalash organi tomonidan mahsulotlarning ekologik xavfsizlik mezonlariga muvofiqligini baholash uchun foydalaniladi. Bunda sinov o'tkazilgan muddat hisobga olinadi, u ushbu mahsulot uchun normativ hujjatlarda belgilangan yaroqlilik muddatidan ortiq bo'lmasligi kerak. Mahsulotlarni ekologik

markirovkalash paytida tegishli akkreditatsiyadan o'tgan sinov laboratoriyasi mavjud bo'lmagan taqdirda ekologik markirovkalash organi akkreditatsiyadan o'tgan yoki O'zbekiston Respublikasining akkreditatsiya tizimida e'tirof etilgan muvofiqlikni baholash bo'yicha xorijiy organlarning sinov natijalarini, sinovlar bayonnomalarini qabul qiladi. Namunalar sinovlarining sifati va natijalarning ishonchliligi, shuningdek, sinovlar bayonnomalari saqlanishi uchun sinovlarni o'tkazgan akkreditatsiyadan o'tgan sinov laboratoriyasi javob beradi. Sinov bayonnomalari texnik ekspert tomonidan imzolanadi va akkreditatsiyadan o'tgan sinov laboratoriyasi rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Akkreditatsiyadan o'tgan sinov laboratoriyalari sinov bayonnomalarini ariza beruvchiga va ekologik markirovkalash organiga taqdim etadi. Agar mahsulotlar sinovlari har xil akkreditatsiyadan o'tgan sinov laboratoriyalarida alohida parametrlar bo'yicha o'tkazilgan bo'lsa, bayonnomalar bilan tasdiqlangan sinovlarning ijobiy natijalari mavjudligi mahsulotlarning ekologik xavfsizlikning belgilangan mezonlariga muvofiqligining ijobiy baholanishi deb hisoblanadi. Sinovlar natijalari salbiy bo'lganda, shuningdek, hujjatlarning to'liq bo'lmagan to'plami taqdim etilganda ekologik markirovkalash organi ariza beruvchiga mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikat berishni rad etish haqida xulosa beradi va kamchiliklarni bartaraf etish uchun o'n ish kunidan ortiq bo'lmagan muddat beradi. E'tirozlar belgilangan muddatda bartaraf etilganda ekologik markirovkalash organi hujjatlarni uch ish kuni mobaynida qayta ko'rib chiqadi. Ekologik markirovkalash organi tomonidan ishlab chiqilgan ekologik markirovkalash dasturi bo'yicha hujjatlarni tahlil qilishning, shu jumladan, ushbu dasturga kiritilgan, akkreditatsiyadan o'tgan sinov laboratoriyalarida o'tkazilgan laboratoriya sinovlarining ijobiy natijasi olinganda, ekologik markirovkalash organi uch ish kuni mobaynida hujjatlarni texnik ekspertga baholash uchun yuboradi. Ekologik markirovkalash organining texnik eksperti hujjatlar to'plamini, shu jumladan, sinov bayonnomalarini, ishlab chiqarish holati tekshirilishini va ariza beruvchi tomonidan buyurtmanoma bilan birgalikda taqdim etilgan boshqa hujjatlarni yoki dastur bajarilishining ekologik markirovkalashga muvofiqligi to'g'risidagi deklaratsiyani o'rganadi va uch ish kuni mobaynida mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikat berish yoxud uni berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Texnik ekspertning ijobiy qarori qabul qilinganda ekologik markirovkalash organi uch ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda ariza beruvchiga mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikat beradi (yuboradi) yoki uni sertifikat berish rad etilganligi to'g'risida yozma ravishda xabardor qiladi. Mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikat berishni rad etish uchun asos

boʻlgan sabablar mavjud boʻlganda, ariza beruvchiga belgilangan tartibda ularni bartaraf etish zarur boʻlgan muddat beriladi. Ariza beruvchi tomonidan mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalash huquqini beruvchi sertifikat berishni rad etish uchun asos boʻlgan sabablar belgilangan muddatda bartaraf etilgan taqdirda, hujjatlar takroran koʻrib chiqiladi va takroran koʻrib chiqish ijobiy natija berganda uch ish kunidan ortiq boʻlmagan muddatda mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikat beriladi.

Mahsulotlarning mahsulotlar ekologik xavfsizlik mezonlariga muvofiqligini baholash boʻyicha bajariladigan ishlarning muddati:

-1 tip uchun — namunalar identifikatsiya qilingan va tanlab olingan paytdan boshlab oʻn ish kunidan ortiq boʻlmasligi kerak;

-3 tip uchun — namunalar identifikatsiya qilingan va tanlab olingan paytdan boshlab oʻttiz ish kunidan ortiq boʻlmasligi kerak.

Mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatni rasmiylashtirish va berish muddati barcha zarur hujjatlar topshirilgan paytdan eʼtiboran uch ish kunidan ortiq boʻlmasligi kerak. Sertifikat ushbu Nizomga [6-ilovaga](#) muvofiq davlat tilida yoki rus tilida rasmiylashtiriladi. Mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga rasmiylashtirilgan sertifikat uch yil muddatga beriladi va markirovkalashga sertifikatlar davlat reestrda (keyingi oʻrinlarda Reestr deb ataladi) roʻyxatga olinadi. Sertifikat Reestrda muvofiq faqat roʻyxatdan oʻtkazish raqami mavjud boʻlganda haqiqiy hisoblanadi. Mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatlarni Reestrda roʻyxatdan oʻtkazish bir ish kunidan ortiq boʻlmagan muddatda amalga oshiriladi. Mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga berilgan sertifikat asosida mahsulotlarni ekologik markirovkalashning belgilangan tipi hisobga olingan holda ariza beruvchiga ekologik xavfsizlik belgisini qoʻllash huquqini berish toʻgʻrisida bitim tuziladi. Ushbu bitimda ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalash usullari va inspeksiya nazorati shartlari qayd etilishi kerak.

2 tip boʻyicha mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatlash boʻyicha ishlarni bajarish tartibi. Ekologik markirovkalash organi bir ish kuni mobaynida muvofiqlik toʻgʻrisidagi deklaratsiyani va ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan uning ishlab chiqarishi va mahsulotlari ekologik xavfsizligini tasdiqlovchi hujjatlarni ular qabul qilingan sana toʻgʻrisida belgi qoʻygan holda hamda mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalash huquqini hisobga qoʻyish uchun qabul qiladi. Bunda hujjatlar toʻliq boʻlmagan taqdirda hujjatlar bir ish kuni mobaynida ariza beruvchiga qayta ishlash uchun qaytariladi. Muvofiqlik toʻgʻrisidagi deklaratsiyani

tekshirish va uning ishonchliligini, shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning atrof-muhitga ta'sirini tasdiqlovchi taqdim etilgan hujjatlarni tasdiqlash uch ish kuni mobaynida amalga oshiriladi. Ekologik markirovkalash organining texnik eksperti hujjatlar to'plamini o'rganadi va ikki ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyani hisobga qo'yish yoki hisobga qo'yishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyani tekshirish natijalari bo'yicha texnik ekspert tomonidan:

-deklaratsiyaning ariza berilgan ekologik xavfsizlik mezonlariga muvofiqligi va uning ishonchliligini tasdiqlash to'g'risida;

-deklaratsiyaning ariza berilgan ekologik xavfsizlik mezonlariga yoki ixtiyoriy ekologik markirovkalash tartiboti shartlariga muvofiq emasligi to'g'risida xulosa tayyorlanadi.

Texnik ekspertning tegishli xulosasi asosida ekologik markirovkalash organi:

-muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyani hisobga qo'yish to'g'risida qaror qabul qiladi — muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya ro'yxatdan o'tkaziladi va uch ish kuni mobaynida mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalash huquqi berilgan holda Reestrda hisobga qo'yiladi;

-muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyani ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi — yozma bildirishnoma bir ish kuni mobaynida ariza beruvchining ixtiyoriy ekologik markirovkalash tartiboti shartlariga muvofiq emasligi sabablari ko'rsatilgan holda unga yuboriladi.

Deklaratsiya hisobga qo'yilishi rad etilishi to'g'risida qaror qabul qilishda ariza beruvchiga aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf etish uchun o'n ish kunidan oshmaydigan muddat beriladi. Ariza beruvchi tomonidan hisobga qo'yish rad etilishi uchun asos bo'lgan sabablar belgilangan muddatda bartaraf etilgan taqdirda hujjatlar qayta ko'rib chiqiladi. Tahlil natijalari bo'yicha aniqlangan nomuvofiqliklar bartaraf etilishini tasdiqlovchi hujjatlarni takroran ko'rib chiqish uch ish kuni mobaynida amalga oshiriladi.

Mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatlash jarayonida shaffoflik va oshkoralikni ta'minlash.

Vakolatli organ o'zining veb-saytida mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga berilgan sertifikatlar to'g'risidagi axborotni, shuningdek, quyidagilar ko'rsatilgan holda ro'yxatdan o'tkazilgan deklaratsiyalar haqidagi ma'lumotlarni e'lon qiladi:

-tashkilotning nomi, uning manzili, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (keyingi o'rinlarda STIR deb ataladi);

-mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatda (deklaratsiyada) belgilangan mahsulotlarning ekologik tavsiflari;

-mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatning (deklaratsiyaning) berilgan sanasi, amal qilish davri va uning ro'yxatdan o'tkazish raqami;

-mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga bekor qilingan va to'xtatib qo'yilgan sertifikatlar.

Mahsulotlarning ekologik tavsiflari haqidagi ma'lumot iste'molchiga bevosita ishlab chiqaruvchi tomonidan taqdim etilishi kerak. Vakolatli organ mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga berilgan sertifikatlar (deklaratsiyalar) to'g'risidagi ma'lumotlarni Reestrda yuritadi. Ariza beruvchi qonunchilikda belgilangan tartibda manfaatdor tomonlar uchun:

-ishlab chiqaruvchi tashkilotning ekologik faoliyati (ekologik menejment tizimi, mahsulotlarning ekologik tavsiflarini yaxshilash bo'yicha faoliyat va boshqalar);

-foydalaniladigan materiallar, tabiiy resurslar, qattiq maishiy chiqindilar, atmosferaga tashlanmalar, suvga oqiziladigan oqovalar miqdori, iste'mol qilinadigan energiya va materiallar miqdori;

-iste'molchining mahsulotlardan foydalanishi;

-mahsulotlarni tashishga qo'yiladigan talablar;

-chiqindilarni utilizatsiya qilish to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadi.

Inspeksiya nazoratini olib borish. Mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikat bergan ekologik markirovkalash organi bir yilda bir marta Milliy sertifikatlashtirish tizimi tomonidan belgilangan talablarga muvofiqlikni tasdiqlash maqsadida ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalangan mahsulotlarning inspeksiya nazoratini olib borish huquqiga ega. Inspeksiya nazoratini olib borishda mahsulot sinovdan o'tkaziladi va/yoki ishlab chiqarish tekshiriladi. Ekologik markirovkalash organi uch kun oldin tashkilotni inspeksiya nazorati o'tkazilishidan xabardor qiladi, o'tkaziladigan sana, muddati va davriy inspeksiya nazorati dasturiga kiritilgan ishlar tarkibini kelishadi. Inspeksiya nazoratini o'tkazish ishlari qiymati tashkilot va ekologik markirovkalash organi o'rtasida tuziladigan shartnomada ko'rsatiladi. Davriy inspeksiya nazorati dasturi ham to'liq, ham tanlangan bo'lishi mumkin, bu obekt tomonidan ekologik xavfsizlik mezonlariga muvofiqlik va unga rioya etilishi to'g'risida xolis axborot taqdim etishiga bog'liq bo'ladi. Davriy inspeksiya nazoratini o'tkazishda ushbu Nizomda ko'rsatilganidan tashqari qo'shimcha hujjatlar talab qilinishiga yoki qo'shimcha tadbirlar o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi. Mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalash

huquqiga ega bo'lgan tashkilot davriy inspeksiya nazorati bo'yicha markirovkalash organining qaroriga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etish huquqiga ega. Davriy inspeksiya nazorati natijalariga ko'ra ekologik markirovkalash organi inspeksiya nazorati dalolatnomasini tuzadi, unda amalga oshirilgan ishlar, to'plangan hujjatlar batafsil bayon qilinadi, ular asosida mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatning amal qilish muddatini tasdiqlash yoki uni bekor qilish haqida qaror qabul qilinadi. Inspeksiya nazorati natijalari bo'yicha mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatni tasdiqlash, to'xtatib turish yoki bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Markirovkalangan mahsulotni inspeksiya nazoratidan o'tkazish hajmi, mazmuni va tartibi Milliy sertifikatlashtirish tizimining inspeksiya nazoratini o'tkazish qoidalari bilan belgilanadi. Ekologik markirovkalash organi ishlab chiqaruvchini va sertifikatlashtirish bo'yicha Milliy organni mahsulotni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikat amal qilishi to'xtatib turilishi yoki bekor qilinishi haqida uch ish kuni mobaynida xabardor qilishi shart. Sertifikatlashtirish bo'yicha Milliy organ tegishli davlat boshqaruvi organlarini va ommaviy axborot vositalarini mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga bekor qilingan sertifikatlar to'g'risida xabardor qilish zaruratini belgilaydi. Ishlab chiqaruvchi tomonidan mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikat amal qilishini to'xtatishga sabab bo'lgan holatlar bartaraf etilgan taqdirda, ko'rsatib o'tilgan holatlar bartaraf etilganligi to'g'risida tasdiqnoma olingan kundan boshlab o'n ish kuni mobaynida mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatning amal qilishini tiklash to'g'risida qaror qabul qilinadi. Ekologik markirovkalash organiga ekologik markirovkalash shartlarini buzish holatlarini yoki asossiz va noqonuniy xatti-harakatlarni tasdiqlaydigan hujjatlar tushganda, shu jumladan, tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar oshkor etilgan hollarda rejadan tashqari inspeksiya nazorati amalga oshiriladi. Tayyorlovchining faoliyati rejadan tashqari inspeksiya nazoratidan o'tkazilganligi uchun to'lov undirilmaydi.

Mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikat:

-mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashda qo'yiladigan ekologik xavfsizlik mezonlari ishlab chiqaruvchi tomonidan buzilganligi aniqlangan;

-ekologik markirovkalash organining aniqlangan qoidabuzarliklar bartaraf etilishi majburiyatini yuklovchi qarorlari ishlab chiqaruvchi tomonidan bajarilmagan hollarda inspeksiya nazorati natijalari bo'yicha bekor qilinishi mumkin.

Mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatning amal qilishi:

-tayyorlovchining mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatning amal qilishini to'xtatish to'g'risida markirovkalash organiga ariza bilan murojaat qilishi;

-ishlab chiqaruvchi — yuridik shaxsni — uning faoliyati tugatilgan yoki to'xtatilgan paytdan boshlab tugatish;

-ishlab chiqaruvchini — qayta tashkil etilgan paytdan boshlab qayta tashkil etish;

-tayyorlovchini davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi sertifikatning amal qilishini to'xtatish;

-tayyorlovchi tomonidan bir yil mobaynida talablar va shartlar muntazam ravishda (ikki yoki undan ortiq) buzilishi, agar ushbu qoidabuzarliklar fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga, jamoat xavfsizligiga va atrof-muhitga zarar etkazilishiga olib kelsa to'xtatiladi.

Ekologik markirovkalash organining mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatning amal qilishini to'xtatish to'g'risidagi qarori tayyorlovchiga qaror qabul qilingan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatning amal qilishini to'xtatishning sabablari ko'rsatilgan holda yozma yoki elektron shaklda etkaziladi, bunda mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatning amal qilishini to'xtatish sabablari va qonunchilikning aniq normalari ko'rsatiladi. Mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikat bekor qilingan taqdirda sertifikatning asl nusxasi tayyorlovchi tomonidan mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatning amal qilishini to'xtatish to'g'risidagi qaror olingan kundan boshlab o'n ish kuni mobaynida ekologik markirovkalash organiga qaytarilishi kerak. Mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga bekor qilingan sertifikatlar ekologik markirovkalash organi tomonidan yo'q qilinadi, bu haqda tegishli dalolatnoma tuziladi. Bekor qilingan sertifikatlar to'g'risidagi ma'lumotlar ekologik markirovkalash organining veb-saytida umumning tanishishi uchun e'lon qilinishi kerak. Ariza beruvchi ekologik markirovkalash organining qaroridan norozi bo'lgan taqdirda sudga murojaat qilish huquqiga ega. Ekologik markirovkalash organining qarori ustidan sudga qonunchilikda belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

YAkunlovchi qoidalar. Ekologik markirovkalash organi mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalash uchun berilgan, to'xtatib qo'yilgan va bekor qilingan sertifikatlar hisobini yuritadi. Ekologik

markirovkalash organlari har yili vakolatli organga mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalash uchun berilgan, to'xtatib qo'yilgan va bekor qilingan sertifikatlar haqida ma'lumot beradi. Vakolatli organ zarurat bo'lganda markirovkalash organidan mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatlash bo'yicha materiallarning nusxasini so'rashi mumkin. Mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatda ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchligi, ushbu Nizom muddatlari va talablari buzilganligi uchun javobgarlik ekologik markirovkalash organiga yuklanadi. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javob beradilar.

Takrorlash uchun nazorat savollar:

1. Inspeksiya nazoratini olib borish?
2. 2 tip bo'yicha mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatlash bo'yicha ishlarni bajarish tartibi?
3. Mahsulotlarni ekologik xavfsizlik belgisi bilan markirovkalashga sertifikatni rasmiylashtirish va berish tartibi?
4. Ekologik xavfsizlik mezonlari?
5. Ekologik markirovkalash organi?

12§ Halol sertifikatlashtirish.

12.1. Halol sertifikatlashtirish ograniga qo'yiladigan talablar. "Halol" sertifikatlashtirish -xom-ashyo, qo'shimchalar, ziravorlar, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, ishlab chiqarish ob'ektlari (sex), ishlab chiqarish vositalari (jixozlar), biznesni boshqarish va ko'rsatilayotgan xizmatlarni "Halol" standarti talablariga muvofiqligini uchinchi taraf (betaraf) tomonidan tasdiqlashga oid faoliyat hisoblanadi.

"Halol" standarti talablari bo'yicha muvofiqlikni baholash, ixtiyoriy sertifikatlashtirishga kirib, sertifikatlashtirish arizachi talabi asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulot yoki xizmatlarni "Halol" standarti talablariga muvofiqligini baholash maqsadida amalga oshiriladi. "Halol" standarti bo'yicha ixtiyoriy sertifikatlashtirish arizachi va MCHJ «O'zbek-Turk Test Markazi» qo'shma korxonasi o'rtasida tuziladigan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Ma'lumot uchun: Sertifikatlashtirish tizimini yanada takomillashtirish va tadbirkorlarga qulayliklar yaratish maqsadida "O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish" agentligi va Turk standartlari institututi (TSE) ishtirokida, yangi

zamonaviy standartlar talablariga javob beruvchi O‘zbek-Turk qo‘shma korxonasi, ya’ni MCHJ «O‘zbek-Turk Test Markazi» qo‘shma korxonasi tashkil etilgan bo‘lib, qo‘shma korxonada hozirgi kunda:

- Mahsulotlarni sertifikatlashtirish idorasi (SI);
- Sifatni boshqarish tizimlarini sertifikatlashtirish idorasi;
- Sinov laboratoriyalari majmuasi (SLM) faoliyat yuritib kelmoqda.

Turkiya akkreditatsiya agentligi TURKAK (TURKISH ACCREDITATION AGENCY) dan sifatni boshqarish tizimlarini sertifikatlashtirish idorasi EN ISO/IEC 17021 xalqaro standarti bo‘yicha (akkreditatsiya guvohnomasi № AB - 0115-YC ot 04.02.2015 g.) va to‘qimachilik mahsulotlarini sinash laboratoriyasi EN ISO/IEC 17025 xalqaro standarti bo‘yicha (akkreditatsiya guvohnomasi № AB-1054-E ot 05.02.2016 g.) xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgan bo‘lib, sertifikatlashtirish idorasi va sinov laboratoriyasi tomonidan rasmiylashtirilgan sertifikatlar va sinov bayonnomalari butun dunyoda tan olinadi.

“Halol” sertifikati – muayyan mahsulot yoki xizmatning “Halol” standarti talablariga muvofiqligini tasdiqlash uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga binoan berilgan hujjat bo‘lib, tarkibida islom qoidalari va me’yorlariga binoan iste’molga ruxsat etilgan “Halol” mahsulot va xizmatlar.

“Halol” belgisi - muayyan mahsulot yoki xizmatning “Halol” standarti talablariga mos ekanligini ko‘rsatish uchun mahsulotga yoki ko‘rsatilgan xizmatga doir hujjatga qo‘yiladigan, belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan belgi.

MCHJ «O‘zbek-Turk Test Markazi» QK sertifikatlashtirish idorasi milliy va xalqaro tan olingan idora bo‘lib, “Halol” sertifikatlashtirish faoliyatini Turk standartlari instituti (TSE) bilan kelishuv asosida standartlashtirish, metrologiya va akkreditatsiya sohalarida faoliyat ko‘rsatuvchi, Islom hamkorlik tashkilotiga (OIC) a’zo hukumatlararo tashkilot Islom davlatlari standartlashtirish va metrologiya instituti (SMIIC), hamda Turk standartlari instituti (TSE) ning quyidagi:

- TS OIC/SMIIC 1 “Halol oziq-ovqat mahsulotlariga qo‘yilgan talablar”;
- TS 13571 - “Tayyorlangan halol oziq-ovqat va ichimliklar saqlanadigan va xizmat ko‘rsatadigan joylarga TS OIC/SMIIC 1 standartining qo‘llanilishi bo‘yicha alohida talablar”;
- TS 13683 - “Halol menejment tizimi – mehmonxonalar”;
- TSE K 202 - “Halol kosmetika”;
- TS 6915 - “Mehmonxona xonalariga umumiy talablar”;
- TS 10082 - “Ish joylari, mehmonxona xonalari, turizm sertifikatlariga ega mehmonxonalar va ularni sinflarga ajratish bo‘yicha umumiy talablar” standartlari asosida amalga oshiradi.

Muayyan mahsulot yoki xizmatlarni “Halol” standarti talablari bo‘yicha sertifikatlashtirish auditlari O‘zbekiston Respublikasi musulmonlari diniy idorasi tomonidan tayinlangan imom-xatiblar va Turk standartlari instituti (TSE)ning xalqaro ekspertlari ishtirokida o‘tkaziladi hamda sertifikatlashtiriladigan mahsulotlar sifati, xavfsizligi va halolligini tasdiqlovchi sinovlar Turk standartlari instituti (TSE)ning laboratoriyalarida amalga oshiriladi. Sertifikatlashtirish auditlari muvaffaqiyatli yakunlangach, xalqaro tan olingan “Halol” sertifikatlari bilan birga mahsulotlarning halolligini tasdiqlovchi sinov bayonnomalari ham taqdim etiladi. Soxta mahsulotlarni sotib olishni oldini olish maqsadida sertifikatlangan ishlab chiqaruvchilar ro‘yxatini Bizning veb-saytimizda ko‘rishingiz mumkin. SHunday qilib,

“Halol” standarti talablariga muvofiq mahsulot yoki xizmatlarni sertifikatlashtirish natijasida, bozorda qo‘yidagi ustunliklarga ega bo‘lishingiz mumkin:

-Mamlakatimizning 30 mln.dan ortiq musulmon ahli, bundan tashqari, dunyoda musulmon ahlining ortib borishi (taxminan 1,8 mlrd odam, er aholisining 24 foizi degani) «Halol» belgisi ostida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga talabning yanada oshishini ta‘minlaydi;


-Boshqa e‘tiqod vakillari ham ko‘pincha “Halol” mahsulotlarni afzal ko‘rishmoqda, chunki mahsulotga “Halol” sertifikatning mavjudligi mahsulotlar qo‘shimcha xavfsizlik talablari asosida ishlab chiqarilishi, ya‘ni mahsulotning sifati, xavfsizligi va ekologik tozaligi uchun yanada qattiqroq talablarni nazarda tutadi;

-Ishlab chiqarilgan halol mahsulotlar bozori hajmi 4,0 trillion AQSH dollarini tashkil qilib, 20 foizi Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) mamlakatlariga, qolgan 80 foizi esa islomiy bo‘lmagan mamlakatlarga (Evropa ittifoqi, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Braziliya va boshqalar) to‘g‘ri keladi.

“Halol” so‘zi (arabchadan al-halol - joiz, qonuniy, ruhsat berilgan) musulmonlar tomonidan iste‘mol qilish va foydalanishga, shu jumladan oziq-ovqat sifatida ishlatishga ruxsat berilgan narsalarni anglatadi. Biz hayratlanarli davrda yashayapmiz va “o‘ylamasdan iste‘mol qilish davri” dan tabiiy va foydali iste‘mol davriga o‘tishni guvohi bo‘lmoqdamiz.


Bugungi kunda “halol” atamasi sifat va ekologik tozalik sinonimidir. SHuning uchun oziq-ovqat sanoati – halol sanoatining “yuragi” – inqiroz davrida ham rivojlanadi, chunki "halol mahsulotlar" ta‘rifi mahsulotning zamonaviy ekologik talablarga javob berishini ta‘minlaydi: sabzavotlarda nitratlar, go‘sht mahsulotlarida – konserogenlar va genetik jihatdan modifikatsiyalangan

ingredientlar boʻlmisligi, yogurt va tvoroglarda – konservantlar, taʼm va rangni sunʼiy kuchaytiruvchilari boʻlmisligi kerak.



Biroq, zamonaviy dunyoda “halol” taʼrifi nafaqat oziq-ovqat mahsulotlariga, balki kosmetika, xizmat koʻrsatish, mehmonxona, restoran va sayyohlik biznesiga, barcha diniy talablarni buzmaydigan, shuningdek sogʻlom turmush tarzini nazarda tutadigan barcha narsalarga tegishlidir. Soʻnggi yillarda halol mahsulotlar musulmon aholining koʻpayishi tufayli bozor mexanizmining elementiga aylandi, shu tufayli gʻarb korporatsiyalari ushbu tovarlarni jahon miqyosida ishlab chiqarishni boshladilar. Jahon bozoridagi muhim kuchli harakatlantiruvchi kuch sifatida halol mahsulotlar, albatta, uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari ega.

IHT (Islom hamkorlik tashkiloti) hisobotlariga koʻra, halol mahsulotlar jahon bozorida 2,3 trillion AQSH dollariga baholanmoqda. Ushbu segmentda oziq-ovqat mahsulotlari taxminan 67%, farmatsevtika bozori - taxminan 22% va yana 11% - kosmetika va parfumeriya bozorini tashkil qiladi.



SHunday qilib, yuqori talab jahon bozorida halol ishlab chiqarishning jadal rivojlanishini rag'batlantiradi. Demak, halol oziq-ovqat bozorining potentsial hajmi butun dunyo iste'molining 17 foizini tashkil qiladi. Halol mahsulotlarning asosiy iste'molchilari iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan mamlakatlardir:



IHT hisobotiga ko'ra, 2016 yilda butun dunyo musulmonlari oziq-ovqat uchun 1,173 million dollardan ko'proq mablag' sarflyagan, Xitoy - 854 million dollar, AQSH - 771 million dollar, Yaponiya - 380 million dollar, Hindiston - 341 million AQSH dollari, Rossiya - 316 million AQSH dollari sarflangan.



Ta'kidlash joizki, musulmon davlatlari har yili go'sht va go'sht mahsulotlarining 18,9 foizini, shuningdek, sabzavot mahsulotlarining 47,8 foizini import qiladilar.

Dunyo musulmon aholisi 1,7 milliard kishini, ya'ni dunyo aholisining taxminan 24 foizini tashkil qiladi. 2030 yilga kelib musulmonlar soni 2,2 milliardga yaqinlashishi kutilmoqda. Binobarin, musulmon mamlakatlarida oziq-ovqat iste'mol qilish ko'rsatkichlari (ayniqsa go'sht) dunyo o'rtacha ko'rsatkichidan ancha tez o'sadi.

Iqtisodiy muammolar, jumladan, sanksiyalar va ularning oqibatlariga qaramay, halol biznes butun dunyo bo'ylab kuchli va yuqori sur'atlarda o'smoqda. Bu shundan dalolat bermoqdaki, halol tovar va xizmatlari dunyo bozorini hayratga solishda davom etadi.

SHunday qilib, so'nggi yillarda halol kosmetik vositalarining mashhurligi tobora o'sib bormoqda, ularning maqsadi insonning tashqi qiyofasini saqlab qolish va unga zarar etkazmaslikdir.

Hayvon yog'lari, alkogol, jelatin, glitserin, palma va olein kislotalari, aromatizatorlar va bo'yoq moddalarining yo'qligi, shuningdek, halol kosmetik vositalarni hayvonlarda sinamaslik bu mahsulotlarni nafaqat musulmonlarda balki vegetarianlar orasida ham ommalashuviga olib kelmoqda. Bu o'z sog'lig'iga g'amxo'rlik qiladigan zamonaviy iste'molchi tanloviga ta'sir o'tkazadigan mezondir. Halol kosmetikadan foydalanish bo'yicha dunyoning top 10 mamlakatlari:



Umuman olganda, 2016 yilda musulmonlar bozori kosmetika va shaxsiy parvarish mahsulotlariga 56 milliard AQSH dollaridan ko'proq mablag' sarflaygan, bu jahon bozoridagi aylanmaning 7,4 foizini tashkil etadi. SHu bilan birga, Amerika Qo'shma SHtatlari - 84 milliard, YAponiya - 80 milliard, Xitoy - 63 milliard, Hindiston - 46 milliard, Germaniya - 40 milliard sarflaygan

12.2. Sertifikatlanadigan mahsulot va xizmatlar. Halol sertifikatlash asosan oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek kosmetika, maishiy kimyo va ba'zi turdagi xizmatlarga tegishli:

Чорвачилик	Чорвачилик махсулотлари	Чорва озуқаси
Ўсимликларни етиштириш	Ўсимлик махсулотлари	Узоқ сақланадиган махсулотлар
Умумий овқатланиш жойлари	Кимёвий ва биокимёвий моддалар	Бошқалар

“Halol” belgisi butun dunyo bo‘yicha universal markirovka bo‘lib, ishlab chiqaruvchining halol sertifikatidan o‘tgan mahsulotini qadoqlashda qo‘llaniladigan va mahsulot sifati, uning barcha zarur talab va standartlarga muvofiqligini bevosita tasdiqlovchi belgi. Sir emaski, Halol xalqaro brend sifatida ishlatiladigan sifat belgisidir. SHu sababli, tobora ko‘proq ishlab chiqaruvchilar o‘zlarining xizmatlari va mahsulotlari uchun ushbu belgini olishga intilishmoqda. Zero, Halol belgisi shunchaki yorliq emas, bu sog‘liq va inson hayoti xavfsizligi, sifati va ishonchliligini ta’minlaydigan butun sanoatdir.

“Halol sertifikati” Sertifikatlashtirish – bu uchinchi shaxs tomonidan beriladigan halol talablariga muvofiq xom ashyo, qo‘shimchalar, ziravorlar, ishlab chiqarilgan mahsulotlar, ishlab chiqarish binolari, foydalanilgan vositalar, biznes, ko‘rsatilayotgan xizmatlar va boshqalarning muvofiqligini hujjatli tasdiqlash bo‘lib, kompaniyaning meyoriy hujjatlarida ko‘rsatiladi. Tasdiqlash ariza beruvchining tashabbusi bilan sertifikatlashtiruvchi organ bilan tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi. Halol bozorining tezroq rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan asosiy muammolardan biri bu yagona dunyo oziq-ovqat standartlarining etishmasligi. Darhaqiqat, har bir mamlakatda o‘zining sertifikatlashtiruvchi tashkiloti mavjud bo‘lib, u Halol sertifikatiga o‘z talablarini qo‘yadi va sertifikatning amal qilish muddatini qat’iy ko‘rsatadi, bu qo‘shimcha xarajatlarga olib keladi va xalqaro savdo imkoniyatlarini kamaytiradi.

Ayni paytda dunyoda 120 dan ortiq Halol ixtiyoriy sertifikatlashtirish idoralari faoliyat ko‘rsatmoqda. SHuni ta’kidlash kerakki, bitta mamlakatda Halol sertifikatini beradigan bir nechta rasmiy vakolatli organlar bo‘lishi mumkin va, odatda, eng vakolatli shaxslar Musulmonlar Diniy Boshqarmasi huzurida ishlaydi. SHunday qilib, Rossiyada bu Rossiya Muftilar Kengashi huzuridagi Xalqaro markaz, Belgiyada - EuroHalal sertifikatlash markazi, Germaniyada - M-haditec GmbH sertifikatlashtirish markazi, Daniyada - Islom madaniyati markazi,

Belorusiyada esa "BelHalal" MCHJ mavjud bo'lib, u Belorusiya musulmonlari diniy birlashmasi bilan birgalikda ishlaydi.

Halol mahsulotlar bozori asosan Fors ko'rfazi mamlakatlarini qamrab olganligidan kelib chiqib, Birlashgan Arab Amirliklarida standartlashtirish va metrologiya agentligi - ESMA faoliyat yuritmoqda, u ushbu mamlakatlar uchun Halol sifat standartini olishning yagona tartibini belgilab qo'ygan. ESMA nomidan Halol sertifikatini o'tkazishga vakolatli organ RACS mahsulot sifatini muvofiqligini baholash bo'yicha akkreditatsiyadan o'tgan ekspert agentligi hisoblanadi.

SHunday qilib, har qanday davlat sertifikatlashtirish organi tomonidan berilgan Halol sertifikati ma'lum bir mamlakatda qabul qilingan standartlarga asoslanadi va ma'lum bir mintaqada mahsulot va ishlab chiqarishga qo'yiladigan talablarga muvofiqligini tasdiqlaydi.

12.3. Halol sertifikatini olish. Amirliklarning RACS ekspert agentligi va Rossiya muftiylari kengashining halol standartlashtirish va sertifikatlashtirish xalqaro markazi tomonidan berilgan Halol sertifikati – Belorussiya ishlab chiqaruvchilariga nafaqat dunyoning 57 mamlakatiga – Islom Hamkorlik Tashkiloti a'zolariga, Evropa Ittifoqining barcha davlatlariga hamda AQSHga eksport qilish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Bundan tashqari, agar kompaniyalar manfaatdor bo'lsa, ular Malayziya, Indoneziya va Singapur kabi mamlakatlar bozorlariga chiqish imkoniyatiga ega. Rossiya muftiylari kengashining halol xalqaro standartlashtirish va sertifikatlashtirish markazi tomonidan berilgan Halol sertifikati Belorussiya mahsulotlarini musulmon dunyosining barcha mamlakatlariga tez va arzon eksport qilish imkonini beradi.

Mahsulotlarni / ishlab chiqarishni Halol standartlari talablariga muvofiqligini sertifikatlash tartibi bo'yicha ma'lumotni link orqali olishingiz mumkin.

RACS bilan sertifikatlashning afzalliklari:

IHT va Evropa Ittifoqi mamlakatlariga, shuningdek AQSH, Malayziya, Indoneziya, Singapurga mahsulot etkazib berish imkoniyati;

-shartnoma bo'yicha qo'shimcha yashirin komissiyalarning yo'qligi, shaffof sertifikatlash tartibi;

-mahsulot sotish bo'yicha xorijiy sheriklarni topishda yordam berish "Halol" sertifikatlashtirish - xom-ashyo, qo'shimchalar, ziravorlar, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, ishlab chiqarish ob'ektlari (sex), ishlab chiqarish vositalari (jixozlar), biznesni boshqarish va ko'rsatilayotgan xizmatlarni "Halol" standarti talablariga

muvofiqligini uchinchi taraf (betaraf) tomonidan tasdiqlashga oid faoliyat hisoblanadi.

“Halol” standarti talablari bo‘yicha muvofiqlikni baholash, ixtiyoriy sertifikatlashtirishga kirib, sertifikatlashtirish arizachi talabi asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulot yoki xizmatlarni “Halol” standarti talablariga muvofiqligini baholash maqsadida amalga oshiriladi. “Halol” standarti bo‘yicha ixtiyoriy sertifikatlashtirish arizachi va MCHJ «O‘zbek-Turk Test Markazi» qo‘shma korxonasi o‘rtasida tuziladigan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Ma’lumot uchun: Sertifikatlashtirish tizimini yanada takomillashtirish va tadbirkorlarga qulayliklar yaratish maqsadida “O‘zbekiston texnik jixatdan tartibga solish” agentligi va Turk standartlari institututi (TSE) ishtirokida, yangi zamonaviy standartlar talablariga javob beruvchi O‘zbek-Turk qo‘shma korxonasi, ya’ni MCHJ «O‘zbek-Turk Test Markazi» qo‘shma korxonasi tashkil etilgan bo‘lib, qo‘shma korxonada hozirgi kunda:

- Mahsulotlarni sertifikatlashtirish idorasi (SI);
- Sifatni boshqarish tizimlarini sertifikatlashtirish idorasi;
- Sinov laboratoriyalari majmuasi (SLM) faoliyat yuritib kelmoqda.

Turkiya akkreditatsiya agentligi sifatni boshqarish tizimlarini sertifikatlashtirish idorasi ISO/IEC 17021 xalqaro standarti bo‘yicha va to‘qimachilik mahsulotlarini sinash laboratoriyasi ISO/IEC 17025 xalqaro standarti bo‘yicha xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgan bo‘lib, sertifikatlashtirish idorasi va sinov laboratoriyasi tomonidan rasmiylashtirilgan sertifikatlar va sinov bayonnomalari butun dunyoda tan olinadi.

“Halol” sertifikati – muayyan mahsulot yoki xizmatning “Halol” standarti talablariga muvofiqligini tasdiqlash uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga binoan berilgan hujjat bo‘lib, tarkibida islom qoidalari va me’yorlariga binoan iste’molga ruxsat etilgan “Halol” mahsulot va xizmatlar.

“Halol” belgisi - muayyan mahsulot yoki xizmatning “Halol” standarti talablariga mos ekanligini ko‘rsatish uchun mahsulotga yoki ko‘rsatilgan xizmatga doir hujjatga qo‘yiladigan, belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan belgi.

MCHJ «O‘zbek-Turk Test Markazi» QK sertifikatlashtirish idorasi milliy va xalqaro tan olingan idora bo‘lib, “Halol” sertifikatlashtirish faoliyatini Turk standartlari instituti bilan kelishuv asosida standartlashtirish, metrologiya va akkreditatsiya sohalarida faoliyat ko‘rsatuvchi, Islom hamkorlik tashkilotiga a’zo hukumatlararo tashkilot Islom davlatlari standartlashtirish va metrologiya instituti, hamda Turk standartlari institutining quyidagi:

- TS OIC/SMIK 1 “Halol oziq-ovqat mahsulotlariga qo‘yilgan talablar”;

-TS 13571 - “Tayyorlangan halol oziq-ovqat va ichimliklar saqlanadigan va xizmat ko‘rsatadigan joylarga TS OIC/SMIIC 1 standartining qo‘llanilishi bo‘yicha alohida talablar”;

-TS 13683 - “Halol menejment tizimi – mehmonxonalar”;

-TSE K 202 - “Halol kosmetika”;

-TS 6915 - “Mehmonxona xonalariga umumiy talablar”;

-TS 10082 - “Ish joylari, mehmonxona xonalari, turizm sertifikatlariga ega mehmonxonalar va ularni sinflarga ajratish bo‘yicha umumiy talablar” standartlari asosida amalga oshiradi.

Muayyan mahsulot yoki xizmatlarni “Halol” standarti talablari bo‘yicha sertifikatlashtirish auditlari O‘zbekiston Respublikasi musulmonlari diniy idorasi tomonidan tayinlangan imom-xatiblar va Turk standartlari instituti (TSE)ning xalqaro ekspertlari ishtirokida o‘tkaziladi hamda sertifikatlashtiriladigan mahsulotlar sifati, xavfsizligi va halolligini tasdiqlovchi sinovlar Turk standartlari instituti (TSE)ning laboratoriyalarida amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirish auditlari muvaffaqiyatli yakunlangach, xalqaro tan olingan “Halol” sertifikatlari bilan birga mahsulotlarning halolligini tasdiqlovchi sinov bayonnomalari ham taqdim etiladi.

Soxta mahsulotlarni sotib olishni oldini olish maqsadida sertifikatlangan ishlab chiqaruvchilar ro‘yxatini Bizning veb-saytimizda ko‘rishingiz mumkin.

Takrorlash uchun nazorat savollar:

- 1.Halol sertifikatlashtirish ograniga qo‘yiladigan talablar?
- 2.Sertifikatlanadigan mahsulot va xizmatlar?
- 3.Halol sertifikatini olish tartibi?
- 4.“Halol sertifikati” nima?

13§.O‘zbekiston Respublikasining “Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida”gi qonuni.

13.0.O‘zbekiston Respublikasining “Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida”gi Qonuni moxiyati. Qonunchilik palatasi tomonidan 2013 yil 6 iyunda qabul qilingan Senat tomonidan 2013 yil 22 avgustda ma’qullangan. 1-bob. Umumiy qoidalar 1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi muvofiqlikni baholash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.2-modda. Muvofiqlikni baholash to‘g‘risidagi qonun hujjatlari

Muvofiqlikni baholash to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining muvofiqlikni baholash to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Asosiy tushunchalar Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

akkreditatsiya — yuridik shaxslarning muayyan faoliyat sohasida muvofiqlikni baholashga doir ishlarni bajarishga vakolatli ekanligini Milliy akkreditatsiya organi tomonidan rasman tasdiqlash;

akkreditatsiya sohasi — muvofiqlikni baholash organining akkreditatsiya chog'ida Milliy akkreditatsiya organi tomonidan belgilanadigan faoliyati sohasi;

inspeksiya nazorati — mahsulotni, ishlab chiqarish jarayonlarini, xizmatlarni, menejment tizimlarini, muvofiqlikni baholash organlarini ularning muvofiqlikni baholash davrida belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladigan davriy qayta baholash tartib-taomili;

inspeksiya organi — yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspeksiyaning va inspeksiya nazoratini o'tkazish uchun belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan yuridik shaxs;

milliy akkreditatsiya tizimi — muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish qoidalari va tartib-taomilini belgilaydigan normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq davlat miqyosida faoliyat ko'rsatuvchi tizim;

muvofiqlikni baholash — mahsulot, ishlab chiqarish jarayonlari, xizmatlar, menejment tizimlari, xodimlar, muvofiqlikni baholash organlarining normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash bo'yicha faoliyat;

muvofiqlikni baholash organlari — yuridik shaxs bo'lgan va muvofiqlikni baholashga doir ishlarni bajarish uchun belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan inspeksiya organlari, sinov va kalibrlash laboratoriyalari (markazlari), mahsulotni, xizmatlarni, menejment tizimlarini, xodimlarni sertifikatlashtirish organlari;

muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya — ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki ijrochi mahsulotning normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlaydigan hujjat;

muvofiqlikni tasdiqlash — normativ-huquqiy hujjatlarning, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning talablari

bajarilganligi isbotlangani haqida Milliy akkreditatsiya organi yoki muvofiqlikni baholash organlari tomonidan qabul qilingan qarorga asoslangan hujjatlashtirilgan (akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma, muvofiqlik sertifikatini va muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya tarzidagi) tasdiq;

xodimlar — muvofiqlikni baholashga doir ishlarni amalga oshirish uchun tayyorgarlikka va malakaga ega bo'lgan mutaxassislar.

Muvofiqlikni baholashning asosiy vazifalari

Muvofiqlikni baholashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

inson hayoti va sog'lig'i, yuridik, jismoniy shaxslarning va davlatning mulki xavfsizligini ta'minlash;

atrof-muhit muhofaza qilinishini, shuningdek tabiiy resurslardan oqilona foydalanilishini ta'minlash;

mahsulot, ishlab chiqarish jarayonlari, xizmatlar, menejment tizimlari, xodimlarning normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash;

muvofiqlikni baholash organlari akkreditatsiyaning belgilangan sohasida ishlarni bajarishga vakolatli ekanligini tasdiqlash;

ichki va tashqi bozorlarda mahsulot hamda xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish;

xalqaro iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikda va xalqaro savdoda ishtirok etish;

savdodagi texnik to'g'risiqlarni bartaraf etish.

Muvofiqlikni baholashning asosiy prinsiplari

Muvofiqlikni baholashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

muvofiqlikni baholashning yagona qoidalari va tartib-taomillarini qo'llash;

muvofiqlikni baholash haqidagi axborotning ishonchliligi va ochiqligi;

akkreditatsiya qilingan muvofiqlikni baholash organlarining xizmatlaridan foydalanishga to'g'risiqlar qo'yishga va ular o'rtasidagi raqobatni cheklashga yo'l qo'yimaslik;

davlat sirlarining, tijorat sirining va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirning saqlanishi;

akkreditatsiya bo'yicha faoliyatni sertifikatlashtirishga, muvofiqlikni deklaratsiyalashga, yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspeksiyaning amalga oshirishga, mahsulot sinoviga, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, fitosanitariya xulosalarini berishga, ekologik ekspertiza o'tkazishga doir faoliyat bilan qo'shib olib borilishiga yo'l qo'yimaslik.

Muvofiqlikni baholash ob'ektlari

Muvofiqlikni baholash ob'ektlari quyidagilardan iborat:

mahsulot;
ishlab chiqarish jarayonlari;
xizmatlar;
menejment tizimlari;
akkreditatsiya qilinishga talabgor bo'lgan yuridik shaxslar;
muvofiqlikni baholash sohasida xodim sifatida ishtirok etishga talabgor bo'lgan mutaxassislar;
muvofiqlikni baholash organlari inspeksiya nazoratidan o'tkazilishi chog'ida ushbu organlarning o'zi.

Muvofiqlikni baholashni amalga oshirish

Muvofiqlikni baholash:

akkreditatsiya qilish;

sertifikatlashtirish;

muvofiqlikni deklaratsiyalash;

inspeksiya nazorati;

yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspeksiya;

mahsulot sinovi;

sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, fitosanitariya xulosalari yoki ekologik ekspertiza yo'li bilan amalga oshiriladi.

Akkreditatsiyani amalga oshirish

Akkreditatsiya akkreditatsiya qilinishga talabgor bo'lgan yuridik shaxslarning vakolatli ekanligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladi.

Akkreditatsiya akkreditatsiya qilinishga talabgor bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlarning tahlili va ekspertizasini, olingan dalillarni tekshiruvlar o'tkazish yo'li bilan baholashni o'z ichiga oladi.

Muvofiqlikni deklaratsiyalash

Muvofiqlikni deklaratsiyalash — mahsulotning normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki ijrochi tomonidan tasdiqlash.

Muvofiqlikni deklaratsiyalashda muvofiqlikni tasdiqlash qoidalari, tartibi va usullari texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi tegishli normativ hujjatlarda belgilanadi.

Agar muvofiqlikni deklaratsiyalashda muvofiqlikni tasdiqlash qoidalari, tartibi va usullarida mahsulot sinovini o'tkazish zarur ekanligi belgilangan bo'lsa, bunday sinov akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyasi (markazi) tomonidan ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki ijrochi bilan tuzilgan shartnoma asosida o'tkaziladi.

Inspeksiya nazoratini amalga oshirish

Inspeksiya nazorati Milliy akkreditatsiya organi, muvofiqlik sertifikatini bergan sertifikatlashtirish organlari yoki inspeksiya organlari tomonidan amalga oshiriladi. Inspeksiya nazorati natijalariga ko'ra muvofiqlik sertifikatini yoki akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomani tasdiqlash, uning amal qilishini to'xtatib turish, tugatish yoxud sertifikatni yoki guvohnomani bekor qilish to'g'risida belgilangan tartibda qaror qabul qilinishi mumkin.

Sertifikatlashtirishni, yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspeksiyaning, mahsulot sinovini, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, fitosanitariya xulosalarini yoki ekologik ekspertizani amalga oshirish

Sertifikatlashtirish, yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspeksiya, mahsulot sinovi, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, fitosanitariya xulosalari yoki ekologik ekspertiza qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Muvofiqlikni tasdiqlashni amalga oshirish

Mahsulot, xizmatlar, ishlab chiqarish jarayonlari, menejment tizimlari, xodimlarning normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash sertifikatlashtirish va muvofiqlikni deklaratsiyalash natijalariga ko'ra amalga oshiriladi. Sertifikatlashtirish va muvofiqlikni deklaratsiyalash majburiy yoxud ixtiyoriy tusda bo'lishi mumkin.

Muvofiqlikni baholash organlarining muvofiqligini tasdiqlash ularni akkreditatsiya qilish natijalariga ko'ra amalga oshiriladi.

Muvofiqlikni baholash qoidalari va tartib-taomili

Muvofiqlikni baholash qoidalari va tartib-taomili muvofiqlikni baholash sohasidagi tashkiliy hamda texnik talablarni, ishlarni bajarish va rasmiylashtirish tartibini, usullarini o'z ichiga oladi.

Muvofiqlikni baholashga doir ishlar xodimlar tomonidan amalga oshiriladi.

Muvofiqlikni baholashga doir ishlarga sifat bo'yicha ekspert-auditorlar va (yoki) tegishli tarmoqlarning muvofiqlikni baholash sohasida ishlarni tashkil etishga, ushbu sohadagi jarayonga yoki faoliyatga taalluqli maxsus bilim va tajribaga ega bo'lgan texnik ekspertlar jalb qilinishi mumkin.

Muvofiqlikni baholash natijalarini tan olish

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida o'tkazilgan muvofiqlikni baholash natijalarini O'zbekiston Respublikasida tan olish O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari hisobga olingan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Muvofiqlikni baholash sohasini davlat tomonidan tartibga solish. Muvofiqlikni baholash sohasini davlat tomonidan tartibga solishni amalga oshiruvchi organlar

Muvofiqlikni baholash sohasini davlat tomonidan tartibga solish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi hamda boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining muvofiqlikni baholash sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

muvofiqlikni baholash sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlaydi;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining muvofiqlikni baholash sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

O‘zbekiston Respublikasida muvofiqligi tasdiqlanishi shart bo‘lgan muvofiqlikni baholash ob’ektlari ro‘yxatini tasdiqlaydi;

Milliy akkreditatsiya organi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlaydi;

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida o‘tkazilgan muvofiqlikni baholash natijalarining O‘zbekiston Respublikasida tan olinishi tartibini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining, O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasining, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining, boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining muvofiqlikni baholash sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari o‘z vakolatlari doirasida:

muvofiqlikni baholash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi;

muvofiqlikni baholash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni, shuningdek normativ hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

O‘zbekiston Respublikasida muvofiqligi tasdiqlanishi shart bo‘lgan muvofiqlikni baholash ob‘ektlari ro‘yxatiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishga doir takliflar ishlab chiqadi;

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida o‘tkazilgan muvofiqlikni baholash natijalarini O‘zbekiston Respublikasida tan olish zarurligi to‘g‘risida belgilangan tartibda takliflar kiritadi;

muvofiqlikni baholash sohasi uchun mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda ishtirok etadi.

O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Muvofiqlikni baholash organlarining huquqlari

Muvofiqlikni baholash organlari:

akkreditatsiyaning belgilangan sohasida sertifikatlashtirishni amalga oshirish;
muvofiqlik sertifikatlari berish;

o‘zi bergan muvofiqlik sertifikatlarining yoki muvofiqlik to‘g‘risidagi deklaratsiyani ro‘yxatdan o‘tkazishning amal qilishini belgilangan tartibda to‘xtatib turish yoxud muvofiqlik sertifikatlarini yoki muvofiqlik haqidagi deklaratsiyani ro‘yxatdan o‘tkazishni bekor qilish;

akkreditatsiyaning belgilangan sohasida mahsulot sinovini o‘tkazish, o‘lchov va sinov vositalarini tekshirish yoki kalibrlash;

akkreditatsiyaning belgilangan sohasida mahsulot sinovlariga oid bayonnomalarni, o‘lchov va sinov vositalarini tekshirish yoki kalibrlash to‘g‘risidagi bayonnomalarni berish;

milliy akkreditatsiya tizimi belgisini qo‘llash huquqiga ega.

Muvofiqlikni baholash organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Muvofiqlikni baholash organlarining majburiyatlari

Muvofiqlikni baholash organlari:

normativ-huquqiy hujjatlarda, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilangan talablarni bajarishi;

manfaatdor shaxsga sertifikatlashtirish, muvofiqlikni deklaratsiyalash, inspeksiya nazorati, yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspeksiya, mahsulot sinovlari, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, fitosanitariya xulosalari yoki ekologik ekspertiza qoidalari va tartib-taomili to‘g‘risida axborot taqdim etishi;

muvofiglik to'g'risidagi deklaratsiyalarni belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazishni amalga oshirishi;

o'zi bergan muvofiglik sertifikatlarining, mahsulot sinovlariga oid bayonnomalarning, o'lchov va sinov vositalarini tekshirish yoki kalibrlash to'g'risidagi bayonnomalarning, shuningdek ro'yxatdan o'tkazilgan muvofiglik to'g'risidagi deklaratsiyalarning hisobini yuritishi;

o'zi bergan muvofiglik sertifikatlari va ro'yxatdan o'tkazilgan muvofiglik to'g'risidagi deklaratsiyalar, ularga o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritish, ularning amal qilishini to'xtatib turish, shuningdek ularni bekor qilish to'g'risida Milliy sertifikatlashtirish organini xabardor qilishi;

mahsulot sinovlari, o'lchov va sinov vositalarini tekshirish yoki kalibrlashning belgilangan qoidalari hamda tartib-taomillariga rioya etishi;

mahsulot sinovlari, o'lchov va sinov vositalarini tekshirish yoki kalibrlash natijalarining to'g'riligini ta'minlashi;

akkreditatsiya bilan bog'liq xarajatlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'lashi shart.

Muvofiglikni baholash organlari zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Akkreditatsiya 20-modda. Milliy akkreditatsiya organi

Milliy akkreditatsiya organi O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligidir.

Milliy akkreditatsiya organi:

muvofiglikni baholash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi;

milliy akkreditatsiya tizimi tashkil etilishini, faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlaydi;

muvofiglikni baholash organlarini akkreditatsiya qilishni amalga oshiradi va ularga akkreditatsiya to'g'risida guvohnoma beradi;

muvofiglikni baholash organlari ustidan inspeksiya nazoratini amalga oshiradi;

belgilangan tartibda akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turadi, tugatadi va ushbu guvohnomani bekor qiladi;

xalqaro akkreditatsiya organlari va xorijiy davlatlarning milliy akkreditatsiya organlari bilan akkreditatsiya masalalari bo'yicha hamkorlik qiladi;

Muvofiglikni baholash organlarining davlat reestrini yuritadi.

Milliy akkreditatsiya organi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Akkreditatsiya shartlari

Quyidagilarning mavjudligi akkreditatsiya shartlaridir:

akkreditatsiya qilinish uchun ariza;

akkreditatsiya qilish soʻralgan sohadagi ishlarni bajarish uchun akkreditatsiya qilinishga talabgor boʻlgan yuridik shaxslarning vakolatli ekanligini tasdiqlovchi hujjatlar;

akkreditatsiya bilan bogʻliq xarajatlar toʻlanganligini tasdiqlovchi hujjat.

Sertifikatlashtirish organi sifatida akkreditatsiya qilinishga talabgor boʻlgan yuridik shaxslar muvofiqlikni baholash obʻektlarining ishlab chiqaruvchilari, sotuvchilari, ijro qiluvchilari va isteʼmolchilariga nisbatan tashkiliy hamda moddiy jihatdan tobe boʻlmasligi kerak.

Qonun hujjatlarida akkreditatsiyaning boshqa shartlari ham belgilanishi mumkin.

Akkreditatsiya toʻgʻrisidagi guvohnoma

Akkreditatsiya toʻgʻrisidagi guvohnoma muvofiqlikni baholash organi akkreditatsiyaning belgilangan sohasidagi ishlarni bajarishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi hujjatdir.

Akkreditatsiya toʻgʻrisidagi guvohnomaning shakli Milliy akkreditatsiya organi tomonidan tasdiqlanadi.

Akkreditatsiya toʻgʻrisidagi guvohnoma besh yil muddatga beriladi.

Akkreditatsiya toʻgʻrisidagi guvohnomadan boshqa shaxsning foydalanishi taqiqlanadi.

Milliy akkreditatsiya tizimining belgisi

Milliy akkreditatsiya tizimi milliy akkreditatsiya tizimi belgisiga ega boʻlib, ushbu belgi uni qoʻllovchi muvofiqlikni baholash organi Milliy akkreditatsiya organi tomonidan akkreditatsiya qilinganligini bildiradi.

Muvofiqlikni baholash organi akkreditatsiya toʻgʻrisidagi guvohnomani olish bilan bir vaqtda mazkur guvohnomaning amal qilish muddatida milliy akkreditatsiya tizimi belgisini qoʻllash huquqiga ega boʻladi.

Milliy akkreditatsiya tizimi belgisining shakli va uni qoʻllash tartibi Milliy akkreditatsiya organi tomonidan belgilanadi. Mazkur belgini qoʻllash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pulli asosda amalga oshiriladi.

Akkreditatsiya sohasini oʻzgartirish

Akkreditatsiya sohasini oʻzgartirish toʻgʻrisidagi qaror muvofiqlikni baholash organi akkreditatsiya sohasini kengaytirishni yoki qisqartirishni soʻrab ariza bergan taqdirda, Milliy akkreditatsiya organi tomonidan qabul qilinadi.

Muvofiqlikni baholash organining akkreditatsiya sohasini kengaytirish u bilan kelishilgan muddatlarda akkreditatsiya qoidalari va tartib-taomillariga muvofiq amalga oshiriladi.

Akkreditatsiya sohasini qisqartirish bo'yicha qaror muvofiqlikni baholash organi qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etmagan taqdirda, Milliy akkreditatsiya organi tomonidan inspeksiya nazorati natijalariga ko'ra qabul qilinishi mumkin.

Akkreditatsiya sohasini o'zgartirish to'g'risidagi qaror ustidan Milliy akkreditatsiya organi to'g'risidagi nizomda belgilanadigan tartibda shikoyat qilinishi yoxud sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turish

Inspeksiya nazorati davomida aniqlangan nomuvofiqliklar bartaraf etilmagan taqdirda, akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishi to'xtatib turilishi mumkin.

Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turish Milliy akkreditatsiya organi yoki sud tomonidan amalga oshiriladi. Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishi Milliy akkreditatsiya organi tomonidan o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatga, sud tomonidan esa, o'n ish kunidan ko'p bo'lgan muddatga to'xtatib turilishi mumkin.

Milliy akkreditatsiya organining akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turish haqidagi qarori muvofiqlikni baholash organiga qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmasdan yozma shaklda etkaziladi. Sudning akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turish haqidagi hal qiluv qarori muvofiqlikni baholash organiga va Milliy akkreditatsiya organiga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda etkaziladi.

Muvofiqlikni baholash organi akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlarni bartaraf etgan taqdirda, akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turish haqida qaror qabul qilgan Milliy akkreditatsiya organi yoki sud mazkur holatlar bartaraf etilganligi haqidagi tasdiqni olgan kundan e'tiboran o'n kun muddat ichida akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini qayta tiklash haqida qaror qabul qilishi shart.

Milliy akkreditatsiya organining akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turish haqidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin. Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turish sud tomonidan asossiz deb topilgan taqdirda, Milliy akkreditatsiya organi muvofiqlikni baholash organi oldida u ko'rgan zarar miqdorida javobgar bo'ladi.

Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishi to'xtatib turilganligi va qayta tiklanganligi haqidagi ma'lumotlar ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi lozim.

Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini tugatish

Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishi quyidagi hollarda tugatiladi:

muvofiglikni baholash organi akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini tugatishni so'rab ariza bilan murojaat qilganda;

yuridik shaxs bo'lgan muvofiglikni baholash organi tugatilganda — tugatilgan paytdan e'tiboran yoki uning faoliyati qayta tashkil etish natijasida tugatilganda — qayta tashkil etilgan paytdan e'tiboran, bundan uning o'zgartirilishi mustasno;

muvofiglikni baholash organi akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini to'xtatib turishga sabab bo'lgan holatlarni Milliy akkreditatsiya organi yoki sud tomonidan belgilangan muddatda bartaraf etmaganda;

muvofiglikni baholash organi normativ-huquqiy hujjatlarda, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilangan talablarni muntazam ravishda buzganda yoki bir marta qo'pol tarzda buzganda;

Milliy akkreditatsiya organining akkreditatsiya to'g'risida guvohnoma berish haqidagi qarori noqonuniy ekanligi aniqlanganda;

akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilish muddati o'tganda. Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini tugatish Milliy akkreditatsiya organi tomonidan amalga oshiriladi, bundan ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Ushbu modda birinchi qismining to'rtinchi — oltinchi xatboshilarida ko'rsatilgan hollarda akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini tugatish sudning hal qiluv qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

Milliy akkreditatsiya organining akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini tugatish haqidagi qarori muvofiglikni baholash organiga qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmasdan yozma shaklda etkaziladi. Sudning akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini tugatish haqidagi hal qiluv qarori muvofiglikni baholash organiga va Milliy akkreditatsiya organiga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda etkaziladi.

Muvofiglikni baholash organi Milliy akkreditatsiya organining yoki sudning akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini tugatish haqidagi qarorini olgan kundan e'tiboran o'n kun ichida akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma Milliy akkreditatsiya organiga qaytarilishi va yo'q qilib yuborilishi lozim.

Milliy akkreditatsiya organining akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini tugatish haqidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini tugatish sud tomonidan asossiz deb topilgan taqdirda, Milliy akkreditatsiya organi muvofiqlikni baholash organi oldida u ko'rgan zarar miqdorida javobgar bo'ladi.

Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishi tugatilganligi haqidagi ma'lumotlar ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi lozim.

Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishi uni tugatish haqida qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran tugatiladi.

Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomani bekor qilish

Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

muvofiqlikni baholash organi akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomani bekor qilish haqidagi ariza bilan murojaat qilganda;

akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma soxta hujjatlardan foydalangan holda olinganligi fakti aniqlanganda.

Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomani ushbu modda birinchi qismining uchinchi xatboshisida nazarda tutilgan holda bekor qilish sudning hal qiluv qaroriga ko'ra, ushbu modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan holda bekor qilish esa, Milliy akkreditatsiya organining qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

Milliy akkreditatsiya organining akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomani bekor qilish haqidagi qarori muvofiqlikni baholash organiga qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmasdan yozma shaklda etkaziladi. Sudning akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomani bekor qilish haqidagi hal qiluv qarori muvofiqlikni baholash organiga va Milliy akkreditatsiya organiga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda etkaziladi.

Muvofiqlikni baholash organi Milliy akkreditatsiya organining yoki sudning akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomani bekor qilish haqidagi qarorini olgan kundan e'tiboran o'n kun ichida akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma Milliy akkreditatsiya organiga qaytarilishi, Muvofiqlikni baholash organlarining davlat reestridan chiqarilishi va yo'q qilib yuborilishi lozim.

Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma bekor qilinganligi haqidagi ma'lumotlar ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi lozim.

Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomani bekor qilish haqida sudning hal qiluv qarori qabul qilinganda akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma u berilgan sanadan e'tiboran bekor qilingan hisoblanadi.

14§. Xorijiy sertifikatlashtirish tizimi. Xalqaro, xududiy va milliy miqiyosida sertifikatlashtirishning rivojlanishi.

Evropa davlatlari, Amerika, Angliya, Germaniya, Fransiya, Turkiya, Xitoy, va Rossiya davlatlari sertifikatlashtirish tizimlari va ularning faoliyati. Butun dunyoda mahsulotning sifati, xavfsizligi nazorat tekshiruv xizmatlari tomonidan olib boriladi. Xavfsizlikni nazorat qilish usullari bir qancha usuliyatlarga asoslanib ko'pgina idora va tashkilotlar orqali amalga oshiriladi. Davlat tekshiruvlari asosan standart talablari to'g'ri bajarilganligi, sanitariya-gigiena qoidalari bajarilganligi ustidan nazoratni va boshqa ko'rsatkichlarni tekshirishlar esa iste'molchilar huquqlarini himoya qilish tashkilotlari tomonidan olib boriladi.

Davlat nazorat idoralari umumiy tekshiruvlarni bajarishmay, faqatgina nomuvofiq mahsulotlar bo'yicha huquqiy choralar ko'rishadi. Ko'pgina davlatlarning qonunlari mahsulotlarning talablarga javob berishi to'g'risida alohida texnik reglamentlardan iborat.

Evropa davlatlari ma'lumotlariga ko'ra Fransiya standartlashtirish assotsiatsiyasida (AFNOR) va Evropa assotsiatsiyasida (EACT) 5000 dan ortiq nomdagi mahsulotlar sertifikatlashtirilib, sertifikatlashtirish bo'yicha 300 ta tizim faoliyat olib boradi, bu ishda 7000 dan ortiq sertifikatlashtirish idoralari faoliyat ko'rsatadi.

Sertifikatlashtirish azaldan sanoatda va rivojlangan davlatlarda foydalanilgan. Bu esa o'z navbatida ushbu davlatlar bozorida nomuvofiq va standart talablariga, me'yoriy texnik hujjatlarga javob bermaydigan mahsulotlarining paydo bo'lishidan himoya qilgan.

Bitta mahsulotga har xil standart va texnik me'yorlar belgilanishi jahon bozorida xalqaro savdo-sotiqqa sun'iy to'siqni vujudga keltiradi. SHuning uchun sertifikatlashtirish, teng hamkorlik bilan standartning uyg'unligini va sertifikatlashtirishning qoidalariga mos kelishligi savdo-sotiqda hamkorlik qilishda muhim o'rin tutadi.

Sertifikatlashtirish idoralaridan tashqari bir qancha davlatlarda bojxona chegaralarida alohida Davlat xizmat ko'rsatish idoralari joylashgan bo'lib, ular hududga kirib kelayotgan mahsulotlarning (veterinar xayvonlar, usimliklar, oziq-ovqat mahsulotlari va tez buziladigan mahsulotlar) talablarga javob berishini ta'minlash bo'yicha ish olib borishadi.

Keyingi bandlarda ba'zi bir davlatlarda mavjud bo'lgan shunday xavfsizlik xizmatlari haqida ma'lumotlar keltirilmoqda.

14.1. Amerika Qo‘shma Shtatlari sertifikatlashtirish faoliyati

AQSHda iste‘molchilarning huquqini muhofaza qilish qonuni asosida ish yuritiladi. Masalan, u erda «Milliy transport va avtomobillarning xavfsizligi», «Pestitsidlar va rodentitsidlar» haqida qonunlar mavjuddir.

AQSHning Federal hukumati sertifikatlashtirish bo‘yicha uchta asosiy darajadagi dasturlarni qabul qilib tasdiqlashgan.

Birinchi darajali dastur majburiy sertifikatlashtirilgan mahsulot uchun tayyorlangan bo‘lib, bularning iste‘molchi uchun sog‘liqqa ziyon keltirilishi mumkin bo‘lgan hollarda ishlatilishi mumkin. Bu sertifikatlashtirish dasturi aviatsiyada, kemasozlikda, avtomobilsozlikda, konteynerlarda va truboprovodlardagi faoliyatlar kiradi.

Ikkinchi darajali dastur bu Davlat mudofaa departamentlari, transport, savdo-sotiq, elektrofikatsiya orqali mahsulotni sertifikatlashtirish ko‘zda tutiladi.

Uchinchi darajali dastur mahsulot sifati, narxi va uning kelib chiqish jarayonlari ko‘zda tutiladi.

Bu sertifikatlashtirish dasturlari ixtiyoriy ravishda ishlatiladi.

AQSHda alohida Qonun asosida belgilangan sertifikatlashtirish milliy boshqarmasi mavjud emas. Amerika milliy standart texnologiyalar instituti (NIST) qoshida sertifikatlashtirish komiteti ish olib boradi va sertifikatlashtirish qoidalarini ishlab chiqadi, uning reestrini olib boradi va muvofiqlikni tasdiqlash faoliyati bilan shug‘ullanadi, hamda shu bilan birga sertifikatlashtirish idoralarining faoliyatini nazorat qilish faoliyati bilan shug‘ullanadi.

Sertifikatlashtirishning **me‘yoriy bazasi** bo‘lmish standartlarni quyidagi tashkilotlar ishlab chiqishadi:




Amerika materiallarni sinash bo‘yicha jamiyati (ASTM) – keng ko‘lamdagi iste‘mol tovarlari uchun;



Elektr qurilmalarini tayyorlash milliy assotsiatsiyasi (NEMA) – elektr qurilmalari va elektr texnikalari uchun;



Ko‘p ehtiyojdagi tovarlarning xavfsizligi bo‘yicha Kengash (CPSC) – ko‘p ehtiyojdagi tovarlar uchun;



Atrof-muhitni himoyalash bo‘yicha Federal agentligi (ERA) – ichki yonuv dvigatellari, er osti, suv va havo transportlari va hokazo turli xil ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish uchun;

Texnologiya va standartlar milliy instituti (NIST) - majburiy standartlarni ishlab chiquvchi standartlashtirish bo'yicha hukumat idorasi.

14.2. Angliya sertifikatlashtirish faoliyati



Angliyada sertifikatlashtirish buyumlarni Britaniya standartlari institutida keltirilgan muvofiqlik belgisi va Britaniya standartlari talablariga muvofiqligini tasdiqlash bilan amalga oshiriladi.

Ma'lumki, Ushbu institut tomonidan qator standartlar ishla chiqilgan va joriy qilingan. Bu standartlar bilan keyinchalik, o'qo'v qo'llanmaning sifat tizimi bo'limlarida tanishamiz.

14.3. Fransiya sertifikatlashtirish faoliyati

Fransiyada ilk bora 1938 yil sertifikatlashtirish haqidagi qonun qabul qilingan. Bu qonun milliy standart belgisi NF, hozirgacha o'zgartirish kiritilgan holda ishlatilmoqda. AFNOR zimmasiga 1941 yilda qabul kilingan dekret asosida NF belgisi maqomiga egaligi va mamlakatda sertifikatlashtirish faoliyati tizimi yuklatilgan.

Fransiyada NF belgisi milliy standartlarga mos eng birinchi sertifikatlashtirish muvofiqlik belgisidir. Ushbu belgi shaharda va chet davlatlarda keng tarqalgan va qo'llanilab kelinmoqda.

Mas'uliyatsiz bosilgan har bir qadam jazoga tortilishi mumkin, bu choralar oddiy ogohlantirishdan boshlanib yukoridagi belgini kullaniishiga berilgan litsenziyasidan mahrum qilinishgacha borib etadi. AFNOR tashkiloti har bir noto'g'ri berilgan reklama, tovlamachilik, belgini noto'g'ri ishlatilganida ham ishlab chiqaruvchilarni yoki sotuvchilarni qonuniy jazoga tortishi mumkin. AFNOR tashkilotining sertifikatlashtirish tizimi uchinchi tomon sifatida faoliyat ko'rsatadi, hamda korxonalar sifat tizimini va mahsulot namunasini sinash faoliyatini olib boradi.



Standartlashtirish bo'yicha Fransuz assotsiatsiyasi (AFNOR) – sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarini va faoliyatni amalga oshiradi.

Sertifikatlashtirishning tashkiliy tuzulishi va tarmoq standartlashtirish tizimi bilan milliy standartlar talablariga muvofiq reja asosida doimiy o'zaro faoliyat olib borib yangi standart va me'yorlarni ishlab chiqadi.

AFNOR, sertifikatlashtirish faoliyatini davlat idorasi sifatida va quyidagi tarmoqlar miqyosida boshqaradi: *Fransuz tashqi savdo markazi (CNCE)*, *Texnik reglamentlar va me'yorlar to'g'risidagi ma'lumotlar markazi (CINR)*, *Elektrotexniklar Kengashi (UTE)*.

14.4. Germaniyada sertifikatlashtirish faoliyati

Germaniyada sertifikatlashtirishning asosi bo'lib Federal hokimiyat

miq'yosida qabul qilingan qonunlar xizmat ko'rsatadi. Bular o'z ichiga sog'liqni himoya qilish, tabiatni muhofaza qilish, mehnat xavfsizligini, iqtisodiyot resurslarini, iste'molchilarning huquqlarini muhofaza qilishga yo'naltirilgan qonunlarni qamrab oladi. Bu qonunlarga asosan 1968 yilda qabul qilingan «Jihozlarining xavfsizligini ta'minlash» qonuni kiritilib, bu konunning asosi bo'lib tabiatni muhofaza qilish qonunlari xizmat kilgan.

Ishlab chiqaruvchi yoki chetdan mahsulot olib kiruvchining mahsuloti texnik nazoratdan va federal hokimiyat tarafidan tekshirilgan bo'lsa, u tekshirilganlik «xavfsizlik belgisi»ni qo'yishi mumkin bo'lgan. Sertifikatlashtirish bo'yicha Germaniyada faoliyat olib boradigan asosiy ettita tizim mavjud bo'lib, ularning doirasida 400 dan ortiq boshqarmalar ish yuritadilar. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha eng faol ish olib boruvchi tashkilot sifatida DIN standartlariga muvofiqligini tekshirish bo'yicha ish olib boradigan Germaniya instituti (DIN) bo'lib hisoblanadi. Mahsulotlar ushbu institut tizimidagi sertifikatlashtirish tashkilotidan o'tgandan so'ng unga DIN belgisi qo'yilishiga ruxsat beriladi, bu belgi gaz, suv apparatlaridan tashqari barcha mahsulotlarga ishlatiladi.

Elektr tarmoqlarini sertifikatlashtirish Germaniya elektrotexniklar kengashi (VDE) orqali bajariladi. Ilmiy tekshirish institutlarida va sinov laboratoriyalarida mahsulotni nazorat qilish ishlari olib boriladi.

Germaniyada umummilliy sertifikatlashtirish tizimiga quyidagi tizimlar kiradi:

A – reglamentlarga muvofiq sertifikatlashtirish tizimi;



A1 - DIN standartlariga muvofiq sertifikatlashtirish tizimi barcha turdagi mahsulotlarni/buyumlarni/ qamram olib, DIN standartida o'rnatilgan talablariga muvofiqligiga solishtiriladi. Uga Germaniya standartlashtirish instituti rahbarlik qiladi. DIN standarti talablariga muvofiq buyumlar **DIN GEPRUFT** belgisi bilan tamg'alanidi;



A2 - VDE sertifikatlashtirish tizimi. Bu tizim (VDE) elektrotexniklar Kengashi bo'lib, Sinov va sertifikatlashtirish institutini (PZI) qo'llab qo'vvatlaydi va buyumlar **VDE** belgisi bilan quyiladi;



A3 - DVGW sertifikatlashtirish tizimi. Bu sertifikatlashtirish tizimi gaz va suv ta'minoti bo'yicha firma Assotsiatsiyalaridir. Germaniyaning bozorlariga etkazilib berilayotgan barcha gaz qurilmalari **DVGW** muvofiqlik belgisi bo'lishi lozim;



V – Germaniya sifat kafolati va RAL tamg‘alash instituti sertifikatlashtirish tizimi. Bu tizimning qo‘llanish sohasi qishloq xo‘jaligi va qurilish materiallari uchun ishlatiladi va **RAL** sertifikatlashtirilgan mahsulotlarga muvofiqlik belgisi qo‘yiladi;



S - **GS** belgisi bilan sertifikatlashtirish tizimi, Asbob-uskunalar xavfsizligi to‘g‘risidagi Qonun talablariga muvofiq buyumlar sertifikatlanadi;

D – qurilish konsruksiyalarini federal me‘yorlariga muvofiqligini nazorati uchun tizim;

E – etalon va o‘lchash vositalarini sertifikatlashtirish tizimi. Metrologiya sohasida Federal idora bo‘lib Federal fizika-texnika instituti hisoblanadi;

F – Germaniya sanoat qonunchiligining 24 bo‘limiga muvofiq sertifikatlashtirish tizimi. Bu tizim bug‘ qozonlar, yuqori bosimli idishlar, yonuvchi suyuqliklarni tashish, portlashdan himoyalangan elektr qurilmalari va ko‘tarish qurilmalarini sertifikatlashtirish bilan shug‘ullanadi.



Sifat tizimini sertifikatlashtirish bo‘yicha jamiyat (DQS).

Germaniyada sifat tizimini sertifikatlashtirish bo‘yicha Amaliy ishlarni olib boradi.

Sifat tizimini sertifikatlashtirish bo‘yicha DQS jamiyati faoliyat olib borib, u firma va kompaniyalarning majburiy bo‘lmagan holda ya‘ni ixtiyoriy ravishda murojaatlarini qabul qiladi. Bundan tashqari RW TUV va bir necha xalqaro miq‘yosda tanilgan Germaniya kompaniyalari ham sertifikatlashtirish ishlari bilan shug‘ullanishadi.

14.5. YAponiya sertifikatlashtirish tizimi faoliyati

YAponiyada asosan ixtiyoriy sertifikatlashtirish ishlari mavjud bo‘lib, hozirgi bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, raqobat tufayli majburiy sertifikatlashtirishga aylangan. Mahsulotlarni ixtiyoriy sertifikatlashtirish bilan birga ularning turli tekshiruvlari ham olib boriladi. Mahsulot yoki xizmatlarni sertifikatlashtirish bo‘yicha 25 dan ortiq qonunlar mavjud bo‘lib, bularning ba‘zilari faqatgina mahsulotlarni tekshiruvlarini olib borish faoliyatiga qaratilgan.

Standartlarga muvofiqligini kafolatlovchi, hamda sertifikatlashtirish masalalari bo‘yicha eng taniqli tashkilotlardan biri YAponiya sanoat standartlari komiteti (JISC) bo‘lib, u tomonidan ishlab chiqilgan standartlar qator vazirliklar tomonidan (qishloq xo‘jalik, tashqi savdo va sanoat, o‘rmonchilik, baliqchilik, qurilish, aloqa xizmati va maoriflarda) qabul qilingan. Oziq-ovqat, qishloq xo‘jalik va o‘rmonchilik mahsulotlari uchun JAS standartlari talablari asosida sertifikatlashtirishda ishlari olib boriladi. YAponiyada qishloq xo‘jalik assotsiatsiyasi tomonidan ham standartlar ishlab chiqilib, u qishloq xo‘jalik va

o‘rmonchilik mahsulotlarini standartlashtirish va tamg‘alashga mo‘ljallangan.

Baliqchilik va o‘rmonchilik xo‘jaliklarida nazoratni ushbu vazirlik tomonidan ro‘yxatga olingan mustaqil tashkilot olib boradi.

Mahsulotlarga qo‘yilgan VCCI belgisi mahsulotning elektromagnit moslashuvchanligini bildiradi. Ushbu belgini olish va uni mahsulotlar yorlig‘iga qo‘llash ixtiyoriy sanaladi.

SG – belgisi 50 dan ortiq turdagi mahsulot va tovarlar uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, bu belgi ularning xavfsizligi haqidagi kafolat belgisi hisoblanadi, T – belgisi mamlakat ichki bozor savdosi va sanoat vazirligi tomonidan belgilangan bo‘lib, import mahsulotlar ya’ni **elektrotexnika mahsulotlarining** xavfsizligi belgisini bildiradi.



YAponiyada uchta shakldagi sertifikatlashtirish amal qilinadi: majburiy sertifikatlashtirish, qonuniy talablarga muvofiqligini tasdiqlash, milliy standartlarga muvofiq ixtiyoriy sertifikatlashtirish.

Majburiy sertifikatlashtirishni hukumat tasarrufidagi idoralar va ixtiyoriy sertifikatlashtirishni xususiy idoralar shug‘ullanishadi.

YAponiya qonunlarida turli xil mahsulotlar va turli toifadagi tavsiflari hamda xavfsizliklarini belgilanadi.

14.6. Xitoy sertifikatlashtirish tizimi

Xitoy Xalq Respublikasi (XXR)da standartlashtirish faoliyati davlat qonunlari va qarorlari orqali boshqariladi va takomillashtiriladi, bu qonun va qarorlar Xitoy xalq vakillar yig‘ilishida (XXVY) yoki Xitoy yuqori tashkilotlar idoralari huquq doirasida qabul qilinadigan farmoyish va buyruqlar asosida bajariladi. Metrologiya, standartlashtirish, mahsulotning sifatini nazorat qilish, eksport va import mahsulotlari bo‘yicha qabul qilingan qonunlarda o‘z aksini topgan. 1991 yil may oyida Xitoy Xalq Respublikasida (XXR) sertifikatlashtirish, mahsulotlarni sifatini aniqlash bo‘yicha qoidalar ishlab chiqilgan. Mahsulotning sifatini aniqlovchi eng asosiy tashkilotlardan biri Davlat texnik nazorat byurosi (DTNB) va Davlat import-eksport tovarlarining boshqarmasi (DIETB) eksportga chiqariladigan va import bo‘yicha olib kiriladigan mahsulotlarni sertifikatlashtirishni nazorat qiladi.

Xitoyda milliy standartlarga amal qilish, sog‘liqni saqlashdagi talablar, ekologiya va insonlarni muhofaza etish talablari majburiydir.

Qolgan standartlar faqatgina qo‘llanishga tavsiya etilib, ammo sertifikatlashtirish tizimi talablariga ko‘ra import bo‘yicha mamlakatga mahsulotlarni olib keluvchi shaxslarda sifat sertifikati bo‘lishi shartligi belgilangan. Bu hollarda mahsulot tekshiruvdan o‘tgandan so‘ng talablarga javob

berganligi tasdiqlansa unga sertifikat beriladi.

Xitoyda import va eksport mahsulotlar uchun quyidagi belgilar mavjud:

- Sogʻliq uchun xavfli emas belgisi – CCIB uning rangi havo rangda boʻlib, H indeksi bilan belgilangan boʻlsa «sogʻliq» belgisi sifatida qabul qilinadi.

- Xavfsizlik belgisi - CCIB harflari sariq rang boʻlib, S indeksi bilan belgilangan boʻlsa «xavfsiz» deb qabul qilinadi.

- Sifat belgisi - CCIB harflari qizil rangli boʻlib, Q indeksi bilan belgilangan boʻlsa «sifat» li deb qabul qilinadi.

YUqorida aytib oʻtgan belgilarimizni ishlatishga ruxsat, mahsulot oʻrnatilgan tartibda tekshiruvdan oʻtgandan soʻng beriladi.

14.7. Rossiya Federatsiyasida sertifikatlashtirish milliy tizimini yaratilishi

Rossiya davlat standartining sertifikatlashtirish va akkreditlash tizimlarini tashkil etish boʻyicha Butunrossiya standartlashtirish ilmiy tadqiqot instituti (Vserossiyskiy nauchno-issledovatel'skiy institut standartizatsii - VNIIS) bosh tashkilot boʻlib hisoblanadi.

VNIIS dunyodagi sertifikatlashtirish sohasidagi ilgʻor tajribalarni mujassamlashtirib, Rossiyani dunyo bozorida mahsulot savdo sotigʻi boʻyicha teng huquq bilan qatnashishiga asos solmoqda.

Institut Rossiya davlat standarti (Rosdavstandart) tashkilotining akkreditlash sohasi boʻyicha vakolatli tashkiloti hisoblanib, shunga asoslangan holda u akkreditlangan sertifikatlashtirish idoralari va sinov laboratoriyalarining ustidan nazoratni ham amalga oshiradi.

Bu tashkilot tomonidan korxonalarini sertifikatlashtirish sohasiga taalluqli etarli axborot va uslubiy materiallar bilan taʼminlash, malaka oshirish maqsadida sanoat xodimlari uchun maxsus oʻquv kurslari tashkil qilinib, shu bilan birga ularga bu sohalar boʻyicha turli maslahat xizmatlari koʻrsatilmoqda.

Rossiyada sertifikatlashtirish tizimi "GOST" sertifikatlashtirish tizimi" deb yuritiladi. Bu ochiq tizim boʻlib, har bir tashkilot yoki korxonaga, agar uning qoidalari bilan rozi boʻlsa va ularga amal qilsa, unga kira olishi mumkin.

"GOST" tizimiga asos qilib, ISO va MEKlarning meʼyoriy hujjatlari, shuningdek EN 45000 seriyali Evropa norma (standart)lari olingan. Tizimning asosiy qonun-qoidalari, tuzilishi va tartiblari 1991 yilda davlat standartlari tomonidan belgilangan.

Rossiyada sertifikatlashtirishni maxsus akkreditlangan Idoralar, sinov laboratoriyalari amalga oshiradi.

Sertifikatlashtirishni oʻtkazish bilan bogʻliq barcha harajatlar murojaat qilgan tomon hisobidan boʻladi.

Harajatlarni to'lash yo'li har xil bo'lishi mumkin: sertifikatlashtirish xizmati uchun bir yo'la to'lash orqali, hamda sertifikatlashtiriluvchi mahsulot (sifat tizimlari)ni nazorati uchun vaqti-vaqti bilan yoki muvofiqlik belgisidan foydalanganligi uchun to'lash orqali.

Etakchi mamlakatlarning amaliy tajribalarini qo'llagan holda, quyidagi xizmatlar uchun bir yo'la haq to'lash qabul qilingan:

- talabnomalar va boshqa sertifikatlashtirish bo'yicha taqdim etilgan hujjatlarni ekspertizalari uchun;

- mahsulot sinovlarini o'tkazish uchun;

- sifat tizimlarini baholash va (yoki) sertifikatlashtiriluvchi mahsulot chiqaradigan korxonani attestatlash uchun;

- muvofiqlik sertifikatini berish haqidagi qaror qabul qilinganligi, uni rasmiylashtirish va ro'yxatdan o'tkazish uchun.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligini (MDX) tashkil qilinishi munosabati bilan sobiq Ittifoqdagi standartlarning ishlatishni chegaralash muddatlari 1992 yildan bekor kilinishiga kelishilgan. SHu maqsadda ilgarigi ba'zi standartlar hozirda ham o'z kuchlarini yo'qotgani yo'q.

Rossiya davlat standarti qumitasi va VNIIS ko'pgina, dunyoda obro'li, sertifikatlashtirish bo'yicha tan olingan mamlakatlar tizimlari bilan aloqalarni yaxshilash yo'lida ish olib bormoqdalar. Ular bu sohadagi ishlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, mamlakatdagi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sertifikatlashtirilishini boshqa mamlakatlarda tan olishligiga harakat qilmoqdalar. SHu maqsadda VNIIS sifat tizimlarini sertifikatlashtirish bo'yicha juda ko'p chet el davlat tashkilotlari va xalqaro darajada tan olingan tashkilotlar bilan o'zaro aloqada ishlash bo'yicha bitimlari mavjud.

Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohalarida bir-birining ish natijalarini tan olish maqsadida Buyuk Britaniya, Fransiya, SHvetsariya, Kanada va boshqa mamlakatlar bilan ham ikki tomonlama kelishuv imzolangan bo'lib, bunga ko'ra quyidagilar ko'zda tutilgan:

- sertifikatlashtirish bo'yicha ekspert-auditorlar tayyorlovchi yagona maktab yaratish;

- sertifikatlashtirish maqsadida o'tkaziladigan baholash auditlarida birgalikda tekshiruv o'tkazish;

- sifat tizimlarini sertifikatlashtirish idorasining "sifat tizimlarini sertifikatlashtirishda javobgar bo'lgan sertifikatlashtirish idoralari uchun umumiy

mezonlar" ISO\MEK 65 raqamli me'yoriy hujjatga muvofiq alohida tashkilotni tuzish bo'yicha ish boshlash.

Bundan tashqari metrologiya, standartlashtirish, akkreditlash masalalari va bu soha uchun mutaxassislar tayyorlash va boshqa shunga o'xshash masalalar ham shu kelishuvlarda ko'zda tutilgan.

YUqoridagi qayd qilingan uchta masalalardan bugungi kunda ikkitasi to'liq amalga joriy qilingan.

Bu kelishuvlar doirasida muntazam ravishda ekspert-auditorlarni tayyorlash ishlari olib borilmoqda, hamkorlikda tayyorlangan sertifikatlashtirish bo'yicha mutaxassislarning hammasi o'qish yakuniga qarab Rosdavstandart qarori bilan ekspert-auditor sifatida ro'yxatga olindi.

Rossiyada sertifikatlashtirish milliy tizimining vujudga kelishini turli tizimlar majmui holida yoki aniq mahsulot bo'yicha sertifikatlashtirishda yoxud majburiy va ixtiyoriy tus olgan sinovlarning turlari bo'yicha ifodalash mumkin.

Hozirgi vaqtda "Iste'molchi xuquqlarini himoyasi haqida" Qonuniga binoan havfsizlik va ekologik parametrlar bo'yicha mahsulotning sertifikatlashtirish tizimlari yanada takomillashtirilmoqda.

Rossiya Federatsiyasida sertifikatlashtirish tizimlari to'rtta darajadagi idoralardan iborat.

Birinchi darajadagi idoraga Rossiya Federatsiyasining sertifikatlashtirish milliy idorasi kiradi. U Rosdavstandarti bo'lib, sertifikatlashtirish bo'yicha respublikada tashkiliy ishlarni boshqaradi va xalqaro hamkorlikni ta'minlaydi. Uning vazifasiga quyidagilar kiradi:

- mahsulot (xizmat)ning sertifikatlashtirilishini Rossiya hududida o'tkazishning umumiy qonun-qoidalarini belgilash;

- xalqaro va mintaqaviy sertifikatlashtirish tizimlariga qo'shilish va sertifikatlashtirish natijalarini o'zaro tan olish haqida qaror qabul qilish;

- lozim topilgan hollarda Rossiya Federatsiyasining tashqi mamlakatlar bilan o'zaro munosabatlarida va xalqaro tashkilotlarda vakolatxonasiga ega bo'lish.

Ikkinchi darajadagi idoralar - bular qonunda ko'rsatilgan bo'ladi yoki hukumat Qarorlari bilan davlat tashkilotlariga yuklatiladi va buni markaziy sertifikatlashtirish tizimlarining idoralari deb ataladi.

Uchinchi darajadagi idoralarga aniq mahsulotni sertifikatlashtirish idoralari kiradi. Bular akkreditlanish doirasiga qarab sertifikatlashtirishni o'tkazuvchi korxonalar, tashkilotlar va muassasalardir.

To'rtinchi darajadagi idoralarga akkreditlangan sinov laboratoriyalari kiradi. Akkreditlanishi doirasiga qarab, aniq sinovlar yoki ularning aniq xillarini qonuniy ravishda amalga oshiradi.

Mahsulotning sertifikatlashtirilishi natijasida so'rovchiga sertifikat, hamda litsenziya kelishuviga asosan aniq namuna uchun muvofiqlik belgisini ishlatish xuquqi beriladi.

Sertifikatlashtirish sohasidagi hamma ishlar kelishilgan holda manfaatdor bo'lgan tomonlarga etkazilishi shart. Faqat tijorat sirlarini tashkil etuvchi xabarlar bundan mustasno hisoblanadi.

Takrorlash uchun nazorat savollar:

Evropa davlatlari, Amerika, Angliya, Germaniya, Fransiya, Turkiya, Xitoy, va Rossiya davlatlari sertifikatlashtirish tizimlari va ularning faoliyati.

15§. Xizmatlarni sertifikatlashtirish.

15.1. Xizmatlarni sertifikatlashtirish tartibi. Xizmatlarni sertifikatlashtirish sxemasi. Xizmatlarni boxolash usullari. Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish O'zbekiston Respublikasida mahsulotlar, xizmatlar va boshqa ob'ektlarni sertifikatlashtirishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini, shuningdek sertifikatlashtirish ishtirokchilarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilab beradi.

Asosiy tushunchalar: «sertifikatlashtirish milliy tizimi» — davlat miqyosida amal qiladigan, sertifikatlashtirish o'tkazishda o'z tartib va boshqaruv qoidalariga ega bo'lgan tizim;

«mahsulotlarni sertifikatlashtirish» (matnda bundan keyin «sertifikatlashtirish» deb yuritiladi) — mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlashga oid faoliyat;

«muvofiqlik sertifikati» — sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga binoan berilgan hujjat;

«muvofiqlik belgisi» — muayyan mahsulot yoxud xizmat aniq standartga yoki boshqa normativ hujjatga mos ekanligini ko'rsatish uchun mahsulotga yoxud ko'rsatilgan xizmatga doir hujjatga qo'yiladigan, belgilangan tartibda ro'yxatga olingan belgi;

«bir turdagi mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) sertifikatlashtirish tizimi» — ayni bir xil standartlar va qoidalar qoʻllaniladigan muayyan mahsulotlar, ishlar yoki xizmatlarga taalluqli sertifikatlashtirish tizimi;

«sinov laboratoriyasini akkreditatsiya qilish» — sinov laboratoriyasining (markazining) muayyan mahsulot sinovini yoki muayyan sinov turini amalga oshirishga doir vakolatlarining rasmiy eʼtirofi.

«sifat boʻyicha ekspert-auditor» — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan, sertifikatlashtirish, akkreditatsiya qilish va tekshirish sohasidagi ishlarni olib borish uchun tegishli malakasi boʻlgan mutaxassis;

«sertifikatlashtirish sohasidagi tekshiruv organi» — belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan, sertifikatlangan mahsulot va sifatni boshqarish tizimini baholashni sertifikatlashtirish organlari topshirigʻiga binoan amalga oshiruvchi organ;

«nazorat yoʻsinidagi tekshiruv» — belgilangan talablarga muvofiqligini sertifikatlashtirish va akkreditatsiya qilish chogʻida tasdiqlash maqsadida sertifikatlangan mahsulot, sifatni boshqarish tizimini yoki ishlab chiqarishni, sertifikatlashtirish organlari, sinov laboratoriyalari (markazlari) faoliyatini takroriy baholash taomili.

Sertifikatlashtirishning maqsad va vazifalari. Sertifikatlashtirish:

odamlarning hayoti, sogʻligʻi, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki hamda atrof muhit uchun xavfli boʻlgan mahsulotlar realizatsiya qilinishini nazorat etib borish;

mahsulotlarning jahon bozorida raqobat qila olishini taʼminlash;

mamlakat korxonalari, qoʻshma korxonalar va tadbirkorlar xalqaro miqyosdagi iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikda va xalqaro savdo-sotiqda ishtirok etishlari uchun sharoit yaratish;

isteʼmolchini tayyorlovchining (sotuvchining, ijrochining) vijdotsizligidan himoya qilish;

mahsulot tayyorlovchisi (sotuvchisi, ijrochisi) taʼkidlagan sifat koʻrsatkichlarini tasdiqlash maqsadlarida amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirish majburiy va ixtiyoriy tusda boʻladi.

Sertifikatlashtirish toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari. Sertifikatlashtirish sohasidagi munosabatlar mazkur Qonun va unga muvofiq chiqariladigan Oʻzbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari bilan, Qoraqalpogʻiston Respublikasida esa — Qoraqalpogʻiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Xalqaro shartnomalar va bitimlar. Basharti, xalqaro shartnoma yoki bitimda sertifikatlashtirish toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan

o‘zgacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, u holda xalqaro shartnoma yoki bitimning qoidalari qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish organlari.

O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi (bundan buyon matnda «O‘zstandart» agentligi deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining milliy sertifikatlashtirish organidir.

«O‘zstandart» agentligi mazkur Qonunga muvofiq:

sertifikatlashtirish sohasida davlat siyosatini amalga oshiradi, sertifikatlashtirish o‘tkazish yuzasidan umumiy qoidalarni belgilaydi, ular to‘g‘risida rasmiy axborotlar e‘lon qilib boradi;

sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish dasturlarining loyihalarini ishlab chiqadi hamda ularni Hukumat muhokamasiga taqdim etadi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda sertifikatlashtirishning xalqaro tizimlariga qo‘shilish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi, shuningdek sertifikatlashtirish natijalarini o‘zaro e‘tirof etish to‘g‘risida bitimlar tuzadi, sertifikatlashtirish masalalari bo‘yicha boshqa davlatlar bilan o‘zaro munosabatlarda va xalqaro tashkilotlarda O‘zbekiston Respublikasi nomidan ish ko‘radi;

majburiy ravishda sertifikatlanadigan mahsulotlarning ro‘yxatini belgilaydi va uni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdig‘iga kiritadi;

bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish organlarini, sinov laboratoriyalarini (markazlarini), sertifikatlashtirish sohasidagi tekshiruv organlarini, shuningdek sifat bo‘yicha ekspert-auditorlarni akkreditatsiya qiladi;

sertifikatlangan mahsulotlarning, sifatni boshqarish tizimlarining, akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organlarining, sinov laboratoriyalarining (markazlarining), sifat bo‘yicha ekspert-auditorlarning Davlat reestrini yuritadi;

bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirishga akkreditatsiya qilingan organlar va sinov laboratoriyalari (markazlari) sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etishi ustidan va sertifikatlangan mahsulotlar ustidan davlat tekshiruvi va nazoratini amalga oshiradi;

qonun hujjatlarining normalari buzilganligi uchun muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilarini bekor qiladi hamda amal qilishini to‘xtatib qo‘yadi, sertifikatlashtirish organlarining akkreditatsiya qilinganlik to‘g‘risidagi guvohnomalarini bekor qiladi, sinov laboratoriyalarining (markazlarining) faoliyatini tugatadi.

“O‘zbekiston texnik jixatdan tartibga solish” agentligining sertifikatlashtirish sohasidagi faoliyatini moliyaviy ta‘minlash manbai — davlat

byudjeti mablag‘i, shuningdek «O‘zstandart» agentligi ko‘rsatayotgan xizmat uchun olinadigan haqdan iborat.

Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirishga akkreditatsiya qilingan organlar:

bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimlarini tuzadilar va ularning amal qilishini ta‘minlaydilar;

sertifikatlashtirishni tashkil etadilar va o‘tkazadilar;

milliy muvofiqlik sertifikatlarini rasmiylashtiradilar, beradilar yoki chet el muvofiqlik sertifikatlarini e‘tirof etadilar;

sertifikatlangan mahsulotlar ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Sinov laboratoriyalarini (markazlarini) va sertifikatlashtirish organlarini akkreditatsiya qilish bilan bog‘liq sarf-xarajatlarni arizachi qoplaydi.

Tegishli sertifikatlashtirish tizimi belgilagan tartibda akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalari (markazlari) muayyan mahsulotlarning sinovini yoki muayyan sinov turini amalga oshiradilar hamda sertifikatlashtirish maqsadlari uchun bayonnomalar beradilar.

«O‘zstandart» agentligi o‘z vazifalarining bir qismini bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish organlariga va sinov laboratoriyalariga (markazlariga) o‘tkazishga haqlidir.

Sertifikatlashtirish ob‘ektlari va sub‘ektlari. Mahsulotlar (shu jumladan dasturiy va boshqa ilmiy-texnikaviy mahsulotlar), xizmatlar, shuningdek sifat tizimlari sertifikatlashtirish ob‘ektlari hisoblanadi.

“O‘zbekiston texnik jixatdan tartibga solish” agentligining o‘zi, uning tomonidan akkreditatsiya qilingan yoki e‘tirof etilgan sertifikatlashtirish organlari, sinov laboratoriyalari (markazlari), sertifikatlashtirish sohasidagi tekshiruv organlari, sifat bo‘yicha ekspert-auditorlar, shuningdek mahsuloti sertifikatlashtirilishi lozim bo‘lgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jismoniy shaxslar sertifikatlashtirish sub‘ektlaridir.

Sertifikatlashtirish sub‘ektlari — yuridik shaxslar sertifikatlashtirish milliy tizimi doirasida sertifikatlashtirish tizimlari tuzishlari mumkin. Yuridik shaxslarning sertifikatlashtirish tizimlari “O‘zbekiston texnik jixatdan tartibga solish” agentligi belgilagan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi shart.

15.2.Sertifikatlashtirish faoliyatiga doir umumiy talablar. Muvofiqlik sertifikati va muvofiqlik belgisi. Mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligi tasdiqlangani taqdirda sertifikatlashtirish organi muvofiqlik sertifikati beradi, tayyorlovchi ana shu sertifikat asosida muvofiqlik belgisini ishlatish huquqiga ega bo‘ladi.

Sertifikatlashtirish tizimida foydalaniladigan muvofiqlik sertifikatlarining, akkreditatsiya qilinganlik to'g'risidagi guvohnomalarning namunalari, milliy muvofiqlik belgisining shakllari va hajmlari "O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish" agentligi tomonidan tasdiqlanadi.

Muvofiqlik sertifikatlari, muvofiqlik belgilari, sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalarining (markazlarining) akkreditatsiya qilinganlik to'g'risidagi guvohnomalari "O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish" agentligi tomonidan belgilangan tartibda Davlat reestridan o'tkazilishi shart.

Davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazilmagan muvofiqlik sertifikatlari, muvofiqlik belgilari, sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalarining (markazlarining) akkreditatsiya qilinganlik to'g'risidagi guvohnomalari haqiqiy emas.

Muvofiqlik sertifikatidan, muvofiqlik belgisidan foydalanish huquqini hamda sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalarining (markazlarining) akkreditatsiya qilinganlik to'g'risidagi guvohnomalarini arizachi boshqa yuridik yoki jismoniy shaxsga berishi man etiladi.

Sertifikatlashtirish faoliyatini amalga oshirish. Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirishga akkreditatsiya qilingan organlar va sinov laboratoriyalari (markazlari) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berilgan akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma asosida sertifikatlashtirish faoliyatini hamda sertifikatlashtirish maqsadida sinovlar o'tkazish faoliyatini amalga oshiradilar.

Mahsulotlar sertifikatlashtirilayotganda arizachiga sertifikatni yoki muvofiqlik belgisini qo'llash huquqi muvofiqlik sertifikatini bergan akkreditatsiya qilingan tegishli sertifikatlashtirish organi bilan tuzilgan bitim asosida beriladi.

Sertifikatlashtirish to'g'risida axborot. "O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish" agentligi tayyorlovchilarni (ijrochilarni), sotuvchilarni, iste'molchilarni va boshqa manfaatdor shaxslarni sertifikatlashtirishning amaldagi tizimlari, ularning organlari, sinov laboratoriyalari (markazlari), ekspertlar to'g'risida, shuningdek muvofiqlik sertifikatlari, muvofiqlik belgilari va ularni qo'llash qoidalari to'g'risida xabardor etib boradi.

Sertifikatlashtirish organlari arizachiga uning talabiga binoan mahsulotni sertifikatlashtirish uchun kerakli axborotni berishlari shart.

Arizachi sertifikatlashtirish organining talabiga binoan sertifikatlashtirish bilan bog'liq axborotni taqdim etishi shart, tijorat siri hisoblangan ma'lumotlar bundan mustasno.

Mahsulotlarni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish. Majburiy sertifikatlashtirishni joriy etish. Majburiy sertifikatlashtirishni o'tkazish ishlarini tashkil etish "O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish" agentligi zimmasiga

yoki uning topshirig'iga binoan boshqa sertifikatlashtirish organlariga (ularni albatta akkreditatsiya qilgan holda) yuklatiladi.

Sertifikatlashtirilishi shart bo'lgan mahsulotlarning ro'yxatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydi.

Odamlarning hayoti, sog'lig'i, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar etkazishi mumkin bo'lgan mahsulotlarni tayyorlash, ulardan foydalanish, ularni tashish yoki saqlash xavfsizligini ta'minlovchi talablar bo'lmagan taqdirda, «O'zstandart» agentligi davlat boshqaruvining tegishli organlari bilan birgalikda bunday talabnomalarning kechiktirmay ishlab chiqilishi va amalga kiritilishini ta'minlaydi.

Majburiy sertifikatlashtirishni o'tkazish shartlari. Majburiy sertifikatlashtirish ishlab chiqarishni tekshirishni, mahsulot xususiyati normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash uchun uni sinashni, nazorat yo'sinidagi tekshiruvni va sertifikatlangan mahsulot ustidan nazoratni o'z ichiga oladi.

Sinovlar akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalari (markazlari) tomonidan tegishli normativ hujjatlarda belgilangan usullarda, bunday hujjatlar bo'lmagan taqdirda esa tegishli sertifikatlashtirish organlari ishlab chiqqan usullarda amalga oshiriladi.

Arizachi o'z mahsulotini majburiy sertifikatlashtirishdan o'tkazishga sarflagan mablag'lar summasi shu mahsulot tannarxiga qo'shiladi.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan, ammo muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lmagan mahsulotni targ'ib qilish man etiladi.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarga qo'yiladigan talablar

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlar quyidagi hollarda:

sertifikatlashtirishga taqdim etilmagan bo'lsa;

sertifikatlashtirish talablariga muvofiq emasligi sababli sertifikatlashtirishdan o'tmagan bo'lsa;

agar sertifikatning amal qilish muddati tugagan yoki uning amal qilishi to'xtatib qo'yilgan (bekor qilingan) bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilinishi mumkin emas.

Qonunga xilof tarzda muvofiqlik belgisi bosilgan mahsulotlarni realizatsiya qilish man etiladi.

Tayyorlovchilarning (tadbirkorlarning) mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish vaqtidagi majburiyatlari

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarni realizatsiya qiluvchi tayyorlovchilar (tadbirkorlar):

majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotni sertifikatlashtirishga taqdim etishlari;

sertifikatlangan mahsulotni sertifikatlash organlarining o'zi yoki ular e'tirof etgan organlar bergan sertifikat mavjud bo'lgan taqdirdagina realizatsiya qilishlari va uning normativ hujjatlar talablariga mos bo'lishini ta'minlashlari;

sertifikatlangan mahsulotni, basharti, u normativ hujjat talablariga muvofiq kelmasa, shuningdek sertifikatning amal qilish muddati tugagan yoxud uning amal qilishi sertifikatlashtirish organining qarori bilan to'xtatib qo'yilgan yoki bekor qilingan bo'lsa, realizatsiya qilishni to'xtatib qo'yishlari yoki tugatishlari;

majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotni sertifikatlashtiruvchi va sertifikatlangan mahsulotni nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari o'z vakolatlarini moneliqsiz bajarishlari uchun sharoit yaratishlari;

sertifikatlangan mahsulot ishlab chiqarishning texnikaviy hujjatlariga yoki texnologik jarayoniga kiritilgan o'zgartishlar haqida sertifikatlashtirish organini belgilangan tartibda xabardor etishlari;

ilova qilingan texnik hujjatda mahsulot muvofiq kelishi lozim bo'lgan sertifikatlashtirish to'g'risidagi ma'lumotlarni hamda normativ hujjatlarni ko'rsatishlari va bu ma'lumotlar iste'molchi (xaridor, buyurtmachi) e'tiboriga etkazilishini ta'minlashlari shart.

CHetdan olib kelinadigan va chetga olib chiqib ketiladigan mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish. Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasiga etkazib berish uchun tuziladigan kontraktlar (shartnomalar) shartida mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi, "O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish" agentligi tomonidan berilgan yoki e'tirof etilgan muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilari bo'lishi nazarda tutilishi kerak.

Milliy muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilari yoki boshqa davlatlarning "O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish" agentligi tomonidan e'tirof etilgan muvofiqlik sertifikatlari va muvofiqlik belgilari arizachi (mahsulot etkazib beruvchi) tomonidan bojxona nazorati organlariga yukka taalluqli bojxona deklaratsiyasi bilan birgalikda taqdim etiladi va ular mahsulotni respublika hududiga olib kirishga ruxsatnoma olish uchun zarur hujjatlar hisoblanadi.

CHetdan olib kelinayotgan mahsulotning xavfsiz ekanligini tasdiqlovchi hujjati bo'lmagan taqdirda bojxona nazorati organlari bu xususda "O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish" agentligini xabardor etadilar hamda mahsulotni sertifikatlashtirishdan o'tkazish yoki chet el sertifikatini e'tirof etish to'g'risidagi

masala sertifikatlashtirish milliy tizimi qoidalariga muvofiq hal etilgunga qadar bu mahsulotni chetdan olib kirishni taqiqlab qo'yadilar.

Sertifikatlashtirishi shart bo'lgan mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi.

Majburiy sertifikatlashtirish ishlarining davlat tomonidan moliyaviy ta'minoti

Quyidagi ishlar:

sertifikatlashtirishni rivojlantirishning istiqbollarini, uni o'tkazish qoidalarini va tavsiyalarini ishlab chiqish;

sertifikatlashtirish sohasida rasmiy axborotlar bilan ta'minlash;

xalqaro (mintaqaviy) sertifikatlashtirish tashkilotlari ishida qatnashish hamda chet el milliy sertifikatlashtirish organlari bilan birgalikda ishlar o'tkazish;

sertifikatlashtirish yuzasidan xalqaro (mintaqaviy) qoidalar va tavsiyalar ishlab chiqish hamda ularni ishlab chiqishda qatnashish;

sertifikatlashtirish yuzasidan umumdavlat ahamiyatiga molik ilmiy-tadqiqot ishlari va boshqa ishlar olib borish;

sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etilishi ustidan hamda sertifikatlangan mahsulot ustidan davlat tekshiruvi va nazorati olib borish ishlari davlat tomonidan moliyaviy ta'minlanadi.

15.3. Majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etilishini davlat tomonidan tekshirish va nazorat qilish. Tayyorlovchilarning (tadbirkorlarning, sotuvchilarning, ijrochilarning) majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etishlari ustidan davlat tekshiruvi va nazoratini «O'zstandart» agentligining davlat inspektorlari qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda amalga oshiradi.

Nazorat yo'sinidagi tekshiruv. Sertifikatlangan mahsulot, sifatni boshqarish tizimlari, ishlab chiqarish, akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalari (markazlari), sertifikatlashtirish organlari ustidan nazorat yo'sinidagi tekshiruvni sifat bo'yicha ekspert-auditorlar «O'zstandart» agentligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiradi.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish. Har qanday mahsulot normativ hujjatlarning talablariga muvofiq ekanligini tasdiqlash uchun u yuridik va jismoniy shaxsning tashabbusi bilan ixtiyoriy sertifikatlashtirishdan o'tkazilishi mumkin.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirishni amalga oshiruvchi sub'ektlar. Ixtiyoriy sertifikatlashtirishni «O'zstandart» agentligi belgilab qo'ygan tartibda akkreditatsiya qilingan yuridik va jismoniy shaxslar amalga oshirishga haqlidir.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish tizimlari. Sertifikatlashtirish qoidalari va tartibini belgilovchi ixtiyoriy sertifikatlashtirish tizimlarini akkreditatsiya qilingan organlar «O‘zstandart» agentligi bilan kelishgan holda belgilaydilar.

Nizolarni qarab chiqish. sertifikatlashtirish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik. Mazkur Qonunni qo‘llash bilan bog‘liq nizolarni qarab chiqish. Mazkur Qonunni qo‘llash bilan bog‘liq nizolar sud tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan tartibda qarab chiqiladi.

SHikoyatlarni qarab chiqish. Sertifikatlashtirish natijalaridan norozi bo‘lgan taqdirda manfaatdor tomon «O‘zstandart» agentligining SHikoyatlarni qarab chiqish kengashiga murojaat etishga haqlidir.

SHikoyatlarni qarab chiqish kengashi to‘g‘risidagi nizomni “O‘zbekiston texnik jixatdan tartibga solish” agentligi ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

“O‘zbekiston texnik jixatdan tartibga solish” agentligining SHikoyatlarni qarab chiqish kengashi sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalarining (markazlarining) qarorlari ustidan berilgan shikoyat arizalarini qarab chiqadi.

“O‘zbekiston texnik jixatdan tartibga solish” agentligining, SHikoyatlarni qarab chiqish kengashining qarorlari ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga shikoyat qilish mumkin.

Sertifikatlashtirish organlarining va sinov laboratoriyalarining (markazlarining) javobgarligi

Sertifikatlashtirish organi:

muvofiqlik sertifikatini asossiz va qonunga xilof tarzda berganlik uchun;

arizachiga nisbatan qonunga xilof xatti-harakatlar qilganlik uchun;

arizachining tijorat siri hisoblangan ma’lumotlarni oshkor etganlik uchun javobgar bo‘ladi.

Akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyasi (markazi) sertifikatlashtirish organiga sinovlarning natijalari haqida noto‘g‘ri ma’lumot berganlik uchun javobgar bo‘ladi.

Sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalari (markazlari) mazkur moddada aytib o‘tilgan xatti-harakatlar natijasida arizachiga etkazilgan zararining o‘rnini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to‘la hajmda qoplashlari shart.

Tayyorlovchilarning (tadbirkorlarning) majburiy sertifikatlashtirish qoidalarini buzganlik uchun javobgarligi. Tayyorlovchilar (tadbirkorlar) majburiy sertifikatlashtirish qoidalarini buzganlik uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo‘lgan sertifikatlashtirilmagan mahsulotni realizatsiya qilganlik uchun tayyorlovchining (tadbirkorning)

mansabdor shaxslari, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkor — tayyorlovchilar ma'muriy **javobgarlikka tortiladi**.

Ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganligi tayyorlovchilarni (tadbirkorlarni) majburiy sertifikatlashtirishni o'tkazishdan ozod qilmaydi. Xizmatlar va sertifikatlashtirish organlari xizmatlar, ularning ko'rsatishda tashkilotlari, xodimlar, ishlab chiqarish jarayoni, Sifat boshqaruvi tizimi. Attestatsiyadan o'tkazish tizimini shakllantirish sertifikatlash qoidalari asosida amalga oshiriladi.

Turlari va sertifikatlashtirish sxemalari mazmuni qonunchiligiga ko'ra, ishlar va xizmatlar nisbatan bir vaqtning o'zida o'tkaziladi baholash, natijalarini tekshirish, tekshirish nazorat qilish, xizmat moddiy turi uchun jarayon quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi odatda, sertifikatlash professionalnykh mahorat va taftish nazorat qilish, xizmatlar va taftish nazorat sertifikatlash, tekshirish nuqta, sifat tizimlari va taftish nazorat sertifikatlash. Xizmatlar nomoddiy tabiat sertifikatlashtirish kabi sxemalarini o'z ichiga oladi tekshirish nazorat qilish korxonada tartibi, tekshirish nazorat bilan xizmat ko'rsatish sifatini tizimini sertifikatlashtirish. Xizmati xususiyatlari, xizmatlarni taqdim qachon jarayonini ta'sir ba'zi xususiyatlarni ta'kidlash. Ular orasida ob'ekt bir shaxs va mulk chegaralari test uning o'ng bo'lishi mumkin, iste'mol xonanda mahorat qadrlaydi, Ekspert baholovchilar ba'zan xizmatlari amalga oshirishda mavjud bo'lishi, xizmat xususiyatlari uni taklif etiladi viloyati bog'liq bo'lishi mumkin.

Qoidalar-amalga oshirishda normativ-huquqiy baza hamda muayyan xizmat doirasida tasdiqlangan bo'lganlar kabi, xalqaro va milliy va mintaqaviy standartlar, sanitariya qoidalari va normalari, ham iborat.

Majburiy sertifikatlash xizmatlari inson hayoti va salomatligi, shuningdek, ularning mol-mulkiga, atrof-muhitni qonun, muhofaza qilish jarayonining xizmati tekshirish ayrim yo'llar va tajribali bir kishi, uning provayder uchun xavfsizlik standartlarini belgilaydi muayyan talablari asosida amalga oshiriladi. Ularni kabi sohalarni qamrab beradi birinchi tizimi Ta'mirlash va elektron uskunalari, mashinasozlik va asboblari elektr maishiy maqsadlarda ta'minlash, quruq tozalash va bo'yoq, mehmonxona va sayyohlik xizmatlari, ovqatlanish, Yo'lovchi tashishlar.

Takrorlash uchun nazorat savollar:

- 1.Sertifikatlashtirish umumiy qoidalari?
- 2.Xizmatlarni sertifikatlashtirish tartibi?
- 3.Xizmatlarni sertifikatlashtirish sxemasi?
- 4.Xizmatlarni boxolash usullari?

IV-BOB. SIFAT MENEJMENT TIZIMI

16§. Sifat, mahsulot sifatini boshqarish.

16.1. Sifat, mahsulot sifatini boshqarish tizimi. Mahsulot sifatini boshqarish kompleks tizimi o'tgan asrning 60-yillari oxirlarida Gosstandartning Butunittifoq ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy xodimlari tomonidan Gosstandart raisining yordami bilan tashabbuskorlik yo'li bilan ishlab chiqildi. Lvov oblastidagi korxonalarda keng ko'lami ilmiy-ishlab chiqarish eksperimentni o'tkazildi. Eksperimentda Butunittifoq ilmiy-tadqiqot institutining direktori A.V.Glichev va Gosstandartning Butun ittifoq fizika-texnik va radioo'lchashlar ilmiy-tadqiqotlar institutining Lvov filialining direktori E.T. Udovchenko rahbarlik qildi.

70-yillar boshida butunittifoq ilmiy-tadqiqot institutida sifatni boshqarishning o'lchamli modeli yaratildi, shunday qilib, yassi ikki o'lchamli modellardan aksonometrik shaklga o'tildi.

Modelda mahsulot hayotiy siklining bosqichlari ajratib ko'rsatilgan. Bu bosqichlarda sifat shakllantiriladi va sifatning erishilgan darajasining saqlanishi ta'minlanadi. Sifatni boshqarishning uchta darajasi berilgan. Har qaysi darajada 12 ta (*11 dan 15 gacha va bundan ortiq ham bo'lishi mumkin*) mahsus funksiya bo'ladi:

1. Ehtiyojlarni, mahsulotning texnik darajasi va sifatini o'rganish va prognoz qilish.

2. mahsulot sifatini oshirishni rejalashtirish.

3. Mahsulot sifatiga talablarni normalash.

4. Mahsulot yaratishni tashkillashtirish.

5. Mahsulot ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashni tashkillashtirish.

6. Moddiy-texnik ta'minotni tashkillashtirish.

7. Metrologik ta'minotni tashkillashtirish.

8. Xodimlarni o'qitishni tashkillashtirish.

9. Sifatning oshishini rag'batlantirish.

10. Standartlarga rioya qilinishi ustidan davlat nazorati.

11. Mahsulotni sifat toifalari bo'yicha attestatlash.

12. Sifatni huquqiy ta'minlash.

Har qaysi mahsus funksiya doirasida quyidagi harakatlar bajariladi:

– funksiyaning maqsadlari va vazifalarini o'rnatish;

– bu funksiyaning bajarilishini tashkillashtirish;

– funksiyaning bajarilishini sifatga ta'sirini, ya'ni qo'yilgan maqsadga

erishishning qanday borayotganligini tekshirish;

– to‘g‘rilash harakatlarini kiritish.

Sifatni boshqarishning ko‘rilgan modellarida, ularning afzalliklariga qaramay, mahsulot sifatini ifodalovchi blok, ishlab chiqarish va mehnat jarayonini tashkillashtirish bloklari ko‘rinmaydi, ya‘ni o‘rnatilgan sifat ko‘rsatkichlarini ta‘minlash bo‘yicha harakatlarning qanday amalga oshirilishi ko‘rsatilmagan.

1974-yilda Butunittifoq ilmiy-tadqiqot institutining olimlari M.I. Kruglov va I.D. Krijanovskiylar o‘rtacha kattalikdagi mashinasozlik korxonalarida misolida uchta doiraga ega bo‘lgan yassi grafik modelini yaratdi: parametrik va funksional.

Mehnat-tashkiliy doirali yassi model. Metodik prinsiplari mahsulotning texnik darajasini va sifatini oshirishda harakatlar majmuini korxonalar standartlari yordamida tashkillashtirishni ko‘zda tutadi. Korxonalar standartlarida har qaysi bo‘lim va alohida bajaruvchining vazifasi va funksiyasi qonunlashtirib belgilangan. Korxonalar standartlari – standartlashtirish davlat tizimining ajralmas qismidir – jamiyat ehtiyojlarini eng to‘liq qondirish maqsadlarida mahsulotni loyihalash, tayyorlash, saqlash, tashish, xaridga chiqarish va foydalanish (iste‘mol qilish) kabi murakkab jarayonlarni moslanuvchan va tezkorlik bilan boshqarishga imkon beradi.

1974-yilda O‘zbekiston delegatsiyasi Toshkentning bir guruh olimlari va mutaxassislari ishtirokida Lvov shaxrining korxonalarida yaratish va ishlatish tajribasini o‘rganadi.

O‘zbekistonda MSB KT ni yaratishni joriy etish bo‘yicha olib borilgan ishlar shartli uchta asosiy yo‘nalishga yoki kichik tizimlarga bo‘lindi: mafkuraviy, tashkiliy-metodik, kadrlar tayyorlash.

Mafkuraviy kichik tizim barcha darajadagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni, ilmiy-texnikaviy istiqbolga ko‘maklashish kengashlarining, sifat muammolari bo‘yicha jamoat metodik kengashlarining tavsiyanomalarini o‘z ichiga qamraydi.

O‘zbekiston korxonalarida sifat tizimini yaratish va joriy etish 1974-1975 yillarda boshlandi. Bu ishlarga metodik rahbarlik “O‘zbekiston texnik jixatdan tartibga solish” sifatni boshqarish avtomatlashtirilgan tizimiga rahbarlik O‘z FA HM li kibernetika instituti tomonidan olib borildi. MSB KT bo‘yicha tayanch korxonalar sifatida sanoatning 20 ga yaqin turli tarmoqlari belgilandi.

Tashkiliy-metodik kichik tizim doiralarida tizimni joriy etish reja-grafiklari ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Respublika, oblast, shahar, rayon sifat kabinetlari tashkil etildi, bular asosida “O‘zbekiston texnik jixatdan tartibga solish” va uning hududiy idoralari O‘zbekiston respublikasi ilmiy-texnikaviy jamiyatlar Kengashi, O‘zbekiston mashinasozlik sanoati ilmiy-texnikaviy jamiyati bilan hamkorlikda

qator respublika va hududiy ilmiy-texnikaviy konferensiyalar, seminarlar o'tkazildi. Sifat kabinetlari, Gosstandart Butun ittifoq malaka oshirish instituti Toshkent filiali VISM da doimiy ishlaydigan seminarlar, tayanch-konsultativ punktlar tashkil etildi.

O'zdavstandart, iqtisodiy tadqiqotlar instituti, "Sifatni boshqarish" sirtqi konferensiyalarni o'tkazdi. "Ekonomika i jizn" jurnali qoshida sifat bo'yicha jamoatchilik kengashi tashkil etildi, uning maqsadi – sifat muammolarini hal etishga keng ilmiy-texnikaviy jamoatchilikni jalb etish bo'lgan. Kengash tarkibiga Gosplan, O'zdavstandart, vazirliklar va mahkamalar, Xalq kontroli Qo'mitasi, Toshkent xalq xo'jaligi instituti, Butun ittifoq konyuktura va talab ilmiy-tadqiqot instituti O'zbekiston filialining vakillari qatnashgan.

16.2. Mahsulot sifatini boshqarish, sifat sohasidagi asosiy atamalar. Sifatga iste'molchilarning bo'lgan qiziqishi. GOST 15467 "Mahsulot sifatini boshqarish. Asosiy tushunchalar. Atama va tariflar"ga muvofiq sifat deyilganda mahsulot xossalari majmui tushuniladi, bu xossalari mahsulot qanday maqsadlarga mo'ljallanganligiga muvofiq ravishda uning muayyan ehtiyojlarni qondirishga yaroqliligini ta'minlaydi.

Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilotning (ISO8402 standarti) talqin etishiga ko'ra sifat – mahsulot yoki xizmatlarning xossalari va tavsiflarining majmui bo'lib, ular ushbu mahsulot yoki xizmatlarga ular qondirishi shart bo'lgan yoki kutilayotgan ehtiyojlarni qondirish qobiliyatini baxshida etadi.

Mahsulot sifatining mohiyatini yanada to'laroq tavsiflash uchun u bilan bog'liq quyidagi tushunchalarni aniqlash zarur: mahsulotning texnik darajasi; sifat halqasi; sifat ko'rsatkichlari; tovarning raqobatbardoshligi.

Mahsulotning texnik darajasi – mahsulot sifatining nisbiy tavsifi bo'lib, baholanayotgan mahsulotning texnik jihatdan mukammalligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning qiymatlarini tegishli bazaviy ko'rsatkichlarning qiymatlari bilan solishtirishga asoslangan. Mahsulotning texnik darajasi mahsulot sifatining tarkibiy qismi hisoblanadi, turli ko'rsatkichlarda aks ettiriladi va original konstruktorlik echimlarni qo'llash, yangi materiallardan foydalanish, ishlab chiqarishning ilg'or texnologik jarayonlarini joriy etish va ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini nazorat qilish natijasida oshiriladi.

Sifat halqasi – mahsulotning hayot sikli, sifatni boshqarishni amalga oshiradigan quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: marketing, bozorni izlash va o'rganish, texnik talablarni loyihalash va ishlab chiqish, mahsulotni ishlab chiqish, moddiy-texnika ta'minoti, ishlab chiqarish jarayonlarini tayyorlash va ishlab chiqish, nazorat, sinovlar va qabul qilish, joylash va saqlash, mahsulotni

taqsimlash va sotish, montaj va ishlatish, texnik va kafolatli xizmat ko'rsatish, utillashtirish.

Sifat ko'rsatkichlari – mahsulot ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liq majmui bo'lib, uning qanday maqsadlarga mo'ljallanganligi, ishonchligi, texnologikligi, standartlashtirish va unifikatsiyalash darajasi, estetik, ergonomik, ekologik xossalari, patent-huquqiy jihatlari, tashishga yaroqliligi, xavfsizligi va iqtisodiy parametrlarini tavsiflaydi.

Tovarning raqobatbardoshligi – buyumning sifati va qiymatining tavsiflari ushbu bozorning talablariga va iste'molchilarning baholariga yuqori darajada muvofiqligi tufayli uning xuddi shu turdagi va ayni shunday maqsadlarga mo'ljallangan boshqa buyumlarga nisbatan iste'mol uchun ancha o'ziga tortadigan bo'lish qobiliyati.

Kvalimetriya – sifatni boshqarishda va standartlashtirishda qabul qilinadigan, qarorlarni asoslashda foydalaniladigan, sifatni baholashning miqdoriy metodlarini umumlashtiruvchi fan sohasi.

Sifat – Xususiy tafsilotlar majmuining talablarga muvofiqlik darajasi.

Tafsilot (xarakteristika) – Farqlantiruvchi xossa.

Mahsulot xossasi – Sifatning boshlang'ich tafsiloti, ya'ni mahsulotni yaratish, foydalanish (iste'mol qilish) da namoyon bo'ladigan ob'ektiv xususiyatlari. Mahsulot sifatini tashkil etuvchi xossalarining miqdoriy tafsiloti, mahsulotning yaratilish va foydalanish (qo'llanish) ma'lum sharoitlariga nisbatan qaralganda, *mahsulot sifati* ko'rsatkichi deb ataladi.

Mahsulotning parametrlari sifat tarkibiga kirgan mahsulot xossalarini ham, boshqa xossalarini ham miqdoriy tavsiflaydi. "Parametr" tushunchasi "sifat ko'rsatkichlari" tushunchasiga nisbatan ancha keng. Masalan, metall kesishg asboblarning ish unumi ko'rsatkichlari keskichning konstruktiv parametrlari bo'lmish shakllari va geometrik o'lchamlariga bog'liq bo'ladi.

Mahsulot sifati darajasi – Baholanadigan mahsulotning sifat ko'rsatkichlari qiymatlarini mos ko'rsatkichlarining tayanch (bazviy) qiymatlariga taqqoslashga asoslangan mahsulot sifatining nisbiy tafsiloti. Mahsulot sifatining darajasi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari jarayonida o'rnatiladi, ishlab chiqarish jarayonida ta'minlanadi va foydalanish (iste'mol qilish) da saqlanadi.

Mahsulotning texnik darajasi – Baholanadigan mahsulotning texnik mukammalligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar qiymatlarini mos tayanch qiymatlariga taqqoslashga asoslangan mahsulot sifatining nisbiy tafsiloti.

Texnik mukammallik – Mahsulotni yaratishda qabul qilingan texnik echimning iste'molchi nuqtai nazaridan qanchalik muvaffaqiyatli ekanligini aniqlovchi mahsulot xossasi. Texnik mukammallik ko'rsatkichlari mahsulotning

o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq. Masalan, mashinasozlik buyumlari uchun ko'rsatkichlar – konstruksiyaning va boshqarishning oddiyligi, energiyaning solishtirma sarfi, ish unumi; energetik mashinasozlik buyumlari uchun – foydali ish koeffitsienti, tikuvchilik buyumlari uchun – bo'yoqning puxtaligi, bir buyumga gazlama sarfi; oziq-ovqat mahsulotlari uchun – kaloriyalilik va h.k. (Ko'pincha "Mahsulotning texnik darajasi, mahsulot darajasi, tayyorlash sifati darajasi va mahsulotning foydalanishdagi yoki iste'mol qilishdagi sifat darajasi" to'g'risida kompleks tushuncha qisqacha "Mahsulot texnik darajasi va sifati" yoki, yanada qisqa "mahsulot sifati darajasi" deb ataladi.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar – Mahsulotni yaratish va ekspluatatsiya qilish (*iste'mol qilish*) ga moddiy-texnik boyliklar sarfini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar guruhi. Sifatni shakllantirish bosqichlari. Mahsulot sifati ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlari, ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash bosqichlarida shakllantiriladi, tayyorlash jarayonida ta'minlanadi, muomala, sotish, foydalanish (*iste'mol*) bosqichlarida saqlanib turadi.

Mahsulotni yaratish, me'yoriy-texnik hujjatlar (*standartlar va texnik shartlar, konstruktorlik va texnologik hujjatlar*) ni ishlab chiqish uchun texnik topshiriq asos bo'ladi.

Texnik topshiriqni ishlab chiquvchi-tashkilot buyurtmachi – asosiy iste'molchining talablari asosida yaratadi. Texnik topshiriqqa mahsulotning kutilayotgan texnik daraja va sifat ko'rsatkichlari kiritiladi, bunda vatan va xorijiy mamlakatlar fan va texnikasi yutuqlari, tayanch modelni standartlashtirish va birxillashtirishda erishilgan daraja, patent hujjatlarining tahlili, eksportga mo'ljallangan mahsulot uchun esa tashqi bozor talablari va raqobatbardoshlik, kashfiyotlar tahlili ham hisobga olinadi. Mahsulot sifati ko'rsatkichlari tizimlari davlat standartlariga amal qilinadi. Bu standartlar barcha tarmoqlarda mahsulotning har bir turi bo'yicha sifat ko'rsatkichlari to'liq nomenklaturasini o'z ichiga olgan.

Mahsulotning har qanday turi uchun quyidagi sifat ko'rsatkichlari o'rnatilgan:

-mahsulotdan vazifasi bo'yicha foydalanilganda foydali samarani tavsiflovchi va uning qo'llanish doirasini aniqlovchi vazifa ko'rsatkichlari;

-mahsulotdan muayyan sharoitlarda foydalanilganda puxtalik va ko'pga chidamlilik (umrboqiylik) ko'rsatkichlari;

-mahsulotni tayyorlash va ta'mirlashda mehnatning yuqori unumdor bo'lishini ta'minlash uchun konstruktiv-texnologik echimlarning samaradorligini tavsiflovchi texnologiyaboplik ko'rsatkichlari;

-mahsulotning ma'nodorlik, originallik, uyg'unlashtiruvchanlik, yaxlitlik, muhitga va stilga muvofiqligi va b. xossalarini tavsiflovchi estetik ko'rsatkichlar;

-mahsulotda standartlashtirilgan buyumlardan foydalanganlik darajasini va tarkibiy qismlarning birxillashtirilganlik darajasini tavsiflovchi standartlashtirish va birxillashtirish ko'rsatkichlari;

-vatanda va xorijda patent bilan himoyalanganlik, shuningdek mahsulotning patent sofligini tavsiflovchi patent-huquqiy ko'rsatkichlar;

-mahsulotni yaratishga, tayyorlashga va foydalanishga (iste'mol qilishga) harajatlarni, shuningdek foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aks ettiruvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar.

Mehnat vositalari uchun massa, metall sig'imi, materialning solishtirma va nisbiy sarfi, tezlik, yuk ko'tarish kuchi, quvvat, ish unumi, xizmat ko'rsatish va boshqarish qulayligi, tashqi o'lchamlari, ishlov berish aniqligi, yuzaning g'adir-budurligi, mexanizatsiyalashtirish, avtomalashtirish darajasi va b. kabi ko'rsatkichlar qo'llaniladi.

Mehnat vositalarining sifati, asosan, ularning texnologiyabopligini, ya'ni qayta ishlashning osonligi va samaraligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi bilan baholanadi. Bu ko'rsatkichlarning ko'p qismi mehnat vositasining fizika-mexanikaviy xossalarini va kimyoviy tarkibini aks ettiradi.

Iste'mol mahsulotlari uchun sub'ektiv baholash qo'llaniladi. Mahsulot assortimenti alohida ahamiyatga ega. Mahsulot assortimenti uning navi va sifatini ham tavsiflaydi. Oziq-ovqat mahsulotlari uchun yog'lik, mazadorlik, to'yimlilik; kiyim va pardoz-andoz mollari uchun puxtalik, chidamlilik, xushbichimlik, xizmat muddati, fason bichimi model, rangi, modaga muvofiqligi, g'ijimlanmaslik, bo'yoqning mustahkamligi, gigroskopliligi, issiqdan saqlovchanligi va b. ko'rsatkichlar qo'llaniladi.

Xo'jalikda kunda ishlatiladigan buyumlar, transport va madaniy inventar uchun sifat ko'rsatkichlari mehnat vositalarining sifat ko'rsatkichlariga o'xshaydi, chunki ular uzoq foydalaniladigan narsalar hisoblanadi.

Bozor xolati va talabni puxta o'rganish asosida, mahsulot sifati nafaqat o'rnatilgan, balki kutilayotgan ehtiyojlarni ham qondirishi lozimligiga amal qilib, mumkin bo'lgan echimlarning turli variantlarini tahlil qilish va ulardan eng yaxshisini tanlash asosida yaratuvchi-tashkilot texnik va texnik-iqtisodiy asoslangan texnik taklifni tuzadi. Buyurtmachi bilan kelishilgan, tasdiqlangan texnik taklif eskiz va texnik loyihalarni, ishchi konstruktorlik hujjatlarini yaratish uchun asos bo'ladi. Texnik hujjatlarni yaratishning har bir bosqichida ularning texnik takliflarda bayon etilgan talablarga muvofiqligi ekspertizadan o'tkaziladi.

Takrorlash uchun savollari

1. Sifat menejmenti tizimi va uni sertifikatlashtirishning faning maqsadi va vazifalarini hamda sifat atamasini tushuntiring.

2. Sifatni ta`riflashnin qanday tarixiy evolyutsiyalari mavjud?
3. Sifat menejmenti tizimi nima va mahsulot atamasiga ta`rif bering.
4. Sifatni boshqarish bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilgan?
5. Sifat va raqobatbardoshlik tushunchalarining o'zaro bog'liqligini tushuntiring.
6. Mahsulot sifati nima degani va sifatni oshirish qanday tushunchalar bilan tavsiflanadi?

17§. Sifat menejmenti tizimi to'g'risidagi ta'limot tarixi.

17.1. Sifatni boshqarishning xorijiy tajribalariga navbatma-navbat yondashish evolyusiyasi professor K. Lisetski K. Adametskiy nomidagi polsha iqtisod Akademiyasi tomonidan grafik usulda juda muvaffaqiyatli tasvirlangan.

Grafikni tahlil qilishda ikki holat yuzaga chiqadi: birinchi – 1970 dan 1998 yilgacha davrda sifatni boshqarishning muayyan shakllari va metodlari to'g'risida hech nima aytilmagan. Hatto, 1987-yilda 9000 seriyali ISO xalqaro standartlarining qabul qilinganligi to'g'risida eslatilmagan. Bu mutlaqo tushunarsiz. Ikkinchi – sobiq Sovet Ittifoqi olimlari va mutaxassislarining bu sohadagi yutuqlari to'g'risida eslatilmagan (“Nol nuqsonlar” tizimi mualliflarining biri – B.A. Dubovikov bundan mustasno). Vaholanki, “nol defektov” (nol nuqsonlar) Saratovda yaratilgan benuqson mehnat (BMT) va mahsulotni benuqson tayyorlash (MBT) tizimlarining rivojidir. Ikkinchi holatning sababi tushunarli – sovet olimlari va mutaxassislarining ilmiy ishlari kollektiv mehnat natijasi sifatida mamlakatda amaliy qo'llanish uchun davlat standartlariga va boshqa me'yoriy-metodik materiallar tarkibiga kiritilgan. Maxsus adabiyotlarda bu ishlarning faqat kam qismi aks etirilgan. SHuning uchun jahon ilmiy-texnik jamoasi, shu jumladan K. Lisetski ham etarli axborotga ega emas edi.

O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida qarorida Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari uchun qulay shart-sharoitlar shakllantirishni davom ettirish, mahsulotlarni sertifikatlashtirish jarayonini soddalashtirish va bu boradagi byurokratik to'siqlarni bartaraf etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror asosida

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomi ishlab chiqilgan. 2004 yil 1 oktyabrdan boshlab deklaratsiyalash yo'li bilan mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash tizimi joriy etilgan.

“O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish” agentligi ikki oy muddatda Mahsulotning xavfsizlik talablariga muvofiqligini deklaratsiyalash tartibi

to'g'risidagi nizomning belgilangan tartibda ishlab chiqilishini va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilishini ta'minlangan.

3. "O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish" O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda mazkur qarorga muvofiq chetdan keltirilayotgan mahsulotlardan akkreditatsiya qilingan organlar va laboratoriyalar tomonidan sinov o'tkazish uchun namuna olishning cheklangan normalarini belgilangan.

Akkreditatsiya qilingan organlar va laboratoriyalar o'rtasida sinovlarning takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida sinovlar turlarini belgilab qo'yilgan.

Muvofiqlik sertifikatlari mavjudligini tekshirish faqat majburiy tartibda sertifikatlanadigan mahsulotlarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

"O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish" agentligida «Standartlashtirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida belgilangan standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlar toifalarini tayyorlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomning hamda Majburiy tartibda sertifikatlanadigan bir turdagi mahsulotlarning har bir turini ularda sertifikatlashtirishning tegishli normativ hujjatlarda belgilangan xavfsizlik ko'rsatkichlari ko'rsatilgan qoidalarining O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilishini; majburiy tartibda sertifikatlanadigan mahsulotlarning nomenklatura ro'yxati, ularning sifatini va xavfsizligini belgilovchi normativ hujjatlarni ko'rsatgan holda, nashr etilishini hamda bojxona, soliq va akkreditatsiya qilingan organlarga jo'natilishini ta'minlab belgilangan.

O'zbekiston Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi huzuridagi «EAN Uzbekistan» mas'uliyati cheklangan jamiyatni «EAN Uzbekistan» uyushmasiga aylantirish maqsadga muvofiqligi, O'zbekiston Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasida bajarilishi ko'rsatib o'tilgan.

"O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish" agentligi, O'zbekiston Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, O'zbekiston Teleradiokompaniyasi, O'zbekiston matbuot va axborot agentligi boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda sertifikatlashtirish sohasidagi barcha normativ-huquqiy hujjatlarni respublikadagi barcha tadbirkorlarga, shu jumladan Internet orqali etkazish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqsinlar va amalga oshirilishi belgilangan.

Vazirlar Mahkamasining «Sertifikatlashtirilishi shart bo'lgan mahsulotlar ro'yxatini, sertifikatlashtirishni o'tkazish, xavfsizligini tasdiqlash talab etiladigan

tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga keltirish va ularni uning tashqarisiga chiqarish tartibini tasdiqlash haqida» 1994 yil 12 avgustdagi 409-son qarori binoan Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi to‘g‘risida “Nizom”da. Ishlab chiqariladigan va chetdan keltiriladigan mahsulotlarni sertifikatlashtirish (keyingi o‘rinlarda matnda sertifikatlashtirish deb ataladi) tartibini belgilangan.

Mahsulotlarning har bir turi bo‘yicha sertifikatlashtirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkaziladigan sertifikatlashtirishning tegishli qoidalari bilan belgilanadi.

Sertifikatlashtirish davomida ilgari tekshirilgan xavfsizlik bo‘yicha tavsifga ta’sir etmaydigan mahsulotning dizayni yoki tashqi tavsiflari o‘zgarishi zamonaviylashtirilgan mahsulotga qo‘shimcha sertifikatlashtirish o‘tkazilishiga olib kelmaydi. Mahsulot xavfsizligi bo‘yicha majburiy tavsiflar standartlashtirish bo‘yicha tegishli normativ hujjatlarda belgilanadi.

Nizomning amal qilishi majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirishga tatbiq etiladi.

Majburiy tartibda sertifikatlashtiriladigan, shuningdek ularning muvofiqligi muvofiqlik deklaratsiyasi bilan tasdiqlanishi mumkin bo‘lgan mahsulotlar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Sertifikatlashtirishni amalga oshirish muvofiq sxema bo‘yicha, qoidaga ko‘ra, ikki bosqichda o‘tkaziladi.

Birinchi bosqich bir vaqtning o‘zida, zaruriyatga ko‘ra, veterinariya va fitosanitariya xulosalari tegishli ravishda davlat veterinariya nazorati va o‘simliklar karantini bo‘yicha davlat xizmati organlarida rasmiylashtirilgan holda «O‘zstandart» agentligi tomonidan akkreditatsiya qilingan davlat sanitariya nazorati organlarida gigienik sertifikat rasmiylashtirilishini o‘z ichiga oladi. Bunda tadbirkorlik faoliyati sub’ekti:

gigienik sertifikatni rasmiylashtirish uchun ariza bilan birgalikda belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organlariga (keyingi o‘rinlarda sertifikatlashtirish organlari deb ataladi) muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish yuzasidan ariza berishga;

zarurat bo‘lganda tegishli xulosalar olish uchun veterinariya va fitosanitariya nazorati organlariga mustaqil ravishda murojaat qilishga haqlidir.

Ikkinchi bosqich — sertifikatlashtirish organlari tomonidan muvofiqlik sertifikati berishdir.

Sertifikatlashtirish organlari tadbirkorlik sub’ektlarining yozma arizasiga muvofiq davlat sanitariya nazorati organlarida, davlat veterinariya nazorati va o‘simliklar karantini bo‘yicha davlat xizmati organlarida, shuningdek tabiatni

muhofaza qilish davlat organlarida sertifikatlashtirishni o'tkazish va barcha zarur xulosalarni olish yuzasidan agentlik xizmatlari ko'rsatishga haqlidir.

Bunda namunalar tanlab olinishi, shuningdek ular to'g'ri tanlanganligi va ular tegishli davlat organlariga taqdim etilishi uchun sertifikatlash organlari javob beradilar.

Ko'rsatib o'tilgan xizmatlarga haq to'lash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida deklaratsiyalangan tariflar bo'yicha amalga oshiriladi.

Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va berishning umumiy muddati ishlarning murakkabligi darajasiga, ko'p mehnat talab qilishi va o'ziga xosligiga qarab, barcha zarur hujjatlar berilgan vaqtdan boshlab olib kelinadigan mahsulotlarga 10 ish kundan ortiq bo'lmagan ishlab chiqariladigan mahsulotlarga 10 ish kundan 1 oygacha doirada belgilanadi.

17.2.Sifat menejmenti tizimi konsepsiyasi va umumiy qoidalari. YUqori sifatli mahsulot, xizmatlar, ishlar va jarayonlar raqobatbardoshlikning ko'proq ahamiyatga ega bo'lgan muhim tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Ular sotish hajmi va daromadni ko'payishiga asos bo'lib xizmat qilib, butun jamiyat va har bir insonning talablarini ko'proq qondirishga imkon beradi, hamda mamlakatning va har bir korxonaning obro'sini belgilaydi.

Sanoati rivojlangan mamalakatlarda firmalar raqobatchilikning judda qattiq sharoitida turadilar, bunda esa sifat menejmenti tizimi muvaffaqiyatli ta'sir etmoqda. Biroq, bunday bir qancha tizimlar ilgari mashhur bo'lgan mahalliy kompleks sifatni boshkarish tizimiga o'xshaydi.

Hozirgi vaqtda SMT tarkibi va mohiyati bir necha xalqaro standartlar bilan tartiblashtiriladi (masalan, ISO 9000 seriyali). Bu standartlar sifat menejment tizimi talablariga muvofiq ishlab chiqaruvchi shartnoma shartlarini bajarishi va sifati birqaror mahsulotlarni etkazishga ishonchni ta'minladi. CHet elda, har bir mahsulot etkazib beruvchining albatta o'zida sifat menejment tizimi mavjud bo'lishi majburiy qoidalardan biri bo'lib hisoblanadi. Mahalliy korxonalar xalqaro standartlar talablarni qondiradigan sifat menejmenti tizimisiz, chetlab o'taolmaydilar. SHunday ekan, xorijiy va mahalliy iste'molchilar talablarini qondiruvchi, yuqori sifatli mahsulotni yartishning muhim shartlari sifatida sifat menejment tizimiga ko'proq e'tibor berish lozim.

Boshqarishda har doim qaerda muvaffaqiyatni ta'minlash lozimligi va yakuniy natijada boshqaruvda barcha maqsadlarga erishilganlini aniqlashga ko'proq e'tibor berilish muhim yo'nalishlarni belgilaydi. Bunday yo'nalish bozor iqtisodiyoti sharoiti uchun sifat menejment tizimi bo'lib hisoblanib, bu yo'nalishni tezroq rivojlantirishda zamonaviy SMT yaratish lozim. Ko'p yillardan beri

rivojlangan mamlakatlarda bozor iqtisodiyoti turi bilan umumiy sifatni boshqarish tizimi (TQM) nomlangan tizimga e'tiborni kuchayishi kuzatilmoqda. Bunday boshqarish faqatgina yirik sanoat korxonalarini qamrab olib, shuningdek, o'rta va kichik ishlab chiqarish korxonalarini, ayniqsa mahsulotni chet elga eksport qiluvchilarni ham qamrab olgan. Sifat menejmenti bo'yicha ishlarda minimum ikkita o'zaro bog'langan talablarini qondirish lozim: 1) iste'molchilarning talablarini; 2) ishlab chiqaruvchi - korxonada ehtiyoji va qiziqishlarini.

Zamonaviy menejment uchun fundamental savollar qatorida "nima?", "qancha?", "kim?", "qanday?" sifatli mahsulot ishlab chiqarishi lozim, asosiy savol "qanday yondoshish" yordamida qilish mumkinligiga javob topish lozim.

Ko'proq sifat menejmentiga real yondashuv bozor sharoitida iste'molchilarning talablarini qondirishni, alohida korxonada sifat sohasida va mahsulot raqobatbardoshligi ta'minlashga, ham milliy xo'jalik miqyosida to'liqligi, tizimliliigi bo'lib hisoblanadi. Mohiyatiga ko'ra integratsiyali yondashuv jarayonli va boshqa yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Vaqt o'tishi bilan doimo sifat menejmenti tizimi kontseptsiyasi rivojlandi, natijada umumiy sifatni boshqarish tizimi (TQM) zamonaviy kontseptsiyaga aylandi va o'z ichiga quyidagi tizimli tamoyillarni oladi:

- barcha xodimlarni va iste'molchilarni sifatni yaxshilashga maqsadli jalb etish;
- sifat menejmenti bo'yicha o'tkazilgan barcha ishlar, jarayon ko'rinishida barcha qatnashchilar tomonidan amalga oshirilishini mo'ljallash;
- barcha xodimlarni, sarmoyadorlarni va shaxsiy mulk egalari qiziqishlarini inobatga olish;
- sifat menejmentining barcha jarayonlarini tizimli takomillashtirish.

Umumiy sifat falsafasi qoidalariga asosan bozor munosobatlariga nisbatan dunyo qarashni yangicha boshqarish. Bu falsafada sertifikatlashtirishga muhim o'rin ajratilgan.

SHuni aytish lozimki, umumiy sifat menejmentining rivojlanish davri boshqaruvning yuqori zvenosidan kuchli e'tiborni talab qilib, har qanday korxonaning xodimlari ehtiyojini qondirish talabi oshirilib boradi. SHu munosobat bilan xodimlarni yuqori sifatli mehnat natijalarga o'z-o'zini motivatsiyalash keng rivojlanishi lozim bo'lib, o'ziga o'zi baho berishning turli usullardan foydalanishni talab qiladi (shuningdek, xalqaro, milliy va boshqa sifat sohasidagi mukofotlar asosida, masalan M. Boldridj mukofoti, sifat bo'yicha Evropa mukofotlari va boshqalar). Bularni barchasi ISO 9000, ISO 14000, QS-9000 seriyali va boshqa standartlarni keng joriy qilishga sabab bo'ladi.

Sifat menejmentining rivojlanishining ushbu davrida yangi tizimga o'tish, ta'minotchilar bilan o'zaro munosabatlar, kirish va qabul qilish sinovi va nazoratlarini minimumga kelishini tavsiflaydi. Bundan tashqari, "o'z vaqtida" mahsulotni etkazib berish va kompleks innovasion dasturlar tizimini hamma joylarda joriy qilish iste'molchilarning talablarini maksimal qondirishga yo'naltirilgan. Umumiy holatda zamonaviy umumiy sifatni boshqarish metodologiyasi — TQMni quyidagi xususiyatlar bilan belgilash kerak:

- sifat menejmenti va umumiy sifatni boshqarish tizimiga aylanishida ahamiyatli o'zgarishlarni vujudga keltirib, yangi avlod menejmentidek, innovasion rivojlanish negizi asosida iqtisodiy muammolarni echish;

- sifat menejmenti prosedurasidan keng foydalanish;

- sifat muammolarini echishda keng ko'lamli instrumental usullarni ishlatish (masalan, instrumental nazorat va sifat menejmenti, sifatni rejalashtirish usuli, statistik sifatni boshqarish, strategik menejment va boshqalar).

Sifat menejmentni barcha ilmiy asoslangan tamoyillar negizi asosida amalga oshirish lozim va ularni umumiy, umum tizimli, maxsuslarga ajratish mumkin.

Sifat menejmenti umum tizimli tamoyilini ko'rib chiqqanda, aytish lozimki, asosan va umumiy (negizli, asos soladigan) boshlang'ich tamoyil bo'lib, bu sifat menejmentini tizim ko'rinishda tasavvur etish hioblanadi. Bundan kelib chiqadiki, sifat menejmenti - butun korxonani tizimli menejmentini cheklangan tarkibiy qismidir. Tabiiyki, sifat menejmenti tizimi o'zidan o'zi ishlay olmaydi, boshqa menejment tizimlar bilan o'zaro bog'langan va aloqadordir. SHuning uchun, sifat menejmentida oldindan umumiy xolisona menejment tamoyillaridan foydalaniladi (demokratik markazlashgan balanslash, modiy va ma'naviy rag'batlantirish, yakka boshchilik va jamoatchilik, delegatlik huquqiga ega bo'lish, menejmentga ishchilarni qiziqishi va faol ishtirok etishi, meros va x.k.)

SHular qatorida sifat menejmentiga asosiy ijtimoiy boshqarish tamoyillarni ishlatish maqsadga muvofiq va ularga quydagilar tegishli:

- 1) *maqsadga erishish* - munosib usul yoki tizim yordamida ko'zlangan maqsad amalga oshadi;

- 2) *bo'linish* – shakllanadigan tizim dekompozitsiyasiga erishish, tizimning tizim osti va elementlarga bo'linishi;

- 3) *ierarxiya* - ko'p darajali tizim tarkibi yordamida delegatlik huquqi hisobi bilan munosib boshqarish amalga oshadi (bo'lim, maydon-joy, sex, brigada va x,k);

- 4) *komplektlik* erishilgan o'zaro bog'lanish vijudga kelgan tizim, element, mahsulotning siklik bosqichi, ierarxiya darajasi va kompleks tashkil etilgan

iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish va boshqa tadbirlar sifatni boshqarishda foydalaniladi;

5) *o'zaro bog'liqlik*, vujudga kelgan sifat menejmenti tizimi va boshqa menejment tizimlari bilan o'zaro bog'liqligi yordamida amalga oshadi (bir maqsadni o'rnatish boshqa munosobatlarga yoki o'zaro bog'langan bir necha tizimlar maqsadini o'zaro bog'liq jarayonlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish;

6) *tutashtirish (bog'lanish)* sifat menejmenti umumiy funksiyalarni (boshqarish jarayonlarini tutashtirish) tizimda bajarilishini amalga oshirish, tizim osti va umumiy funksional siklni to'liq elementi, shu jumladan, bashoratlash va rejalashtirish, tashkilot ishlarini tashkillashtirish, muvofiqlashtirish va hokazo;

7) *tizimlilik* sifat menejmentining barcha ishlarini bajarilishini uzoq vaqt davom etishini va harakatning davomiyligini doimo aniqlaydi.

8) *meros va namoyon bo'lishi*, tizimni yaratishda hamda takomillashtirishda va unga harakat qilinganda ilg'or mahalliy va chet el sifat menejmenti tizimi tajribasidan foydalanish bilan ifodalash mumkin;

9) *oson va tushunarli bo'lishi*, har bir ishchini, sifat menejmentiga faqatgina mahsulotga emas, balki butun korxonada raqobatbardoshlikni ta'minlashga aloqadorligini tushinish orqali erishiladi.

Umumiy va umumtizimli tamoyillar qatorida sifat menejmentining tamoyillarini darslikning keyingi 4.4-bo'limida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Takrorlash uchun savollari

1. Sifatni boshqarish tizimini rivojlanish tarixidan bo'yicha ma'lumotlarni bilasiz?
2. Sifat falsafasining rivojlanish fazalari nimalarda iborat?
3. Sifat bo'yicha ishlar, usullar va shakllarning rivojlanishi to'g'risida nimalarni bilasiz?
4. Sifatning besh yulduzini tushuntiring.
5. Sifat menejmenti namoyondalaridan kimlarni bilasiz?
6. Sifatni boshqarishda AQSH, Yaponiya, Evropa va Rossiyadagi tajribalar to'g'risida nimalarni bilasiz?

18§. ISO 9000 seriyali standartlar, xorijiy davlatlarda sifatni boshqarish tizimlari

18.1.ISO tashkiloti va uning faoliyati ISO 9000 seriyali standartlarni ishlab chiqilish tarixi. Xalqaro standartlashtirish tashkiloti - (ISO) o'zining ishlanmalari bilan turli xil milliy qonuniy holatlarda sertifikatlashtirish natijalarini o'zaro tan olish ishlari va o'z navbatida sertifikatlashtirish usullarini

uyg'unlashtirishda yordam berib kelmoqda. ISO tashkiloti mamlakatlarda sertifikatlashtirish tizimini yaratish va u qaerlarda mavjud bo'lmasa bu bo'yicha reja asosida uslubiy yordam qilib kelmoqda. ISO sertifikatlashtirish sohasida MEK bilan hamkorlikda ko'plab qullanmalar va tavsiyalar ishlab chiqmoqda. Sertifikatlashtirish sohasida asos bo'luvchi ISO/MEK 28 "Uchinchi tomon mahsulotni sertifikatlashtirish tizimi namunaviy umumiy qoidalari" qo'llanma milliy sertifikatlashtirish tizimini yaratish bo'yicha tavsiya sifatida foydalanilmoqda.

Birinchi standartlashtirish milliy tashkiloti - Britaniya Assotsiatsiyasi /British engineering Standards Accociation/ 1901 yilda tashkil etilgan bo'lib, biroz keyinroq, birinchi jahon urushi davrida Daniya byurosi, Germaniya qo'mitasi (1918 y.), Amerika qo'mitasi (1918 y.) va boshqalar tashkil topdi. Tashkiliy tuzilmasi keltirilgan.

Hozirgi Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (International Standards Organization) 1946-1947 yillari tashkil topdi, uni qisqacha ISO deb yuritiladi. Bu nufuzli tashkilot Birlashgan Millatlar Bosh Assambleyasi tarkibida faoliyat ko'rsatib, rivoj topmoqda.

ISONing tuzilishidan ko'zda tutilgan asosiy maqsad - xalqaro miqyosdagi mol almashinuvida va o'zaro yordamni engillashtirish uchun dunyo ko'lamida standartlashtirishni rivojlantirishga ko'maklashish hamda aqliy, ilmiy, texnikaviy va iqtisodiy faoliyatlar sohasida hamdo'stlikni rivojlantirishdir.

Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun:

dunyo ko'lamida standartlarni va ular bilan bog'liq bo'lgan sohalarda uyg'unlashtirishni engillashtirish uchun choralar ko'rish;

xalqaro standartlarni ishlab chiqish va chop etish (agar har bir standart uchun uning faol tashkiliy va kichik qo'mitalarining ikkidan uch qismi ma'qullab ovoz bersa va umumiy ovoz beruvchilarning to'rtidan uch qismi yoqlab chiqsa, standart ma'qullanishi mumkin);

-o'z qo'mita a'zolarining va texnikaviy qo'mitalarning ishlari haqida axborotlar almashinuvini tashkil qilish;

-sohaviy masalalar bo'yicha manfaatdor bo'lgan boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish ko'zda tutiladi.

ISO rahbar va ishchi qo'mita idoralaridan tashkil topgan. Rahbar idoralari tarkibiga Kengashning yuqori idorasi - Bosh Assambleya, Kengash, ijroiya byurosi, texnikaviy byuro, kengashning texnikaviy qo'mitalari va markaziy sekretariati kiradi.

ISOda prezident, vitse-prezident, g'azinachi va bosh sekretar lavozimlari mavjud. Bosh Assambleya - ISONing Oliy Rahbari bo'lib, ISONing yig'ilishi uch

yilda bir marta bo‘ladi. Uning sessiyasida prezident uch yil muddat bilan saylanadi.

Bosh Assambleya o‘tkazish vaqtida sanoat sohasida etakchi mutaxassislar ishtirokida xalqaro standartlashtirishning muhim muammolari va yo‘nalishlari muhokama qilinadi.

ISO kengashi yiliga bir marta o‘tkazilib, unda tashkilotning faoliyati, xususan, texnikaviy idoralarning tuzilishi xalqaro standartlarning chop etilishi, kengash idoralarning a‘zolarini hamda texnikaviy qo‘mitalarning raislarini tayinlaydi va boshqa masalalar ko‘riladi.

Xalqaro standartlashtirish tashkilotining tarkibi 91 mamlakatning vakillaridan iborat edi.

Mahsulot sifatini yaxshilash, boshqarish va ta‘minlash bo‘yicha oxirgi vaqtda qilingan ishlarni mujassamlab, ISO o‘zining bir qator me‘yoriy hujjatlarini ishlab chiqdi, bu hujjatlarga sifat tizimi sohasida ISO 9000, mehnat xavfsizligi sohasida ISO 18000 va oziq-ovqat mahsulotlari sifati, xavfsizligi ISO 22000 hamda ekologiya sohasida ISO 14000 seriyali standartlarni ko‘rsatish mumkin.

Xalqaro standartlashtirish bo‘yicha milliy assotsiatsiyalar federatsiyasi. Me‘yoriy xujjatlarni ishlab chiqishda sifat bo‘yicha ilmiy tekshirish instituti mavjud. Standartlashtirish shu bugungi holatda tadbirkorlar va savdo tashkilotlari orasidagi bog‘lovchilardir. EES — tashkiloti standartlashtirish va sertifikatsiyalashga ahamiyatini kuchaytirib, Evropa bozorlariga sifatsiz mahsulotlar keltirmaslik va jahon bozoriga sifatsiz mahsulotlarni chiqarmaslikni bajaradi. Jahon miqyosida barcha mamlakatlar mahsulot, jaraen va "xizmat" sohaslarini sertifikatsiyalashtiradi, ya‘ni uning me‘yoriy xujjatlar talablariga muvofiqligi tekshiriladi. Bu standartlar jahon standartlariga muvofiq bo‘lishi kerak. Bizga ma‘lumki, standartlashtirishning asosiy vazifasi Davlat xavfsizligini, mahsulot xavfsizligini, aholini salomatligini, mahsulot sifatini tekshiruvchanlik va almashinuvchanlik resursini hisobga olish, uni tejash, ilmiy yo‘nalishdagi texnologiyani va tashkiliy ishlarni to‘g‘ri yulga qo‘yishdan iborat. YUqoridagi mahsulotlarni hal qilishda Respublikamizda standartlashtirish texnik qo‘mitalari standartlashtirishning asosiy vazifalarini bajarib, ixtiyoriy yig‘ilgan mutaxassislar majmuasidan iborat.

Texnik mutaxassislar tarmoqlararo yoki davlatlararo standartlash va sertifikatsiyalash ishlari bo‘yicha tuziladi. Ularning vazifasi Davlat manfaati va iste‘molchi xohishini kondirish, ya‘ni yangi me‘yoriy xujjatlar (MX) yaratish yoki qayta kurib chiqish, ularning xalqaro me‘yoriy xujjatlarga muvofiqligini ta‘minlash, standartlash bo‘yicha rejalar tuzishdan iborat. Bozor iqtisodieti davrida standartlashtirish va sertifikatsiyalashtirish mahsulot sifatini raqobatbardoshligini

ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Mahsulot jarayon yoki xizmat raqobatbardoshligini yo'nalishga ajratish mumkin.

hayotimizning barcha jabhalarida, iqtisodiyotning va sanoatning barcha tarmoqlari uchun o'ta zarur bo'lgan, sertifikatlashtirish haqidagi asosiy tushunchalar va ta'riflar, me'yoriy hujjatlar, sertifikatlashtirishning huquqiy va qonuniy asoslari hamda O'zbekiston respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi kabi masalalari xususida etarli va zarur ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu ma'ruza matni mohiyatan hozirgi kunlarda respublikamizdagi ta'lim va iqtisodiyot borasidagi rivojlanishi va o'zgarishlari fan-texnika hamda texnologiyani jadal o'zgarib borishini hisobga olingan holda yaratildi. Asosan standartlashtirish, sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish faoliyatini paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixiy manbalardan ma'lumki, uzoq tariximizga o'zaro bog'liq bo'lishi bilan bir qatorda, ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga xos bo'lgan, doimiy ravishda va uzluksiz tarzda rivojlanishda bo'luvchi faoliyatlar turkumiga mansubdir. Mustaqil O'zbekistonimiz juda boy va ko'hna madaniy va ma'rifiy meroslarga ega bo'lib, ushbu meros G'arb falsafasini shakllanishida, buyuk olimlarni va allomalarni muvoffaqiyat qozonishlarida munosib o'rin egallagan. Bundan tashqari respublikamiz «Buyuk ipak yo'li» asosiy tomirida joylashganligi va yirik savdo markazlariga ega bo'lganligi sababli xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etgan.

Ma'lumki, respublikamizda tub iqtisodiy islohotlar orqali bozor munosabatlarini shakllantirishga kirishishda eng avvalo, uning strategik maqsadlari belgilanib olindi. Bu maqsadlar ichida «raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta'minlash» alohida ta'kidlab o'tilgan. Iqtisodiy islohotlarning ustivor sanalgan yo'nalishlarida ham quyidagilarni ko'rishimiz mumkin: ilg'or texnologiyalarni joriy qilish orqali tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish; aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash; mamlakatning eksport quvvatidan to'la-to'kis foydalanish, uni jadallik bilan rivojlantirish. Bu borada respublikamizda qisqa muddat ichida ulkan ishlar amalga oshirildi va natijada O'zbekiston sanoatlashgan hamda iqtisodiy jihatdan buyuk imkoniyatlarga ega davlatlar safiga qo'shildi. Standartlashtirish faoliyati yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlar va sanoatimizning barcha tarmoqlarida ishlab chiqarishdagi zamonaviylikni aks ettirish, texnologik jarayonlarni kompleks avtomatlashtirish, ishlab chiqarilayotgan va chetdan keltirilayotgan turli xil mahsulotlarning sifati yuqori darajada, me'yoriy xujjatlarning belgilangan talablariga mos bo'lishini, iste'mol mahsulotlarining aholi uchun xavfsizligini ta'minlash, ilg'or, ko'p yillik tajribadan o'tgan jahon andozalaridan foydalanish va ularni respublikamizda tadbiq etish kabilarni o'ziga mujassamlashtirgan. Tabiiyki, barcha soha

mutaxassislari qaysi toifada bo'lishidan qat'iy nazar ushbu borada etarli bilim va malakaga ega bo'lishlari lozim. Sertifikatlashtirish va sifatni boshqarishning asosiy maqsadi – talabalarni mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish va ularning sifatini boshqarish masalalarining mazmun mohiyati nimadan iborat, uning kelib chiqishi va rivojlanish tarixi, hozirgi zamonda unga bo'lgan talablar, chet ellarda va Respublikamizda sertifikatlashtirish tartibi va qonun qoidalari, milliy sertifikatlashtirish va akkreditlash tizimlari hamda sifatni boshqarish to'g'risida bilim olishlariga va ko'nikmaga ega bo'lishlariga imkoniyat yaratadi. Sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish ma'ruza matni xorijiy davlatlarning, xalqaro tashkilotlarning, hamda O'zbekiston Respublikasida sertifikatlashtirishning tashkiliy-uslubiy va huquqiy tomonlari, shuningdek sertifikatlashtirish qoidalariga taalluqli va sifatni boshqarish bo'limlarini o'z ichiga olgan. Aytish kerakki, sertifikatlashtirish bilan sifat tizimi va akkreditlashtirish idoralarining sertifikatlashtirish va tadqiqot amaliyotlarini tadbiq qilish masalalari bevosita bir-biriga bog'liqdir. SHuningdek O'zbekistonda akkreditlash tizimini xalqaro andozalarga uyg'unlashtirilgan tarzda yaratish natijalari ustida olib borilayotgan harakatlar ham ushbu o'quv qo'llanmada e'tiborga olingan. Mazkur ma'ruzalar mantnida ISO 9000 seriyali xalqaro standartlarning, hamda O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi (bundan keyin O'z SMT) me'yoriy hujjatlari asosida ishlab chiqilgan uslubiy ko'rsatmalar ham inobatga olingan.

Mahsulotlar, xizmatlar va ishlarni sertifikatlashtirish – mahsulotni o'rnatilgan talablarga va uning sifati bilan to'g'ri bog'liqligini tasdiqlashdir. Sifatsiz mahsulot sertifikatlashtirilishi mumkin emas. Sertifikatlashtirish quyidagi yo'nalishlarga: mahsulot (xizmat) iste'molchilarning tanlash layoqatliligi faoliyati; iste'molchilarni nopok va vijdonsiz ishlab chiqaruvchilar (sotuvchi, bajaruvchi)dan himoya qilish; mahsulot (xizmat, ishlar)ni atrof-muhit, yashash va jamiyat sog'lig'i uchun xavfsizligini nazorat qilish; mahsulot (xizmat, ishlar) sifat ko'rsatkichlari va ushbu mahsulotni ishlab chiqargan ishlab chiqaruvchilar (bajaruvchilar)ni tasdiqlash; tashkilot va xususiy tadbirkorlar faoliyatini Respublikamiz yagona tovar bozorini hamda xalqaro iqtisodiyotda, ilmiy-texnik hamkorlikda va xalqaro savdolarida qatnashishi uchun imkoniyat yaratish sohasida ish olib boradi. Muvofiqlikni tasdiqlash va baholash tizimi mahsulot sifati va xavfsizligini, ishlar va xizmatlarni nazorat qilish va buning uchun davlat tekshiruvi va nazorati, litsenziyalashtirish, ixtiyoriy sertifikatlashtirish bilan boshqa nazorat shakllarining asosiy mexanizmi bo'lishi bilan ahamiyatlidir. Respublikamizda sertifikatlashtirishning rivojlantirish istiqboli mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish, shu bilan birga «muvofiqlikni tasdiqlash va baholash» -

tizimiga o'tish, hamda bu faoliyatni takomillashtirish bo'yicha «O'zstandart» agentligi tomonidan qabul qilingan konsepsiyada to'liq tarzda yoritib berilgan. SHu sabablarga ko'ra, ushbu ma'ruza matni respublikamizdagi amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ta'lim borasidagi islohotlarga yondashgan holda jumladan, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish sohasidagi bilimlarni etkazishda standartlashtirish asoslari tayanch faoliyat ekanligini inobatga olib yaratishga harakat qilindi.

Xalqaro standartlashtirish tashkiloti - (ISO) o'zining ishlanmalari bilan turli xil milliy qonuniy holatlarda sertifikatlashtirish natijalarini o'zaro tan olish ishlari va o'z navbatida sertifikatlashtirish usullarini uyg'unlashtirishda yordam berib kelmoqda. ISO tashkiloti mamlakatlarda sertifikatlashtirish tizimini yaratish va u qaealarda mavjud bo'lmasa bu bo'yicha reja asosida uslubiy yordam qilib kelmoqda. ISO sertifikatlashtirish sohasida MEK bilan hamkorlikda ko'plab qullanmalar va tavsiyalar ishlab chiqmoqda. Sertifikatlashtirish sohasida asos bo'luvchi ISO/MEK 28 "Uchinchi tomon mahsulotni sertifikatlashtirish tizimi namunaviy umumiy qoidalari" qo'llanma milliy sertifikatlashtirish tizimini yaratish bo'yicha tavsiya sifatida foydalanilmoqda. Birinchi standartlashtirish milliy tashkiloti - Britaniya Assotsiatsiyasi /British engineezing Standards Accociation/ 1901 yilda tashkil etilgan bo'lib, biroz keyinroq, birinchi jahon urushi davrida Daniya byurosi, Germaniya qo'mitasi (1918 y.), Amerika qo'mitasi (1918 y.) va boshqalar tashkil topdi. Tashkiliy tuzilmasi keltirilgan. Standartlashtirish sohasidagi ishlar xalqaro markaz kerakligini taqazo qildi. SHu maqsadda 1926 yili standartlashtirish milliy tashkilotlarning Xalqaro Assotsiatsiyasi (ISA) paydo bo'ldi. ISA ning tarkibiga 20 mamlakat vakillari kirdi. 1938 yili Berlin shahrida standartlashtirish bo'yicha Xalqaro s'ezd ochildi. Unda texnikaning turli sohalari bo'yicha 32 ta qo'mita va kichik qo'mitalar tuzildi. 1939 yili boshlangan ikkinchi jahon urushi ISAning faoliyatini to'xtatib qo'ydi. Hozirgi Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (International Standards Organization) 1946-1947 yillari tashkil topdi, uni qisqacha ISO deb yuritiladi. Bu nufuzli tashkilot Birlashgan Millatlar Bosh Assambleyasi tarkibida faoliyat ko'rsatib, rivoj topmoqda. ISOning tuzilishidan ko'zda tutilgan asosiy maqsad - xalqaro miqyosdagi mol almashinuvida va o'zaro yordamni engillashtirish uchun dunyo ko'lamida standartlashtirishni rivojlantirishga ko'maklashish hamda aqliy, ilmiy, texnikaviy va iqtisodiy faoliyatlar sohasida hamdo'stlikni rivojlantirishdir. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun: dunyo ko'lamida standartlarni va ular bilan bog'liq bo'lgan sohalarda uyg'unlashtirishni engillashtirish uchun choralar ko'rish; xalqaro standartlarni ishlab chiqish va chop etish (agar har bir standart uchun uning faol tashkiliy va kichik qo'mitalarining ikkidan uch qismi ma'qullab ovoz bersa va

umumiy ovoz beruvchilarning to'rtidan uch qismi yoqlab chiqsa, standart ma'qullanishi mumkin); o'z qo'mita a'zolarining va texnikaviy qo'mitalarning ishlari haqida axborotlar almashinuvini tashkil qilish; sohaviy masalalar bo'yicha manfaatdor bo'lgan boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish ko'zda tutiladi. ISO rahbar va ishchi qo'mita idoralaridan tashkil topgan. Rahbar idoralari tarkibiga Kengashning yuqori idorasi - Bosh Assambleya, Kengash, ijroiya byurosi, texnikaviy byuro, kengashning texnikaviy qo'mitalari va markaziy sekretariati kiradi. ISODA prezident, vitse-prezident, g'azinachi va bosh sekretar lavozimlari mavjud. Bosh Assambleya - ISOning Oliy Rahbari bo'lib, ISOning yig'ilishi uch yilda bir marta bo'ladi. Uning sessiyasida prezident uch yil muddat bilan saylanadi. Bosh Assambleya o'tkazish vaqtida sanoat sohasida etakchi mutaxassislar ishtirokida xalqaro standartlashtirishning muhim muammolari va yo'nalishlari muhokama qilinadi. ISO kengashi yiliga bir marta o'tkazilib, unda tashkilotning faoliyati, xususan, texnikaviy idoralarning tuzilishi xalqaro standartlarning chop etilishi, kengash idoralarining a'zolarini hamda texnikaviy qo'mitalarning raislarini tayinlaydi va boshqa masalalar ko'riladi. Xalqaro standartlashtirish tashkilotining tarkibi 91 mamlakatning vakillaridan iborat edi. Mahsulot sifatini yaxshilash, boshqarish va ta'minlash bo'yicha oxirgi vaqtda qilingan ishlarni mujassamlab, ISO o'zining bir qator me'yoriy hujjatlarini ishlab chiqdi, bu hujjatlarga sifat tizimi sohasida ISO 9000, mehnat xavfsizdigi sohasida ISO 18000 va oziq-ovqat mahsulotlari sifati, xavfsizligi ISO 22000 hamda ekologiya sohasida ISO 14000 seriyali standartlarni ko'rsatish mumkin. Mazkur ma'ruzalar mantnida ISO 9000 seriyali xalqaro standartlarning, hamda O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi (bundan keyin O'z SMT) me'yoriy hujjatlari asosida ishlab chiqilgan uslubiy ko'rsatmalar ham inobatga olingan.

Mahsulotlar, xizmatlar va ishlarni sertifikatlashtirish – mahsulotni o'rnatilgan talablarga va uning sifati bilan to'g'ri bog'liqligini tasdiqlashdir. Sifatsiz mahsulot sertifikatlashtirilishi mumkin emas. Sertifikatlashtirish quyidagi yo'nalishlarga: mahsulot (xizmat) iste'molchilarning tanlash layoqatliligi faoliyati; iste'molchilarni nopok va vijdotsiz ishlab chiqaruvchilar (sotuvchi, bajaruvchi)dan himoya qilish; mahsulot (xizmat, ishlar)ni atrof-muhit, yashash va jamiyat sog'lig'i uchun xavfsizligini nazorat qilish; mahsulot (xizmat, ishlar) sifat ko'rsatkichlari va ushbu mahsulotni ishlab chiqargan ishlab chiqaruvchilar (bajaruvchilar)ni tasdiqlash; tashkilot va xususiy tadbirkorlar faoliyatini Respublikamiz yagona tovar bozorini hamda xalqaro iqtisodiyotda, ilmiy-texnik hamkorlikda va xalqaro savdolarida qatnashishi uchun imkoniyat yaratish sohasida ish olib boradi. Muvofiqlikni tasdiqlash va baholash tizimi mahsulot sifati va xavfsizligini, ishlar

va xizmatlarni nazorat qilish va buning uchun davlat tekshiruv va nazorati, litsenziyalashtirish, ixtiyoriy sertifikatlashtirish bilan boshqa nazorat shakllarining asosiy mexanizmi bo'lishi bilan ahamiyatlidir. Respublikamizda sertifikatlashtirishning rivojlantirish istiqboli mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish, shu bilan birga «muvofiglikni tasdiqlash va baholash» - tizimiga o'tish, hamda bu faoliyatni takomillashtirish bo'yicha «O'zstandart» agentligi tomonidan qabul qilingan konsepsiyada to'liq tarzda yoritib berilgan. SHu sabablarga ko'ra, ushbu ma'ruza matni respublikamizdagi amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ta'lim borasidagi islohotlarga yondashgan holda jumladan, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish sohalaridagi bilimlarni etkazishda standartlashtirish asoslari tayanch faoliyat ekanlagini inobatga olib yaratishga harakat qilindi.

18.2. ISO 9000 seriyasida xalqaro standartlar mohiyati. Iste'molchilarning talablariga javob beradigan va qo'llanilgan normativ hamda tartibga soluvchi talablarga mos keladigan mahsulotni etkazib berishda o'zining qobiliyatini namoyish qilishga ehtiyoj sezgan va

Tizimni natijali qo'llash, jumladan uni doimiy yaxshilash va iste'molchilarning talablariga hamda qo'llanilgan normativ va tartibga soluvchi talablarga muvofiqligini ta'minlash jarayonlari orqali iste'molchilarning qoniqqanligini yaxshilashga intilgan hollarda sifat menejmenti tizimiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Ushbu standartning barcha talablari umumiy bo'lib, tashkilotlarning turi, kattaligi va mahsulot toifasidan qat'iy nazar barcha tashkilotlarga nisbatan qo'llaniladi. Agar tashkilot va uning mahsulotining o'ziga xos xususiyati sababli ushbu standartning qandaydir talabini (talablari) qo'llash mumkin bo'lmasa, u (ular) chiqarib tashlanishi lozim bo'lgan talab sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

Ushbu standart talablariga muvofiqligi to'g'risida istisnolar, bayonotlar qilingan bo'lsa, agar ushbu istisnolar 7 bo'lim talablari bilan chegaralangan bo'lsa va ushbu istisnolar tashkilotning qudratiga ta'sir etmasa hamda tashkilotni iste'molchi talablariga va qo'llaniladigan normativ hamda tartibga soluvchi talablarga javob beradigan mahsulotni etkazib berish mas'uliyatidan ozod qilmagan holdagina maqbul deb hisoblanishi mumkin.

O'z DSt ISO 9000:2009 Sifat menejmenti tizimlari. Asosiy qoidalar va lug'at. Ushbu standartda O'z DSt ISO 9000:2009 dagi atamalar va ta'riflardan foydalaniladi.

Mazkur standart matnidagi «mahsulot» atamasi «xizmat» ni ham bildirishi mumkin. Sifat menejmenti tizimi Tashkilot sifat menejmenti tizimini ishlab

chiqishi, hujjatlashtirishi, joriy qilishi va ishchi holatda saqlab turishi, ushbu standart talablariga muvofiq holda uning natijaliligini doimo yaxshilashi kerak. Tashkilot:

Sifat menejmenti tizimi uchun zarur bo'lgan jarayonlarni aniqlashi va ularni butun tashkilotda qo'llashi b) ushbu jarayonlarning ketma-ketligi va o'zaro bog'lanishini aniqlashi;

Ushbu jarayonlarni ham amalga oshirishda, ham boshqarishda natijaliligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan mezonlar va usullarni aniqlashi;

Ushbu jarayonlarni ishlab turishini saqlash va ularni monitoring qilish uchun zarur bo'lgan resurslar hamda axborot bilan ta'minlashi;

Ushbu jarayonlarni monitoring qilish, o'lchash (qo'llanilganda) va tahlil qilishni amalga oshirishi; hamda

Ushbu jarayonlarni rejalashtirilgan natijalarga erishishi va doimiy yaxshilanishi uchun zarur bo'lgan harakatlarni amalga oshirishi kerak.

Tashkilot mazkur standart talablariga muvofiq ushbu jarayonlar menejmentini amalga oshirishi kerak.

Agar tashkilot mahsulotga qo'yiladigan talablarga muvofiqligiga ta'sir etuvchi qandaydir jarayonni amalga oshirishni chet tashkilotlarga topshirishga qaror qilsa, tashkilot bunday jarayonlarni boshqarilishini o'zi tomonidan ta'minlashi kerak. Boshqarish turi va hajmi sifat menejmenti tizimi doirasida aniqlanishi lozim. Outsorsing jarayonlariga nisbatan qo'llaniladigan boshqaruv turi va darajasiga quyidagi omillar ta'sir etishi mumkin:

Tashkilotning talablarga muvofiq mahsulotni etkazib berishga qodirligiga outsorsing jarayonining mumkin bo'lgan ta'siri;

Jarayonni boshqarish darajasi;

Qo'llash doirasida zarur boshqaruvga erishish qobiliyati.

Takrorlash uchun savollari

1. Sifatni boshqarish mexanizmi qanday amalga oshiriladi va u to'g'risida tushuncha bering?
2. Mahsulot sifatini boshqarishning prinsipial sxemasi nimalardan iborat?
3. Sifatni boshqarishning differensial sxemasini nimalardan tashkil topgan?
4. Sifatni boshqarishning differensial sxemasini tushuntiring.
5. Sifatni boshqarish uchun qanday shart-sharoitlar bo'lishi lozim?
6. Sifatni boshqarishning bosqichlarini tushuntiring.

19§. Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish idoralariga umumiy talablar:

19.1. Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish idoralariga O`zDst ISO|MEK 17021 standart talablari. Atamalar va ta'riflar. Ushbu standartda quyidagi atamalar tegishli ta'riflar bilan ishlatiladi: Integrallashgan menejment tizimining auditi: bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq standartlarga muvofiq (bir qator audit mezonlari) tashkilotning boshqarish tizimining auditi. Integratsiyalashgan menejment tizimi: muayyan darajadagi integratsiyalashgan boshqaruv standartlari talablariga javob beradigan tashkiliy faoliyatning ko'p qirralarini boshqarishni ta'minlaydigan yagona boshqaruv tizimi. Boshqarish tizimlari umumiy hujjatlardan va boshqaruv tizimining elementlaridan va umumiy javobgarlik maydonidan foydalangan holda har bir audit / standart mezonlari uchun alohida boshqaruv tizimini XBTga qo'shish orqali birlashtirilgan tizimdan farq qilishi mumkin. Integratsiya darajasi:

Bir nechta boshqaruv standartlari talablariga muvofiqlikni ta'minlash uchun tashkilot o'zining tashkiliy faoliyatining ko'p qirralarini boshqarish uchun yagona boshqaruv tizimidan foydalanadigan daraja.

Integratsiya deganda hujjatlarni, boshqaruv tizimining tegishli elementlarini va ikkita yoki undan ko'p qator audit mezonlari / standartlari bo'yicha majburiyatlarni birlashtira oladigan boshqaruv tizimi tushuniladi.

Sertifikatlashtirish organi quyidagilarni ta'minlashi kerak:

Audit dasturini ishlab chiqishda menejment tizimi (lar) ning integratsiyalashuv darajasi to'g'risida savollar ko'rib chiqildi.

Audit rejalari auditning qamrovi qamrab olinadigan va vakolatli auditor (lar) tomonidan ko'rib chiqilgan har bir boshqaruv tizimining standartlariga tegishli bo'lgan barcha sohalar va faoliyatga taalluqli.

Umuman olganda, auditorlik guruhi IMS auditining qamrovi bilan qamrab olingan boshqaruv tizimining har bir standarti bilan bog'liq ravishda har bir texnik sohada sertifikatlashtirish organi tomonidan belgilangan vakolat talablariga javob berishi mumkin.

Auditorlik guruhini boshqarish, audit o'tkaziladigan standartlar / spetsifikatsiyalarning kamida bittasida vakolatlarga ega bo'lgan guruh rahbari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu auditni qamrab olgan standartlarga muvofiq, tashkilotning boshqaruv tizimini auditni to'liq va samarali yakunlash uchun zarur bo'lgan vaqt belgilandi.

Ikki yoki undan ortiq boshqaruv tizimining standartlarini qamrab oladigan UMS uchun audit davomiyligini aniqlash uchun sertifikatlashtirish organi: a)

boshqarish tizimi uchun har bir standart uchun talab qilinadigan audit davomiyligini alohida-alohida hisoblash (tegishli hujjatlar va / yoki har bir standart uchun sxema qoidalari, masalan IAF MD 5, ISO / TS 22003, ISO / IEC 27006);

Alohida qismlarni yig'ish yo'li bilan UMS auditining davomiyligining boshlang'ich qiymatini (masalan, $T = A + B + C$) hisoblash;

Audit uchun zarur bo'lgan vaqtning ko'payishi yoki kamayishiga olib keladigan omillarni hisobga olgan holda davomiylik qiymatini saqlang. Audit davomiyligini qisqartirishga imkon beradigan omillar quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak, ammo ular bilan cheklanmaydi:

Tashkilotning boshqaruv tizimi integratsiyalashgan darajaga;

Tashkilot xodimlarining boshqaruv tizimlari uchun bir nechta standartlarga oid savollarga javob berish qobiliyati;

Menejment tizimi uchun bir nechta standartlarga muvofiq audit o'tkazish uchun etarli bo'lgan auditor/auditorlarning vakolatlari. Auditning davomiyligini oshirishga imkon beradigan omillar tarkibiga individual boshqaruv tizimlari auditiga nisbatan integrallashgan boshqaruv tizimining auditini murakkabligi bilan cheklash kerak emas;

Buyurtmachiga, tashkilotni boshqarish tizimining e'lon qilingan integratsiyalashuv darajasiga asoslangan auditning davomiyligi, birinchi bosqich va keyingi auditlar davomida integratsiya darajasini tasdiqlovchi dalillar asosida o'zgartirilishi mumkinligi to'g'risida xabar berish.

Integratsiyalashgan boshqaruv tizimining auditi natijasida uning davomiyligi oshishi mumkin, ammo agar vaqt qisqartirilsa, uning qisqarishi T boshlang'ich qiymatining 20% dan oshmasligi kerak.

Dastlabki davomiylikning qiymati va uning ko'payishi yoki kamayishi asoslari yozma ravishda yozilishi kerak.

Audit dasturi va integratsiyalashgan boshqaruv tizimining rejalarini ishlab chiqishda, menejment tizimi standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish bilan bog'liq mavjud tasdiqlovchi hujjatlar inobatga olinishi kerak.

Audit davomida integrallashgan boshqaruv tizimining sohasi bilan bog'liq har bir standartning amaldagi talablariga muvofiqligi tekshirilishi kerak.

Auditning bir qismi sifatida audit qilingan boshqaruv tizimlariga kelsak, audit hisobotlari birlashtirilishi yoki alohida bo'lishi mumkin. Birlashtirilgan hisobotda tuzilgan har bir xulosa boshqaruv tizimining amaldagi standartlari (lar) da kuzatilishi kerak.

Sertifikatlashtirish organi boshqarish tizimidagi har qanday standart (lar) ga muvofiq har qanday nomuvofiqlik menejment tizimidagi boshqa standart (lar) ga qanday ta'sir etishini o'rganishi kerak.

Boshlang'ich audit va sertifikatlashtirish. Mijozlarning murojaatlari Buyurtmachining arizasida integratsiya darajasi to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan hujjatlar, boshqaruv tizimining elementlari integratsiya darajasi to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak.

Birinchi bosqichli audit Birinchi bosqich auditini o'tkazishda auditorlik guruhi integratsiyalashgan boshqaruv tizimining integratsiya darajasini tasdiqlashi kerak. Sertifikatlashtirish organi tahlil o'tkazishi va kerak bo'lganda talabnoma bosqichida taqdim etilgan ma'lumotlarga asoslanib auditning davomiyligi to'g'risida tegishli tuzatishlar kiritishi kerak.

Tekshiruv va sertifikatlashtirish bo'yicha tadbirlar Sertifikatlashtirish organi belgilangan audit muddatlari qo'llanilishini davom ettirish uchun sertifikatlash siklida integratsiya darajasi o'zgarmasligini tasdiqlashi kerak.

Sertifikatni to'xtatib turish, chaqirib olish, sertifikatlashtirish doirasini toraytirish. Menejment tizimlari uchun bitta yoki bir nechta standartlarning talablariga muvofiqligi uchun sertifikat to'xtatilgan, bekor qilingan yoki sertifikatlashtirish doirasi torayib ketgan taqdirda, sertifikatlashtirish organi ushbu qarorning menejment tizimlari uchun boshqa standartlarga muvofiqligini sertifikatlashtirish bilan bog'liq oqibatlarini o'rganishi kerak. Audit muddati qisqartirildi. Vertikal o'q: tashkilotni boshqarish tizimining integratsiyalashuvi darajasi (quyida ko'rib chiqing), bu tekshirilayotgan tashkilotning audit davomida ko'rib chiqilgan ko'p jihatlarni qamrab olgan savollarga javob berish qobiliyatini hisobga olishi kerak. Integratsiyalashgan boshqaruv tizimi, tashkilot o'zining tashkiliy faoliyatining ko'p qirralarini boshqarish uchun yagona boshqaruv tizimidan foydalanganda yaratiladi.

Bu quyidagicha tavsiflanadi (lekin cheklanmagan):

Agar kerak bo'lsa, 1 ta integrallashgan hujjatlar to'plami, shu jumladan ishlab chiqishning eng yaxshi darajasini ta'minlash uchun ish yo'riqnomasi; 2 ta boshqaruv sharhi, shu jumladan korxonaning umumiy rivojlanish strategiyasi va rejalashtirilishini ko'rib chiqish;

Ichki auditga kompleks yondashuv;

Siyosat va maqsadlarga kompleks yondashuv;

Tizimni tashkil etadigan jarayonlarga kompleks yondashuv; Takomillashtirish mexanizmlariga kompleks yondashuv (tuzatish va profilaktika ishlari, o'lchash va doimiy takomillashtirish);

Menejmentni qo'llab-quvvatlashning keng qamrovli vositalari va majburiyatlari va javobgarliklari bir butunga birlashtirilgan. Sertifikatlashtirish organi tashkilotning boshqaruv tizimining yuqoridagi mezonlarga muvofiqligi darajasidan kelib chiqib, foiz sifatida ifodalangan integratsiya darajasini aniqlashi

kerak. Landshaft o'q: individual audit guruhi a'zolarining vakolat darajasi bo'yicha ifodalangan foizni olish uchun koeffitsient sifatida belgilangan qiymat, 100 ga ko'paytirilishi kerak bo'lgan qiymat:

Qo'shma audit bilan qamrab olinadigan boshqarish tizimiga talablarni belgilaydigan standartlar soni; Z - auditorlar soni. Misol. Uch xil boshqaruv tizimining standartlarini baholaydigan uchta auditorning qo'shma auditini o'tkazish uchun guruh. Auditorlardan biri uchta standartlarning barchasiga nisbatan etarlicha malakaga ega, ikkinchisi esa ikkita standartga, uchinchi esa bitta standartga nisbatan vakolatlarga ega. Gorizontol o'q bo'yicha qo'llanilishi kerak bo'lgan foiz nisbati (1) formula bo'yicha quyidagicha aniqlanadi: $100 \left(\frac{(3 - 1) + (2 - 1) + (1 - 1)}{3(3 - 1)} \right) = 50\%$. Har bir auditorning ikki yoki undan ortiq seriyali audit mezonlari / standartlari bo'yicha mavjud vakolatlari tufayli yuqori tashkiliy va texnik ko'rsatkichlarga erishiladi va bu yuqorida ko'rsatilgan formulada vaqtni qisqartirishni hisobga oladi.

Bu quyidagilarni nazarda tutadi: Bitta kirish va bitta yopilish yig'ilishidan 1 baravar tejash; Bitta qo'shma auditorlik hisobotining chiqarilishi tufayli 2 baravar tejash; Logistikaning optimallashtirish hisobiga vaqtni 3 tejash; 4-auditorlik guruhining yig'ilishlari tufayli vaqtni tejash; 5 bir vaqtning o'zida hujjatlarni boshqarish kabi umumiy elementlar uchun tekshirish ishlarini bajarish orqali vaqtni tejash.

19.2. Sifat menejment tizimlari sertifikatlashtirish idoralari va ularni tashkillashtirish. Sifat menejmenti tizimi. Umumiy talablar. Tashkilot sifat menejmenti tizimini ishlab chiqishi, hujjatlashtirishi, joriy qilishi va ishchi holatda saqlab turishi, ushbu standart talablariga muvofiq holda uning natijaliligini doimo yaxshilashi kerak. Tashkilot: a) sifat menejmenti tizimi uchun zarur bo'lgan jarayonlarni aniqlashi va ularni butun tashkilotda qo'llashi;

-ushbu jarayonlarning ketma-ketligi va o'zaro bog'lanishini aniqlashi;

-ushbu jarayonlarni ham amalga oshirishda, ham boshqarishda natijaliligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan mezonlar va usullarni aniqlashi;

-ushbu jarayonlarni ishlab turishini saqlash va ularni monitoring qilish uchun zarur bo'lgan resurslar hamda axborot bilan ta'minlashi;

-ushbu jarayonlarni monitoring qilish, o'lchash (qo'llanilganda) va tahlil qilishni amalga oshirishi;

-ushbu jarayonlarni rejalashtirilgan natijalarga erishishi va doimiy yaxshilanishi uchun zarur bo'lgan harakatlarni amalga oshirishi kerak. Tashkilot mazkur standart talablariga muvofiq ushbu jarayonlar menejmentini amalga oshirishi kerak.

Agar tashkilot mahsulotga qo'yiladigan talablarga muvofiqligiga ta'sir etuvchi qandaydir jarayonni amalga oshirishni chet tashkilotlarga topshirishga qaror qilsa, tashkilot bunday jarayonlarni boshqarilishini o'zi tomonidan ta'minlashi kerak. Boshqarish turi va hajmi sifat menejmenti tizimi doirasida aniqlanishi lozim.

YUqorida ko'rsatilgan sifat menejmenti tizimi uchun zarur jarayonlar menejment, resurslar ajratish, mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini va o'lchash, tahlil qilish hamda yaxshilash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

«Autsorsing jarayoni», ushbu tashkilotning sifat menejmenti tizimi uchun zarur bo'lgan va tashkilotning xohishiga ko'ra chet tashkilot (tashqi tomon) tomonidan bajariladigan jarayonni ifoda etadi.

Autsorsing jarayonlari boshqarilishini ta'minlash tashkilotni iste'molchilarning barcha talablarga, normativ va tartibga soluvchi talablarga muvofiqligini ta'minlash bo'yicha javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Autsorsing jarayonlariga nisbatan qo'llaniladigan boshqaruv turi va darajasiga quyidagi omillar ta'sir etishi mumkin:

- tashkilotning talablarga muvofiq mahsulotni etkazib berishga qodirligiga autsorsing jarayonining mumkin bo'lgan ta'siri;

- jarayonni boshqarish darajasi;

- qo'llash doirasida zarur boshqaruvga erishish qobiliyati.

Hujjatlarga qo'yiladigan talablar. Umumiy qoidalar. Sifat menejmenti tizimining hujjatlari: a) sifat sohasidagi siyosat va maqsadlar haqida hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan bayonotlarni; b) sifat bo'yicha qo'llanmani; c) ushbu standartda talab etiladigan hujjatlashirilgan protseduralar va yozuvlarni; d) tashkilot tomonidan jarayonlarni natijali rejalashtirish, amalga oshirish va ularni boshqarishni ta'minlash uchun zarur deb belgilangan hujjatlar, jumladan yozuvlarni o'z ichiga olishi kerak.

Sifat bo'yicha qo'llanma Tashkilot:

- har qanday istisnolarning tafsilotlari va asosi bilan birga sifat menejmenti tizimining qo'llanish doirasini (1.2 q.);

- sifat menejmenti tizimi uchun ishlab chiqilgan hujjatlashirilgan protseduralar yoki ularga qilingan havolalarni;

- sifat menejmenti tizimi jarayonlarining o'zaro bog'lanishi bayonini o'z ichiga olgan sifat bo'yicha qo'llanmani ishlab chiqishi va ishchi holatda saqlab turishi lozim.

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni ta'minlash (faqat nomi)	7.5		
Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni boshqarish	7.5.1	4.4.6	Operatsiyalarni boshqarish
Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni ta'minlash jarayonlarini validatlash	7.5.2	4.4.6	Operatsiyalarni boshqarish
Identifikatlash va kuzatuvchanlik	7.5.3		
Iste'molchilar mulki	7.5.4		
Mahsulotning saqlanishi	7.5.5	4.4.6	Operatsiyalarni boshqarish
Monitoring va o'lchashlar uchun asbob-uskunalarini boshqarish	7.6	4.5.1	Monitoring va o'lchash
O'lchash, tahlil qilish va yaxshilash (faqat nomi)	8	4.5	Tekshiruvlar o'tkazish
Umumiy qoidalar	8.1	4.5.1	Monitoring va o'lchash
Monitoring va o'lchash (faqat nomi)	8.2		
Iste'molchilarning qoniqqanligi	8.2.1		
1	2	3	4
Ichki audit	8.2.2	4.5.5	Ichki audit
Jarayonlarni monitoring qilish va o'lchash	8.2.3	4.5.1	Monitoring va o'lchash
		4.5.2	Muvofiqlikni baholash
Mahsulotni monitoring qilish va o'lchash	8.2.4	4.5.1 4.5.2	Monitoring va o'lchash Muvofiqlikni baholash
Nomuvofiq mahsulotni boshqarish	8.3	4.4.7 4.5.3	Kutilmagan vaziyatlar, avariyalarga tayyorlik va ularga qarshi harakatlar Nomuvofiqlik, tuzatish va oldini olish harakatlari
Ma'lumotlarni tahlil qilish	8.4	4.5.1	Monitoring va o'lchash
YAXshilash (faqat nomi)	8.5		
Mahsulotni ishlab chiqarish (faqat nomi)	7	4.4	Joriy qilish va ishlashi
Mahsulotni ishlab chiqarishni rejalashtirish	7.1	4.4.6	Operatsiyalarni boshqarish
Iste'molchi bilan bog'liq jarayonlar (faqat nomi)	7.2		
Mahsulotga tegishli talablarni aniqlash	7.2.1	4.3.1 4.3.2 4.4.6	Ekologik aspektlar Qonuniy va boshqa talablar Operatsiyalarni boshqarish
Mahsulotga tegishli talablarni tahlil qilish	7.2.2	4.4.6 4.3.1	Operatsiyalarni boshqarish Ekologik aspektlar
Iste'molchi bilan aloqa	7.2.3	4.4.3	Aloqa
Loyihalashtirish va ishlab chiqish (faqat nomi)	7.3		

Loyihalashtirish va ishlab chiqishni rejalashtirish	7.3.1	4.4.6	Operatsiyalarni boshqarish
Loyihalashtirish va ishlab chiqish uchun kirish ma'lumotlari	7.3.2	4.4.6	Operatsiyalarni boshqarish
Loyihalashtirish va ishlab chiqish uchun chiqish ma'lumotlari	7.3.3	4.4.6	Operatsiyalarni boshqarish
Loyihalashtirish va ishlab chiqishni tahlil qilish	7.3.4	4.4.6	Operatsiyalarni boshqarish
A.1 jadvalning davomi			
Loyihalashtirish va ishlab chiqishni verifikatlash	7.3.5	4.4.6	Operatsiyalarni boshqarish
Loyihalashtirish va ishlab chiqishni validatlash	7.3.6	4.4.6	Operatsiyalarni boshqarish
Loyihalashtirish va ishlab chiqish o'zgarishlarini boshqarish	7.3.7	4.4.6	Operatsiyalarni boshqarish
Sotib olish (faqat nomi)	7.4		
Sotib olish jarayoni	7.4.1	4.4.6	Operatsiyalarni boshqarish
Sotib olish bo'yicha axborot	7.4.2	4.4.6	Operatsiyalarni boshqarish
Sotib olingan mahsulotni verifikatlash	7.4.3	4.4.6	Operatsiyalarni boshqarish

Hujjatlarni boshqarish Sifat menejmenti tizimi tomonidan talab qilinayotgan hujjatlar boshqarilishi lozim. YOZuvlar hujjatlarning maxsus turi bo'lib, bandeda keltirilgan talablarga muvofiq boshqarilishi kerak. Zarur boshqaruv vositalarini aniqlash uchun:

- hujjatlarni chiqarishdan oldin ularni bir xilligi bo'yicha tasdiqlashni;
- hujjatlarni tahlil qilish va zaruratga qarab aktuallashtirish hamda ularni qayta tasdiqlashni;
- hujjatlar o'zgartishlarining hamda ularni qayta ko'rib chiqish amaldagi statusining identifikatlashtirilishini ta'minlashni;
- foydalanilayotgan hujjatlarning tegishli talqinlari qo'llaniladigan joylarida bo'lishini (foydalanish mumkinligini) ta'minlashni;
- aniq va oson identifikatlanadigan hujjatlarning saqlanishini ta'minlashni;
- tashkilotdan tashqarida ishlab chiqilgan hamda tashkilot tomonidan sifat menejmenti tizimini rejalashtirilishi va ishlashi uchun zarur deb belgilangan hujjatlarni identifikatlashtirilishini hamda ularni tarqatilishini boshqarishni ta'minlashni;
- eskirgan hujjatlardan bexosdan foydalanishni oldini olish va qandaydir maqsadlar uchun saqlab qo'yilgan hujjatlarni tegishli ravishda identifikatlashtirishni nazarda tutadigan hujjatlashtirilgan protsedura ishlab chiqilishi lozim.

YOzuvlarni boshqarish. Talablarga muvofiqlik guvohnomalarini berish uchun va sifat menejmenti tizimini natijali ishlashi uchun belgilangan yozuvlar boshqarilishi kerak. Tashkilot yozuvlarni identifikatlash, saqlash, himoya qilish, ulardan foydalanishni ta'minlash, saqlash va muomaladan chiqarishni talab etiladigan boshqaruv vositalarini aniqlash uchun hujjatlashtirilgan protsedurani ishlab chiqishi lozim. YOzuvlar aniq, oson identifikatlanadigan va tushunarli bo'lishi kerak.

Takrorlash uchun savollar:

1. Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish idoralari O'zDSt ISO|IEC 17021 standart talablari.
2. Sifat menejment tizimlari sertifikatlashtirish idoralari va ularni tashkillashtirish
3. Boshqaruvning maqsadi nima?
4. Boshqaruv sub`ekti nima?
5. Boshqarishning qanday usul va vositalarini bilasiz?
6. Boshqaruv munosabatlarini tushuntiring.

20§. Sifat menejmenti tizimiga talablar.

20.1. Sifat menejmenti tizimi. Umumiy talablar. ISO standartlarining paydo bo'lishi sifatni ta'minlashda korxonalar imkoniyati to'g'risida, ta'minotchilar ishonchiligi to'g'risida etarli va ishonchlik bilan xulosalar qilish mumkinligini, sifat tizimi qanday mezonlarga javob berishi kerakligi savollariga, sifat tizimi orqali javob berildi.

ISO 9000 turkumli standartlar va boshqa xalqaro standartlar kabi, tavsiyanoma bo'lib hisoblanadi. Negaki, ularni o'zining shartlariga «yaqinlashtirish», ko'plab mamlakatlarda uni milliy sifatida qabul qilingan. Ular O'zbekistonda ham, masalan, O'z DSt ISO 9000, O'z DSt ISO 9001, O'z DSt ISO 9004 va O'z DSt ISO 19011 amaldagi davlat standartlari tizimida sertifikatlashtirish uchun yuritiladi.

Nega endi ularni joriy qilish kerak? Ular bozor sharoitlarida nimani beradi? degan savollarga to'xtalib o'tamiz.

Zamonaviy bozor, ya'ni, tovarlarni erkin aylanishi xususiyati, jahon bozori nomini oldi. U quyidagi tavsiflarga ega bo'ladi:

Mazmunli tovarlar: bozorda sezilarli darajada talab va taklaiflarni o'sishi.

Itse`molchilarni xabardorligi: iste`molchi haq, odatda, u nimani hohlashini biladi.

O`zgaruvchanlik: ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni o`zgarishi, yuqori texnologiyalarni jadal rivojlanishi, bir vaqtda bozorda ishlovchi raqobatchilarning miqdorini ko`pligi – bir xildagi tovarlarni ishlab chiqaruvchilarni taklif va talablarni doimiy o`zgartiradilar.

Tovarni tanlashda, hal qiluvchi rolni o`ynovchi, raqobatbardoshlikning oltita asosiy mezonini deb aytish mumkin.

Sifat. Iste`molchi, shak-shubhasiz bir xil sharoitda tovarning ishonchliligi, xavfsizligi, ko`proq afzal jozibadorligiga ahamiyat beradi.

Narx. Tovar narxi, uning sinfiga bog`liq bo`lib va aniqlangan to`lovchanlik darajasiga mo`ljallangan.

Etkazish muddati. Ko`p holatlarda bu omil narxlashdan ham ko`proq ahamiyatga ega.

Ekspluatatsiya qiymati: tovarning ustunlikka egaligi, ya`ni iste`molchiga ekspluatatsiya qilish arzon tushadi.

Xizmat ko`rsatish qulayligi. Bu erda texnik xizmat ko`rsatish va mahsulotni ta`mirlash, hamda uni mumkin bo`lgan tarmoq punktlari mavjudligi jiddiy o`rin tutadi.

Ishonish. Ishonish tayyorlovchining obru-e`tiborini, davomiylik natijasida shakllanishi va bozor ishlaridan hech kamchilik topib bo`lmaslik deb ta`riflanadi.

Ishonchni qozonish usullaridan biri mahsulotni sertifikatlashtirish yoki tayyorlovchini nufuzli idoralar tomonidan sifat tizimini sertifikatlashidir.

Keltirilgan raqobatbardoshlik mezonlarining birinchi uchasi (sifat, narx, etkazish muddati) odatda, muhim bo`lib hisoblanadi. Bunda mahsulot sifati eng yuqori muhim ahamiyatga ega bo`ladi. Sifatga berilgan ustunlik strategiyasi, bu jahon bozorida korxonalar taklifi turg`unligi davomiyligini ta`minlaydi. Agarda ustunliklar o`zgarsa, masalan, sifatga ziyon etkazilib tannarxni tushib ketishi hisobida yuqori foyda olinsa, u holda bir qancha vaqt samara berishi mumkin, lekin, oxirida korxonani bozordan chiqib ketishiga to`g`ri keladi. Bunday strategiya «korxonalar-parvonalar» uchun tavsiflangan va qo`yiladigan masala – qisqa vaqt bozorda bo`linib maksimum foyda olishdir.

Bunday shaklda, jahon bozori sharoitlarida O`zbekiston iqtisodiyotining integrallashishida, korxonalar uchun, uning takliflari barqarorlikka intilishi, sifat, narx, etkazish muddatlariga rioya qilish va boshqa mezonlar bo`yicha masalalarda raqobatchilar oldida, imkoniyatni ta`minlovchi menejment zarurdir. Bunda o`zgarib turuvchanlikni bozor talab qiladi, negaki, menejment tizimi

moslashuvchanligi va bu o'zgaruvchanliklarga xususiy moslashuvchanligi mavjuddir.

Demak, jahon bozoriga ISO 9000 turkumli standartlariga muvofiq, bugungi kun darajasida sifat tizimini minimal tenglashtirish lozim.

Agarda, korxonalar sifat tizimi tavsiflari bozor talablariga to'g'ri kelmasa ham, ular ishlaydi, lekin bunday korxonalar uzoq yashashmaydi yoki mashaqqatlikda kun kechirishadi.

Agarda bugun korxonalar taraqqiy topsa, lekin, o'zgarishni sezmasa, bozorga chiqishi va o'zining sifat tizimini to'g'riligini yangilamasa, bunday korxonalar jiddiy muammolarni kutishi mumkin, negaki, raqobatchilar g'aflda qolmagan va ular ko'pchilikni tashkil etadi.

Bozorda muayyan mahsulotni aniqlab va uni ishlab chiqarishni o'zlashtirsa, hamda kerakli o'rnini topsa muvaffaqiyat qozonadi. Bunda korxonalar eksportga mo'ljallangan xususiyatiga kafolatga erishish uchun, ayni vaqtda texnologik nazorat jarayonlari va mukammal ma'muriy boshqaruvini o'ziga etishmasligini aytib o'tish lozim. Mahsulotlarga texnik shartlarning mavjudligi garchan, uning sifatiga, bir qancha texnologiya va o'zgarib turuvchanligiga doir shartlar hamda brakka chiqarishga, noishlab chiqarish xarajatlarida etkazib berish muddatining bekor bo'lishiga sabablarni qisman paydo bo'lishini yaxshi tavsiflari bo'lib hisoblanmaydi.

Bozorda barqarorlik davomiyligiga va peshqadamlikka intilish uchun quyidagi zarur:

- korxonalar ishlayaptimi, bozor talablari va tavsiflarini o'rganish, tahlil qilib borish va undan kelib chiqadigan farazlarni o'rganish;
- ushbu bozorda raqobatbardoshlik mezonlarini shakllantirish;
- yuzaga kelayotgan turli xil ish holatlari uchun ilg'or mezonlarni aniqlash;
- sifat tizimini qo'llash va uni takomillashtirish.

ISO 9000 xalqaro standarti xalqaro amaliyotda tekshirilgan iste'molchilarni kutishi va talablarini qondirish maqsadi bilan biznes-jarayonlarni boshqarishga tizimli yondashuv boshqaruv modelini tavsiya etadi. ISO 9001 standarti bo'yicha sertifikatlashtirishning muhim omillaridan biri xalqaro standartlarga muvofiq sifat menejmenti tizimi tasdiqlovchi akkreditlangan sertifikatlashtirish idorasi bo'lsa, unda kompaniya sifat menejmenti sohasidagi o'zining harakatlarini xalqaro va milliy darajalarda tan olishini qo'lga kiritish bo'lib hisoblanadi.

ISO 9000 turkumli standartlarni faoliyat turi, katta-kichikligi va qonuniy shakllariga bog'liq bo'lmagan ixtiyoriy tashkilotlarga qo'llash mumkin va universal bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunda ISO 9001:2008 butun dunyo bo'yicha va shu jumladan, O'zbekistonda ham sifat menejmentini sertifikatlashtirish

standarti ko‘proq ommalashgan bo‘lib hisoblanadi. ISO 9001:2008 standartini joriy qilish tashkilotlarga muayyan imkoniyalarni beradi va uni quyidagi shaklda sinflash mumkin:

1) TASHKILIY:

-muntazamli boshqarish;

-javobgarlik va vakolatlarni aniq taqsimlash;

-jarayonlar va ishlarni ko‘zda tutilgandek o‘zaro faoliyati;

-strategik boshqarish uchun yuqori rahbariyatni tayinlash.

Ishlab chiqarish xodimlarining ishlarini texnologik jarayonlar va qurilmalarni turg‘un ishlashini, ularni malakasi va layoqatini hisobga olib ishlash xavfsizligini oshirish.

2) IQTISODIY:

-mehnat samaradorligini oshirish, reserslardan foydalanishini optimallashtirish;

-«yashirin ishlab chiqarish»ni qisqartirish – nomuvofiqlikni bartaraf qilishga xarajatlar;

-ishlab chiqarishda yaroqsiz qurilmalar, asbob-uskunalar va o‘lchash vositalaridan qo‘llanilishidan iqtisodiy zararlarni qisqartirish;

-turli xil nomuvofiqliklar bilan bog‘liq kompaniya qarz to‘lovlari, jarimalar va iste‘molchilar tomonidan shikoyatlarni qisqartirish;

-sotuv bozorini kengaytirish.

3) OBRO‘ - e‘TIBORLILIGI:

-barcha qiziquvchi tomonlarning ko‘z o‘ngida obro‘sining yaxshilanishi;

-iste‘molchilariga sodiqligini qo‘lga kiritish;

-xodimlar odob-axloqini oshirish, psixologik muhitni yaxshilash;

-ta‘minotchilar bilan munosabatni yaxshilash;

-sifat bo‘yicha tanlovlarda qatnashish vaziyatlarini kuchayishi, sifat menejmenti sohasida kompaniya ishlarini milliy va halqaro darajada tan olinishi.

4) STRATEGIK:

-kompaniya intellektual salohiyatida xodimlar mahorati va bilimining izchilligi;

-kompaniya mablag‘ini oshishi va nomaterial aktivlarini o‘sishi;

-biznesni ko‘paytirish imkoniyati;

-biznes-jarayonlarni re-injiningga tayyorlanganligi.

Bir qancha sifat tizimini sertifikatlashtirishda qatnashgan ekspertlar tahlillari asosida, ISO 9000 seriyasi bo‘yicha sifat tizimini joriy qilgan, korxonalar ishlash samaradorligi, joriy qilmaganlarga qaraganda 2-3 marta yuqori deb xulosa qilishgan. Xitoy mutaxassislari statistik guruhlash usuli asosidagi tadqiqot

natijalari shuni ko'rsatganki, shubhasiz tizimni joriy qilgan korxonalar ushbu ishni boshlamagan bir turdagi korxonalar bilan solishtirilganda, eng yuqori samaradorlik faoliyatiga erishishgan.

Nazorat, tahlil va ishlab chiqarish jarayonlarini asosiy nuqtalarini davriy kuzatish va boshqarish jarayonlari, jumladan, xalqaro standart talablariga muvofiq sifat menejmenti tizimi korxonada faoliyatini uzluksiz takomillashtirish va yaxshi boshqaruvchanligini hujjatlashtirish hisobiga ta'minlanadi. Bunda ISO 9001:2008 standart bo'yicha sifat menejmenti tizimi sertifikatini olishning yutug'i va boshqa maqsadlari – korxonada qiymatini oshirishda (investitsiyalar kiritish, mablag'lashtirish, kelgusidagi sotish va boshqalar) asosiy vosita bo'lishi mumkin. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlar talablariga muvofiq tashkil qilingan sifat menejmenti tizimi korxonada qiymatini, amalda 5-10% gacha oshirishi mumkin.

Ayni vaqtda shuni anglash kerakki, barcha ta'kidlangan imkoniyatlarga birdaniga erishilmaydi, etarli bir qancha vaqtda, balki bir necha yildan so'ng, qachonki, tashkilot o'zining ishlarini tashkillashtirishni haqiqatdan ham o'zlashtirgandagina erishiladi. Lekin birinchi vaqtda joriy qililgandan so'ng quyidagi ijobiy o'zgarishlar, ya'ni qator korxonalardan so'rovlarda aniqlangan:

- firma obro'sini oshishi;
- bo'linmalararo o'zaro faoliyatni yaxshilanishi;
- reklama uchun tizimga sertifikat qo'llanilishi;
- mijozlar aloqasini kengayishi;
- mahsulot raqobatbardoshligini oshishi;
- nuqsonlar miqdorini kamaytirish;
- ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;
- eksport imkoniyatini ta'minlash;
- xodimlarni samarali tanlash.

Sifat menejmenti tizimining eng asosiy ahamiyatli omillaridan biri uni aniqlangan sertifikatlashtirish sxemalari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishni tasdiqlash uchun qo'llash bo'lib hisoblanadi.

Xavfsizlikga talab va sifatga ixtiyoriy bo'lmagan emas, balki, ishlab chiqarishni yuqori tashkillashtirish bilan erishish. Tashkilotda foydalanilayotgan sifatni boshqarish jarayonlari tizimi mavjudligi, tashkilot tashqi va ichki bozorlarda raqobatbardoshli bo'lishi va noishlab chiqarish yo'qotishlarni bartaraf qilishda foydalaniladi. Bu bozor sharoitida tashkilotda keragidan ham ko'p ishchilar ishlashi va qachonki foyda ishlar, xizmatlar va mahsulotlarni talab qilingan xavfsiz va sifatli bo'lishini ta'minlash o'rnini bilan tashkilotni boshqaruvchi rahbariyat qarashlariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi.

Bundan tashqari, biror bir tashkilot O'z DSt ISO 9001 talablariga muvofiq menejment tizimi tasdiqlanmasdan, xalqaro tenderlarda qatnashishga qabul qilinishi mumkin emas. Buyurtmachi tashkilotdan xavfsizlik bo'yicha maxsus talablar va umumiy, hamda shartnomada ko'rsatilgan, sifat bo'yicha buyurtmachining qo'shimcha talablari bajarilishi barqarorligini ta'minlash kafolatini talab qiladi. O'zbekiston Butun jahon savdo tashkiloti (BJST) (Vsemirniy targoviy organizatsii - VTO)ga kirishi xorijiy hamkorlar uchun bizning bozorni kengroq ochish, xalqaro qoidalarni qabul qilish zaruriyatini hosil qiladi. Haqqoniy va samarasiz amaldagi tizimlariga tizim sertifikatining mavjudligi tashkilotni qutqarmaydi, u noishlab chiqarish yo'qotishlari singari kirib keladi. Mahsulot sifatining barqarorligini ta'minlash imkoniyati bo'lmasa, u ziyon etkazishga olib keladi.

Tashkilot rahbarlari, xorijiy kompaniyalar bilan bir darajada muvaffaqiyatli ishlashni hohlashsa, tashkilotda amalga oshirilayotgan, barcha jarayonlar sifatini boshqarishni o'zlashtirishi lozim. Agar jaayonlarni bajarish qoidalari va tashkiliy tartiblari rasmiy tavsiflanmagan (yozilmagan) va jarayonni amalga oshirishda sifat uchun javobgar shaxs yo'q bo'lsa boshqarish bo'lishi mumkin emas. YUqori rahbariyat boshqarish yoki ushbu jarayonlar doirasida kerakli qarorlarni qabul qiluvchi javobgar shaxsga vakolatlar berishi lozim. Faqat bunday boshqarish tizimi O'zbekistonni xalqaro iqtisodiyotga kirish istiqbolini amalga oshirishda samarali bo'lib hisoblanadi.

Tashkilot muvofiqlikni deklaratsiyalash uchun hujjatlarni shakllantirish vaqtida, mahsulot ishlab chiqarishga majburiy talablarni bajarilishini barqarorligini ta'minlash kafolatini, tashkilotda menejment tizimi mavjudligini tasdiqlovchi, isbotlovchi texnikaviy hujjatlari sifatida keltirishni so'rash huquqiga ega.

Tashkilot sifat menejmenti tizimini ishlab chiqishi, hujjatlashtirishi, joriy qilishi va ishchi holatda saqlab turishi, ushbu standart talablariga muvofiq holda uning natijaliligini doimo yaxshilashi kerak. Tashkilot:

- sifat menejmenti tizimi uchun zarur bo'lgan jarayonlarni aniqlashi va ularni butun tashkilotda qo'llashi;

- ushbu jarayonlarning ketma-ketligi va o'zaro bog'lanishini aniqlashi;

- ushbu jarayonlarni ham amalga oshirishda, ham boshqarishda natijaliligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan mezonlar va usullarni aniqlashi;

- ushbu jarayonlarni monitoring qilish, o'lchash (qo'llanilganda) va tahlil qilishni amalga oshirishi;

- ushbu jarayonlarni rejalashtirilgan natijalarga erishishi va doimiy yaxshilanishi uchun zarur bo'lgan harakatlarni amalga oshirishi kerak.

Tashkilot mazkur standart talablariga muvofiq ushbu jarayonlar

menejmentini amalga oshirishi kerak. Agar tashkilot mahsulotga qo'yiladigan talablarga muvofiqligiga ta'sir etuvchi qandaydir jarayonni amalga oshirishni chet tashkilotlarga topshirishga qaror qilsa, tashkilot bunday jarayonlarni boshqarilishini o'zi tomonidan ta'minlashi kerak. Boshqarish turi va hajmi sifat menejmenti tizimi doirasida aniqlanishi lozim.

Autsorsing jarayonlariga nisbatan qo'llaniladigan boshqaruv turi va darajasiga quyidagi omillar ta'sir etishi mumkin:

-tashkilotning talablarga muvofiq mahsulotni etkazib berishga qodirligiga autsorsing jarayonining mumkin bo'lgan ta'siri;

-jarayonni boshqarish darajasi;

-qo'llash doirasida zarur boshqaruvga erishish qobiliyati.

Hujjatlarga qo'yiladigan talablar. Umumiy qoidalar. Sifat menejmenti tizimining hujjatlari:

-sifat sohasidagi siyosat va maqsadlar haqida hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan bayonotlarni;

-sifat bo'yicha qo'llanmani;

-ushbu standartda talab etiladigan hujjatlashtirilgan protseduralar va yozuvlarni;

-tashkilot tomonidan jarayonlarni natijali rejalashtirish, amalga oshirish va ularni boshqarishni ta'minlash uchun zarur deb belgilangan hujjatlar, jumladan yozuvlarni o'z ichiga olishi kerak.

Sifat bo'yicha qo'llanma Tashkilot:

-har qanday istisnolarning tafsilotlari va asosi bilan birga sifat menejmenti tizimining qo'llanish doirasini (1.2 q.);

-sifat menejmenti tizimi uchun ishlab chiqilgan hujjatlashtirilgan protseduralar yoki ularga qilingan havolalarni;

-sifat menejmenti tizimi jarayonlarining o'zaro bog'lanishi bayonini o'z ichiga olgan sifat bo'yicha qo'llanmani ishlab chiqishi va ishchi holatda saqlab turishi lozim.

-ushbu jarayonlarni ishlab turishini saqlash va ularni monitoring qilish uchun zarur bo'lgan resurslar hamda axborot bilan ta'minlashi;

Hujjatlarni boshqarish. Sifat menejmenti tizimi tomonidan talab qilinayotgan hujjatlar boshqarilishi lozim. YOzuvlar hujjatlarning maxsus turi bo'lib, bandeda keltirilgan talablarga muvofiq boshqarilishi kerak. Zarur boshqaruv vositalarini aniqlash uchun:

-hujjatlarni chiqarishdan oldin ularni bir xilligi bo'yicha tasdiqlashni;

-hujjatlarni tahlil qilish va zaruratga qarab aktuallashtirish hamda ularni qayta tasdiqlashni;

-hujjatlar o'zgartishlarining hamda ularni qayta ko'rib chiqish amaldagi statusining identifikatlashtirilishini ta'minlashni;

-foydalanilayotgan hujjatlarning tegishli talqinlari qo'llaniladigan joylarida bo'lishini (foydalanish mumkinligini) ta'minlashni;

-aniq va oson identifikatlanadigan hujjatlarning saqlanishini ta'minlashni;

-tashkilotdan tashqarida ishlab chiqilgan hamda tashkilot tomonidan sifat menejmenti tizimini rejalashtirilishi va ishlashi uchun zarur deb belgilangan hujjatlarni identifikatlashtirilishini hamda ularni tarqatilishini boshqarishni ta'minlashni;

-eskirgan hujjatlardan bexosdan foydalanishni oldini olish va qandaydir maqsadlar uchun saqlab qo'yilgan hujjatlarni tegishli ravishda identifikatlashtirishni nazarda tutadigan hujjatlashtirilgan protsedura ishlab chiqilishi lozim.

YOzuvlarni boshqarish. Talablarga muvofiqlik guvohnomalarini berish uchun va sifat menejmenti tizimini natijali ishlashi uchun belgilangan yozuvlar boshqarilishi kerak. Tashkilot yozuvlarni identifikatlash, saqlash, himoya qilish, ulardan foydalanishni ta'minlash, saqlash va muomaladan chiqarishni talab etiladigan boshqaruv vositalarini aniqlash uchun hujjatlashtirilgan protsedurani ishlab chiqishi lozim. YOzuvlar aniq, oson identifikatlanadigan va tushunarli bo'lishi kerak.

Rahbariyatning javobgarligi. Rahbariyatning majburiyatlari. YUqori rahbariyat sifat menejmenti tizimini ishlab chiqish va joriy etish, shuningdek uning natijaliligini doimiy yaxshilash bo'yicha tarafdorligi isbotini quyidagilar vositasida taqdim etishi kerak:

-iste'molchilarning talablarini, shuningdek normativ va tartibga soluvchi talablarni bajarilishini muhimligi haqida tashkilotni xabardor qilish;

-sifat sohasidagi siyosatni aniqlash;

-sifat sohasidagi maqsadlar belgilanganini ta'minlash;

-rahbariyat tomonidan tahlillar o'tkazish;

-resurslar bo'lishini ta'minlash.

Iste'molchi talablariga moslashish YUqori rahbariyat iste'molchilarning qoniqqanligini oshirish uchun ularning talablari aniqlanishi va bajarilishini ta'minlashi kerak. Sifat sohasidagi siyosat. YUqori rahbariyat sifat sohasidagi siyosatni:

-tashkilot maqsadlariga muvofiq bo'lishi;

-talablarga muvofiq bo'lishi va sifat menejmenti tizimining natijaliligini doimo oshirish bo'yicha tarafdorligini o'z ichiga olishi;

-sifat sohasidagi maqsadlarni qo'yish va tahlil qilish uchun asos yaratishi;

-tashkilot xodimlari xabardor qilingan bo'lishi va ularga tushunarli bo'lishi; e) doimiy yaroqliligi bo'yicha tahlil qilinishini ta'minlashi kerak.

Rejalashtirish. Sifat sohasidagi maqsadlar. YUqori rahbariyat sifat sohasidagi maqsadlar, jumladan mahsulotga qo'yiladigan talablarni bajarish uchun zarur bo'lgan maqsadlar ham tashkilotning tegishli vazifalari uchun va tegishli darajalarida qo'yilishini ta'minlashi kerak. Sifat sohasidagi maqsadlar o'lchanadigan va sifat sohasidagi siyosat bilan muvofiqlashtiriladigan bo'lishi lozim.

20.2. Sifat menejmenti tizimini rejalashtirish YUqori rahbariyat: Sifat menejmenti tizimini rejalashtirish talablarini, shuningdek sifat sohasidagi maqsadlarni bajarish uchun amalga oshirilishini, hamda sifat menejmenti tizimi rejalashtirilsa va unga o'zgartishlar kiritilsa, sifat menejmenti tizimi yaxlitligi saqlanishini ta'minlashi kerak.

Javobgarlik, vakolatlar va axborot almashish. Javobgarlik va vakolatlar YUqori rahbariyat, javobgarlik va vakolatlar aniqlangan bo'lishi hamda tashkilot doirasida ma'lum qilinishini ta'minlashi kerak. Rahbariyat vakili YUqori rahbariyat tashkilot rahbariyati a'zosini tayinlashi kerak, bu a'zo unga yuklatilgan boshqa vazifalardan tashqari:

-sifat menejmenti tizimi tomonidan talab qilinadigan jarayonlarni ishlab chiqish, joriy qilish va ishchi holatda saqlab turilishini ta'minlash;

-yuqori rahbariyatga sifat menejmenti tizimining ishlashi haqida va uni takomillashtirishda har qanday ehtiyojlar haqida hisobotlarni taqdim etish;

-iste'molchining talablari to'g'risida tashkilotning xabardorligini ta'minlashni o'z ichiga oluvchi mas'uliyat va vakolatlarga ega bo'lishi kerak. Ichki axborot almashinuvi YUqori rahbariyat tashkilotda axborot almashinuvining tegishli jarayonlarini o'rnatishi va ushbu axborot almashinuvi sifat menejmenti tizimining natijaliligiga taalluqli masalalar bo'yicha amalga oshirilishini ta'minlashi kerak.

Rahbariyat tomonidan tahlil qilish Umumiy qoidalar YUqori rahbariyat rejalashtirilgan oraliq orqali tashkilotning sifat menejmenti tizimini, uning doimiy yaroqliligi, birxilliligi va natijaliligini ta'minlash maqsadida tahlil qilishi kerak. Ushbu tahlil sifat menejmenti tizimini yaxshilash uchun imkoniyatlar va unga o'zgartirishlar zarurligi, jumladan sifat sohasidagi siyosat hamda sifat sohasidagi maqsadlarni baholashni o'z ichiga olishi lozim. Rahbariyat tomonidan tahlil qilish to'g'risidagi yozuvlar ishchi holatda saqlab turilishi kerak (4.2.4 q.). Tahlil qilish uchun kirish ma'lumotlari Rahbariyat tomonidan tahlil qilish uchun kirish ma'lumotlari quyidagilarga taalluqli axborotni o'z ichiga olishi kerak: a) auditlar natijalari; b) iste'molchilar bilan aks aloqa; c) jarayonlarning ishlashi va

mahsulotning muvofiqligi; d) oldini olish va tuzatish harakatlarining maqomi; e) rahbariyat tomonidan qilingan oldingi tahlillardan kelib chiqadigan keyingi harakatlar; f) sifat menejmenti tizimiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan o'zgartirishlar; g) yaxshilash bo'yicha tavsiyalar.

Tahlil qilishning chiqish ma'lumotlari. Rahbariyat tomonidan tahlil qilishning chiqish ma'lumotlari quyidagilarga tegishli barcha qaror va harakatlarni o'z ichiga olishi kerak: a) sifat menejmenti tizimi va uning jarayonlari natijaliligini oshirish; b) iste'molchilar talablariga muvofiq mahsulotni yaxshilash; s) resurslarga bo'lgan ehtiyoj.

Resurslar menejmenti Resurslar bilan ta'minlash Tashkilot quyidagilar uchun zarur bo'lgan resurslarni aniqlashi va ta'minlashi kerak:

-sifat menejmenti tizimini joriy qilish va ishchi holatda saqlab turish, shuningdek uning natijaliligini doimo oshirishi;

-iste'molchilarning talablarini bajarish yo'li bilan ularning qoniqqanligini oshirish.

Takrorlash uchun savollari

1. Sifatni boshqarish funktsiyalarini nimalardan iborat?
2. Boshqaruvning maxsus turlarini tushuntiring.
3. Sifat menejmentining funksional tuilmasini tushuntiring.
4. Tizimli sifatni boshqarishning xususiyatlarini aytib bering.
5. Sifat menejmenti tizimining maqsad va vazifalarini tushuntiring.
6. ISO 9000 seriyali standartlar nima sababdan ommaviylashib ketgan?

21§. Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish.

21.1. ISO 9001 standarti talablari asosida sifat menejmenti tizimi va tamoyillari. Umumiy qoidalar. Sifat menejmenti tizimi tamoyillari va ularning tavsiflari hamda ISO 9001 standarti talablari bilan bog'liqligi to'g'risida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Hurmatli kitobxon, yodingizda bo'lsa, biz kitobning 2.5 bandida sifat menejmenti tizimi kontseptsiyasi va umumiy qoidalari to'g'risida ma'lumot bergan edik. Endi sizga taqdim etalayotgan ma'lumotlar o'sha bandedagi ma'lumotlarni to'ldirib keladi va ularni batafsil ko'rib chiqamiz.

Sifat menejmenti tizimining "Iste'molchiga mo'ljallab ish qilish" tamoyili.

Iste'molchiga mo'ljallab ish qilish.

Tashkilotlar o'zining iste'molchilariga tobe bo'ladi va shuning uchun ularning joriy va kelgusidagi ehtiyojlarini tushunishi, ularning talablarini bajarishi va kutganidan ham ortiq yaxshi natijaga erishish lozim.

O'zDst ISO 9000:2009

Tashkilot o'zining iste'molchilariga tobe bo'ladi va shuning uchun ularning joriy va kelgusidagi ehtiyojlarini tushunishi va ularning talablarini bajarishi va kutganlariga erishishini ta'minashi lozim. Buning uchun tashkilotning yuqori rahbariyati tashkilotda quyidagilar yordamida iste'molchilarga mo'ljallangan muhitni yaratishi lozim:

A) menejmentga (boshqaruvga) duchor qilingan va natijaviyligi va samaradorligi nuqtai-nazardan yaxshilashni tushunish mumkin bo'lgan tizimi va jarayonlarni aniqlashi;

B) jarayonlarni boshqarish va bajarilishining natijaviyligi va samaradorligini, hamda tashkilotning faoliyatidan qanoatlanganligini aniqlash uchun ma'lumot va ko'rsatkichlarni ta'minlashi.

Iste'molchilarga ularni ehtiyojini va istagini qondirishi xususiyatlari mavjud bo'lgan mahsulot kerak. Bu ehtiyoj va istaklar odatda iste'molchilar talablari bo'lib hisoblanadi va mahsulotning texnikaviy shartlarida namoyon bo'ladi. Talablarni tashkilotning o'zi yoki iste'molchilarning kontraktlarida o'rnatilgan bo'lishi mumkin. Ixtiyoriy holda ham mahsulot maqbulligini yakuniy natijada iste'molchi o'rnatadi.

Madomiki, iste'molchilarning ehtiyoji va istaklari o'zgarar ekan, tashkilot mahsulot sifatini va uning raqobatbardoshligini yanada yaxshilashga erishish maqsadida o'z faoliyatini doimiy takomillashtirishi, texnikaning rivojlanishi va raqobatchilikga bog'liq tazyiqlarni sinashi lozim. "Iste'molchiga mo'ljallanganlik" tamoyilini qo'llanilishi – bu (kontrakt) shartnomalarda qayd etilgan iste'molchi talablarini oddiygina rasmiy qanoatlantirish emas, balki, iste'molchilarning kelgusidagi hohishlari va aytmagan hohishlarini o'ylab topish va ularni bajarishga intilishdir.

"Iste'molchilarga mo'ljallanganlik" tamoyili ISO 9000 seriyali standartlarida kelguda rivojlantirish tariqasida ifodalangan. Uzoq muddatli rejalashirilgan biznes va uni tashkillashtirishni muvaffaqiyatlilikni ta'minlash maqsadda oltita qiziquvchi tashkilotlar: iste'molchilar, hissadorlar – biznes egalar, tashkilot ishchilari, ta'minotchilar, investorlar, davlat va jamiyat faoliyati natijalarida tavsiya etiladi.

Sifat menejmenti tizimning "Iste'molchilarga mo'ljallanganlik" tamoyilini ISO 10014:2006 "Sifatni boshqarish – moliyaviy va iqtisodiy foydalar olish bo'yicha ko'rsatma" xalqaro standartiga muvofiq qo'llash bo'yicha sxemasi keltirilgan.

1-Tamoyilning qisqacha mazmuni. Ixtiyoriy korxonaning farovonligi ishlab chiqarayotgan mahsulotni ishlatilish hajmiga, ya'ni iste'molchilar o'ylagan (kutgan) va bu mahsulotga ehtiyojlarni muvofiqligiga bog'liq bo'ladi.

Iste'molchilar istagi (umidi) nafaqat mahsulot sifati bilan va balki, narxi, etkazib berish sharoiti va tartiblari, mahsulotni foydalanishda xizmat ko'rsatish sharoitlari va h.k.lar bilan bog'liq bo'ladi. Barcha qiziquvchi tomonlarning ehtiyojlari va iste'molchilarning so'rovlariga tenglashtirilgan yondashishni ta'minlash zarur.

Tashkilotning barcha xodimlari iste'molchilar fikrini va ehtiyojini tushinishi hamda bilishi lozim.

Iste'molchilarning qoniqqanligi quyidagi aniqlangan shaklda baholanadi va o'lchanadi, balki, zaruriy holatlarda tuzatish harakatlarini tanlash mexanizmi sifat tizimida tarkib topishi lozim.

Iste'molchining talablariga va majburiy talablarga mos keluvchi talablariga javob beradigan mahsulotni barqaror ishlab chiqarishda y'zining qobiliyatini namoyish qilgan;

Tizimdan samarali foydalanish, uni doimiy yaxshilab turish hamda iste'molchini talablariga va majburiy talablarga muvofiqligini ta'minlash orqali iste'molchining qanoatlanti-rishni hisobga olib ish tutgan hollarda sifat menedjmenti tizimiga q'yiladigan talablarni belgilaydi.

Me'yoriy xujjatlarga havolalar: Mazkur standartda quyidagi standartlarga qilingan havolalardan foydalanilgan: O'z DSt ISO 9000:2002 Sifat menedjmenti tizimlari. Asosiy qoidalar va lug'at (IDT)

O'z DSt ISO 9001:1999 Sifat tizimlari. Loyihalashda, ishlab chiqishda, ishlab chiqarishda, montaj qilishda va xizmat k'rsatishda sifatni ta'minlash modeli (IDT)

O'z DSt ISO 9004:2002 Sifat menedjmenti tizimlari. Faoliyatni yaxshilash buyicha tavsiyalar (IDT)

Atamalar va ga'riflar. Mazkur standartda O'z DSt ISO 9000 y'z ichiga olgan atamalar va ta'riflar q'yllaniladi.

Etkazib berishni zanjirini bayon qilish uchun O'z DSt ISO 9001:1999 q'yllaniladigan va quyida keltirilgan atamalar lug'atini aks ettirish uchun y'zgartirilgan edi.

"Tashkilot" atamasi avvalgi O'zDSt ISO 9001(IDT) da q'yllanilgan "etkazib beruvchi" atamasini y'rnini oladi va ushbu standart q'yllanilayotgan ob'ektga tegishlidir. "Etkazib beruvchi" atamasi endi avval q'yllanilgan "yordamchi pudratchi" atama y'rniga foydalanadi. Mazkur standart matnida uchraydigan "mahsulot" atamasi, "xizmat k'rsatish"ni xam bildirishi mumkin.

Sifat menedjmenti tizimi. Tashkilot, sifat menedjment tizimini ishlab chiqishi, xujjatli rasmiylashtirishi, joriy etishi, ishchi holatda saqlab turishi, mazkur standart talablariga muvofiq ravishda uning natijaliligini doimo yaxshilashi kerak. Sifat menedjmenti tizimini joriy etish va ishlatishi uchun tashkilot:

a) sifat menedjmenti tizimi uchun kerak b'ylgan jarayonlarni aniqlashi va ularni tashkilotda q'yllashi (1.2);

b) bu jarayonlarni amalga oshirishni ketma-ketligi va y'zaro bog'lanishini aniqlashi;

v) bu jarayonlarni samarali bajarish va ularni boshqarish uchun kerak bulgan mezonlari va usullarni aniqlashi;

g) jarayonlarni amalga oshirish va ularni kuzatib borish uchun zarur b'ylgan resurslar va axborot bilan ta'minlashi;

d) jarayonlarni kuzatib turishi, ylchashi va tahlil qilishi;

e) ushbu jarayonlarni rejalashtirilgan natijalarga erishishi va ularni doimo yaxshilab borish uchun zarur b'ylgan choralarni kurishi kerak.

Tashkilot mazkur standart talablariga muvofiq bu jarayonlarni boshqarishi kerak. Mahsulotni talablarga muvofiqligiga ta'sir etuvchi tashqi jarayonlarni y'zining faoliyatiga q'yshishda, tashkilot bunday jarayonlarni boshqarilishini belgilab q'yyishi kerak. Bu boshqarish sifat menedjmenti tizimida aniqlanishi lozim.

Izoh - Sifat menedjmenti tieimining jarayonlari yuqorida sanab y'tilganlarni hisobga olgan holda boshqarish, resurslar bilan ta'min-lashini, mahsulotni ishlab chiqarish va ylchash jarayonlarini y'z ichiga olishi kerak.

Rahbariyatning javobgarligi. Rahbariyatning majburiyatlari. Tashkilotning yuqori rahbariyati sifat menedjmenti tizimini ishlab chiqishi, joriy etishi va natijaliligini doimo oshirish b'yyicha y'z majburiyatlarining isbotini quyidagilar vositasida taqdim etishi kerak;

a) iste'molchilarning talablarini hamda qonun xujjatlarini va me'yoriy xujjatlarining talablarini bajarilishini muhimligi haqida tashkilotning barcha xodimlarini xabardor qilishi;

b) tashkilotning sifat sohasidagi siyosat va maqsadlarini aniqlash;

v) rahbariyat tomonidan tahlil y'tkazish;

g) zarur b'ylgan resurslar bilan ta'minlash.

Resurslar menedjmenti. Resurslar bilan ta'minlash

Tashkilot quyidagilar uchun zarur b'ylgan resurslarni aniqlashi va y'z vaqtida ta'minlashi lozim:

a) sifat menedjmenti tizimining jarayonlarini joriy qilish, saqlab turish va yaxshilash;

b) iste'molchining talablarini bajarish paytida uning qanoatlanganligini oshirish.

Mahsulotni ishlab chiqarishni rejalashtirish. Mahsulotni ishlab chiqarishni rejalashtirish. Tashkilot mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur b'ylgan jarayonlarni rejalashtirishi va ishlab chiqishi darkor. Ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirish sifat menedjmenti tizimini boshqa jarayonlarining talablari bilan muvofiqlashtirilgan b'ylishi kerak (4.1). Tashkilot ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirishda zarur b'ylgan holda:

a) sifat soxasidagi maqsadlarini va mahsulotga q'yiladigan talablarni;

b) muayyan mahsulot uchun jarayonlar va xujjatlarni ishlab chiqishni zarurligini hamda resurslar bilan ta'minlashni;

v) aniq bir mahsulotni verifikatlash (tekshirish), validatlash (tasdiqlash), monitoringi, tekshiruvi, sinovlari b'yicha faoliyatini va uni qabul qilib olish mezonlarini; g) ishlab chiqarish jarayonlariga va tayyor mahsulotga q'yiladigan talablarga ularni muvofiqligini tasdiqlash uchun zarur bulgan yozuvlarni aniqlashi kerak. Rejalaitirish natijalari ushbu tashkilot uchun qulay kurinishda rasmiylashtirishi kerak.

Ylchashlar, tahlil qilnsh va yaxshilash. Umumiy qoidalar.

Tashkilot:

a) mahsulotni muvofiqligini tasdiqlash; b) sifat menedjmenti tizimining muvofiqligini ta'minlash;

v) sifat menedjmenti tizimini muntazam yaxshilash uchun zarur b'ylgan monitoring, ylchash, tahlil qilish va yaxshilash jarayonlarini rejalashtirishi va q'yllashi kerak. Bu faoliyat t'yg'ri keladigan usullarni, shu hisobda statistik usullarni va ularni q'yllanish sohasini aniqlashni yz ichiga olishi kerak.

Sertifikatlashtirishni o'tkazish bosqichlari. Milliy sertifikatlash tizimi doirasida sertifikatlashtirish ishlari so'rovchi tomonidan tanlangan sertifikatlashtirish sxemasi bo'yicha aniqlangan tizim doirasida olib boriladi. Sertifikatlashtirish tartibi va uning o'rnatilgan qoidalari mavjud bo'lib, sertifikatlashtirishning asosiy bosqichlari sertifikatlashtirish ob'ekti va turlariga bog'liq bo'lmagan o'zgarmas jarayon deb hisoblash mumkin. Odatda qabul qilingan va sertifikatlashtirish jarayonining umumiy sxemasida keltirilgan. Buni quyidagi beshta asosiy bosqichga bo'lishimiz mumkin:

Sertifikatlashtirishga ariza. Sertifikatlashtirish bo'yicha qaror qabul kilish. Sertifikatlashtirish ob'ektini muvafiqligini o'rnatilgan talablar bilan baholash. Muvofiqlikni baholash natijalarini tahlili va uni rasmiylashtirish.

Sertifikatlashtirish ob'ekti ustidan inspeksiya nazorat. O'zbekiston Respublikasida mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi. O'zbekiston

Respublikasida mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 6 iyuldagi №318-sonli «Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qaroriga binoan "O‘zstandart" agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda quyidagi ishlarni amalga oshirishadi: chetdan keltirilayotgan mahsulotlardan akkreditatsiya qilingan idoralar va laboratoriyalar tomonidan sinov o‘tkazish uchun namuna olishning cheklangan normalarini belgilash; akkreditatsiya qilingan idoralar va laboratoriyalar o‘rtasida sinovlarning takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida sinovlar turlarini belgilash; o‘zlariga qarashli akkreditatsiya qilingan laboratoriyalarda mahsulotlarni sinovdan o‘tkazish xizmatlariga tariflarni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida (uning hududiy bo‘linmalarida) oldindan deklaratsiya qilish.

Muvofiqlik sertifikatlari mavjudligini tekshirish faqat majburiy tartibda sertifikatlanadigan mahsulotlarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin. "O‘zstandart" agentligida "Standartlashtirish to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunida belgilangan standartlashtirish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlar toifalarini tayyorlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomning hamda Majburiy tartibda sertifikatlanadigan bir turdagi mahsulotlarning har bir turini ularda sertifikatlashtirishning tegishli me‘yoriy hujjatlarda belgilangan xavfsizlik ko‘rsatkichlari ko‘rsatilgan Qoidalarining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkazadi va majburiy tartibda sertifikatlanadigan mahsulotlarning nomenklatura ro‘yxati, ularning sifatini va xavfsizligini belgilovchi me‘yoriy hujjatlarni ko‘rsatgan holda, nashr etilishini hamda bojxona, soliq va akkreditatsiya qilingan idoralarga jo‘natadi.

21.2.Sifat tizimlarini sertifikatlashtirishning asosiy qoidalari (O‘z RH 51-025), sifat tizimlarini sertifikatlashtirishni o‘tkazish tartibi (O‘z RH 51-027).

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi umumiy qoidalari. YUqoridagi Qarorda mahsulotlarni sertifikatlashtirishning umumiy tartibi belgilangan. Ushbu Qaror asosida ishlab chiqilgan sertifikatlashtirish tartibi, muddatlari va ketma-ketligi belgilangan holda «O‘zstandart» agentligi tomonidan «Mahsulotlarni sertifikatlash qoidalari» ishlab chiqilib, 2005 yil 18 martda Adliya Vazirligida N 1458-sonli hujjat sifatida kuchga kiritilgan. Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi «O‘zstandart» agentligi tomonidan ishlab chiqilib, O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida sertifikatlashtirishning tegishli qoidalari sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilgan. «Mahsulotlarni sertifikatlash qoidalari»da ko‘rsatilganidek

sertifikatlashtirilgan mahsulotlarga qo‘shimchalar yoki o‘zgartirishlar kiritilishi davomida ilgari tekshirilgan xavfsizlik bo‘yicha mahsulot tavsifiga salbiy ta‘sir etmaydigan bo‘lsa, yangi chiqarilayotgan mahsulotga qo‘shimcha sertifikatlashtirish o‘tkazilishi talab etilmaydi. Mahsulot sertifikatlashtirilishi uchun talab etiladigan xavfsizlik majburiy tavsiflari standartlashtirish bo‘yicha tegishli me‘yoriy hujjatlarda belgilanadi. Ushbu qoidadagi talablar mahsulot yoki xizmatlarni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish davomida tadbiiq etilishi mumkin. YUqorida keltirilgan qaror va qoidaga asosan majburiy sertifikatlashtiriladigan mahsulotlar ro‘yxatidan ma‘lum qismi ularning tegishli talablarga muvofiqqligini deklaratsiyalash yo‘li bilan tasdiqlanishi mumkin bo‘ladi. Sertifikatlashtirishni amalga oshirish qoidasiga asosan ilovaga muvofiq sxema bo‘yicha, ikki bosqichda o‘tkaziladi.

Birinchi bosqich - bir vaqtning o‘zida, zaruriyatga ko‘ra, veterinariya va fitosanitariya xulosalari tegishli ravishda davlat veterinariya nazorati va o‘simliklar karantini bo‘yicha davlat xizmati organlarida rasmiylashtirilgan holda "O‘zstandart" agentligi tomonidan akkreditatsiya qilingan davlat sanitariya nazorati organlarida gigienik sertifikat rasmiylashtirilishini o‘z ichiga oladi. Bunda tadbirkorlik faoliyati sub‘ekti: gigienik sertifikatni rasmiylashtirish uchun ariza bilan birgalikda belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish idoralariga (keyingi o‘rinlarda sertifikatlashtirish idoralari deb ataladi) muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish yuzasidan ariza berishga; zarurat bo‘lganda tegishli xulosalar olish uchun veterinariya va fitosanitariya nazorati organlariga mustaqil ravishda murojaat qilishga haqlidir.

Ikkinchi bosqich - sertifikatlashtirish idoralari tomonidan muvofiqlik sertifikati berishdagi faoliyat. Bunda akkreditatsiyadan o‘tgan Idoralar sertifikatlashtirish faoliyatiga qo‘shimcha ravishda, tadbirkorlik sub‘ektlarining yozma arizasiga muvofiq davlat sanitariya nazorati organlarida, davlat veterinariya nazorati va o‘simliklar karantini bo‘yicha davlat xizmati organlarida, shuningdek tabiatni muhofaza qilish davlat organlarida sertifikatlashtirishni o‘tkazish va barcha zarur xulosalarni olish yuzasidan agentlik xizmatlari ko‘rsatishga haqlidir. Bunda namunalar tanlab olinishi, shuningdek ular to‘g‘ri tanlanganligi va ular tegishli davlat organlariga taqdim etilishi uchun sertifikatlash Idoralari javobgarlikni o‘z zimmlariga olishga majbur. Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va berishning umumiy muddati ishlarning murakkabligi darajasiga, ko‘p mehnat talab qilishi va o‘ziga xosligiga qarab, barcha zarur hujjatlar taqdim qilingan vaqtdan boshlab 10 ish kunidan 1 oygacha doirada belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 6 iyulda №318-

sonli «Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorigacha oldingi xatboshida keltirib o‘tilgan talab yo‘q edi, buning oqibatida sertifikatlashtirish ishlari asossiz ravishda cho‘zilib, tadbirkorlarning noroziligiga sabab bo‘lar edi. SHu bilan birga ushbu Qaror asosida tadbirkorlarga sertifikatlashtirish jarayonlarining xolisligini ta‘minlash maqsadida ham qator qulayliklar yaratildi.

Gigienik sertifikatni, veterinariya va fitosanitariya xulosalarini rasmiylashtirish va berish tartibi. Gigienik, veterinariya, fitosanitariya va ekologiya sertifikatlari (xulosalar) mahsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish bosqichlaridan boshlang‘ichi bo‘lib, mahsulotlarga me‘yoriy hujjatlarda tegishli ravishda gigienik, veterinariya, fitosanitariya yoki ekologik me‘yor va talablar mavjud bo‘lgan taqdirda o‘tkaziladi. Gigienik sertifikatni olish uchun ariza beruvchi davlat sanitariya nazoratining hududiy organiga ariza bilan murojaat qiladi.

YUkorida keltirilgan Qaror talablari asosan sertifikatlashtirishga ariza berilganda ishlab chiqariladigan, sertifikatlashga taqdim qilinayotgan mahsulotga me‘yoriy hujjatning nusxasi ilova qilinishi kerak (Davlatlararo standart - DS, O‘zbekiston Respublikasi Davlat standarti - OzDSt, Texnik shartlar - TSH; ishlab chiqariladigan oziq-ovqat mahsulotlari uchun - O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan kelishilgan texnologik yo‘riq-noma va retseptura).

Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va berish tartibi. Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish sertifikatlash idoralari tomonidan amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirish idorasini tanlash arizachi tomonidan mustaqil amalga oshiriladi.

Ariza beruvchi istalgan vaqtda, sertifikatlashtirish idoralari esa arizachining birinchi talabi asosida quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

a) majburiy tarzda sertifikatlashtirilishi lozim bo‘lgan mahsulot turlarining ro‘yxati yoki ro‘yxatdan ko‘chirma;

b) Idora sertifikatlashtirish doirasiga taalluqli bo‘lgan mahsulotni sertifikatlash qoidalari;

v) sertifikatlashtirish bo‘yicha xizmatlar narxlari (tariflari) preyskuranti;

g) davlat vakolatli organida akkreditatsiya qilinganlikni tasdiqlovchi hujjat.

Sertifikatlashtirish idorasi, ko‘rsatib o‘tilgan hujjatlar nusxalarini taqdim etganda ularning nusxalarini tayyorlash uchun ketgan harajatlarnigina so‘rovchidan undirishga haqli.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish uchun ariza beruvchi sertifikatlashtirish idorasiga ariza bilan murojaat qiladi. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

-ishlab chiqarilayotgan mahsulotga me‘yoriy hujjat nusxasi;

-mahsulotni yorliqlash namunasi (mahsulot to'g'risida axborot);

-gigienik sertifikat nusxasi.

Ariza beruvchi tomonidan ayni bir vaqtda higienik sertifikat va muvofiqlik sertifikati olishga ariza berilgan taqdirda higienik sertifikat nusxasi talab etilmaydi.

CHetdan olib kelinayotgan mahsulotni sertifikatlashtirish uchun quyidagilar taqdim etiladi:

-ishlab chiqarilayotgan mahsulotga me'yoriy hujjat nusxasi (u mavjud bo'lganda);

-mahsulotni yorliqlash namunasi (mahsulot to'g'risida axborot);

-bojxona hududiga etib kelganligi to'g'risida belgi qo'yilgan ilova hujjat (tovar-transport yuk xati, invoys, schyot-faktura)lar nusxasi.

Ariza nazarda tutilgan taqdirda, sertifikatlashtirish idorasi sertifikatlashtirish ishlarini higienik sertifikat (veterinariya va fitosanitariya xulosalari) nusxalarini olish muddatini hisobga olgan holda kechiktirib boshlashi mumkin. Bu holda sertifikatlashtirish idorasi muvofiqlik sertifikatini faqat ariza beruvchi tomonidan ijobiy natijalarga ega bo'lgan hujjatlarning barcha zarur nusxalari taqdim etilgandan keyin berishga haqlidir. Sertifikatlashtirish idorasi ariza berilgan kundan boshlab ikki kun muddatda joyiga borib sertifikatlash sinovlarini o'tkazish uchun mahsulot namunalari tanlab oladi va identifikatsiya qiladi. Namunalar soni, tanlab olish tartibi, identifikatsiya qilish va saqlash qoidalari mahsulotga berilgan me'yoriy hujjatlarda belgilanadi. Ariza beruvchi o'z mahsulotining tanlab olinishida va sinovlarida qatnashish huquqiga ega. Namunalarning saqlanishi, sifati va sinovlarining ishonchliligi uchun sinov o'tkazishga taqdim qilingan laboratoriya (markaz) javobgar hisoblanadi. Sinovlar bo'yicha bayonnomalarini mas'ul mutaxassislar imzolaydi va laboratoriya rahbari tasdiqlaydi. Ariza beruvchi sertifikatlashtirish idorasiga akkreditatsiya qilingan laboratoriyalardagi mahsulot sinovlari bo'yicha qo'shimcha hujjatlarni taqdim etishi mumkin. Agar mahsulotni alohida ko'rsatkichlari bo'yicha sinovlar turli sinov laboratoriyalarida o'tkazilgan bo'lsa, u holda sinovlarning ijobiy natijalari bilan birga barcha zarur bayonnomalarning mavjudligi mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligining ijobiy bahosi hisoblanadi. Respublikaga chetdan keltiriladigan, majburiy tartibda sertifikatlanishi kerak bo'lgan mahsulotga me'yoriy hujjat mavjud bo'lmaganda, sifat va xavfsizlik bo'yicha sertifikatlashtirish sinovlari mahsulotning ana shunday turlari talablariga muvofiqligi yuzasidan amalga oshiriladi. Arizachi tomonidan chetdan olib kelinayotgan mahsulotga zarur me'yoriy hujjat yoki texnik tasnifnomalar taqdim etilmagan taqdirda, mazkur mahsulotni sertifikatlash mahsulotning ana shunday turlariga hujjatlar bo'yicha yoki higienik sertifikat asosida, uni identifikatsiya qilgan holda amalga oshiriladi

(oziq-ovqat mahsulotiga va oziq-ovqatga qo'shiladigan qo'shimcha mahsulot uchun). Laboratoriya sinovlarining salbiy natijalari, shuningdek hujjatlarning to'liq bo'lmagan komplektini taqdim etish muvofiqlik sertifikatini berishni rad etish uchun asos hisoblanadi, bu to'g'rida sertifikatlashtirish idorasi ariza beruvchiga aniq qonunchilik normalarini ko'rsatgan holda yozma ravishda xabar qiladi.

Xulosa berishni rad etganlik yuzasidan ariza beruvchi belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

Sertifikatlashtirish idorasi taqdim etilgan hujjatlar va sinovlarning ijobiy natijalari asosida ikki ish kuni mobaynida muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtiradi.

Muvofiqlik sertifikatini chetdan olib kelinayotgan mahsulotlarga mahsulot yaroqliligining kafolatli muddatiga, ko'plab ishlab chiqariladigan mahsulot uchun esa - 3 yilga beriladi.

Ko'plab ishlab chiqariladigan mahsulotga muvofiqlik sertifikatini berish uchun sertifikatlashtirish idorasi ariza beruvchidan mahsulotni ko'plab ishlab chiqarish uchun shart-sharoitlar mavjudligini aniqlash maqsadida mahsulot ishlab chiqariladigan ob'ektlarni belgilangan tartibda tekshiradi. Tekshirish natijalari bo'yicha dalolatnoma rasmiylashtiriladi, undan muvofiqlik sertifikatini berish to'g'risida qaror qabul qilishda foydalaniladi.

O'tkazilgan tekshirishlar natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar muvofiqlik sertifikatida keltiriladi.

Tekshirishni o'tkazish muddati, ishlab chiqarishning shakli va toifalariga ko'ra, sinovlar uchun namunalar tanlab olingan vaqtdan boshlab 10 ish kunidan oshmasligi kerak. Tekshirish o'tkazilganligi uchun to'lov amalda sarflangan vaqt bo'yicha va belgilangan tartibda tasdiqlangan xarajatlar kalkulyasiyasiga binoan undiriladi.

Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va berish muddati sertifikatlashtirish idorasi tomonidan sinovlar natijalari olingan vaqtdan boshlab 5 ish kunidan oshmasligi kerak.

Ko'plab ishlab chiqariladigan mahsulot uchun muvofiqlik sertifikatini bergan sertifikatlashtirish idorasi har yili kamida bir marta, mahsulotning sertifikatlashtirishda belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida, sertifikatlashtirilgan mahsulotni inspeksiya nazorati tekshiruvini o'tkazadi.

Inspeksiya nazorati natijalari bo'yicha muvofiqlik sertifikatining amal qilishi tasdiqlanishi yoki to'xtatib turilishi yoxud belgilangan tartibda bekor qilinishi mumkin.

Laboratoriya sinovlarini o'tkazganlik, sertifikatni rasmiylashtirganlik va berganlik uchun to'lov tartibi, litsenziya ajratmalari miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda "O'zstandart" agentligining

yoʻriqnomaga hujjatlari asosida belgilanadi.

Takrorlash uchun savollari

1. ISO 9000 seriyali standartlarining paydo boʻlishini tushuntirib bering.
2. ISO 9000 seriyali standartlar tarkibi qaysi standartlardan tashkil topgan?
3. Sifatni boshqarish tizimlariga taalluqli xalqaro standartlarning yangilanish sabablarini nimalardan iborat?
4. Oʻzbekistonda ISO 9000 seriyali standartlari oilasiga qanday asosiy standartlar mansub?
5. Sifat menejmenti tizimini joriy qilishdan qanday foydalar koʻzlangan va uning qanday afzalliklari mavjud?
6. ISO 9000:2008 seriyali standartlarining qanday oʻziga xos xususiyatlari mavjud?

22§. Sifat menejmenti tizimini tekshirish.

22.1. Audit va audit turlari. OʻzDSt ISO 19011 Ekologik menedjment tizimi va sifat menedjment tizimi auditori. Auditorni oʻtkazish, auditor oʻtkazishni tashkil qilish, hujjatlar tahlili, joyda auditor oʻtkazishga tayyorgarlik, joydagi auditorni oʻtkazish.

Auditor oʻtkazish Umumiy qoidalar Mazkur boʻlim auditor dasturining qismi sifatida auditorlarni rejalashtirish va oʻtkazish boʻyicha koʻrsatmalarni oʻz ichiga oladi. 2-rasmda auditor oʻtkazishning namunaviy blok-sxemasi koʻrsatilgan. Mazkur boʻlim qoidalarining tarqalish darajasi qoʻllanilish sohasiga, maʼlum auditorning murakkabligiga va auditor boʻyicha xulosalarning ishlatilish ehtimoligiga bogʻliq.

Auditorni boshlash- auditor guruhining rahbarini tayinlash - maqsadlar, sohalar va mezonlarni aniqlash - auditorni bajarib boʻlish-boʻlmasligini aniqlash - auditor boʻyicha guruhni aniqlash - tekshiriladigan tashkilot bilan birlamchi aloqani bogʻlash

Hujjatlar analizini oʻtkazish YOzuvlarni ham qoʻshgan holda menedjment tizimi tegishli hujjatlarning analizi va ularning auditor mezonlariga nisbatan bir xilligini aniqlash.

Joydagi auditorni oʻtkazishga tayyorgarlik - auditor rejasini tayyorlash - auditor guruhida vazifalarni taqsimlash - ishchi hujjatlarni tayyorlash.

Joydagi auditor - dastlabki yigʻilishni oʻtkazish - auditor vaqtida maʼlumot almashish - birga yuruvchi va kuzatuvchi shaxslarning roli va javobgarligi -

ma'lumot to'plash va tekshirish - audit kuzatuvlarini olish - audit natijalari bo'yicha hujjatlar tayyorlash - yig'ilishni o'tkazish.

Audit bo'yicha hisobotni tayyorlash, tasdiqlash va tarqatish - audit bo'yicha hisobotlarni tayyorlash- audit bo'yicha hisobotni tasdiqlash va tarqatish

Audit o'tkazishni tashkil qilish. Audit bo'yicha guruh rahbarini tayinlash Audit dasturini boshqarishga javobgarlar aniq audit bo'yicha guruh rahbarini tayinlashlari kerak. Birgalikdagi audit o'tkazilgan holda audit boshlangunga qadar tekshiruvchi tashkilotlar o'rtasida har bir tashkilotning javobgarligiga oid, shu jumladan, audit uchun belgilangan guruh rahbarining vakolatlariga oid bitimga erishish muhimdir.

Auditning maqsadlarini, qo'llanilish sohasini va mezonlarini aniqlash. Har bir audit hujjatlashtirilgan maqsadlarga, qo'llanilish sohasiga va audit dasturining maqsadlari doirasidagi mezonlarga asoslanishi kerak.

Auditning maqsadi auditda nima qilinishi kerakligini belgilaydi va quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

a) tekshiriladigan tashkilot yoki uning bo'limlarining menejment tizimining audit mezonlariga muvofiqlik darajasini aniqlashni;

b) menejment tizimining qonunchilik talablariga, me'yoriy talablarga va bitim talablariga muvofiqligini ta'minlash imkoniyatlarini baholashni;

c) menejment tizimining aniq maqsadlarga erishish uchun samaradorligini baholashni;

d) menejment tizimini potensial yaxshilash sohalarini aniqlashni.

Audit sohasi auditning chuqurligi va chegaralarini, audit qilinadigan tashkilotning joylashgan joyini, tarkibiy bo'limlarini, faoliyat va jarayonlarini hamda audit muddatlarini yoritadi.

Audit mezonlari u bo'yicha muvofiqligi aniqlanadigan taqqoslash uchun baza sifatida ishlatiladi va qo'llaniladigan siyosatni, jarayonlarni, standartlarni, qonunlar va me'yorilarni, reglamentlarni, menejment tizimiga bo'lgan talablarni, bitim talablarini yoki sanoat sektorlari yoki ishbilarmonlik faoliyatining qoidalar majmuini o'z ichiga olishi mumkin.

Audit maqsadlari audit buyurtmachisi va audit bo'yicha guruh rahbari tomonidan audit dasturi tadbirlariga muvofiq aniqlanishi kerak. Audit maqsadlardagi, sohasidagi yoki mezonlaridagi harqanday o'zgarishlar o'sha tomonlar tomonidan muvofiqlashtirilishi kerak.

Agar kompleks audit o'tkazilayotgan bo'lsa, auditning maqsadlari, sohasi va mezonlari kompleks audit mazmuniga javob berishini audit bo'yicha guruh rahbarining ta'minlashi juda muhimdir.

Audit o'tkazish imkoniyatlarini aniqlash Audit o'tkazish imkoniyati quyidagi omillarning mavjudligini hisobga olgan holda aniqlanishi kerak:

- auditni rejalashtirish uchun kerakli ma'lumotlarning mavjudligi va etarliligi;
- tekshiriladigan tashkilot bilan bir xil hamkorlik;
- vaqt va zarur resurslarning mavjudligi.

Audit o'tkazish mumkin bo'lmagan holda buyurtmachiga tekshiriladigan tashkilot bilan maslahatlashish asosida alternativ taklifni berish kerak.

Audit bo'yicha guruhni shakllantirish Audit o'tkazish mumkinligi e'tirof etilgandan so'ng, audit maqsadlariga erishish uchun, zarur layoqatlilikni hisobga olgan holda, audit bo'yicha guruhni tuzish zarur. Agar auditni bitta auditor amalga oshirsa, u audit bo'yicha guruh rahbariga yuklanadigan barcha vazifalarni bajarishi kerak. 7-bo'lim zarur layoqatlilikni aniqlash bo'yicha ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi va auditorlarni baholash jarayonini bayon qiladi.

Audit bo'yicha guruhning soni va tarkibini aniqlashda quyidagilarni hisobga olish zarur;

- a) auditning maqsadlari, sohasi, mezonlari, taxminiy muddatini;
- b) auditning kompleks yoki birgalikda ekanini;
- s) audit bo'yicha guruhning audit maqsadlariga etishish uchun zarur bo'lgan umumiy layoqatliligini;
- d) qo'llanilishi mumkin bo'lgan qonunchilik talablari, me'yoriy talablar, bitim talablari va akkreditlash/sertifikatlashtirish bo'yicha organlarning talablarini;
- e) audit bo'yicha guruhning tekshirish faoliyatidan va ishdagi ziddiyatlardan mustaqilligini ta'minlash zaruratini;
- f) audit bo'yicha guruh a'zolarining tekshiriladigan tashkilot bilan samarali hamkorligining va birgalikda ishlashlarining imkoniyatlarini;
- g) auditning tili va tashkilotning o'ziga xos ijtimoiy va madaniy qadriyatlarini tushunish – bu masalalar auditorlarning shaxsiy tajribasini hisobga olgan holda yoki texnikaviy ekspertlar yordamida hal qilinishi mumkinligini.

Audit bo'yicha guruh umumiy layoqatliligini ta'minlash jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olishi kerak:

- audit maqsadlari uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni aniqlash;
- audit bo'yicha guruh a'zolarini shunday tanlash kerakki, toki audit bo'yicha guruhda barcha zarur bilim va tajriba bo'lsin. - Agar audit bo'yicha guruhdagi auditorlar barcha zarur bilim va tajribaga etarli darajada ega bo'lmasalar, unda guruhga texnikaviy ekspertlar kiritilishi mumkin.

Texnikaviy ekspertlar auditorlarning rahbarligi ostida ishlashlari kerak. Audit bo'yicha guruhga stajerlarni kiritish mumkin, ammo ular auditorlarning rahbarligisiz yoki metodik yordamisiz audit bilan shug'ullanmasliklari kerak.

Buyurtmachi ham, tekshiriladigan tashkilot ham asoslangan hollarda 4-bo'limda bayon qilingan audit qoidalarini hisobga olib audit bo'yicha guruh a'zolarini almashtirishni talab qilish huquqiga egadir. Bunday asosga ishdagi ziddiyat (masalan, audit bo'yicha guruh a'zosi ilgari tekshirilayotgan tashkilotda ishlagan bo'lishi yoki tekshiriladigan tashkilotga konsalting bo'yicha xizmat ko'rsatgan bo'lishi) va boshida ko'rsatgan nomaqbul hulqi misol bo'lishi mumkin.

Bunday asos audit buyurtmachisi bilan tekshiriladigan tashkilot o'rtasidagi muammoni hal qilishi lozim bo'lgan audit bo'yicha guruh rahbariga va audit bo'yicha dasturni boshqarish bo'yicha javobgar shaxsga audit bo'yicha guruh a'zolarini almashtirish bo'yicha biror qaror qabul qilingunga qadar etkazilishi kerak.

Tekshiriladigan tashkilot bilan dastlabki aloqani o'rnatish Audit o'tkazish uchun tekshiriladigan tashkilot bilan dastlabki aloqa rasmiy yoki norasmiy xarakterda bo'lishi mumkin va u audit dasturini boshqarishga javobgar shaxs yoki audit bo'yicha guruh rahbari tomonidan bajarilishi kerak.

Dastlabki aloqaning maqsadi quyidagilardan iborat:

a) tekshiriladigan tashkilot vakili bilan ma'lumot almashish yo'llarini aniqlash;

b) audit o'tkazish uchun vakolatlarni tasdiqlash;

s) auditning taklif qilinayotgan rejasi va audit bo'yicha guruh tarkibi to'g'risida ma'lumotlarni berish;

d) yozuvlarni ham qo'shgan holda tegishli hujjatlarni ko'rishga ruxsat uchun so'rov berish;

e) joy-joylardagi ishlar xavfsizligini ta'minlashning zarur qoidalarini aniqlash;

f) auditga tayyorgarlik ishlarini aniqlash;

g) audit bo'yicha guruh uchun kuzatuvchilar va hamrox bo'luvchilarning ishtirokini kelishib olish.

Hujjatlar analizi Joy-joydagi auditni boshlashdan oldin audit mezonlariga tizimning muvofiqligini aniqlash maqsadida tekshiriladigan tashkilot hujjatlarini analiz qilish kerak.

Hujjatlar majmuasi menejment tizimi bo'yicha tegishli hujjatlarni va yozuvlarni hamda avvalgi audit bo'yicha hisobotlarni o'z ichiga olishi mumkin. Analiz tashkilotning hajmini, faoliyat turini va murakkabligini hamda audit o'tkazishning maqsadi va sohasini hisobga olishi kerak. Ba'zi hollarda bu analiz agar audit o'tkazishning samaradorligiga zarar etkazmasa, joydagi audit o'tkazish boshlangunga qadar to'xtatib turilishi mumkin. Boshqa vaqtda kerakli ma'lumot olish uchun audit o'tkaziladigan joyga oldinroq borib kelish mumkin. Agar

hujjatlar to'plash nomuvofiq deb topilsa, unda audit bo'yicha guruh rahbari audit buyurtmachisini va tekshiriladigan tashkilotni xabardor qilishi kerak. Hujjatlar to'plamidagi muammo hal qilinmaguncha auditni davom ettirish yoki to'xtatish bo'yicha qaror qabul qilish kerak.

Joydagi auditni o'tkazishga tayyorgarlik Audit rejasini tayyorlash. Audit bo'yicha guruh rahbari audit o'tkazishga doir audit buyurtmachisi, audit bo'yicha guruh va tekshiriladigan tashkilot bilan bitimga erishish uchun asos bo'ladigan audit rejasini tayyorlashi kerak. Reja audit grafigini tuzish va auditni o'tkazishga yordam berishi kerak.

Audit rejasidagi bayon qilishning batafsillik darajasi audit o'tkazish sohasini va murakkabligini aks ettirish kerak. Ayrim joylari, masalan, dastlabki va keyingi auditlar uchun hamda ichki va tashqi auditlar uchun farq qilishi mumkin.

Audit rejasi etarli darajada o'zgarishlar, masalan, auditni joyda amalga oshirish mobaynida zarur bo'lishi mumkin bo'lgan audit o'tkazish sohasiga o'zgarishlar qilishiga imkon beradigan bo'lishi kerak.

22.2. Audit. ISO 19011 xalqaro standarti.

- a) audit maqsadlarini;
- b) audit mezonlari va havola qilinadigan hujjatlarni;
- s) tekshiriladigan tashkil etilgan va faoliyat ko'rsatuvchi bo'limlarni va jarayonlarni o'z ichiga olgan holda audit sohasini;
- d) audit o'tkazish kuni va joyini;
- e) tekshiriladigan tashkilot rahbariyati va audit bo'yicha guruh bilan kengashlarni ham kiritgan holda joydagi audit o'tkazishning taxminiy vaqtini va davomiyligini;
- f) audit bo'yicha guruh a'zolarining va hamroh bo'luvchi shaxslarning vazifalarini va javobgarligini;
- g) kerakli resurslarni auditning jiddiy sohalari bo'yicha taqsimlashni;
Audit bo'yicha reja zarur hollarda yana quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:
- h) auditda ishtirok etish uchun tekshiriladigan tashkilot vakilini aniqlashni;
- i) auditlarning ona tilidan yoki tekshiriladigan tashkilotdagi tildan farq qiladigan joyda audit bo'yicha ishchi tilni va hisobot tilini aniqlashni;
- j) audit bo'yicha hisobot mazmunini;
- k) moddiy-texnikaviy ta'minotni (harakat vositalari, joydagi asbob-uskunalar va h.k.);
- l) mahfiylikka oid hamma narsani;
- m) audit natijalari bo'yicha har qanday harakatlarni.

Reja audit buyurtmachisi tomonidan analiz qilinishi va qabul qilinishi va joydagi audit boshlanishidan oldin tekshiriladigan tashkilotga taqdim etilishi kerak.

Tekshiriladigan tashkilot tomonidan qilinadigan har qanday e'tirozlar audit bo'yicha guruh rahbari, tekshiriladigan tashkilot va audit buyurtmachisi o'rtasida hal qilinishi kerak. Audit bo'yicha qayta ko'rib chiqilgan har qanday reja audit davom ettirilishidan avval barcha audit bilan qiziquvchi tomonlar bilan kelishilgan bo'lishi kerak.

Audit buyicha guruh a'zolari o'rtasida ishlarni taqsimlash. Audit bo'yicha guruh rahbari guruh a'zolari bilan maslahatlashib ularning ma'lum jarayonlar, bo'limlar, joylar, soxalar yoki faoliyat tur-lari audit uchun vazifalarni taqsimlab chiqishi kerak. Bunday taqsimlash auditorlar mustaqilligiga va layoqatliligiga, resurslardan oqilona foydalanishga hamda auditorlar, stajerlar va texnikaviy ekspertlarning turli vazifasi va javobgarligiga bo'lgan extiyojlarni hisobga olishi kerak. Audit maqsadlariga erishish uchun audit olib borilayotgan vaqt mobaynida vazifalar taqsimlanishida o'zgarishlar qilinishi mumkin.

Ishchi hujjatlarni tayyorlash. Audit bo'yicha guruh a'zolari vazifalarining taqsimlanishiga oid ma'lumotni o'rganib chiqishlari va ishchi hujjatlarni audit vaqtida havolalar va yozuvlar sifatida foydalanish uchun tayyorlashlari kerak. Bunday ishchi hujjatlar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- tanlama tekshirishlarning nazorat varaqlari va rejalari;
- guvohnomalarni tasdiqlovchi, audit xulosalari va kengashlar bayonnomalari kabi ma'lumotlarni qayd qilish uchun formalar.

Nazorat varaqalarini va formalarini ishlatish audit vaqtida to'plangan ma'lumotlar natijasida o'zgarishi mumkin bo'lgan audit vaqtidagi tekshirish hajmini cheklashi kerak emas.

Ishchi hujjatlar, ularni qo'llash natijasi bo'lgan qilinadigan yozuvlar ham juda bo'lmaganda audit tugagunga qadar saqla-nishi kerak. Audit tugagandan so'nggi hujjatlarni saqlash 6.7-bo'limda bayon qilingan maxfiy yoki xususiy ma'lumotlari bo'lgan hujjatlar audit bo'yicha guruh a'zolari tomonidan tegishli holda saqlanishi kerak.

22.3. Sifat tizimini ichki, tashqi, uchinchi tomon auditlari, audit turlari. Dastlabki kengash tekshiriladigan tashkilot rahbariyati bilan birga yoki qaysi joyda bu mumkin bo'lsa tekshiriladigan bo'limlar yoki jarayonlar uchun javobgarlar bilan birga o'tkazilishi kerak. Dastlabki kengashning maqsadi quyidagilardan iborat:

- a) audit rejasini tasdiqlash;
- b) auditning qanday bajarilishi to'g'risida qisqa ma'lumot berish;

s) ma'lumotlar almashish yo'llarini tasdiqlash;

d) tekshiriladigan tashkilot uchun savol berish imkoniyatlarini yaratish;

Asosiy yordam – Dastlabki kengash. Ko'p hollarda, masalan, kichik korxonalar ichki auditining dastlabki kengashida audit boshlanayotganligi e'lon qilinadi va audit harakteri tushuntiriladi.

Audit bilan bog'liq boshqa hollarda dastlabki kengash rasmiy bo'lib, unda ishtirok etuvchilar ro'yxatidan o'tishlari kerak. Audit bo'yicha guruh rahbari kengash raisi vazifasini bajarish kerak.

Kengashda quyidagi ishlarni bajarish kerak:

a) auditdagi vazifalarni ko'rsatgan holda audit qatnashchilarini tanishtirish;

b) auditning maqsadi, sohasi, mezonlarini tasdiqlash;

s) audit o'tkazish va boshqa audit bilan bog'liq kelishuvlarning, masalan, yakuniy kengash, audit bo'yicha guruhning va tekshiriladigan tashkilot rahbariyatining harqanday oraliq kengashlari va harqanday kelgusi o'zgarishlar grafiklarini tasdiqlash;

d) auditda ishlatiladigan dasturlar va tadbirlar bilan tanishtirish, shu jumladan tekshiriladigan tashkilotni auditning guvohliklari oson olinadigan ma'lumotlar tanlamalariga asoslanishi va audit vaqtida noaniqlik elementi bo'lishi to'g'risida oqoxlantirish;

e) audit bo'yicha guruh bilan tekshiriladigan tashkilot o'rtasida rasmiy aloqa yo'llarini tasdiqlash;

f) audit vaqtida ishlatiladigan tilni tasdiqlash;

g) tekshiriladigan tashkilotni auditni o'tkazish vaqtida auditning borishi to'g'risida xabardor qilib turilishini tasdiqlash;

h) audit bo'yicha guruh uchun zarur bo'lgan barcha resurs va vositalar etkazib berilishini tasdiqlash;

i) maxfiylik bilan bog'liq bo'lgan barcha narsalarni tasdiklash

j) favqulotda xolatlar uchun ishlar va tadbirlar xavfsizligini ta'minlashni va audit bo'yicha guruh uchun xavfsizlikni ta'minlashni tasdiqlash;

k) barcha hamrox bo'luvchi kishilarning ishtiroki, roli va shaxsini tasdiqlash;

l) nomuvofiqlik klassifikatsiyasini ham kiritgan holda hisobotlar tuzish usullari bilan tanishtirish;

m) audit to'xtatilishi mumkin bo'lgan shartlar to'g'risida ma'lumot berish;

n) auditning o'tkazilishi yoki uning natijaviy xulosalari bo'yicha shikoyat arizalarini ko'rib chiqish tizimi to'g'risida ma'lumotlar berish

Audit o'tkazish vaqtida ma'lumotlar bilan almashish

Auditning qo'llanilish sohasi va murakkabligiga bog'liq ravishda auditorlar guruhining ichida ham, tekshiriladigan tashkilot bilan ham rasmiy ma'lumot almashish zarurati paydo bo'lishi mumkin.

Audit bo'yicha guruhda vaqti-vaqti bilan ma'lumot almashish o'tkazilishi, audit borishining baholanishi va zarur bo'lganda, audit bo'yicha guruh a'zolari o'rtasida vazifalar qayta taqsimlanishi kerak.

Audit vaqtida audit bo'yicha guruh rahbari tekshiriladigan tashkilot va audit buyurtmachisi bilan auditning borishi va u bilan bog'liq barcha masalalarda vaqti-vaqti bilan etarli darajada ma'lumot almashishi kerak. Audit vaqtida bevosita va jiddiy xatar extimolligiga oid (masalan, xavfsizlik, ekologiya yoki sifat bilan bog'liq xatar) olingan dalil tekshirilayotgan tashkilotga, kerak bo'lganda audit buyurtmachisiga kechiktir-masdan etkazilishi kerak. Audit sohasidan chetga chiquvchi barcha masalalar belgilanishi va audit bo'yicha guruh rahbariga, keyinchalik tekshiriladigan tashkilotga va audit buyurtmachisiga etkazish extimoli borligi uchun aytish kerak.

Audit dalili audit maqsadi bajarilmasligini ko'rsatsa, unda audit bo'yicha guruh rahbari tekshiriladigan tashkilot va buyurtmachiga tadbirlar belgilanishi uchun bajarilmaslik sabablari to'g'risida habar berishi kerak. Bunday tadbirlar o'z ichiga auditni qayta tasdiqlash yoki audit rejasini o'zgartirishni, audit maqsadlarini yoki sohasini o'zgartirishni yoki auditni to'xtatishni o'z ichiga olishi mumkin.

Auditni amalga oshirish mobaynida sezilarli bo'lishi mumkin bo'lgan audit sohasidagi o'zgarishlarga bo'lgan har qanday ehtiyojlar audit buyurtmachisi va tekshiriladigan tashkilot tomonidan etarli darajada analiz qilinishi va tasdiqlanishi kerak.

Hamroxlik qiluvchi shaxslarning va kuzatuvchilarning vazifasi va javobgarligi:

Hamrohlik qiluvchi shaxslar va kuzatuvchilar audit bo'yicha guruhni kuzatib borishlari mumkin, ammo ular auditning tarkibiga kirmaydilar.

Ular auditga ta'sir ko'rsatmasliklari yoki audit o'tkazish vaqtida aralashmasliklari kerak.

Hamrox bo'luvchilar tekshiriladigan tashkilotdan tayinlangan joyda ular audit bo'yicha guruhga yordam ko'rsatishlari va audit bo'yicha guruh rahbarining iltimosiga binoan harakat qilishlari kerak. Ularning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- a) uchrashuvlarni ta'minlash va suxbatlar uchun vaqt belgilash;
- b) ma'lum joylar yoki tashkilotlarga borishni ta'minlash;
- s) xavfsizlik bo'yicha qoidalar va tadbirlarning bo'lishini va ularning audit bo'yicha guruh a'zolari tomonidan rioya qilinishini ta'minlash;

d) audit o'tkazish vaqtida tekshiriladigan tashkilot nomidan guvohlik beruvchi shaxslarning vazifalarini bajarish;

e) tushuntirishlar berish va ma'lumotlar yig'ish vaqtida yordam ko'rsatish.

Ma'lumotlar yig'ish va ularning ishonchliligini tasdiqlash Audit vaqtida audit maqsadlariga, sohasiga va mezonlariga doir, shu jumladan, bo'limlar o'rtasidagi o'zaro munosabat, faoliyat va jarayonlarga doir ma'lumotlar zarur tanlamalar yo'li bilan to'planishi va ishonchliligining tasdiqlanishi kerak.

Faqat ishonchliligi tasdiqlanishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar audit dalili bo'lishi mumkin. Audit dalillari yozib qo'yilishi kerak. Audit dalillari yaroqli ma'lumotlar tanlanmalariga asoslanadi. SHuning uchun audit o'tkazishda noaniqlik elementi mavjud bo'ladi va audit vaqtida qilinadigan xulosalar bu noaniqlikni hisobga olishi kerak.

Amaliy yordam – Ma'lumot manbaalari

Tanlab olingan ma'lumot manbaalari auditning sohasi va murakkabligiga bog'liq ravishda o'zgarishi mumkin va quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

a) ishchilar va boshqa shaxslardan ma'lumotlar so'rovlarini;

b) ishlab chiqarish faoliyatini, korxonaning atrof-muhitini va ish sharoitini kuzatishlarni;

s) siyosat, maqsadlar, rejalar, tadbirlar, standartlar, ko'rsatmalar, litsenziyalar, ruxsatnomalar, tafsilotli ro'yxatlar, chizmalar, bitimlar va buyurtmalar kabi hujjatlarni;

d) tekshirish qaydnomalari, kengashlar qaydnomalari, auditlar yuzasidan hisobotlar, monitoring dasturi va o'lchashlarning natijalarini kuzatish bo'yicha yozuvlar kabi yozma ma'lumotlarni;

e) yakuniy ma'lumotlar, analiz natijalari va farmoishlarning bajarilishini;

f) tekshiriladigan tashkilotlarni tanlab o'rganish dasturlari va tanlamalarni boshqarish tadbirlari va o'lchashlar jarayonlari bo'yicha ma'lumotlarni;

g) iste'molchilardan keladigan qarshi aloqa, tashqaridan olinadigan boshqa tegishli ma'lumot va etkazib beruvchilarning baholari kabi hisobot manba'larini;

h) kompyuterlashtirilgan ma'lumotlar manbai va veb-saytlarn

-ma'lumot to'plashdan boshlab audit natijalari bo'yicha xulosalar qilingunga qadar bo'lgan jarayonlarning blok-sxemasi berilgan

Ma'lumotni to'plash usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- so'rovlarni;

- faoliyatni kuzatishlarni;

- hujjatlar analizini.

Amaliy yordam – So'rab-surishtirishlarni o'tkazish So'rab-surishtirish ma'lumot yig'ishning muhim vositalaridan biridir va u holat va so'rab

surishtirilayotgan kishini hisobga olgan holda bajarilishi kerak. Bunda auditor quyidagilarni e'tiborga olishi kerak:

a) so'rab-surishtirishlar tegishli darajalarda va bo'limlarda audit soxasi doirasida ish qilayotgan yoki vazifalarni bajarayotgan shaxslar bilan bajarilishi kerak;

b) ishchilarni so'rab-surishtirish oddiy ish kunida, ish joyida amalga oshiriladi;

s) so'rab-surishtiriladigan shaxs unga psixologik tayyorlangan bo'lishi va so'rov xayrixoxlik bilan olib borilishi kerak;

d) so'rov va qilinadigan yozuvlar sababini tushuntirish kerak;

e) so'rashni o'z ishi haqida gapirib berishni iltimos qilishdan boshlash mumkin;

f) yordamchi savollar bermaslik kerak;

g) so'rovlar natijalari so'ralayotgan shaxs bilan birga umumlashtirilishi va analiz qilinishi kerak;

h) so'ralayotgan shaxsga hamkorlik uchun minnatdorchilik bildirish

Audit xulosalarining shakllanishi. Audit xulosalarini olish uchun audit dalillari audit mezonlari bilan taqqoslanishi kerak. Audit xulosalari audit mezonlariga muvofiqligini yoki nomuvofiqligini ko'rsatishi mumkin. Audit maqsadlari bilan taqqoslanganda audit xulosalari ishni yaxshilash uchun imkoniyatlarni ko'rsatishi mumkin.

Audit bo'yicha guruh, zarur bo'lganda auditning nomuvofiq bosqichlaridagi xulosalarni analiz qilish uchun yig'ilishi kerak.

Audit mezonlariga muvofiqliklar audit o'tkazilgan joy, bo'limlar yoki jarayonlarni ko'rsatgan holda umumlashtirilishi kerak. Agar audit rejasida ko'rsatilgan bo'lsa, muvofiqlik to'g'risidagi ayrim xulosalar va ularni tasdiqlovchi dalillar ham yozilishi kerak. Nomuvofiqlik va ularni tasdiqlovchi audit dalillari ham yozilishi kerak. Nomuvofiqliklar katta-kichikligiga qarab ajratilishi kerak. Ular tekshiriladigan tashkilot tomonidan audit dalillari ob'ektiv va nomuvofiqlik tushunarli ekaniga ishonch hosil qilish uchun analiz qilinishi kerak. Audit dalillari bo'yicha fikrlar bilan audit xulosalari o'rtasidagi tushunmovchiliklarni yo'qotilishi, xal qilinmagan muammolar esa hujjatlar bilan rasmiylashtirilishi kerak.

Audit natijalari bo'yicha yakun tayyorlash. Audit bo'yicha guruh yakuniy kengashgacha quyidagi tadbirlarni amalga oshirishi kerak:

a) audit xulosalarini va audit vaqtida yig'ilgan boshqa tegishli ma'lumotlarning audit maqsadlariga muvofiqligini ko'rib chiqish;

b) audit jarayoniga xos bo'lgan noaniqlik elementini hisobga olgan holda audit natijalari bo'yicha yakuniy xulosalarni kelishish;

- s) agar audit maqsadlarida ko‘zda tutilgan bo‘lsa tavsiyanomalar tayyorlash;
- d) agar audit rejasida bo‘lsa, audit natijalari bo‘yicha harakatlarni muxokama qilish.

Amaliy yordam – Audit bo‘yicha yakuniy xulosalar. Audit buyicha yakuniy xulosalar quyidagi masalalarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- a) menejment tizimining audit mezonlariga muvofiqlik darajasi;
- b) menejment tizimining joriy qilinish samaradorligi, qo‘llab quvvatlanishi va yaxshilanishi;

s) menejment tizimining doimiy yaroqliligini, uning aynan birxilligini, samaradorligini va yaxshilanishini ta‘minlash uchun rahbariyat tomonidan qilinadigan analiz jarayonining imkoniyatlari;

Agar audit maqsadlarida ko‘rsatilgan bo‘lsa, audit natijalari bo‘yicha yakuniy xulosalar yaxshilashga, biznesdagi o‘zaro munosabatlarga (tadbirkorlik faoliyatiga), sertifikatlashtirishga yoki audit bo‘yicha kelgusi faoliyatga nisbatan tavsiyalarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Takrorlash uchun savollari

1. ISO 9000:2008 seriyali standartlarini tavsiflab bering.
2. Sifat menejmenti tizimining qanday tamoyillari mavjud?
3. Sifat menejmenti tizimining qanday tamoyillarining maqsad va vaziflari hamda ularning mohiyatini tushuntiring.
4. “Jarayon” tushunchasini tushuntiring.
5. Jarayonli yondashishning afzalliklari nimalardan iborat?
6. Sifat menejmenti tizimi modelining mohiyati nimadan iborat?

23§. Sifat menejmenti tizimini hujjatlashtirish.

23.1. Sifat menejmenti tizimini hujjatlashtirish. O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish bo‘yicha milliy idorasi;

Bir xil mahsulotni sertifikatlashtirish bo‘yicha idora;

Bir xil mahsulotni, sifat tizimini va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish bo‘yicha akkreditlangan idoralari;

Akkreditlangan sinov laboratoriyalari.

Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan sertifikatlashtirish milliy idorasi qilib, sertifikatlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish O‘zbekiston davlat markazi – “O‘zstandart” agentligi belgilangan. “O‘zstandart” agentligiga qarashli turli soha va tarmoqlarni o‘z ichiga olgan, bir xil nomdagi bo‘limlar ham bor.

Bularga standartlar va mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha davlat nazorati va o'lchash vositalarini davlat qièslovidan o'tkazish va attestatlash sohaviy bo'limlari kiradi. Standartlar va mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha davlat nazorati sohaviy bo'limlar: og'ir sanoat, mashinasozlik, engil sanoat, mahalliy sanoat hamda agrosanoat kompleksi doirasida o'z faoliyatini amalga oshiradi. O'lchash vositalarini davlat qièslovidan o'tkazish va attestatlash taromoq bo'limlari esa massalar, radiotexnika, ionli nurlanish, geometrik, mexanik, elektrik magnitli, bosim, sarflanish, haroratli hamda fizik -kimyoviy kattaliklarni qièslovdan o'tkazadi. "O'zstandart" agentligi tarkibidagi asosiy bo'limlar: "O'zstandart" agentligi ilmiy - uslubiy markazi etib O'zbekiton standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifatini boshqarish soxalaridagi tadqiqot va mutaxassislar tayèrlash instituti.

Sertifikatlashtirish milliy idorasi qo'yidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha o'z faoliyatini amalga oshirmoqda. Respublikada sertifikatlashtirishni qo'llash va takomillashtirishning umumiy sièsatini ishlab chiqish, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tegishli davlat idoralari bilan aloqalarni o'rnatish; Sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha boshqa mamlakat va xalqaro tashkilotlarning vakillari bilan, o'zaro kelishilgan asosda aloqalarni o'rnatish, kerak bo'lsa, bu tashkilotlar faoliyatida O'zbekiston Republikasining qatnashishini ta'minlash;

Sertifikatlashtirishda yagona qoida va ish tartiblarini belgilash, bularga rioya qilishning nazorati, sertifikatlashtirish natijalari bo'yicha hujjatlarni axborotli ma'lumot bilan ta'minlash. Vazirlar Mahkamasi qarorini bajarish yo'lida O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish agentligi o'zining viloyat markazlarini tuzib, ularning ishlariga har taraflama ko'mak ko'rsatmoqda. 1993 yilning 28 dekabridan boshlab «Mahsulotlarni va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida» qonun kuchga kirib, bu qonun asosida sertifikatlashtirish va sifatni ta'minlash borasidagi barcha ishlar mutlako yangicha usulda yo'lga qo'yila boshlandi.

O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish agentligi tarkibidagi oziq - ovqat va qishloq ho'jalik mahsulotlarini tekshiruv sinov laboratoriyasi akkreditlangan labaoratoriyalardan hisoblanib, shu kungacha muayyan turdagi mahsulotlarga muvofiqlik sertifikati berish uchun kerakli bo'lgan sinovlarni bajarmokda. Respublika hududiga keltiriladigan YOki undan chetga chiqariladigan mollar (mahsulotlar) ning xafvsizligini tasdiqlash bilan bog'liq bo'lgan amallar tegishli davlat idoralari bilan kelishilgan holda "O'zstandart" agentligi tomonidan tayèrlangan alohida hujjat bo'yicha bajariladi.

Xalqaro sertifikatlashtirishdagi munosabatlar. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida Turkiya va Xitoy davlatlari bilan standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya soxalarida hamkorlik qilish niyatida bitim

tuzildi. Bu yoʻldagi ishlar oʻz mevasini bermokda. Turkiya mutaxassislari Toshkentda boʻlib, Oʻzdavstandart tomonidan uyushtirilgan respublika seminarlarida sertifikatlashtirish sohasida maʼruzalar bilan qatnashmoqdalar. Oʻzbekiston Respublikasi Mustaqil Davlatlar Hamdustligi qatoriga kiruvchi mamlakatlar bilan standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya soxalarida bitimlar tuzgan boʻlib, oʻzaro iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni uzluksiz ravishda rivojlantirish borasida keng faoliyat yuritib kelinmokda. Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish soxalarida ilmiy tadqiqot ishlari ham oʻz yoʻnalishiga egadir. OʻzTMTI standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish soxalarida asosiy ilmiy - uslubiy baza hisoblanadi. U ilgari sobik Ittifoq Gosstandart tarkibidagi bosh ilmiy tadqiqot institutiga tegishli boʻlgan funksiyalarni bajarish bilan bir qatorda, yuqorida qayd etilgan soxalar boʻyicha fundamental tadqiqotlar olib boradi. SHu soxalardagi belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun: Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifati soxalarida hozirgi xalqaro talablarga javob beradigan milliy ilmiy baza yaratadi; Sertifikatlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifati milliy tizimlarini yaratishda ularning ilmiy va uslubiy asoslarini ishlab chikadi;

Mahsulotning raqobatbardoshlik qobiliyatni taʼminlaydigan, atrof - muhitni ishonchli darajada himoya qilishga, inson sogʻligʻini saqlashga. Mehnat xafvsizligini taʼminlashga, mudofaa kobiliyatini oshirishga qaratilgan xalqaro, meʼèriy va tashkiliy - uslubiy hujjatlar bilan uygunlashadigan, asos boʻluvchi hujjatlar ishlab chiqadi va joriy etadi;

Sertifikatlashtirish va metrologiya soxalaridagi mavjud èki uchraydigan muammolarni tadqiqot qilish, davlat tilida meʼèriy hujjatlar, maʼlumotnomalar, lugʻatlar yaratadi;

YUqori malakali ilmiy kadrlar tayèrlaydi;

Sertifikatlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifatining ilmiy masalalari boʻyicha xalqaro milliy va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi;

Sertifikatlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish soxalarida ishlaètgan mutaxassislarning malakasini oshirishni taʼminlaydi;

Sertifikatlashtirish sohasida ishlaydigan ekspert – auditorlarni tayèrlaydi va boshqalar.

Xujjatlarga qyiyiladigan talablar. Umumiy talablar. Sifat menedjmenti tizimining xujjatlari:

- a)sifat sohasida siyosat va maqsadlar haqida xujjatli rasmiylashtirilgan ariza;
- b)sifat bÿyicha qyillanma;

v)zarurligi mazkur standart bilan belgilangan xujjatlashirilgan protseduralar;

g)jarayonlarni samarali rejalashtirish, amalga oshirish va ularni boshqarish uchun tashkilotga kerak b'ylgan xujjatlar;

d)ushbu standart talablariga k'yra yozuvlarni (ma'lumotlarni) qayd qilishni y'z ichiga olishi kerak.

a) tashkilotning kattaligi va faoliyat soxasi;

b) jarayonlarning murakkabligi va y'zaro hamkorligi;

v) xodimlarning layoqatligi.

Xujjatlar ixtiyoriy shaklda va ixtiyoriy turdagi eltuvchilarda rasmiylashtirilgan b'ylishi mumkin.

Sifat buyicha q'yllanma Tashkilot:

a) turli istisnolarni mukammal bayonini va asoslanishi bilan birga snfat menedjmenti tizimining (1.2) q'yllanish sohasini;

b) sifat menedjmenti tizimida belgilangan xujjatlashirilgan protseduralar, yoki ularga qilingan havolalarni;

v)sifat menedjmenti tizimiga kiritilgan jarayonlarning y'zaro hamkorligining bayonini y'z ichiga olgan sifat b'yicha q'yllanmasini ishlab chiqishi va ishchi holatda ushlab turishi lozim.

Xujjatlarni boshqarish

Sifat menedjmenti tizimining xujjatlari ustidan boshqarishni amalga oshirish kerak. YOzuvlar xujjatlarning mahsus turi b'ylib, bandeda keltirilgan talablarga muvofiq boshqarilishi kerak.

Xujjatlashirilgan protseduralarni:

a) xujjatlarni joriy etishdan oldin ularni birxillikka tekshirish va tasdiqlash;

b)xujjatlarni tahlil qilish, zaruriyatga k'yra ularni aktuallashtirish va qayta tasdiqlash;

v) y'zgartishlarni va xujjatlarni amaldagi tahrirlarini ta'minlash, identifikatlash;

g) zaruriy xujjatlarning ishlatilayotgan tahririni ulardan foydalanish joylarida b'ylishligini ta'minlash;

d)xujjatlarni tushunarligini va anik identifikatlanishini ta'minlash;

e)kelib chiqishi tashqaridan b'ylgan xujjatlarni identifikatlashtirilishini va ularni tarqaltilishni boshqarishni ta'minlash;

j) eskirgan xujjatlarni y'ylanmasdan ishlatilishini oldini olish va ular qandaydir maqsadlarda saqlanib qolinganda ularni aniq tartibda belgilash uchun ishlab chiqish zarurdir.

YOzuvlarni boshqarish. Talablarga muvofiqlikni tasdiqlash va sifat menedjmenti tizimining samarali iilashi maqsadida yozuvlar ustidan boshqa-rishni amalga oshirish darkor. YOzuvlar tushunarli, belgilangan b̄ylishi hamda ularni qidirishni engilligi ta'minlangan b̄ylishi kerak. YOzuvlarini identifikatlashtirish, saqlash, foydalanishga qulay b̄ylishi, saqlanishni ta'minlash, saqlanish muddatlari va ularni muomaladan chiqarish b̄yicha xujjatlashtirilgan protsedurani kiritish darkor.

Ishlab chiqarish muhitda oziq-ovqat mahsulotlarga xavfliliklar kirish ehtimolligini;

Oziq-ovqatlarni biologik, kimyo va fizik ifloslanishlari, shu jumladan mahsulotlarning o'zaro ikki tomonlama ifloslanishini;

Mahsulot va mahsulotning ishlab chiqarish muhitidagi xavfliliklar darajasini tekshirish uchun DSHD ni tuzishi, joriy etishi va qo'llab quvvatlashi kerak.

Oziq-ovqat mahsulotlar xavfsizligi hisobga olinib, tashkilot talablariga javob berishi;

Ishlab chiqarilayotgan va/yoki ishlov beriladigan mahsulotning turi va ish hajmi hamda xarakteriga mos bo'lishi;

Barcha ishlab chiqarish tizimda yoki umuman qo'llaniladigan dastur kabi, yoxud muayyan mahsulot yoki ishlab chiqarish tizmada qo'llaniladigan dastur kabi joriy etilishi;

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash guruhi tomonidan tasdiqlanishi kerak.

Tashkilot yuqorida qayd etilganlarga mansub bo'lgan normativ va qonun talablarini aniqlashi kerak. DSHD ni tanlash va tuzishda, tashkilot tegishli ma'lumotni hisobga olishi va foydalanishi kerak (masalan, normativ va qonun talablarini, iste'molchining talablarini, oziq-ovqat mahsulotlar bo'yicha Komissiya Kodeksini rasmiy yo'riqnomalari, prinsiplari va amaliyotini, milliy, xalqaro va tarmoq standartlarini)

Tashkilot ushbu dasturlarni tuzishda quyidagilarni hisobga olishi kerak:

a) binolar va unga tegishli bo'lgan muhandis tarmoqlarning konstruksiyasi va joylashishini;

b) xonalarni, shu jumladan ishchi joy va ish asbob uskunalarni joylashish tartibini;

s) havo, suv, energiya va boshqa muhandis kommunikatsiyalar olib kelinishini;

d) yordamchi xizmatlarni, shu jumladan chiqindi va oqava suvlarni utilizatsiya qilishni;

e) asbob uskunalarni yaroqliligini va uni tozalash, xizmat ko'rsatish hamda profilaktika tekshirishlar uchun ishlatish joizligini;

f) sotib olingan materiallarni (masalan, xom ashyoni, ingredientlarni, kimyoviy moddalar va o‘rab joylaydigan materiallarni, suv, havo, bug‘, muzlarning mavjud bo‘lgan zapaslarini), chiqindilarni (qattiq va suyuq) idora qilish va mahsulotga ishlov berishni (saqlash va transportda tashish);

g) ikki tomonlama ifloslanishni oldini olish bo‘yicha tadbirlarni;

h) tozalash va sanitar ishlov berishni;

i) dezinfeksiyalashni;

j) shaxsiy gigienani;

k) DSHD ga tegishli bo‘lgan boshqa masalalarni.

DSHD verifikatlashni rejalashtirish kerak. Imkoni boricha DSHD yangilanishi kerak. Verifikatlash va yangilanishlar yozuvlarini olib borish kerak.

Hujjatlardaga kiritilgan ishlar qanday boshqarilayotganligi ko‘rsatilishi kerak.

23.2. Sifat menejmenti tizimining hujjatlari tuzilmasi: Xalqaro hamjamiyatda iqtisodiyotni integratsiyalashuvida hamda mamlakatning ichki bozor munosabatlarini riojlantirishda ishlab chiqarishning texnikaviy darajasini va mahsulotning sifatini aniqlovchi va tavsiflovchi xossalarni aniqlash va ko‘rsatkichlarni baholashga hamma tomonlama va to‘liq erishini taqozo etadi.

Me‘yoriy va texnikaviy hujjatlarda mahsulot ishlab chiqarishga aloqador asosiy talablarning tarkibi va o‘zaro aloqadorligi 6.1-rasmda keltirilgan.

Sifat menejmenti tizimini ishlab chiqishda hujjatlashtirish muhim ahamiyatli o‘rin tutadi.

Korxonada sifat menejmenti tizimi proseduralarini, ya‘ni sifat menejmenti tizimini joriy qilish uchun zaruriy jarayonlarni tavsiflovchi proseduralarni tayyorlashi lozim. Proseduralar miqdori va teranligi korxonada turi, o‘lchami, jarayonlarni o‘zaro aloqasi va murakkabligi, qo‘llanilayotgan usullar hamda ishlarni bajarishda qatnashuvchi xodimlarining tayyorgarlik darajasi va malakasi kabi omillar sifatida aniqlanishi lozim.

Sifat menejmenti tizimiga aloqador hujjatlarga quyidagilar kiradi korxonaning sifat sohasidagi siyosati va maqsadlaridan tarkib topgan hujjatlar;

-sifat bo‘yicha qo‘llanma – sifat sohasidagi siyosatni ifoda etuvchi va sifat menejmenti tizimini tavsiflovchi hujjat;

-hujjatlashtirilgan proseduralar, bunga korxonada xodimlarining javobgarligi va vakolatlari ifoda etuvchi bo‘linmalar haqidagi nizomlar va lavozim yo‘riqnomalari (qo‘shimcha javobgarligi va vakolatlari) qo‘shilgan;

-boshqarish va yaxshilash, ularni samarali rejalashtirish uchun kerakli jarayonlarga hujjatlar;

-amalga oshirilgan faoliyatlar dalillari (sifat bo'yicha yozuvlar) yoki olingan natijalardan tarkib topgan hujjatlar.

YOzuvlarga aloqador bo'lgan standartda aniq aytib o'tilmagan ya'ni bir hujjat mavjuddir va bu maxsus shakllardir. SHakllarni belgilashni rahbariy qo'llanmalar yoki ularda qanday ma'lumotlar keltirilganligi, xususan yo'riqnoma bo'yicha olib boriladigan yozuvlar taqdim etiladi. SHuning uchun shakllarga ishchi yo'riqnoma sifatida qarash mumkin YUqorida keltirilgan barcha hujjatlar ishlab chiqilgan, joriy qilingan va o'zida joriy qilinganli haqida dalilarning mavjudligi bo'lishi lozim.

SHubhasiz, tizimning samaradorligi ko'proq u qanchalik yaxshi hujjatlashtirilganligiga bog'liq bo'ladi. Umuman olganda, barcha yuqorida ko'rsatilgan hujjatlar Sifat bo'yicha qo'llanmada keltirilish mumkin, boshqacha qilib aytganda, sifat menejmentini hujjatlashtirish maqsadida Sifat qo'llanmasi ya'ni sifat tizimining barcha proseduralari va hujjatlari to'plami alohida bir hujjat bo'lib hisoblanadi. Barchasi korxonaga o'lchami, jarayonlar miqdori va h.k. bog'liq bo'ladi.

4.2 Hujjatlarga qo'yiladigan talablar

4.2.1 Umumiy qoidalar

Sifat menejmenti tizimining hujjatlari:

a) sifat sohasidagi siyosat va maqsadlar haqida hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan bayonotlarni;

b) sifat bo'yicha qo'llanmani;

c) ushbu standartda talab etiladigan hujjatlashtirilgan proseduralar va yozuvlarni;

d) tashkilot tomonidan jarayonlarni natijali rejalashtirish, amalga oshirish va ularni boshqarishni ta'minlash uchun zarur deb belgilangan hujjatlar, jumladan yozuvlarni o'z ichiga olishi kerak.

Izohlar

1 Ushbu standartda «hujjatlashtirilgan prosedura» atamasi uchraganda, prosedura ishlab chiqilgan, hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan, joriy qilingan va ishchi holatda saqlab turilmoqda degan ma'noni anglatadi. Alohida hujjat bitta yoki undan ko'p proseduralar talablarini hisobga olishi mumkin. Hujjatlashtirilgan proseduraga qo'yiladigan talab bittadan ko'p hujjatda aks etishi mumkin.

2 Sifat menejmenti tizimi hujjatlarining hajmi quyidagilarni hisobga olgan holda turli tashkilotlarda farqlanishi mumkin:

a) tashkilotning kattaligi va faoliyat turi;

b) jarayonlarning murakkabligi va o'zaro bog'lanishi; hamda

c) xodimlarning layoqatliligi.

3 Hujjatlar istalgan shaklda va har qanday turdagi tashuvchida bo'lishi mumkin

SMT faoliyatini hujjatlashtirilgan asosini yaratish va bayon qilish uchun tashkilot SMT hujjatlari to'plamini yaratishi kerak.

ISO 9001:2008 talablariga muvofiq quyidagi proseduralarni majburiy ishlab chiqilishi va hujjatlashtirilishi talab qilinadi:

- 1) hujjatlarni boshqarish;
- 2) sifat bo'yicha yozuvlarni boshqarish;
- 3) ichki auditni boshqarish;
- 4) nomuvofiq mahsulotni boshqarish;
- 5) tuzatish harakatlari;
- 6) oldini olish harakatlari.

Takrorlash uchun savollari

1. ISO 9001 standarti sifat menejmenti tiimiga qanday talablarni qo'yadi (4.1 bandi)?
2. Sifat menejmenti tizimidagi jarayonlarni sanang?
3. Jarayonning tuzilmali modelini tushuntiring.
4. Jarayon uchun kirish va chiqishlar nimalar bo'lib hisoblanadi?
5. Jarayonni amalga oshirish uchun resurslarning qanday turlari kerak?
6. Menejmentdagi biznes-jarayonlar, yordamchi jarayonlar va boshqarish jarayonlarining mohiyatini tushuntiring.

V-BOB. SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI JORIY ETISH

24§. Sifat menejmenti tizimini joriy etish.

24.1. Sifat menejmenti tizimini ishlab chiqish va joriy etishning vazifaviy va tashkiliy asoslari, sifat menejmenti tizimining me'yoriy ta'minoti. YUqori rahbariyat sifat menejmenti tizimini ishlab chiqish va joriy etish, shuningdek uning natijaliligini doimiy yaxshilash bo'yicha tarafdorligi isbotini quyidagilar vositasida taqdim etishi kerak:

a) iste'molchilarning talablarini, shuningdek normativ va tartibga soluvchi talablarni bajarilishini muhimligi haqida tashkilotni xabardor qilish;

b) sifat sohasidagi siyosatni aniqlash;

c) sifat sohasidagi maqsadlar belgilanganini ta'minlash;

d) rahbariyat tomonidan tahlillar o'tkazish;

e) resurslar bo'lishini ta'minlash.

Iste'molchi talablariga moslashish. YUqori rahbariyat iste'molchilarning qoniqqanligini oshirish uchun ularning talablari aniqlanishi va bajarilishini ta'minlashi kerak (7.2.1 va 8.2.1 q.).

Sifat sohasidagi siyosat YUqori rahbariyat sifat sohasidagi siyosatni:

a) tashkilot maqsadlariga muvofiq bo'lishi;

b) talablarga muvofiq bo'lishi va sifat menejmenti tizimining natijaliligini doimo oshirish bo'yicha tarafdorligini o'z ichiga olishi;

c) sifat sohasidagi maqsadlarni qo'yish va tahlil qilish uchun asos yaratishi;

d) tashkilot xodimlari xabardor qilingan bo'lishi va ularga tushunarli bo'lishi;

e) doimiy yaroqliligi bo'yicha tahlil qilinishini ta'minlashi kerak.

Rejalashtirish. Sifat sohasidagi maqsadlar YUqori rahbariyat sifat sohasidagi maqsadlar, jumladan mahsulotga qo'yiladigan talablarni bajarish uchun zarur bo'lgan maqsadlar [7.1 a) q.] ham tashkilotning tegishli vazifalari uchun va tegishli darajalarida qo'yilishini ta'minlashi kerak. Sifat sohasidagi maqsadlar o'lchanadigan va sifat sohasidagi siyosat bilan muvofiqlashtiriladigan bo'lishi lozim.

Sifat menejmenti tizimini rejalashtirish YUqori rahbariyat:

a) sifat menejmenti tizimini rejalashtirish 4.1 band talablarini, shuningdek sifat sohasidagi maqsadlarni bajarish uchun amalga oshirilishini, hamda

b) sifat menejmenti tizimi rejalashtirilsa va unga o'zgartishlar kiritilsa, sifat menejmenti tizimi yaxlitligi saqlanishini ta'minlashi kerak.

Javobgarlik, vakolatlar va axborot almashish. Javobgarlik va vakolatlar. YUqori rahbariyat, javobgarlik va vakolatlar aniqlangan bo'lishi hamda tashkilot doirasida ma'lum qilinishini ta'minlashi kerak.

Rahbariyat vakili YUqori rahbariyat tashkilot rahbariyati a'zosini tayinlashi kerak, bu a'zo unga yuklatilgan boshqa vazifalardan tashqari:

a) sifat menejmenti tizimi tomonidan talab qilinadigan jarayonlarni ishlab chiqish, joriy qilish va ishchi holatda saqlab turilishini ta'minlash;

b) yuqori rahbariyatga sifat menejmenti tizimining ishlashi haqida va uni takomillashtirishda har qanday ehtiyojlar haqida hisobotlarni taqdim etish; hamda

c) iste'molchining talablari to'g'risida tashkilotning xabardorligini ta'minlashni o'z ichiga oluvchi mas'uliyat va vakolatlarga ega bo'lishi kerak.

Izoh – Rahbariyat vakilining mas'uliyatiga sifat menejmenti tizimiga tegishli masalalar bo'yicha tashqi tomonlar bilan munosabatlarni saqlash kirishi mumkin.

Ichki axborot almashinuvi YUqori rahbariyat tashkilotda axborot almashinuvining tegishli jarayonlarini o'rnatishi va ushbu axborot almashinuvi sifat menejmenti tizimining natijaliligiga taalluqli masalalar bo'yicha amalga oshirilishini ta'minlashi kerak.

Rahbariyat tomonidan tahlil qilish Umumiy qoidalar

YUqori rahbariyat rejalashtirilgan oraliq orqali tashkilotning sifat menejmenti tizimini, uning doimiy yaroqliligi, bixilliligi va natijaliligini ta'minlash maqsadida tahlil qilishi kerak. Ushbu tahlil sifat menejmenti tizimini yaxshilash uchun imkoniyatlar va unga o'zgartirishlar zarurligi, jumladan sifat sohasidagi siyosat hamda sifat sohasidagi maqsadlarni baholashni o'z ichiga olishi lozim.

Rahbariyat tomonidan tahlil qilish to'g'risidagi yozuvlar ishchi holatda saqlab turilishi kerak.

Tahlil qilish uchun kirish ma'lumotlari Rahbariyat tomonidan tahlil qilish uchun kirish ma'lumotlari quyidagilarga taalluqli axborotni o'z ichiga olishi kerak:

a) auditlar natijalari;

b) iste'molchilar bilan aks aloqa;

c) jarayonlarning ishlashi va mahsulotning muvofiqligi;

d) oldini olish va tuzatish harakatlarining maqomi;

e) rahbariyat tomonidan qilingan oldingi tahlillardan kelib chiqadigan keyingi harakatlar;

f) sifat menejmenti tizimiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan o'zgartirishlar;

g) yaxshilash bo'yicha tavsiyalar.

Tahlil qilishning chiqish ma'lumotlari. Rahbariyat tomonidan tahlil qilishning chiqish ma'lumotlari quyidagilarga tegishli barcha qaror va harakatlarni o'z ichiga olishi kerak:

- a) sifat menejmenti tizimi va uning jarayonlari natijaliligini oshirish;
- b) iste'molchilar talablariga muvofiq mahsulotni yaxshilash;
- s) resurslarga bo'lgan ehtiyoj.

Sifat menejment tizimi sakkizta tamoyillari

1. Iste'molchiga yunalganlik;

Tashkilotlar o'zining iste'molchilariga tobe bo'ladi va shuning uchun ularning joriy va kelgusidagi ehtiyojlari-ni tushunishi, ularning talablarini bajarishi va kutga-nidan xam ortik yaxshi natijaga erishish lozim.

2. Raxbarning peshqadamligi (sardorligi);

Raxbarlar tashkilotning maqsadi va faoliyati yo'nali-shini yagonaligini ta'minlaydi. Raxbarlar tashkilot oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishga xodimlarni jalb etish mumkin bo'ladigan ichki muxitni yaratish va saqlash lozim

3. Xodimlarning jalb kilinishi;

Barcha pog'ona xodimlari tashkilot asosini tashkil etadi va ularni ishga to'liq jalb etilishi tashkilotga xodimlar qobiliyatlaridan unumli foydalanish imkonini beradi.

4. Jarayonli yondoshish; Tashkilotning faoliyati va mavjud resurslar jarayon tarzida boshkarilganda kutilgan natija samarali bo'ladi

5. Boshkarishga tizimli yondoshish;

O'zaro bog'liq jarayonlarni aniqlash, tushunish va menej-menti boshqarilganda tizim sifatida tashkilot o'z maq-sadlariga erishishida uning natijaliligi va samarasiga xissa qo'shadi.

6. Doimiy yaxshilash;

Tashkilotning faoliyatini doimiy yaxshilashga uzgarmas maksad deb karalishi lozim

7. Dalillarga asoslangan karorlarni kabul kilish;

Samarali karorlar ma'lumotlarni va axborotlarni taxlil etishga asoslanadi.

8. Etkazib beruvchilar bilan o'zaro manfaatli muno-sabatlar. Tashkilotlar va ularning etkazib beruvchilari o'zaro bog'liq bo'ladi va o'zaro manfaatli munosabatlar ikkala tomonning moddiy boylik yaratish imkoniyatlarini oshiradi.

24.2. Sifat menejmenti tizimini hujjatlashtirish jarayoni va hujjatlarini joriy etish qoidalari va tartibi. Sertifikatlashtirishning qonuniy va me'yoriy bazasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha qabul qilingan qonunlar: O'zbekiston Respublikasining «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi qonuni; O'zbekiston

Respublikasining «Standartlashtirish to'g'risida»gi qonuni; O'zbekiston Respublikasining «Oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligi to'g'risida»gi qonuni; O'zbekiston Respublikasining «Iste'molchilar xukukini ximoya qilish to'g'risida»gi qonuni; O'zbekiston Respublikasining «O'simliklarni karantini to'g'risida»gi qonun; O'zbekiston Respublikasining «Reklama to'g'risida»gi qonuni va xokazolar.

Sertifikatlashtirish va sifatni boshqarishning qonuniy va me'yoriy asoslari. Har qanday faoliyat yoki yo'nalish nima maqsadni ko'zlashidan qat'iy nazar albatta qonunlashtirilishi, tartibga tushirilishi, faoliyatni olib borish esa ma'lum me'yoriy hujjatlar asosida olib borilishi talab etiladi. Xuddi shuningdek, sertifikatlashtirish faoliyati ham bundan mustasno emas. Quyida ushbu sohaning qonuniy asosi va qonunosti hujjatlari to'g'risida tushuncha bermoqchimiz. Sertifikatlashtirishning qonuniy va me'yoriy asoslari va bazasi rasmda keltirilgan.

		QONUNLAR	
		QONUNYI XUJJATLAR	
Prezident farmonlari va xukumat qarorlari		“O‘zstandar” agentligi qarorlari	Vazirlik va maxkamaviy me'yoriy xujjatlar
Sertifikatlashtirish tartibi va qoidalari bo'yicha tashkiliy-uslubiy hujjatlar		Sertifikatlashtirishni o'tkazish jarayoni talablariga me'yoriy hujjatlar	Sertifikatlashtirishda muvofiqlikni baholash usuli (tartibi) me'yoriy hujjatlari
Sertifikatlashtirish bo'yicha qoidalar va tartiblar		Xalqaro, davlatlararo, Davlat standartlari va boshqa me'yoriy	Davlat standartlari va uslubiy qo'llanmalar va boshqalar

O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimining asos bo'luvchi me'yoriy hujjatlari: O'z DSt 1.10 O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy atamalar va ta'riflar; O'z DSt 5.0 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Asosiy qoidalar; O'z DSt 5.2 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Sertifikatlashtirish idorasiga umumiy talablar; O'z DSt 5.4 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Tekshirish va nazorat idoralariga qo'yiladigan talablar; O'z DSt 5.5 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Asosiy atamalar va ta'riflar; O'z DSt 5.6:1999 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Sifat tizimini sertifikatlashtirish idoralariga talablar; O'z DSt 5.8:2006 O'zbekiston Respublikasining

sertifikatlashtirish milliy tizimi. Muvofiqlik belgisini tasdiqlash. Qo'llash qoidalari. O'z RH 51-014 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Sifat bo'yicha Ekspert-auditorlar. Tayyorlash va baholash talablari; O'z RH 51-021:2004 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. O'zRH51-024-94 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Sertifikatlashtirish bo'yicha hujjatlarni ekspert baholash; O'z RH 51-025 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Sifat tizimlari va ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish. Asosiy qoidalari; O'z RH 51-026 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Apellyasiyalarni ko'rib chiqish tartibi; O'z RH 51-027 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Sifat tizimlarini sertifikatlashtirish. O'tkazish tartibi; O'z RH 51-032 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Ishlar haqini to'lash tartibi; O'z RH 51-035 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish. O'tkazish tartibi; O'z RH 51-103 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Sertifikatlashtirilgan sifat tizimlari va ishlab chiqarishlari inspeksion tekshiruv; O'z RH 51-044 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga rioya qilish yuzasidan Davlat nazorati va tekshiruvi. Umumiy talablar; O'z RH 51-061 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Xizmatlarni sertifikatlashtirish. O'tkazish tartibi; O'z RH 51-074 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Mahsulotni identifikatsiyalash yuzasidan yo'riq-noma; O'z RH 51-085 O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimi. Oziq-ovqat mahsulotlari va jihozlari va ularni ishlab chiqarish yuzasidan yo'riq-noma, Davlat qaydi tartiblari;

O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi me'yoriy hujjatlari: O'z DSt 16.0 O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Umumiy qoidalar. O'z DSt 16.1 O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Sertifikatlashtirish idoralari va tekshirish idoralarini akkreditlashini o'tkazish tartibi. O'z DSt 16.2 (EN 45013) O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Sertifikatlashtirish idorasi xodimlariga talablar. O'z DSt 16.3:2001 O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Standart namunalarni tayyorlash, attestatlash va ishlatish huquqi bo'lgan yuridik shaxslarni akkreditlash. Tashkillashtirish va o'tkazish tartibi. O'z DSt 16.4 (ISO/MEK 17025) O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Sinash, o'lchash laboratoriyalariga quyiladigan umumiy talablar va ularni akkreditlash tartibi. O'z DSt 16.5 O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Hujjatlarni metrologik ekspertizasi va o'lchashlarni bajarish usullarini attestatsiyalash huquqi bo'lgan

yuridik va jismoniy shaxslarni akkreditlash. Tashkillashtirish va o'tkazish tartibi. O'z DSt 16.6:2003 O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. O'lchashlarni bajarish usulini nazoratini tashkillashtirish huquqi bo'lgan yuridik shaxslarni akkreditlash. Tashkillashtirish va o'tkazish tartibi. O'z DSt 16.7:2004 O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Inspeksion faoliyati mavjud firmalarga talablar. O'z DSt 16.8 O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Ishlab chiqarish laboratoriyalarini attestatlash. Umumiy talablar va o'tkazish tartibi. O'z RH 51-018 O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Akkreditlangan laboratoriyalarining faoliyatini inspeksion tekshiruvini utkazish tartibi. O'z RH 51-104 O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Sertifikatlashtirilgan maxsulotlarni inspeksion tekshiruvini utkazish tartibi. O'z RH 51-105 O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Akkreditlangan sertifikatlashtirish idoralari faoliyatining inspeksion tekshiruvini utkazish tartibi O'z RH 51-112 O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Putur etkazmasdan nazorat laboratoriyalarini akkreditlash O'z RH 51-121 O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Putur etkazmasdan nazorat. O'quv va imtihon markazlarini akkreditlash. O'z RH 51-131 O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Putur etkazmasdan nazorat. Sertifikatlashtirish idorasi xodimlarini akkreditlash. O'z RH 51-054 O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Sinov laboratoriyalari sifat bo'yicha qo'llanmasi. Ishlab chiqish bo'yicha uslubiy ko'rsatma; O'z RH 51-056 O'zbekiston Respublikasining akkreditlashtirish tizimi. Sertifikatlashtirish idoralari sifat bo'yicha qo'llanmasi. Ishlab chiqish bo'yicha uslubiy ko'rsatma; SHu bilan birga aytib o'tish kerakki, 2007 yilning sentyabr oyidan O'zbekistonda sinov va kalibrlash laboratoriyalarini akkreditlashda yangi xalqaro standart «O'z DSt ISO\IEC 17025«Sinov va kalibrlash laboratoriyalari kompetentligiga qo'yiladigan umumiy talablar»» joriy qilinib, Milliy akkreditlash tizimida akkreditatsiyaga talabgor laboratoriyalar ushbu standart talablari asosida tekshiriladi.

Sifatni boshqarish me'yoriy hujjatlari: O'z RH 51-057 Sifat tizimi hujjatlari tarkibi va turlari. O'z T 51-087 Sifat tizimi hujjatlashtirilgan protseduralari va tarkibini aniqlash bo'yicha tavsiyalar; O'z RH 51-090 Sifat dasturini ishlab chiqish bo'yicha uslubiy ko'rsatma; O'z T 51-094 Xizmatlarga sifat tizimini joriy qilish tartibi; O'z DSt ISO 9001 Sifat menedjmenti tizimi. Talablar.; O'z DSt ISO 9000 Sifat menedjmenti tizimi. Asosiy qoida va lug'atlar (ISO 9000); O'z DSt ISO 9004 Sifat menedjmenti tizimi. Sifatni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar (ISO 9004:2000, IDT); O'z DSt ISO 10006 Sifat menedjmenti tizimi. Sifat menedjmenti loyihasi bo'yicha rahbariy ko'rsatma (ISO 10006, IDT); O'z DSt ISO 10007 Sifatni

ma'muriy boshqarish. Ma'muriy boshqarish konfiguratsiyasi bo'yicha rahbariy ko'rsatma; O'z DSt ISO 10013:2001 Sifat bo'yicha qo'llanmani ishlab chiqish bo'yicha uslubiy ko'rsatma; O'z DSt ISO/TR 10014 Sifatni iqtisodiy boshqarish bo'yicha rahbariy ko'rsatma; O'z DSt ISO 10015 Sifatni boshqarish. O'kitish bo'yicha rahbariy ko'rsatma; O'z DSt ISO/TR 10017 Sifat menedjmenti tizimini hujjatlashtirish bo'yicha tavsiya. O'z DSt ISO 9001 doirasida statistik usullarni qo'llash bo'yicha rahbariy ko'rsatma; O'z DSt ISO 19011 Sifat menejmenti tizimi va/yoki ekologik menejmenti tizimi auditi bo'yicha rahbariy ko'rsatma.

Takrorlash uchun savollari

1. ISO 9001 standartida tashqi tashkilotlarning jarayonlariga qanday talablar qo'yilgan?
2. "Tizimli yondashish" tushunchasi mohiyatini ayting.
3. Sifat menejmenti tizimi tamoyillari ISO 9001 standarti talablari bilan qanday aloqalari mavjud?
4. Sifat menejmenti tizimining maqsad va vazifalarini tushuntiring.
5. ISO 9000 seriyali standartlar nima sababdan ommaviylashib ketgan?
6. ISO 9000 seriyali standartlarining paydo bo'lishini tushuntirib bering.

25§.Sifat tizimini ichki va tashki auditlari.

25.1. Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish idoralariga bo'lgan umumiy talablar va ularni akkreditlash me'zonlari. Sifatmenejment tizimini tekshirish. Audit a audit turlari. Audit. OzDs ISO 19011 xalqaro standart. Sifat tizimini ichki, tashqi, uchunchi tomon auditlari, auit turlari.

Sifatmenejment tizimini tekshirish. Audit a audit turlari. Audit. OzDs ISO 19011 xalqaro standart. Sifat tizimini ichki, tashqi, uchunchi tomon auditlari, auit turlai. Sifatni boshqarish tizimi, ekologik menedjment, sanoat xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish menedjmenti va boshqa korxonada mavjud bulgan menedjmentlar davriy ravishda ichki auditlardan utkazilib turilishi kerak. Sifat menedjment tizimi ichki auditi, korxonada joriy qilingan tizimni, yoki umuman ish faoliyatini vakt-vakti bilan monitoring utkazib uning natijaviyligini baxolash uchun asosiy mexanizmlardan biri bo'lib hisoblanadi. Sifat tizimi joriy qilingach, tashkilot rahbariyati tizim qanday faoliyat yuritayotganligini, qaerda tizimda nosozliklar borligi, yoki paydo bulishi mumkinligi bilan qiziqishi va tizimning natijaviyligini tashkilot mutaxassislari bilan birgalikda baholashi kerak. Ichki audit natijalari tashkilot rahbariyati tomonidan tahlil o'tkazish va kerakli karorlar kabul

kilish uchun ma'lumot bazasi bo'lib hisoblanadi, bu esa to'g'rilovchi amallarni ishlab chiqish va ba'zi bir jarayonlarni yoki tizimni umuman yaxshilash imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Ichki auditlarni o'tkazishdan maqsad, sifat tizimi:

a) belgilangan talablarga muvofikligini;

b) to'g'ri joriy qilinganligi va ishchi holatda ushlanayotganligini aniqlash; v) oldin aniklangan nomuvofikliklar buyicha kabul kilingan choralarning samaradorligini belgilash;

g) tizimni yanada yaxshilash buyicha qarorlar kabul kilishdan iboratdir. SHunday qilib, ichki audit ob'ekti sifatida aloxida olingan xodimlarning faoliyati emas, balki butun sifatni boshqarish tizimi hisoblanadi.

Audit bo'yicha tavsiyalar (ISO 19011). Audit jarayonini tashkil qilish bo'yicha tavsiyalar ISO 19011 «Sifatni boshqarish tizimi va/yoki ekologik boshqarish tizimlari auditi bo'yicha tavsiyalar» standartida keltirilgan.

Atamalar va ta'riflar ISO 19011:2002 xalqaro standartida quyida keltirilgan atama va ta'riflar qo'llaniladi. Audit (baxolash) – joriy kilingan tizimning talab etilgan mezonlarini kay darajada bajarilishini aniqlash maqsadida utkaziladigan urganishlar natijalarini olish va ularni ob'ektiv baholashni tizimli, mustaqil va hujjatlashtirilgan jarayoni. Qayd qilib o'tishimiz joizki, ichki audit sifat tizimi jarayonlaridan biri hisoblanadi va uni boshqarish PDCA (Rejalashtirish - Bajarish- Nazorat - To'g'rilash) sikliga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Audit mezonlari – sifat soxasidagi siyosat va maksad, protseduralar yoki o'rnatilgan talablarni jamlanmasi bo'lishi mumkin. Audit maqsadlariga qarab, audit mezonlari sifatida xalqaro standartlar, ichki me'yoriy hujjatlar (hujjatlashtirilgan protseduralar, ishchi yo'riqnomalar), rejalar, dasturlar, shartnomalar va tashkilot sifat tizimining boshqa hujjatlari qo'llanilishi mumkin.

Audit guvohliklari – audit mezonlari bilan bog'liq va tekshirilishi mumkin bo'lgan yozuvlar, faktlarni bayon qilinishi yoki boshqa ma'lumotlar (ya'ni, audit mobaynida tekshirilgan, jamlangan va asoslangan ma'lumotlar). Audit kuzatuvlari – audit guvohliklarini audit mezonlariga muvofiq baholanishi natijalari. Audit natijalari bo'yicha xulosa – audit maqsadlari va auditni barcha kuzatuvlarini ko'rib chiqilgandan so'ng auditorlar guruhi tomonidan raxbariyatga taqdim qilinadigan natijaviy ma'lumotlar. SHunday qilib, audit mobaynidan yig'ilgan ma'lumot, tekshirilgandan so'ng audit guvohligiga aylanadi. Auditni barcha kuzatuvlari tahlili natijalari bo'yicha audit xulosasi shakllanadi. Tekshirilayotgan tashkilot – audit o'tkazilayotgan tashkilot. Auditor – audit o'tkazish uchun tegishli layoqatga ega shaxs. Auditorlar guruhi – audit o'tkazish uchun ma'lum tayyorgarlikdan utgan bir yoki bir necha auditorlar, audit utkazish uchun zaruriyat bo'lganda texnikaviy

ekspertlar xam jalb kiinishi mumkin. Texnikaviy ekspert – tekshirilayotgan ob’ektga nisbatan maxsus bilim yoki etarli tajribaga ega bulgan auditorlar guruhiga jalb kilingan shaxs. Audit dasturi – aniq muddatlarga rejalashtirilgan va aniq maqsadga yo’naltirilgan bir yoki bir necha auditlar yig’indisi. Audit rejasi-faoliyat turlari va audit tadbirlarini bayoni. (Audit rejasi har bir aniq audit uchun tuziladi). Audit hajmi - audit mazmuni va chegaralari.

Auditlarni sinflanishi. Auditlar turlari, bosqichlari va o’tkazish metodlari bo’yicha kuyidagicha sinflanadi. **BIRINCHI** tomon auditi (ichki audit) Bu tashkilot mutaxassislari tomonidan o’tkaziladigan audit, ya’ni tashkilotdan o’z shaxsiy tizimlari, protseduralari va ishlarini, ularni belgilangan talablarga muvofiqligiga ishonch hosil qilish maqsadida tadqiqot qilishni talab qiluvchi ichki tekshirishdir. Ichki audit rahbariyatga:

-buyruqlar, ko’rsatmalar va farmoyishlari bajarilayotganligi yoki bajarilmayotganligi haqida;

-tizim belgilangan darajada natijali va samarali yoki yo’qligi haqida;

-qaerda tizimda buzilishlar borligi haqida ma’lumot beradi. Ichki audit butun tashkilot bo’yicha ijobiy «aloqa kanallari»ni ta’minlashga imkon beradi va faoliyatni yaxshilash imkoniyatlarini aniqlaydi.

Tashkilot o’z ichki auditlariga rahbarlik qiladi va sifatni boshqarish tizimining uzi qo’llayotgan standart talablariga kay darajada muvofiqligini namoyish qiladi. Biroq, ichki auditlar natijalariga boshqa tashkilotlar tomonidan ishonchsizlik bilan qaralishini kutish mumkin, ammo ichki auditlarni sertifikatlashtirishga tayyorgarlik jarayonida, tashkilot ikkinchi va uchinchi tomondan tekshirishga tashkilotni harakatini aniqlash mumkin. **IKKINCHI** tomon auditi

Bu tashkilotni iste’molchi yoki ushbu tashkilot faoliyatiga alokador yoki ma’lum darajada kizikishi mavjud bulgan tashkilot nomidan tekshirilishi. Ikkinchi tomon auditining maqsadi – kizikuvchi tomon talablari bajarilishiga kafolat berilgani holda va doimiy ravishda talab etilgan darajada bajarilishi haqida iste’molchini ishonchini ta’minlash uchun tashkilot sifatni boshqarish tizimi to’g’risida etarli ma’lumot olishdir.

Audit to’g’ri o’tkazilishi va sifat tizimining ijobiy natijaviyligini aniq ko’rsatishi zarur. Ikkinchi tomon auditi natijalari ikkala tashkilot kelajagiga ta’sir ko’rsatuvchi tijorat qarorlarini keltirib chiqishini yodda tutish kerak. SHuning uchun ham, kafolatlangan aniq ma’lumot olish uchun, audit malakali, tegishli tayyorgarlikdan o’tgan xodimlar tomonidan o’tkazilishi kerak.

Agar biror-bir tashkilot boshqa tashkilotda audit o’tkazish uchun mustaqil tashkilot (masalan, sertifikatlashtirish bo’yicha idora yoki konsalting

kompaniyasi)ga buyurtma bersa, va tekshiruvchi tashkilotdan tekshirish natijalarini olsa, auditni buyurtma bergan tashkilot o‘tkazgan deb hisoblashimiz mumkin.

UCHINCHI tomon auditi Tashqi mustaqil tashkilot (uchinchi tomon) tomonidan o‘tkaziladigan tekshirish. Odatda uchinchi tomon auditi sertifikatlashtirish maqsadida o‘tkaziladi.

Ikkinchi tomon auditi kabi, uchinchi tomon auditi uz navbatida auditorga va tekshiriladigan tashkilotga alohida talablar belgilaydi. Audit natijalari sifat tizimi holatini aniq va haqqoniy ko‘rsatishi uchun, auditor etarli tajribaga ega bulgan, ma’lum tayyorgarlikdan utgan, o‘z ishining ustasi va layoqatli bo‘lishi kerak.

Tashqi auditlarni ijobiy tomonlari:- yuqori darajadagi ob’ektivlik (chunki, bu «tashqaridan qarash»);

- ishni yuqori samaradorligi (chunki, tashqi audit yuqori malakali auditorlar tomonidan o‘tkaziladi);

- tekshirilayotgan tashkilot tomonidan tanqidga pozitiv qaraladi;- auditorlarni yuqori malakasi hisobiga tekshirilayotgan tizimni yuqori ob’ektiv baholanishi;

- tekshirilayotgan tashkilot tomonidan tashqi auditlar natijalaridan reklama maqsadlarida foydalanish;

-sifat tizimini o‘rnatilgan talablarga muvofiqligi va natijaviyligini namoyish qilish uchun tashqi auditlar natijalaridan foydalanish imkoniyati;

- xarajatlarni hisoblash aniqligi.Tashqi auditlarni salbiy tomonlari:

- korxonaga an’analarini bilmaslik;- tekshirilayotgan tashkilot xodimlari tomonidan auditorlarga «begona shaxs» sifatida qaralishi, oqibatda ba’zi xollarda kerakli ma’lumotlarni berkitilishi;

- auditorlarni korxonadagi norasmiy peshqadamlarni bilmasligi, bu esa kiska vaktida zarur ma’lumotlar olinishini qiyinlashtiradi;

- auditor tomonidan audit mobaynida olingan maxfiy ma’lumotni oshkor qilinishi ehtimolining mavjudligi;

- audit o‘tkazish chegaralangan muddatlarda amalga oshirilishi sababli butun tizimni to‘liq tekshirish imkoniyati yo‘qligi, audit tanlab olingan ob’ektlarda utkazilganligi sababli xulosa mavjud ma’lumotlar asosida chiqariladi.

25.2. Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish idoralarini akkreditlash protseduralari. Auditni bosqichlari. Ichki va tashqi auditlar odatda ikki bosqichdan iborat buladi: moslikka (adekvatlik) tekshirish va muvofiqlikni tekshirish. Moslikni tekshirish Hujjatlashtirilgan tizim qo‘llanilayotgan standart talablariga mosligi darajasi aniqlanadi.Moslikni tekshirilishi quyidagicha bajarilishi mumkin:

- qo‘llanilayotgan standart talablarini, ushbu talablarga hujjatlashtirilgan tizimni mos keluvchi qismlarini aniqlagan holda ko‘rib chiqilishi.

- hujjatlashtirilgan tizimni, qo‘llanilayotgan standart talablari bilan solishtirgan holda bandma – band ko‘rib chiqilishi.

Uchinchi tomon auditida barcha, ikkinchi tomon auditida ko‘pgina muvofiklikka tekshiruvlar albatta moslikka tekshirish natijalariga bog‘liq, chunki sifat tizimi hujjatlari qo‘llanilayotgan standart talablariga mos kelmasa, joylarda olib borilayotgan faoliyatning hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish ma’noga ega emas.

Muvofiqlikni tekshirish Hujjatlashtirilgan tizim korxonada yoki tashkilot xodimlari tomonidan tulik tushunilishi, joriy qilinganligi, xarakterda ekanligi va qo‘llab-quvvatlanishi darajasini belgilash uchun o‘tkaziladigan audit. Qo‘llanilayotgan standart u yoki bu faoliyatni amalga oshirish uchun hujjatlashtirilgan protsedura ishlab chiqilishini talab qilmasa, muvofiqlikni tekshirish, qo‘llanilayotgan standart talablarini bajarilishiga nisbatan amalga oshiriladi.

Audit ob’ektlari Mahsulot, jarayon yoki sifat tizimi audit ob’ektlari bo‘lishi mumkin.

Mahsulot auditi – mahsulotni amaldagi tavsiflarini belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish uchun mo‘ljallangan.

Jarayon auditi – jarayonni belgilangan talablarga muvofiqligini baholash uchun mo‘ljallangan. Bunda jarayonni rejalashtirilgan natijalarga erishish imkoniyati baholanadi.

Bunday auditlarga, kamchiliklari mahsulotni o‘lchash va sinash orqali aniqlanishi murakkab bulgan, lekin mahsulotdan foydalanish boshlangandan so‘ng yuzaga chikaigan maxsus jarayonlar (payvandlash, quyish, issiqlik bilan ishlov berish va h.k., shuningdek xizmat ko‘rsatish jarayonlarini ko‘pchiligi)ni tekshirish keng tarqalgan.

Sifat tizimi auditi – tizimni belgilangan talablarga muvofiqligini baxolash uchun mo‘ljallangan. Mahsulot va jarayon auditlaridan farqli o‘laroq, bu katta hajmdagi ma’lumotni olish va tahlil qilish bilan bog‘liq eng murakkab audit. Audit usullari Tashkilot sifat tizimini o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, shuningdek xarajatlarni optimallashtirish va audit dasturi vazifalarini bajarish uchun, auditni quyidagi sxemalar bo‘yicha rejalashtirishi mumkin:

- bo‘linma ishtirok etuvchi barcha jarayonlarni tadqiq qilgan holda, bo‘linmalar faoliyati auditi.

Bu usulni kamchiligi – sifat tizimi ta’minlash jarayonlari doirasida bo‘linmalar yoki sexlararo o‘zaro aloqani kuzatish mumkin emas.

• tashkilotni turli bo‘linmalarida har bir jarayonni ketma-ket tadqiq qilgan holda, sifat tizimi jarayonlari o‘zaro aloqasini auditi.

Auditor tashkilot tuzilmasini hisobga olgan holda barcha jarayonni «kuzatish» va jarayonlar doirasida bo‘linmalarni o‘zaro aloqasi to‘g‘risida ma’lumot olish imkoniyatiga ega.

Jarayonlar zanjirini kuzatishda auditorlar guruhini bo‘linmadan bo‘linmaga ko‘chishi uchun qo‘shimcha vaqt zarurligi bu usulni kamchiligi hisoblanadi. Bundan tashqari, yordamchi jarayonlar (hujjatlarni, yozuvlarni boshqarish va h.k.) tajribasiz auditor e’tiboridan chetda qolishi mumkin.

Amaliyotda ko‘pincha birlashgan usul qo‘llaniladi, ya’ni audit bo‘linmalar bo‘yicha o‘tkaziladi, lekin audit uchun bir necha aniq ob’ektlar (loyihalar, shartnomalar, buyumlar va h.k.) tanlanadi. Turli bo‘linmalarni tekshirishda, auditorlar auditni ushbu ob’ektiga taalluqli bo‘lgan jarayonlarni o‘zaro aloqasini kuzatadilar.

Audit ob’ektini tadqiq qilish quyidagi sxemalardan biri bo‘yicha amalga oshiriladi:

oldinga kuzatish – jarayonni boshidan uning natijasigacha yoki belgilangan nuqtagacha kuzatish;

ortga kuzatish – jarayonni natijasidan jarayonni boshlanishigacha kuzatish;

qisman kuzatish – tadqiqot jarayonni ixtiyoriy tanlangan nuqtasidan boshlab oldinga yoki ortga amalga oshiriladi.

Ichki auditni o‘tkazish.

Ichki auditlarni doimiy o‘tkazilishi quyidagilarga imkon beradi:

a) sifat tizimini qo‘llanilayotgan standart talablariga va tashkilot tomonidan hujjatlashtirilgan protseduralar, korxonalar standartlari, yo‘riqnomalar va boshqa hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiqligini ta’minlash;

b) rahbariyat va tegishli tomonlarda sifat tizimini natijaviyligi bo‘yicha ishonch tug‘dirish: ichki audit, tizim qanday faoliyat yuritayotganligi to‘g‘risida rahbariyatga ob’ektiv ma’lumot taqdim qilgan holda, aks aloqani ta’minlaydi.

v) operativ muammolarni aniqlash: istalgan tizimni tekshirish vaqtida, auditor tizimdagi yoki protseduralardagi muammolarni aniqlash imkoniyatiga ega;

g) to‘g‘rilovchi amallarni tadbik qilish uchun aks aloqani ta’minlash: ichki audit mobaynida belgilangan talablarga nomuvofiqliklar aniqlanadi, so‘ng aniqlangan nomuvofiqliklar sabablarini bartaraf qilish uchun to‘g‘rilovchi amallar ishlab chiqiladi va faoliyatga joriy kilinadi;

d) ichki audit tizim joriy qilinayotgan vaqtda sozlash uchun foydali mexanizmdir: sifat tizimini joriy qilish va sertifikatlashtirishga tayyorlash vaqtida

tizimni «ishga tushirish» va tizim «oqsoqlanayotgan» joylarni aniqlash imkoniyatini beradi.

Ichki auditlarni maqsadi – aybdorlarni izlash va jazolash emas. Bu tushunchani tashkilotni barcha xodimlariga etkazish lozim, chunki tashqi nazoratdan «ximoyalani» ob'ektiv ma'lumot olishga imkon bermaydi. Mumkin bo'lgan jazolashdan xavfsiragan holda, xodimlar zarur ma'lumotlarni berkitishi yoki noto'g'ri taqdim qilishi mumkin, bu holda audit natijalari tizimni faoliyati haqida ob'ektiv ma'lumot bermaydi, natijada tizim samarali ishlash urniga korxon va uning xodimlari uchun ortikcha kog'ozbozlikka aylanadi.

Audit tamoyillari

Auditni tayyorlash va amalga oshirishda ma'lum tamoyillarga rioya qilish kerak. Bu tamoyillarga rioya qilinishi audit natijalari bo'yicha etarli, ishonchli va ob'ektiv ma'lumotlar olishni zarur sharti hisoblanadi. ISO 19011:2002 standartida auditorlar uchun tekshirish jarayoniga taalluqli tamoyillar keltirilgan.

Auditorlar rahbarlik uchun qabul qiladigan tamoyillar:

- 1) O'zini madaniyatli tutish
- 2) Vijdonan, xolisona bayon qilish
- 3) Xaar bir xodimyoki jarayonga etarli e'tibor
- 4) Ijobiy yondoshuv.

Tekshirish jarayoniga taalluqli tamoyillar:

1) Mustaqillik – audit xolisligi va audit natijalari bo'yicha xulosalar ob'ektiv asosga ega ekanligi. Audit natijalari ob'ektivligini ta'minlash uchun auditorlar uzlari tekshirayotgan faoliyatdan mustaqil bo'lishlari kerak.

2) Isbotlarga asoslangan yondoshuv – audit natijalari bo'yicha ishonchli xulosalarni olishning ratsional usuli.

Faqat tekshirib asoslangan ma'lumot audit guvohligi bo'lishi mumkin, shuning uchun ishonchli ma'lumot olish uchun auditor ma'lumot yig'ishni turli usullari va ma'lumot olishni bir necha manbalaridan foydalanishi lozim.

YUqorida ko'rsatilgan tamoyillardan tashqari auditni ba'zi tashkiliy tamoyillarini ko'rib chiqishimiz kerak:

1) Yagonalilik tamoyili - har bir aniq audit, korxon rahbari tomonidan rasmiy belgilangan protsedura bo'yicha o'tkaziladi. Tashkilotda audit natijalarini taqdim qilishni yagona shakllarini qo'llanilishi, bir qator auditlarda olingan ma'lumotlarni tahlilini engillashtiradi.

2) Tizimlilik tamoyili - SMT turli elementlari bo'yicha aniq auditlarni rejalashtirish va o'tkazish ularni tarkibiy o'zaro aloqasini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

3)Hujjatlashtirish tamoyili - har bir auditni o'tkazish, audit o'tkazilayotgan ob'ektni xakikiy holati to'g'risidagi ma'lumotni saqlanishini ta'minlash maqsadida korxonada urnatilgan ma'lum bir tarzda hujjatlashtirilishi kerak.

4)Oshkoralik tamoyili – har bir audit anik rejalashtiriladi, tekshirish vaqtida xodimlar o'z o'rnilarida bo'lmasliklari yoki talab qilinadigan ma'lumotlarni berishdan bosh tortishlarining oldini olish maqsadida audit utkazish vakti va davomiyligi to'g'risida audit o'tkaziladigan bo'linma (ma'sul shaxs) oldindan ogohlantiriladi.

5)Doimiylik tamoyili - SMT barcha elementlari va barcha bo'linmalar korxonahabariyati tomonidan tahlil va baholash predmeti bo'lishini ta'minlash maqsadida auditlar davriylik bilan o'tkaziladi. Auditlar oralig'ini, tekshirilayotgan jarayonlarni maqomi va muhimligini, avvalgi auditlar natijalarini hisobga olgan holda tashkilotning o'zi belgilaydi.

6.Audit dasturini boshqarish

Audit dasturi aniq muddatlarga rejalashtirilgan bir yoki bir necha auditlarni o'z ichiga olishi mumkin. Biroq, audit dasturi auditlarni yillik grafigidan iborat emas, balki unda auditlarni rejalashtirish va tashkil qilish, shuningdek ularni belgilangan muddatlarda natijali va samarali bajarilishini uchun etarli darajada resurslar bilan ta'minlanishi talab etiladi.

Audit dasturida:

- audit maqsadlari va hajmi,
- audit dasturi bo'yicha umumiy va alohida auditlar bo'yicha javobgarlik,
- auditni o'tkazish jarayonlari ko'rsatiladi.

Tashkilot rahbariyati, audit dasturini boshqarish uchun javobgar shaxslarni tayinlashi va ularga audit dasturini belgilash, zarur resurslar bilan ta'minlash, dasturni joriy qilish, monitoring utkazish, tahlil kilish va yaxshilash uchun etarli vakolatlar berishi kerak.

Audit dasturini boshqarishni amalga oshiruvchi shaxslar javobgarliklari:

-audit dasturi maqsadlari va hajmlarini, shuningdek auditni o'tkazish protseduralarini aniqlash;

-auditlarni o'tkazishdagi mas'ul mutaxassislarni (auditorlik guruhi rahbari, auditorlar, stajyorlar va texnikaviy ekspertlar) aniqlash;

-audit dasturini rejalashtirish, joriy qilish, monitoringini utkazish va yaxshilash uchun zarur resurslar bilan ta'minlash;

-audit dasturi bajarilishini ta'minlash va audit dasturi bo'yicha tegishli yozuvlarni olib borish;

-audit dasturi monitoringi utkazish, tahlili va yaxshilash.

Yirik tashkilotlarda sifat tizimini ishlab chiqish va joriy qilish bosqichida ichki audit xizmatini tashkil qilishni ko'zda tutish maqsadga muvofiqdir.

Ichki audit xizmati amaliy ish tajribasiga ega va maxsus o'qishdan o'tgan mutaxassislar bilan ta'minlanishi kerak.

Bunda ushbu xizmat xodimlarining funksiyalari, javobgarligi va vakolatlari ichki audit bo'yicha protsedura va lavozim yo'riqnomalarida belgilanadi.

Auditlarni rejalashtirish.

Rejalashtirish bosqichida, audit dasturini boshqarish uchun javobgar shaxslar, audit dasturi maqsad va hajmlarini, shuningdek dastur bo'yicha javobgarlik, resurslar va protseduralarni aniqlaydilar.

Audit dasturini maqsadlari - bu ma'lum bir aniq auditni emas, balki korxonada utkaziladigan umuman auditlarning maqsadlaridir. Ichki audit uchun audit dasturini maqsadlari, masalan: «sifat tizimini standartga muvofiqligini aniqlash» yoki «faoliyatni yaxshilash mumkin bo'lgan sohalarni aniqlash» bo'lishi mumkin.

Audit dasturini hajmi - bu qaysi jarayonlar va bo'linmalar qachon tekshirilishi kerakligidir. Audit dasturini hajmi tashkilot jarayonlarini o'lchami, tipi va murakkabligiga bog'liq bo'ladi.

Tekshirishlarni kalendar asosida rejalashtirish mumkin, bunda ma'lum jarayonlar va bo'linmalar belgilangan vaqt oraliqlarida tekshiriladi.

Davriy tekshirishlardan tashqari qo'shimcha tekshirishlarni o'tkazish zaruriyati bo'lishi mumkin.

Qo'shimcha tekshirishlarni o'tkazish zaruriyatlari quyidagilardan kelib chiqishi mumkin: avvalgi audit dasturi natijalarini tahlili;

-ma'lum audit mobaynida aniqlangan nomuvofiqliklar bo'yicha joriy qilingan to'g'rilovchi amallarni natijaviyligini tasdiqlash;

-tashkilot tarkibiy tuzilmasi yoki faoliyatidagi ahamiyatli o'zgarishlar.

Tashkilotni qayta tashkil qilinishi, yangi texnologik yoki ma'muriy jarayonlarni, yangi protseduralarni joriy qilinishida, yangi faoliyat turlari va usullarini belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish uchun qo'shimcha tekshirishlarni utkazish mumkinligini ko'zda tutish kerak.

Audit dasturi hajmini aniqlashda quyidagi faktorlarni hisobga olish kerak:

-amaldagi dasturlar, loyihalar, kontraktlar.

-tashqi tekshirish ehtimoli. Tashqi auditga tayyorgarlik ko'rish uchun navbatdan tashqari ichki audit o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.

-potensial muammolarni ko'rsatuvchi, ma'lumotlar tahlillari natijalari.

Bu faktorlarni o'rganib chiqib, ma'lum bo'linma faoliyatini tekshirish zaruriyatini aniqlash mumkin.

Audit dasturi bo'yicha resurslar.

Tashkilot, auditlarni rejalashtirish bosqichida, audit dasturi bo'yicha qanday resurslar kerak bo'lishini aniqlashi va ularni ajratilishini ta'minlashi kerak.

Resurslarni aniqlashda quyidagilarni hisobga olish kerak:

-ichki auditlarni o'tkazish uchun xodimlar. Auditorlarni tekshirilayotgan faoliyatdan xolisligini ta'minlash uchun kichik korxonalarda auditlarni o'tkazish uchun tashqaridan mutaxassislarni taklif qilish extimolining mavjudligi;

-auditorlarni uslubiy qo'llanmalar, ma'lumot hujjatlar, yo'riqnomalar, ma'lumotlarni qayd qilish shakllari bilan ta'minlash uchun resurslar;

-auditorlar layoqatini baholash va ta'minlash, ularni ish faoliyatini yaxshilash uchun resurslar.

Masalan, auditorlarni o'qitish, seminarlar o'tkazish, auditorlarni maxsus adabiyotlar bilan ta'minlash uchun resurslar.

Audit dasturi bo'yicha protsedura.

Tashkilot:

-auditlarni rejalashtirish va auditorlar guruhini shakllantirish tartibini;

-auditorlarni layoqatini baholash va ta'minlash bo'yicha faoliyatni;

-auditlarni o'tkazish, shu jumladan aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf qilinishi va joriy qilingan to'g'rilovchi amallarni natijaviyligini tekshirish tartibini;

-audit dasturini bajarilishi monitoringi va natijaviyligini tahlilini belgilovchi protsedurani ishlab chiqishi kerak.

Ichki audit xizmati tegishli tashkiliy, me'yoriy va uslubiy hujjatlarni mavjudligi bu xizmatni samarali ishlashini muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Auditlarga tayyorgarlik ko'rish va amalga oshirish vaqtida uslubiy hujjatlarni qo'llanilishi quyidagilarga imkon beradi:

-so'rovlar o'tkazish, kuzatishlar natijalarini bayonlashtirish, hisobotlarni rasmiylashtirishda auditorlar ishini osonlashtiradi;

-auditda ish vaqtini qisqartiradi.

Audit dasturi bo'yicha yozuvlar

Ichki auditni rejalashtirish, amalga oshirish va uni natijalari bo'yicha hisobot hujjatlari (yozuvlar) ni olib borish zarur. Bu yozuvlarga:

-auditlar rejalari;

-auditlar bo'yicha hisobotlar;

-nomuvofiqliklar to'g'risida hisobotlar (aktlar);

-to'g'rilovchi amallar to'g'risida hisobotlar;

-auditorlarni ish tajribasi, ularni o'qishi to'g'risidagi yozuvlar;

-ularni faoliyati va layoqatligini baholash natijalari misol bo'la oladi.

Audit dasturini monitoringi va tahlili

Ichki audit jarayonining monitoringi rejalashtirilgan tadbirlar bajarilishini nazorat qilish va audit dasturi maqsadlariga erishilish darajasini baholash maqsadida o'tkaziladi. Ichki audit jarayonini «asboblar bilan o'lchab» bo'lmasligi sababli, monitoring o'tkazish va audit dasturi bajarilishi natijaviyligini baholashga imkon beruvchi jarayon indikatorlarini belgilash zarur.

Indikatorlarni quyidagilarga imkon beradigan qilib belgilash zarur:

-faoliyatni dastur va auditlar grafigiga muvofiqligini nazorat qilish (masalan, tegishli hujjatlarda rejalashtirilgan tadbirlar bajarilganligi, ularni bajarilgan sanasi va javobgar shaxsni imzo ko'rsatiladigan grafalar ko'zda tutilishi);

-auditorlar guruhini audit rejasini bajarish qobiliyatini baholash (bu erda indikator sifatida qo'llanilishi mumkin: ma'lum audit rejasini bajarilishi/bajarilmasligi, audit bo'yicha protseduralarga auditorlarni muvofiqligi/nomuvofiqligi, audit bo'yicha hisobotni taqdim qilish muddatlariga rioya qilinishi/qilinmasligi va h.k.).

Tashkilot audit dasturini monitoringi davomida olingan ma'lumotlarning tahlilini amalga oshirishi kerak. Bunday tahlil natijasida, audit dasturini boshqarish uchun javobgar shaxslar audit dasturini yaxshilash bo'yicha imkoniyatlarni aniqlashi va bu bo'yicha tadbirlar, shu jumladan to'g'rilovchi va oldini oluvchi amallarni joriy qilishi kerak.

Aytib o'tish lozim-ki, bu erda so'z audit davomida aniqlangan nomuvofiqliklar sabablarini bartaraf qilish uchun to'g'rilovchi amallar to'g'risida emas, audit dasturiga nisbatan to'g'rilovchi amallar haqida bormoqda. Masalan, tahlil natijasida sifat tizimini ishchi holatda tutish uchun utkazilishi zarur bulgan auditlar chastotasi kamligi yoki auditorlarning etarli layoqatga ega emasligi mumkin. Auditni o'tkazish

Istalgan audit cheklangan vaqt va cheklangan resurslar bilan amalga oshiriladi. Xar kandy tekshirishlar, tekshiruvchi va tekshiriluvchining vaqtini oladi. Auditor, yig'ilishlar, so'rovlar va h.k. o'tkazish vaqtida xodimlarni ishdan chalgitgan holda, ishlab chiqarish jarayonini buzishi mumkin, shuning uchun ham tekshirishni samarali o'tkazish uchun har bir auditga yaxshilab tayyorlanish kerak. Joylarda tekshirishni o'tkazish uchun uchta tayyorgarlik bosqichi bajariladi: «auditni boshlanishi», «hujjatlar tahlilini o'tkazish» va «joylarda tekshirishga tayyorgarlik».

Takrorlash uchun savollari

1. ISO 9000 seriyali standartlar tarkibi qaysi standartlardan tashkil topgan?
2. Sifatni boshqarish tizimlariga taalluqli xalqaro standartlarning yangilanish sabablarini nimalardan iborat?

VI-BOB. SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI SERTIFIKATLASHTIRISH

26§.Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish bo'yicha ekspertlarga qo'yiladigan talablar.

26.1. Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish bo'yicha ekspertlarga qo'yiladigan talablar. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan respublika korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishni kengaytirishga keng yo'l ochildi. Mamlakatimiz korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish, ularning eksport salohiyatini ko'paytirish va respublika korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarorida:

-Sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishni muvofiqlashtirish bo'yicha maxsus ishchi guruhning yangilangan tarkibi e'lon qilindi va quyidagilar maxsus ishchi guruhning asosiy vazifalari etib belgilandi:

-respublika korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish ishlarini muvofiqlashtirish va ularni o'z vaqtida sertifikatlashtirish;

-ishlab chiqaruvchi korxonalarda xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini o'z vaqtida ishlab chiqish, joriy etish va sertifikatlashtirish bilan bog'liq jarayonlarning tizimli monitoringini olib borish;

-xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etgan ishlab chiqaruvchi korxonalarni rag'batlantirishga doir takliflar ishlab chiqish.

"O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish" agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda ikki oy muddatda ilovada ko'rsatilgan korxonalar faoliyatini tahlil qilish asosida xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish istiqboliga ega bo'lgan korxonalarining aniq ro'yxati aniqlandi. Maxsus ishchi guruhning ular yuzasidan ijobiy qarorlari qabul qilingan mintaqaviy korxonalar bo'yicha xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini bosqichma-bosqich ishlab chiqish, joriy etish va sertifikatlashtirishga doir mintaqaviy tadbirlarni tasdiqlandi. Ilovaga kiritilgan korxonalar bo'yicha xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini bosqichma-bosqich ishlab chiqish, joriy etish va sertifikatlashtirishga doir tarmoq tadbirlarini tasdiqlandi; Qarorda belgilandi:

xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish uchun tegishli malakaga ega bo'lgan maslahatchini jalb etish ochiq tanlov asosida amalga oshirilishi;

xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini sertifikatlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organlari tomonidan amalga oshirilishi;

davlat ehtiyojlari uchun mahsulotlar xarid qilish yuzasidan tender savdolari o'tkazishda boshqa teng shart-sharoitlarda ustunlik sifatni boshqarishning sertifikatlashtirilgan tizimiga ega bo'lgan mamlakatimiz mahsulot etkazib beruvchilariga beriladi.

Vazirlar Mahkamasining "Korxonalarda xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2004 yil 22 iyuldagi 349-son qaroriga muvofiq foyda solig'ini hisoblashda yuridik shaxslarning soliq solinadigan foydasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishga va qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladigan investitsiyalar summasiga kamaytirilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi hamda Davlat bojxona qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda import bo'yicha bojxona boji va qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod qilinadigan texnologik asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlar ro'yxatiga laboratoriya tadqiqotlarida va mahsulotlarni testdan o'tkazishda foydalaniladigan asbob-uskunalar, shuningdek butlovchi buyumlar va ularga ehtiyot qismlarni bir oy muddatda, belgilangan tartibda kiritsinlar.

"O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish" agentligi xalqaro sifat standartlarini joriy etgan korxonalar reestrining ommaviy axborot vositalarida muntazam ravishda e'lon qilib borilishini ta'minlasin.

O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi va O'zbekiston Milliy axborot agentligi ishlab chiqarishlarda xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish bo'yicha korxonalar tajribasini har oyda ommaviy axborot vositalarida yoritib borsinlar. Bugungi kunda dunyoda, shu jumladan Respublikamizda ham ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatiga katta ahamiyat berilmoqda. Chunki sifatli mahsulot mustaqil davlatimizning eksport imkoniyatini kengaytirish, ularni jahon bozoriga olib chiqish, raqobatbardoshligini oshiribgina qolmay, Respublikamizga xorijiy sarmoyalarni kirib kelishiga, bu esa mamlakatimizning valyuta zaxirasini kupaytirish bilan birga, iqtisodiy mavqeimizni ham belgilab beradi.

Demak-ki har bir korxonalar rahbari o'z korxonasida xalqaro standartlar talablariga muvofiq mahsulot ishlab chiqarar ekan, bu bilan viloyatimiz iqtisodiyotining o'sishiga va valyuta zahirasini oshishiga o'z hissasini qo'shgan hisoblanadi.

Har bir korxonalar o'z mahsulotining sifatini namoyish qilish maqsadida ko'rgazmalarda va eng yaxshi mahsulot ko'rik tanlovlarida doimo qatnashadilar, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarining muvofiqlik sertifikatlariga ega ekanligini, ko'rsatilayotgan xizmatlar litsenziyalanganligi to'g'risida ko'p gapirib o'tishadi. Biroq hozirda jahon bozorida raqobat kun sayin kuchayib borishi bilan birgalikda iste'molchilarning mahsulotga bo'lgan talablari ham yanada ortmoqda.

SHu o'rinda bir qator savollar tug'iladi. Nima uchun mahsulotga berilgan muvofiqlik sertifikatlari iste'molchilarni qoniqtirmaydi? Nima uchun ko'rgazmalarda olingan sifat mukofotlari hamma vaqt tan olinmaydi? SHu kabi boshqa savollar ham talaygina. Keling mazkur savollarning echimini o'zimizdan so'rab ko'raylik. Biz mahsulotlarimizni qay tarzda sertifikatlashtirayapmiz? Qanday mahsulotlarimizni ko'rgazmalarda namoyish etayapmiz?

Aksariyat hollarda ko'rgazmalarimizga alohida tayyorlangan eng yaxshi ishlab chiqarilgan mahsulotlarni namoyish etamiz, bularni ko'rgazma uchun qattiq nazoratli sharoitlarda, barcha ko'rsatgichlarni standart talablariga muvofiq tayyorlaymiz.

Bu esa sertifikatlashtirish jarayonida ham uchrab turadi. Boshqa vaqtda bunday mahsulotlarni ishlab chiqarish o'z-o'zidan nazoratdan chetda qolish holatlari ko'proq uchraydi.

Iste'molchi esa mahsulot yoki xizmatlarning nafaqat sertifikatlashtirish yoki ko'rgazma paytidagi holatiga, balki doimiy ravishda sifatli mahsulotni iste'mol qilish tarafdori bo'ladi. SHuni unutmasligimiz kerakki, iste'molchi talabi kun sayin o'zgarib boraveradi. SHunday ekan, ishlab chiqarayotgan mahsulotlarimiz yoki ko'rsatayotgan xizmatlarimizda iste'molchi talablari doimiy ravishda o'rganib borilishi lozim. Bugungi kunning iste'molchisi, ishlab chiqaruvchidan doimiy ravishda yuqori sifatli mahsulot sotib olishi uchun kafolat talab qiladi. Bu esa - bozor qo'yayotgan talablarning asosiy taomillaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy rivojlantirish va mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarining eksport salohiyatini oshirish uchun xalqaro standartlarni joriy etish borasida Hukumatimiz tomonidan bir qator Qarorlar qabul qilingan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 22 iyuldagi №349-sonli "Korxonalarda xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2006 yil 29 avgustdagi №183 sonli "Korxonalarda xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan

sifatni boshqarish tizimlarini joriy qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi va joriy yilning 19 iyunidagi "Korxonalarda xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi №173-sonli Qarorlaridir.

Qarorning 4-bandida "xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish va sertifikatlashtirish amalga oshirilishi tahliliga bag'ishlangan masalalarni komplekslarning choraklik majlislarida muntazam ko'rib chiqish hamda boshqaruvning barcha darajalarida ish yakunlarini chiqarishda sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish bo'yicha ko'rsatgichlardan rahbarlar ishlarini baholash sifatida foydalanish lozim"ligi ko'rsatib o'tilgan.

5-bandida esa "davlat ehtiyojlari uchun mahsulotlar xarid qilish yuzasidan tender savdolari o'tkazishda, boshqa teng sharoitlarda ustunlik xalqaro standartlarga muvofiq sifatni boshqarish tizimlarini sertifikatlashtirgan va tizimga ega bo'lgan malakatimiz mahsulot etkazib beruvchilariga beriladi" deb ko'rsatilgan. Bundan tashqari tizimni joriy etgan korxonalariga bir qator imkoniyatlar ham yaratib berilgan.

Hukumatimiz tomonidan yaratilgan imkoniyatlarga qaramasdan, xozirda viloyatimizda bu borada olib borilayotgan ishlarni qoniqarli deb bo'lmaydi albatta. Statistika murojat qiladigan bo'lsak Respublikamizda 250 dan ziyod korxonalar sifatni boshqarish tizimlarini joriy etib sertifikatlashtirgan bo'lsa, viloyatimizda atigi 2 ta korxonada sifatni boshqarish tizimlari joriy qilinib, sertifikatlashtirilgan.

Beixtiyor savol tug'iladi: buning sabablari nimada?

Birinchidan, xodimlarning korxonada sifat management tizimini joriy qilishdan maqsad va uning afzalliklarini tushunmasligi bo'lsa,

Ikkinchidan, rahbar xodimlarning o'zgarish va yangiliklarga ko'nikishlarining qiyin kechishi, Uchinchidan, loyihaning rahbariyat tomonidan qo'llab quvvatlanmasligidir.

Mana shu muammolar hal etilgan taqdirdagina qaror ijrosini ta'minlash yuzasidan kelib chiqayotgan muammolar o'z-o'zidan hal bo'ladi.

Buning uchun, korxonalar rahbarlari o'zlarining olib borayotgan siyosatlarini tubdan o'zgartiribgina qolmay, soat sayin o'zgarib borayotgan bozor talablariga moslashishlari, sifat sohasidagi siyosat va maqsadlarni to'liq anglagan holda ishchi xodimlarga ham etkazishlari lozim bo'ladi.

Normativ hujjatlarga havolalar, quyida ko'rsatilgan havola hujjatlari ushbu standartni qo'llash uchun majburiydir. Sanasi belgilangan havolalar uchun faqat sitata olingan (keltirilgan) nashr qo'llaniladi. Sanasi belgilanmagan havolalar uchun oxirgi keltirilgan nashr (jumladan har qanday tuzatishlar) qo'llaniladi.

O'z DSt ISO 9000: Sifat menejmenti tizimlari. Asosiy qoidalar va lug'at

Atamalar va ta'riflar Ushbu standartda O'z DSt ISO 9000:2009 dagi atamalar va ta'riflardan foydalaniladi. Mazkur standart matnidagi «mahsulot» atamasi «xizmat» ni ham bildirishi mumkin

26.2. Ularning vazifalari, majburiyatlari va javobgarliklari. Sifat menejmenti umumiy talablar tashkilot sifat menejmenti tizimini ishlab chiqishi, hujjatlashtirishi, joriy qilishi va ishchi holatda saqlab turishi, ushbu standart talablariga muvofiq holda uning natijaliligini doimo yaxshilashi kerak. Tashkilot:

- a) sifat menejmenti tizimi uchun zarur bo'lgan jarayonlarni aniqlashi va ularni butun tashkilotda qo'llashi;
- b) ushbu jarayonlarning ketma-ketligi va o'zaro bog'lanishini aniqlashi;
- s) ushbu jarayonlarni ham amalga oshirishda, ham boshqarishda natijaliligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan mezonlar va usullarni aniqlashi;
- d) ushbu jarayonlarni ishlab turishini saqlash va ularni monitoring qilish uchun zarur bo'lgan resurslar hamda axborot bilan ta'minlashi;
- e) ushbu jarayonlarni monitoring qilish, o'lchash (qo'llanilganda) va tahlil qilishni amalga oshirishi; hamda
- f) ushbu jarayonlarni rejalashtirilgan natijalarga erishishi va doimiy yaxshilanishi uchun zarur bo'lgan harakatlarni amalga oshirishi kerak.

Tashkilot mazkur standart talablariga muvofiq ushbu jarayonlar menejmentini amalga oshirishi kerak.

Agar tashkilot mahsulotga qo'yiladigan talablarga muvofiqligiga ta'sir etuvchi qandaydir jarayonni amalga oshirishni chet tashkilotlarga topshirishga qaror qilsa, tashkilot bunday jarayonlarni boshqarilishini o'zi tomonidan ta'minlashi kerak. Boshqarish turi va hajmi sifat menejmenti tizimi doirasida aniqlanishi lozim.

Autsorsing jarayonlariga nisbatan qo'llaniladigan boshqaruv turi va darajasiga quyidagi omillar ta'sir etishi mumkin: a) tashkilotning talablarga muvofiq mahsulotni etkazib berishga qodirligiga autsorsing jarayonining mumkin bo'lgan ta'siri; b) jarayonni boshqarish darajasi; c) qo'llash doirasida zarur boshqaruvga erishish qobiliyati.

Takrorlash uchun savollari

1. Sifat menejmenti tizimining qanday tamoyillari mavjud?
2. Sifat menejmenti tizimining qanday tamoyillarining maqsad va vaziflari hamda ularning mohiyatini tushuntiring.
3. "Jarayon" tushunchasini tushuntiring.
4. Jarayonli yondashishning afzalliklari nimalardan iborat?
5. Sifat menejmenti tizimi modelining mohiyati nimadan iborat?

27§. Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish.

27.1. Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish. Mahsulotlar, xizmatlar va ishlarni sertifikatlashtirish – mahsulotni o‘rnatilgan talablarga va uning sifati bilan to‘g‘ri bog‘liqligini tasdiqlashdir. Sifatsiz mahsulot sertifikatlashtirilishi mumkin emas.

Sertifikatlashtirish quyidagi yo‘nalishlarga: mahsulot (xizmat) iste‘molchilarning tanlash layoqatliligi faoliyati; iste‘molchilarni nopok va vijdotsiz ishlab chiqaruvchilar (sotuvchi, bajaruvchi)dan himoya qilish; mahsulot (xizmat, ishlar)ni atrof-muhit, yashash va jamiyat sog‘lig‘i uchun xavfsizligini nazorat qilish; mahsulot (xizmat, ishlar) sifat ko‘rsatkichlari va ushbu mahsulotni ishlab chiqargan ishlab chiqaruvchilar (bajaruvchilar)ni tasdiqlash; tashkilot va xususiy tadbirkorlar faoliyatini Respublikamiz yagona tovar bozorini hamda xalqaro iqtisodiyotda, ilmiy-texnik hamkorlikda va xalqaro savdolarda qatnashishi uchun imkoniyat yaratish sohasida ish olib boradi.

Muvofiqlikni tasdiqlash va baholash tizimi mahsulot sifati va xavfsizligini, ishlar va xizmatlarni nazorat qilish va buning uchun davlat tekshiruvi va nazorati, litsenziyalashtirish, ixtiyoriy sertifikatlashtirish bilan boshqa nazorat shakllarining asosiy mexanizmi bo‘lishi bilan ahamiyatlidir.

Respublikamizda sertifikatlashtirishning rivojlantirish istiqboli mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish, shu bilan birga «muvofiqlikni tasdiqlash va baholash» - tizimiga o‘tish, hamda bu faoliyatni takomillashtirish bo‘yicha «O‘zstandart» agentligi tomonidan qabul qilingan konsepsiyada to‘liq tarzda yoritib berilgan.

SHu sabablarga ko‘ra, ushbu kulanma ma‘ruza matni respublikamizdagi amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ta‘lim borasidagi islohotlarga yondashgan holda jumladan, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish sohalaridagi bilimlarni etkazishda standartlashtirish asoslari tayanch faoliyat ekanlagini inobatga olib yaratishga harakat qilindi.

O‘z istiqloli yo‘lida shaxdam qadam tashlab boraётgan, mustaqil O‘zbekiston Respublikasida sertifikatlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohalarida muhim va salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

27.2. Sertifikatlashtirishni o‘tkazishdan maqsadi va uni o‘tkazish sharoitlari va ob‘ektlari. O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqilgan me‘ëriy hujjatlarga binoan muvofiqlik sertifikatlashtirishning asosiy maqsadlari:

Mahsulot, jaraèn va xizmatlarda fuqarolarning haèti va sog'ligining havfsizligini ta'minlash, tashqi - muhitni asrash, buyum (mollar)ning bir xilligi va o'zaro almashinuvchanligi masalalari, hamda iste'molchini ximoya qilish;

Xalqaro savdoda texnikaviy to'siqlarni bartaraf qilish, mollar (buyumlar, jaraèn va xizmatlar)ni raqobatbardoshlik qobiliyatini oshirishdan iborat.

Respublika korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishni kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. Mamlakatimiz korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish, ularning eksport salohiyatini ko'paytirish va respublika korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, xo'jalik birlashmalari va korxonalarining xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini 2011 yil 1 yanvargacha joriy etish to'g'risidagi 2-ilovaga* muvofiq takliflariga rozilik berilsin.

Maxsus ishchi guruhga, zaruriyat bo'lganda, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, boshqa manfaatdor davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, shuningdek respublika korxonalarining takliflari asosida ushbu qarorga 2-ilovaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqi berilsin.

"O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish" agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda ikki oy muddatda ko'rsatilgan korxonalar faoliyatini tahlil qilish asosida 2011 yil 1 yanvargacha xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish istiqboliga ega bo'lgan korxonalarining aniq ro'yxatini tasdiqlash uchun Sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishni muvofiqlashtirish bo'yicha maxsus ishchi guruhga kiritsin. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Maxsus ishchi guruhning ular yuzasidan ijobiy qarorlari qabul qilingan mintaqaviy korxonalar bo'yicha xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini bosqichma-bosqich ishlab chiqish, joriy etish va sertifikatlashtirishga doir mintaqaviy tadbirlarni tasdiqlasinlar.

Vazirlar Mahkamasi Komplekslari: ikki hafta muddatda ushbu qarorga 2- ilovaga kiritilgan korxonalar bo'yicha xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini bosqichma-bosqich ishlab chiqish, joriy etish va sertifikatlashtirishga doir tarmoq tadbirlarini tasdiqlasinlar;

xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish va sertifikatlashtirish amalga oshirilishi tahliliga bag'ishlangan masalalarni Komlekslarning choraklik majlislarida muntazam ravishda ko'rib chiqsinlar;

boshqaruvning barcha darajalarida ish yakunlarini chiqarishda xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish bo'yicha ko'rsatkichlardan rahbarlar ishlarini baholash mezonlaridan biri sifatida foydalansinlar.

Belgilansinki: xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish uchun tegishli malakaga ega bo'lgan maslahatchini jalb etish ochiq tanlov asosida amalga oshiriladi;

xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini sertifikatlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organlari tomonidan amalga oshiriladi;

davlat ehtiyojlari uchun mahsulotlar xarid qilish yuzasidan tender savdolari o'tkazishda boshqa teng shart-sharoitlarda ustunlik sifatni boshqarishning sertifikatlashtirilgan tizimiga ega bo'lgan mamlakatimiz mahsulot etkazib beruvchilariga beriladi.

Vazirlar Mahkamasining «Korxonalarda xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2004 yil 22 iyuldagi 349-son [qaroriga](#) muvofiq foyda solig'ini hisoblashda yuridik shaxslarning soliq solinadigan foydasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishga va qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladigan investitsiyalar summasiga kamaytirilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi hamda Davlat bojxona qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda import bo'yicha bojxona boji va qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod qilinadigan texnologik asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlar ro'yxatiga laboratoriya tadqiqotlarida va mahsulotlarni testdan o'tkazishda foydalaniladigan asbob-uskunalar, shuningdek butlovchi buyumlar va ularga ehtiyot qismlarni bir oy muddatda, belgilangan tartibda kiritsinlar.

"O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish" agentligi xalqaro sifat standartlarini joriy etgan korxonalar reestrining ommaviy axborot vositalarida muntazam ravishda e'lon qilib borilishini ta'minlasin.

O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi va O'zbekiston Milliy axborot agentligi ishlab chiqarishlarda xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni

boshqarish tizimlarini joriy etish bo'yicha korxonalar tajribasini har oyda ommaviy axborot vositalarida yoritib borsinlar.

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 4-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri SH.M. Mirziyoev zimmasiga yuklansin.

Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlarning tashqi va ichki bozorlarda raqobatbardoshligini yanada oshirish, respublikaning eksport salohiyatini ko'paytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

Sinov laboratoriyalariga ega bo'lgan korxonalar belgilangan tartibda tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq laboratoriyada tekshirish va test sinovidan o'tkazishda foydalaniladigan texnologiya jihozlari, shuningdek butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlarni chetdan keltirishda, agar ularni etkazib berish texnologiya jihozlari etkazib berish uchun tuzilgan kontrakt shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa, bojxona to'lovlaridan, shu jumladan qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinsin (bojxonada rasmiylashtirish yig'implari bundan mustasno).

Takrorlash uchun savollari

1. ISO 9001 standarti sifat menejmenti tiimiga qanday talablarni qo'yadi (4.1 bandi)?
2. Sifat menejmenti tizimidagi jarayonlarni sanang?
3. Jarayon uchun kirish va chiqishlar nimalar bo'lib hisoblanadi?
4. Jarayonni amalga oshirish uchun resurslarning qanday turlari kerak?
5. Menejmentdagi biznes-jarayonlar, yordamchi jarayonlar va boshqarish jarayonlarining mohiyatini tushuntiring.
6. ISO 9001 standartida tashqi tashkilotlarning jarayonlariga qanday talablar qo'yilagan?

28§. Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish bosqichlari.

28.1. Sertifikatlashtirishdan oldingi bosqich, baholash auditini o'tkazish. Sertifikatlashtirishning asosiy bosqichlari. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi. O'zbekiston Respublikasida mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 6 iyuldagi №318-sonli «Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qaroriga binoan "O'zstandart" agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Davlat

tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda quyidagi ishlarni amalga oshirishadi:

-chetdan keltirilayotgan mahsulotlardan akkreditatsiya qilingan idoralar va laboratoriyalar tomonidan sinov o‘tkazish uchun namuna olishning cheklangan normalarini belgilash;

-akkreditatsiya qilingan idoralar va laboratoriyalar o‘rtasida sinovlarning takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida sinovlar turlarini belgilash;

-o‘zlariga qarashli akkreditatsiya qilingan laboratoriyalarda mahsulotlarni sinovdan o‘tkazish xizmatlariga tariflarni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida (uning hududiy bo‘linmalarida) oldindan deklaratsiya qilish.

Muvofiqlik sertifikatlari mavjudligini tekshirish faqat majburiy tartibda sertifikatlanadigan mahsulotlarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

"O‘zbekiston texnik jixatdan tartibga solish" agentligida "Standartlashtirish to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunida belgilangan standartlashtirish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlar toifalarini tayyorlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomning hamda Majburiy tartibda sertifikatlanadigan bir turdagi mahsulotlarning har bir turini ularda sertifikatlashtirishning tegishli me‘yoriy hujjatlarda belgilangan xavfsizlik ko‘rsatkichlari ko‘rsatilgan Qoidalarining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkazadi va majburiy tartibda sertifikatlanadigan mahsulotlarning nomenklatura ro‘yxati, ularning sifatini va xavfsizligini belgilovchi me‘yoriy hujjatlarni ko‘rsatgan holda, nashr etilishini hamda bojxona, soliq va akkreditatsiya qilingan idoralarga jo‘natadi. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartiboti sxemasi keltirilgan.

Xizmatlarni sertifikatlashtirish sxemalari. Sertifikatlashtirish bo‘yicha ISO tarkibidagi qo‘mita tomonidan tayyorlangan hujjatda uchinchi tomon tarafidan amalga oshiriladigan sertifikatlashtirishning sakkizta sxemasi berilgan bo‘lib, respublikamizda ham aynan shu 9 ta sxema tadbiriq etilgan:

-Birinci sxema. Bu sxema bilan faqat mahsulot namunalari turlarini standartlar talablariga muvofiqligini maxsus tasdiqlangan sinov tashkilotlarida sinovdan o‘tkaziladi. Bu xildagi sertifikatlashtirishda sinovga taqdim etilgan namunani belgilangan talablarga muvofiqligi tasdiqlanadi, xalos. Bu yo‘l o‘zining soddaligi va unga ko‘p xarajat talab qilmasligi tufayli milliy va halqaro savdo munosabatlarida muayyan darajada tarqalgan.

-Ikkinchi sxema. Bu sxemada mahsulotning namuna turlarini maxsus tasdiqlangan sinov tashkilotlarida sinovdan o‘tkazilib, so‘ngra uning sifatini savdo shahobchalaridan vaqti-vaqti bilan olinadigan namunalar asosida nazorat qilib

boriladi. Bu usul taqdim etilgan namunalar sifatini baholash bilan seriyali chiqayotgan mahsulotning sifatini ham baholash imkonini beradi. Usulning afzalligi uning soddaligidir. Uning kamchiligiga esa nazorat sinovlar natijasiga qarab, agar mahsulot standart talablariga nomuvofiqligi aniqlanilsa, baribir uni savdo shahobchalaridan chiqarib tashlash mumkin bo'lmaydi yoki uni chiqarib tashlash uchun birmuncha qiyinchiliklar tug'iladi.

-Uchinchi sxema. Mahsulot namunalarining turlarini maxsus tasdiqlangan sinov tashkilotlarida o'tkazish, so'ngra sotuvchi yoki iste'molchiga yubormasdan turib vaqti-vaqti bilan namunalarning tekshiruvini nazorat qilishga asoslanadi. Ikkinchi sxemadan farqlanuvchi tomoni shuki mahsulot savdo shahobchalariga tushmasdan turib, sinov nazorati o'tkaziladi va standartga nomuvofiqligi aniqlansa, mahsulotning iste'molchiga jo'natilishi to'xtatiladi.

-To'rtinchi sxema. Mahsulot namunalarining turlarini xuddi 1-3-sxemalardek sinovdan o'tkazishga asoslangan bo'lib, so'ngra savdo shahobchasidagi hamda ishlab chiqarishdan olingan namunalarning tekshirish nazorati vaqti-vaqti bilan o'tkazish orqali mahsulotning sifati hisobga olinadi. Bu holda mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, uning chiqarilishiga ma'lum xarajatlar bo'lgandan keyin standart talablariga nomuvofiqligi aniqlanadi.

-Beshinchi sxema. Bu sxema mahsulot namuna turlarini tasdiqlangan sinov tashkilotlarida o'tkazishga va mahsulot ishlab chiqarishning sifatini baholashga asoslangan bo'lib, so'ngra savdo shahobchasida va ishlab chiqarishda namunalar sifatini vaqti-vaqti bilan tekshirilib nazorat qilib boriladi. Bu sertifikatlashtirish usuli faqat mahsulotning sifatini nazorat qilibgina qolmay, balki korxonada chiqaziladigan mahsulotning sifatini kerakli darajada bo'lishini ham nazorat qiladi. Tabiiyki, korxonadagi mahsulot sifatini ta'minlashda, tizimni baholanishida uning mezonini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ushbu usul sanoati rivojlangan mamlakatlarda hamda xalqaro sertifikatlashtirish tizimlarida eng ko'p tarqalgan sxemadir. Birinchi-to'rtinchi sxemalarga qaraganda bu sxema eng murakkab va nisbatan qimmatroq turadigan sxema bo'lib, uning afzalligi iste'molchi mahsulot sifat darajasini yuqori ekanligiga ishonch hosil qiladi, bu esa asosiy mezon hisoblanadi.

-Oltinchi sxema faqat korxonadagi mahsulotning sifatini ta'minlash bilan tizimni baholanishini o'tkazishga mo'ljallangan. Bu usul ayrim vaqtda korxonatayyorlovchini attestatlash deb ham yuritiladi. Bu xil sertifikatlashtirishda faqat korxonaning belgilangan sifat darajadagi mahsulotni chiqarish qobiliyati baholanadi.

-Ettinchi sxema. Mahsulotning har bir tayyorlangan to' dasidan sinovlarga tanlab olishga asoslangan. Tanlab olish sinovlarining natijalariga qarab to'dani

ortish uchun qaror qabul qilinishi aniqlanadi. Bu xildagi sertifikatlashtirish uchun tanlanmaning hajmi aniqlanishi lozim, bu esa tayyorlangan to‘daning katta-kichikligiga maqbul bo‘ladigan sifat darajasiga bog‘lik. Qabul qilingan qoidaga asosan tanlanmani to‘plash vakolatlangan sinov tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Bu xil sertifikatlashtirish qo‘llanilishi statistik usulni qo‘llash bilan bog‘liqdir.

-Sakkizinchi sxema. Har bir tayerlangan, ayrim buyumning standartlar talabiga muvofiqligi sinovlar o‘tkazib aniqlashga asoslangan. Bu sertifikatlashtirish usulida yuqorida-7 sxemalariga qaraganda ta‘minlovchining ma‘suliyati ancha yuqori. Tabiiyki muvoffaqiyatli sinovlardan o‘tgan buyumlargina sertifikat yoki muvofiqlik belgisini oladi. 8-sxema mahsulotga nisbatan yuqori va qat‘iyroq talablar qo‘yilganda ishlatilishga asoslangan yoki mahsulotning ishlatilishi natijasida standart talablarga mos kelmasligi iste‘molchiga katta iqtisodiy zarar etkazganida qo‘llaniladi. Bu xil sertifikatlashtirish qimmatbaho metallardan va qotishmalardan tayyorlanadigan buyumlarda ko‘proq qo‘llaniladi. Bundan asosiy maqsad qimmatbaho metallarning belgilangan miqdorini, tarkibini va buyumning tozaligini tekshirishdir.

-To‘qqizinchi sxema. Mahsulotlarni deklaratsiya muvofiqligi sertifikati bo‘lib, mahsulot haqidagi deklaratsiya hujjatlari bilan birgalikda sertifikatlashtirish tushuniladi. Buyuk Britaniya instituti tomonidan setrifikatlashtirishning yangi xili yaratilib, bu usul bilan faqat ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlarini tasdiqlanishi /attestatlanishi/ga asoslangan.

Hozirgi paytda adabiyotlar va informatsion ma‘lumotnomalarda har bir sertifikatlashtirish sxemasining afzalligi va kamchiliklari tahlil etilgan. Bularning ichida eng mukammal va murakkabi beshinchi sxemadir. Bu sxema to‘liq bo‘lganligi uchun uni asos qilib olib, hozirgi zamon xalqaro sertifikatlashtirish tizimini yaratilmoqda. Sertifikatlashtirish tizimlarini boshqaruvchi idora muayyan turdagi mahsulot sifatining nazoratini tashkil etish, standartlarga rioya qilishni majburiy talab etishini, iste‘molchi va savdo talablarini e‘tiborga olib, mamlakatdagi amalda bo‘lgan qonunlar va me‘yoriy hujjatlar asosida o‘z ishini tashkil etadi. Sertifikatlashtirish idorasi sinovlarni o‘tkazish, korxonadagi va savdo shahobchasidagi mahsulotning sifatini nazorat qilish hamda nazoratni tashkil qilish va shunga o‘xshashlarni bajarib uchinchi tomon vazifasini bajaradi.

28.2. Tashkilotning sifat tizimini tekshirish va baholash. Sertifikatlash ob’ektlarni inspeksion nazorati. Akkreditlashtiruvchi idora (O‘zstandart Agenligining inspeksion nazorat bo‘limi) yilida bir marta akkreditlangan ob’ektlar faoliyatining inspeksion nazoratini o‘tkazadi. Inspeksion nazoratni o‘tkazishga

talablar Adliya vazirligida 20.04.2005 yil №1472 sonli ro'yxatga olingan «Akkreditlangan sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar va sinov laboratoriyalari (markazlar) faoliyatlarining inspeksion nazoratini o'tkazish qoidalari»da belgilangan.Me'yoriy hujjatlar, sifat tizimining hujjatlashtirilgan protseduralari, akkreditatsiya sohasi hamda sertifikatlashtirish va sinash bo'yicha hujjatlar inspeksion nazorat ob'ektlari bo'lib hisoblanadi. Inspeksion nazorat akkreditlashtiruvchi idora bilan tuzilgan kelishuvga muvofiq rejalashtirilgan tartibda amalga oshiriladi. Ushbu kelishuvga binoan akkreditlashtiruvchi idora rahbari har yili tasdiqlovchi, ob'ekt faoliyati inspeksion nazoratining yillik reja-grafigini tuziladi.Sertifikatlashtirish bo'yicha idora faoliyatining rejadan tashqari inspeksion nazorati, sertifikatlashtirish protsedurasi bo'yicha arizachiga noqonuniy munosabatdagi faoliyati va muvofiqlik sertifikatini noqonuniy berishi va asoslanmagan dalillar to'g'risida rasmiy tasdiqlashi muayyan aniq dalillarda keltirilgan, shuningdek, arizachining tijorat sirlarini oshkora qiluvchi ma'lumotlar kelgan holatlarda o'tkaziladi.Inspeksion nazoratini o'tkazish uchun akkreditlovchi idoraning ya'ni inspeksion nazoratni amalga oshiruvchi komissiya tarkibi va uni o'tkazishning aniq muddatini ko'rsatuvchi buyrug'i asos bo'lib hisoblanadi. Inspeksion nazoratni o'tkazish muddati o'ttiz kalendar kundan oshmasligi lozim.Inspeksion nazoratni sifat bo'yicha ekspert-auditorlar amalga oshirishadi. Ob'ekt akkreditatsiya sohasiga bog'liqligidan komissiya tarkibiga inspeksion nazorati vaqtida ko'riladigan masalalar bo'yicha malakali mutaxassislarni (sinov turlari bo'yicha ekspertlar, tayyorlovchining vakillari, iste'molchilarni huquqlarini himoya qilish jamiyati, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari) kiritish mumkin. Komissiya a'zolari maxfiylikni ta'minlash bo'yicha talablarga rioya qilishlari shart.Inspeksion nazorat, akkreditlovchi idora rahbari tasdiqlagan dastur bo'yicha o'tkaziladi. Inspeksion nazorat dasturida tekshirish ob'ekti va maqsadi, inspeksion nazoratni o'tkazish bo'yicha ishlar tartibi va hajmi tarkib topgan bo'lishi shart.Inspeksion nazorat boshlanishidan oldin Komissiya rahbari tekshirilayotgan tashkilot rahbarini inspeksion nazorat maqsadi va shartlari, komissiya a'zolari bilan tanishtirishi, hamda buyruq va dasturni bir nusxasini berishi va ular olganligini to'g'risida tilxat olishi shart.

Sertifikatlashtirish bo'yicha idora faoliyatining rejali inspeksion nazoratida quyidagilar tekshiriladi:baholashning mustaqilligi;laboratoriyalar bilan o'zaro faoliyati;tanlash dalolatnomasi va identifikatsiyasi mavjudligi hamda muvofiqligi, sinov bayonnomalari, sertifikatlashtirish bo'yicha ishlab chiqarish ko'rigi dalolatnomalari, sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni inspeksion nazoratining reja-grafigi;muvofiqlik sertifikatini berish to'g'risida qabul qilingan qarorlarni asoslanganligi, muvofiqlik sertifikatini to'g'ri rasmiylashtirilganligi,

sertifikatlashtirish bo'yicha qaror qabul qilish uchun foydalanilgan MH lardagi ma'lumotlar va muvofiqlik sertifikatidagi ma'lumotlarning muvofiqligi;berilayotgan muvofiqlik sertifikatlarini ro'yxatga olinishi;muvofiqlik sertifikatlarining blanklarini qat'iy hisobi; arizachilarining da'vo, shikoyatlari tahlil va hisobi;akkreditlashtirish haqida guvohnoma; mahsulot va xizmatlarga MH ta'minlanganligi, ularni amal qilish muddati, ularga o'zgarishlarni o'z vaqtida kiritilishi; muvofiqlik sertifikati va belgisidan noto'g'ri qo'llanilganligi uchun sertifikatlangan mahsulot tayyorlovchisiga qo'llanilgan choralari;xodimlarning malakasi va layoqatligini muvofiqligi, bajaridigan vazifalari, xodimlarni attestatsiyalash va malakasini oshirishga taaluqli qabul qilingan faoliyati, lavozim va ishchi yo'riqnomalarning mavjudligi;sertifikatlashtirish bo'yicha idora faoliyati va shuningdek laboratoriya xizmatlari bilan aloqador ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlanishi;akkreditlashtirish idorasi, hamda uning qarorlarini bajarishda o'zaro faoliyati.

Laboratoriya faoliyatining rejali inspeksion nazoratida quyidagilar tekshiriladi: sinov (o'lchash)larni o'tkazishda mustaqillik va xolislik;akkreditlashtirish idorasi, sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar va boshqa akkreditlangan sinov laboratoriyalari bilan o'zaro faoliyati va shuningdek, akkreditlashtiruvchi idoraning, laboratoriya faoliyati bilan aloqador qarorlarini bajarish; laboratoriya akkreditlashtirish sohasiga muvofiq, sinov bayonnomalarini mavjudligi va muvofiq rasmiylashtirilishi, to'liq va to'g'ri taqdim etilishi, ularni yuritish va saqlash tizimi; arizachilarning da'vo, shikoyatlari tahlili va hisoboti;akkreditlashtirish to'g'risidagi guvohnoma; mahsulotlarga MHlarni ta'minlanganligi, ularni amal qilish muddati, ularga o'zgarishlarni o'z vaqtida kiritilishi;xodimlarning malakasi va layoqatligini muvofiqligi, bajaridigan vazifalari, xodimlarni attestatsiyalash va malakasini oshirishga taaluqli qabul qilingan faoliyati, lavozim va ishchi yo'riqnomalarning mavjudligi;inshoatning holati, inshoatning mikroklimatik parametrlarini qurilish va sanitariya me'yorlari hamda qoidalri talablariga muvofiqligi;sinovlarning o'tkazish sharoitlarini muvofiqligi, laboratoriya akkreditlashtirish sohasi va sinov usullariga MHlarida o'rnatilgan xavfsizlik talablari va me'yorlariga ta'sir qiluvchi zararli ishlab chiqarish omillari va xavfli parametrlar; qiyoslangan o'lchov vositalari va attestatlangan sinov qurilmalari, boshqa texnikaviy vositalar shuningdek, davlat standart namunalari, boshqa toifadagi standart namunalari, attestatlangan aralashmalari, ularni metrologik ta'minlash maqsadida va sifat menejmenti tizimi protseduralari va sinov (o'lchash) usullari talablariga muvofiqligi holatlari; sinaladigan (o'lchanadigan) namunalari va yozuvlarni yuritish (talabnomani qabul qilish, tanlanma dalolatnomasi, ro'yxatga olish, namunalarni saqlash sharoitlari va

utillashtirish) bilan murojaat qilishga talablarga rioya qilish;laboratoriya faoliyati bilan hamda u xizmatlaridan foydalanayotgan sertifikatlashtirish bo'yicha idora va nazorat idoralari bilan aloqador ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash;laboratoriyalararo solishtirish natijalari. Zaruriyat bo'lganda, agarda laboratoriyalararo solishtirish o'tkazilmasa, laboratoriya layoqatliligini tasdiqlash maqsadida nazorat sinovi (o'lchashi) o'tkaziladi. Nazorat sinovi (o'lchash)ga yo'naltirilgan mahsulotlar turi, mahsulotlarning tekshiriladigan tavsiflari, namunani (proba) tanlash va tayyorlash, nazorat sinovi (o'lchash) dasturida o'rnatilgan tavsiflar qiymatining anonimligini ta'minlash. Inspeksion nazorati vaqtida nomuvofiqliklar topilganda nomuvofiqlik to'g'risidagi bayonnoma rasmiylashtiriladi. Komissiya inspeksion nazorati natijalari bo'yicha akkreditatsiya mezonlariga ob'ektning muvofiqligi umumiy baholanishidan tarkib topgan, ikki nusxa dalolatnoma tuzadi, ulardan biri tekshirilayotgan sertifikatlashtirish bo'yicha idora yoki laboratoriya rahbariga topshiriladi va ikkinchisi akkreditlashtirish idorasiga taqdim etish uchun komissiya rahbarida qoladi. Inspeksion nazorati dalolatnomasini komissiyaning barcha a'zolari va tekshirilgan ob'ekt rahbari imzolab ya'ni inspeksion nazorat natijalari bilan kelishmovchiliklar holatlarida o'zining fikrlarini bayon etishi mumkin. Inspeksion nazorat natijalari bo'yicha 5 kun davomida inspeksion nazorat dalolatnomasi tuzilgan kun bilan akkreditlashtiruvchi idora akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomani amal qilishini tasdiqlash, to'xtatish yoki bekor qilish to'g'risida qaror qabul qiladi. Inspeksion nazorat natijalari ijobiy bo'lganda akkreditlashtirish haqidagi guvohnomasini tasdiqlash to'g'risidagi qaror qabul qilinadi. Inspeksion nazorati vaqtida nomuvofiqliklar bartaraf etilmaganligi mavjud bo'lsa, lekin to'g'rilovchi amallar yo'li bilan ikki oydan ko'p bo'lmagan muddatda bartaraf qilinishi mumkin bo'lsa, akkreditlashtirish haqidagi guvohnomani amal qilinishini to'xtatish to'g'risidagi qarorni qabul qilinadi. Akkreditlashtiruvchi idora, ob'ekt nomuvofiqligi bo'yicha to'g'rilovchi amallar bajarganidan so'ng, akkreditlashtirish haqidagi guvohnomani amal qilish muddatini to'xtatish to'g'risidagi qarorni qabul qiladi. Akkreditatsiya sohasida intizomga rioya qilmasligi shuningdek, akkreditlashtiruvchi idoraning qarorida o'rnatilgan muddatlarda aniqlangan nomuvofiqliklar bo'yicha to'g'rilovchi amallarni bajarmaganligi holatlarida akkreditlashtirish haqidagi guvohnomani amal qilinishini bekor qilish haqidagi qaror qabul qilinadi. Inspeksion nazorati natijalari bo'yicha akkreditlashtirish haqidagi guvohnomasi bekor qilingan sertifikatlashtirish bo'yicha idora yoki laboratoriya Davlat reestridan chiqariladi va akkreditlashtiruvchi idora bu to'g'risida qiziquvchi shaxslar va tashkilotlarni xabardor qiladi. Inspeksion nazorat natijalari bo'yicha qabul qilingan qarorlar tekshirilgan ob'ektga qaror uch kun davomida

jo'natiladi. Inspeksion nazorat natijalari bilan kelishmovchiliklar bo'lgan holatlarda qiziquvchi tomon "O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish" agentligiga yoki bevosita sudga murojaat qilishi mumkin.

28.3. Audit o'tkazish tartibi va grafigini ishlab chiqish, sertifikatlashtirilgan sifat tizimini inspeksion nazorati. Sertifikatlashtirilgan SMT ning inspeksion nazorati. Inspeksion nazorat rejali va rejadan tashqari bo'lishi mumkin. Rejali inspeksion nazorati sertifikat amal qilish muddati davomida yilida kamida bir marta o'tkaziladi. Rejali inspeksion nazoratda umumiy tekshirish hajmi qo'shilib, sifat menejmenti tizimining 1/2 elementlaridan kam bo'lmasligi lozim. Har bir inspeksion nazoratda tanlab olish asosida joriy qilingan sifat tizimining standart talablariga javob bera olishi, avvalgi tekshirishlarda aniqlangan nomuvofiqliklarning bartaraf qilinganligi, ichki audit natijalari va doimiy yaxshilanish mavjudligi tekshiriladi.

Rejadan tashqari inspeksion nazorat quyidagi holatlarda o'tkaziladi: - sertifikatlashtirish idorasi sertifikatlangan SMTdan jiddiy kamchiliklar aniqlanganligi haqidagi nazorat qiluvchi tashkilotlar dalolatnomalari ma'lumotlarini, yoki ommaviy axborot vositalari orqali tanqidiy chiqishlar qilinganligi to'g'risidagi va shu bilan birga sertifikat oluvchining ishlab chiqaradigan mahsulot sifatiga iste'molchilar tomonidan shikoyatlar mavjudligi haqidagi ma'lumotlarni olsa;- tashkilotning tashkiliy tuzulmasi, ishlab chiqarish texnologiyasi va shartlari, asosiy ishlab chiqarishda ishlovchi mutaxassislar tarkibida juda katta miqdordagi son o'zgarishlari yuzaga kelgan bo'lsa. Rejadan tashqari inspeksion nazoratda audit ob'ektlari sabablarga bog'liqligi va inspeksion nazoratni o'tkazish zaruriyatining kelib chiqishi bilan belgilanadi. Sertifikatlashtirish idorasi inspeksion nazoratni o'tkazish bo'yicha tuzilgan shartnomadagi oldindan to'lovlar amalga oshirilganidan so'ng, inspeksion nazorat o'tkazish bo'yicha komissiyani tuzadi va inspeksion nazorati bo'yicha komissiya raisini tayinlaydi. Rahbariy hujjatlar talablariga muvofiq (inspeksion nazorat) audit mehnat hajmi va ob'ektlarni tekshirish qiyinchiligi hamda sonini inobatga olib komissiya a'zolarining ishtirokchilari aniqlanadi. Sertifikatlash idorasi sertifikatlashtirilgan SMT inspeksion nazoratini o'tkazish rejasini tuzib chiqadi. Inspeksion nazorat natijalari, xulosalari va tavsiyalarini komissiya o'rnatilgan shakl bo'yicha dalolatnoma ko'rinishida rasmiylashtirib, sertifikatlashtirish idorasiga taqdim qiladi. Inspeksiya nazorati natijalari ijobiy bo'lsa (nomuvofiqliklar, sertifikatdan foydalanishda tartib buzarliliklar bo'lmasa va logotipdan to'g'ri foydalanilgan bo'lsa) sertifikatlashtirish idorasi muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddatini tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qiladi. Agar

inspeksion nazoratda oldingi o'tkazilgan tekshirishlar bo'yicha aniqlangan nomuvofiqlikni bartaraf etish bo'yicha rejalashtirilgan to'g'rilovchi amallar bajarilmagan deb topilsa, sertifikatlashtirish idorasi berilgan sertifikatni uch oy muddatga to'xtatish to'g'risidagi qarorni rasmiylashtiradi.

Takrorlash uchun savollari

1. Sertifikatlash ob'ektlarni inspeksion nazorati.
2. Inspeksion nazoratning ahamiyati.
3. Sertifikatning maxiyati.
4. Sertifikatlashtirilgan maxsulot, xizmat, jarayon, sait tizimi va xodimlarni inspeksion nazoratini o'tkazish.
5. Hujjatlashtirilgan prosedura nima?
6. Sifat menejmenti tizimini joriy qilish uchun qanday majburiy hujjatlari ishlab chiqilishi lozim?

29§. Audit o'tkazish qoida va tartiblari.

29.1. Sertifikatlashtirish jarayonidagi tekshiruv ob'ektlari. Auditni boshlanishi. Har bir aniq auditni boshida quyidagi ishlarni bajarish kerak:

1. Audit maqsadlari, hajmi va mezonlarini aniqlash,
2. Auditorlar guruhini shakllantirish

Auditorlar guruhini shakllantirishda, auditorlar guruhini tekshirilayotgan faoliyatdan mustaqilligini ta'minlash va guruh a'zolari orasida kelishmovchiliklar mavjud bulishi mumkinligini oldini olish zarur, bunda tekshirilayotgan bo'linma fikrlarini ham hisobga olish kerak.

3. Audit muddatlarini tekshirilayotgan bo'linma bilan kelishish.

Audit dasturini boshqarish uchun javobgar shaxslar, yoki auditorlar guruhini rahbari tekshiriladigan bo'linma bilan oldindan audit muddatlarini, zaruriyat bo'lsa, auditorlar guruhi tarkibini kelishishi kerak.

YUqorida ko'rsatilgan tamoyillardan tashqari auditni ba'zi tashkiliy tamoyillarini ko'rib chiqishimiz kerak:

1) Yagonalilik tamoyili - har bir aniq audit, korxonada rahbari tomonidan rasmiy belgilangan protsedura bo'yicha o'tkaziladi. Tashkilotda audit natijalarini taqdim qilishni yagona shakllarini qo'llanilishi, bir qator auditlarda olingan ma'lumotlarni tahlilini engillashtiradi.

2) Tizimlilik tamoyili - SMT turli elementlari bo'yicha aniq auditlarni rejalashtirish va o'tkazish ularni tarkibiy o'zaro aloqasini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

3)Hujjatlashtirish tamoyili - har bir auditni o'tkazish, audit o'tkazilayotgan ob'ektni xakikiy holati to'g'risidagi ma'lumotni saqlanishini ta'minlash maqsadida korxonada urnatilgan ma'lum bir tarzda hujjatlashtirilishi kerak.

4)Oshkoralik tamoyili – har bir audit anik rejalashtiriladi, tekshirish vaqtida xodimlar o'z o'rnilarida bo'lmasliklari yoki talab qilinadigan ma'lumotlarni berishdan bosh tortishlarining oldini olish maqsadida audit utkazish vakti va davomiyligi to'g'risida audit o'tkaziladigan bo'linma (ma'sul shaxs) oldindan ogohlantiriladi.

5)Doimiylik tamoyili - SMT barcha elementlari va barcha bo'linmalar korxonah rahbariyati tomonidan tahlil va baholash predmeti bo'lishini ta'minlash maqsadida auditlar davriylik bilan o'tkaziladi. Auditlar oralig'ini, tekshirilayotgan jarayonlarni maqomi va muhimligini, avvalgi auditlar natijalarini hisobga olgan holda tashkilotning o'zi belgilaydi.

6.Audit dasturini boshqarish

Audit dasturi aniq muddatlarga rejalashtirilgan bir yoki bir necha auditlarni o'z ichiga olishi mumkin. Biroq, audit dasturi auditlarni yillik grafigidan iborat emas, balki unda auditlarni rejalashtirish va tashkil qilish, shuningdek ularni belgilangan muddatlarda natijali va samarali bajarilishini uchun etarli darajada resurslar bilan ta'minlanishi talab etiladi.

29.2. Tekshiruv dasturi boshqaruviga qo'yiladigan talablar. Audit dasturida: audit maqsadlari va hajmi, audit dasturi bo'yicha umumiy va alohida auditlar bo'yicha javobgarlik, auditni o'tkazish jarayonlari ko'rsatiladi.

Tashkilot rahbariyati, audit dasturini boshqarish uchun javobgar shaxslarni tayinlashi va ularga audit dasturini belgilash, zarur resurslar bilan ta'minlash, dasturni joriy qilish, monitoring utkazish, tahlil kilish va yaxshilash uchun etarli vakolatlar berishi kerak.Audit dasturini boshqarishni amalga oshiruvchi shaxslar javobgarliklari: audit dasturi maqsadlari va hajmlarini, shuningdek auditni o'tkazish protseduralarini aniqlash; auditlarni o'tkazishdagi mas'ul mutaxassislarni (auditorlik guruhi rahbari, auditorlar, stajyorlar va texnikaviy ekspertlar) aniqlash; audit dasturini rejalashtirish, joriy qilish, monitoringini utkazish va yaxshilash uchun zarur resurslar bilan ta'minlash; audit dasturi bajarilishini ta'minlash va audit dasturi bo'yicha tegishli yozuvlarni olib borish; audit dasturi monitoringi utkazish, tahlili va yaxshilash.

Yirik tashkilotlarda sifat tizimini ishlab chiqish va joriy qilish bosqichida ichki audit xizmatini tashkil qilishni ko'zda tutish maqsadga muvofiqdir.

Ichki audit xizmati amaliy ish tajribasiga ega va maxsus o'qishdan o'tgan mutaxassislar bilan ta'minlanishi kerak.

Bunda ushbu xizmat xodimlarining funksiyalari, javobgarligi va vakolatlari ichki audit bo'yicha protsedura va lavozim yo'riqnomalarida belgilanadi.

6.1 Auditlarni rejalashtirish.

Rejalashtirish bosqichida, audit dasturini boshqarish uchun javobgar shaxslar, audit dasturi maqsad va hajmlarini, shuningdek dastur bo'yicha javobgarlik, resurslar va protseduralarni aniqlaydilar.

Audit dasturini maqsadlari - bu ma'lum bir aniq auditni emas, balki korxonada utkaziladigan umuman auditlarning maqsadlaridir. Ichki audit uchun audit dasturini maqsadlari, masalan: «sifat tizimini standart (qonun xujjatlari)ga muvofiqligini aniqlash» yoki «faoliyatni yaxshilash mumkin bo'lgan sohalarni aniqlash» bo'lishi mumkin.

Audit dasturini hajmi - bu qaysi jarayonlar va bo'linmalar qachon tekshirilishi kerakligidir. Audit dasturini hajmi tashkilot jarayonlarini o'lchami, tipi va murakkabligiga bog'liq bo'ladi.

Tekshirishlarni kalendar asosida rejalashtirish mumkin, bunda ma'lum jarayonlar va bo'linmalar belgilangan vaqt oraliqlarida tekshiriladi.

Davriy tekshirishlardan tashqari qo'shimcha tekshirishlarni o'tkazish zaruriyati bo'lishi mumkin.

Qo'shimcha tekshirishlarni o'tkazish zaruriyatlari quyidagilardan kelib chiqishi mumkin:

avvalgi audit dasturi natijalarini tahlili;

-ma'lum audit mobaynida aniqlangan nomuvofiqliklar bo'yicha joriy qilingan to'g'rilovchi amallarni natijaviyligini tasdiqlash;

-tashkilot tarkibiy tuzilmasi yoki faoliyatidagi ahamiyatli o'zgarishlar.

Tashkilotni qayta tashkil qilinishi, yangi texnologik yoki ma'muriy jarayonlarni, yangi protseduralarni joriy qilinishida, yangi faoliyat turlari va usullarini belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish uchun qo'shimcha tekshirishlarni utkazish mumkinligini ko'zda tutish kerak.

Audit dasturi hajmini aniqlashda quyidagi faktorlarni hisobga olish kerak:

-amaldagi dasturlar, loyihalar, kontraktlar.

-tashqi tekshirish ehtimoli. Tashqi auditga tayyorgarlik ko'rish uchun navbatdan tashqari ichki audit o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.

-potensial muammolarni ko'rsatuvchi, ma'lumotlar tahlillari natijalari.

Bu faktorlarni o'rganib chiqib, ma'lum bo'linma faoliyatini tekshirish zaruriyatini aniqlash mumkin.

Audit dasturi bo'yicha resurslar.

Tashkilot, auditlarni rejalashtirish bosqichida, audit dasturi bo'yicha qanday resurslar kerak bo'lishini aniqlashi va ularni ajratilishini ta'minlashi kerak.

Resurslarni aniqlashda quyidagilarni hisobga olish kerak:

-ichki auditlarni o'tkazish uchun xodimlar.

Auditorlarni tekshirilayotgan faoliyatdan xolisligini ta'minlash uchun kichik korxonalarda auditlarni o'tkazish uchun tashqaridan mutaxassislarni taklif qilish extimolining mavjudligi;

-auditorlarni uslubiy qo'llanmalar, ma'lumot hujjatlar, yo'riqnomalar, ma'lumotlarni qayd qilish shakllari bilan ta'minlash uchun resurslar;

-auditorlar layoqatini baholash va ta'minlash, ularni ish faoliyatini yaxshilash uchun resurslar. Masalan, auditorlarni o'qitish, seminarlar o'tkazish, auditorlarni maxsus adabiyotlar bilan ta'minlash uchun resurslar.

Audit dasturi bo'yicha protsedura.

Tashkilot:

-auditlarni rejalashtirish va auditorlar guruhini shakllantirish tartibini;

-auditorlarni layoqatini baholash va ta'minlash bo'yicha faoliyatni;

-auditlarni o'tkazish, shu jumladan aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf qilinishi va joriy qilingan to'g'rilovchi amallarni natijaviyligini tekshirish tartibini;

-audit dasturini bajarilishi monitoringi va natijaviyligini tahlilini belgilovchi protsedurani ishlab chiqishi kerak.

Ichki audit xizmati tegishli tashkiliy, me'yoriy va uslubiy hujjatlarni mavjudligi bu xizmatni samarali ishlashini muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Auditlarga tayyorgarlik ko'rish va amalga oshirish vaqtida uslubiy hujjatlarni qo'llanilishi quyidagilarga imkon beradi:

-so'rovlar o'tkazish, kuzatishlar natijalarini bayonlashtirish, hisobotlarni rasmiylashtirishda auditorlar ishini osonlashtiradi;

-auditda ish vaqtini qisqartiradi.

Audit dasturi bo'yicha yozuvlar

Ichki auditni rejalashtirish, amalga oshirish va uni natijalari bo'yicha hisobot hujjatlari (yozuvlar) ni olib borish zarur. Bu yozuvlarga:

-auditlar rejalari;

-auditlar bo'yicha hisobotlar;

-nomuvofiqliklar to'g'risida hisobotlar (aktlar);

-to'g'rilovchi amallar to'g'risida hisobotlar;

-auditorlarni ish tajribasi, ularni o'qishi to'g'risidagi yozuvlar;

-ularni faoliyati va layoqatligini baholash natijalari misol bo'la oladi.

Audit dasturini monitoringi va tahlili

Ichki audit jarayonining monitoringi rejalashtirilgan tadbirlar bajarilishini nazorat qilish va audit dasturi maqsadlariga erishilish darajasini baholash maqsadida o'tkaziladi. Ichki audit jarayonini «asboblardan bilan o'lchab» bo'lmasligi sababli, monitoring o'tkazish va audit dasturi bajarilishi natijaviyligini baholashga imkon beruvchi jarayon indikatorlarini belgilash zarur.

Indikatorlarni quyidagilarga imkon beradigan qilib belgilash zarur:

-faoliyatni dastur va auditlar grafigiga muvofiqligini nazorat qilish (masalan, tegishli hujjatlarda rejalashtirilgan tadbirlar bajarilganligi, ularni bajarilgan sanasi va javobgar shaxsni imzo ko'rsatiladigan grafalar ko'zda tutilishi);

-auditorlar guruhini audit rejasini bajarish qobiliyatini baholash (bu erda indikator sifatida qo'llanilishi mumkin: ma'lum audit rejasini bajarilishi/bajarilmasligi, audit bo'yicha protseduralarga auditorlarni muvofiqligi/nomuvofiqligi, audit bo'yicha hisobotni taqdim qilish muddatlariga rioya qilinishi/qilinmasligi va h.k.).

Tashkilot audit dasturini monitoringi davomida olingan ma'lumotlarning tahlilini amalga oshirishi kerak. Bunday tahlil natijasida, audit dasturini boshqarish uchun javobgar shaxslar audit dasturini yaxshilash bo'yicha imkoniyatlarni aniqlashi va bu bo'yicha tadbirlar, shu jumladan to'g'rilovchi va oldini oluvchi amallarni joriy qilishi kerak.

Aytib o'tish lozim-ki, bu erda so'z audit davomida aniqlangan nomuvofiqliklar sabablarini bartaraf qilish uchun to'g'rilovchi amallar to'g'risida emas, audit dasturiga nisbatan to'g'rilovchi amallar haqida bormoqda. Masalan, tahlil natijasida sifat tizimini ishchi holatda tutish uchun utkazilishi zarur bulgan auditlar chastotasi kamligi yoki auditorlarning etarli layoqatga ega emasligi mumkin.

Auditni o'tkazish. Istalgan audit cheklangan vaqt va cheklangan resurslar bilan amalga oshiriladi. Xar kanday tekshirishlar, tekshiruvchi va tekshiriluvchining vaqtini oladi. Auditor, yig'ilishlar, so'rovlar va h.k. o'tkazish vaqtida xodimlarni ishdan chalgitgan holda, ishlab chiqarish jarayonini buzishi mumkin, shuning uchun ham tekshirishni samarali o'tkazish uchun har bir auditga yaxshilab tayyorlanish kerak. Joylarda tekshirishni o'tkazish uchun uchta tayyorgarlik bosqichi bajariladi: «auditni boshlanishi», «hujjatlar tahlilini o'tkazish» va «joylarda tekshirishga tayyorgarlik».

Hujjatlar tahlilini o'tkazish. Hujjatlar tahlili o'tkazish – auditga tayyorgarlik ko'rishning eng muhim bosqichi sanaladi, bu ayniqsa sifat tizimini joriy qilish davrida yakkol bilinadi.

SHuning uchun ham joylarda tekshirishga tayyorgarlik ko'rishda ichki auditorlar, audit mezonlariga aloqasi bo'lgan hujjatlarni yaxshilab tahlil qilishlari kerak.

Tahlilda quyidagilarga ahamiyat berish zarur:

-amaldagi va yangi joriy qilingan hujjatlar orasida bo'lishi mumkin bo'lgan qarama-qarshiliklar;

•javobgarlikni taqsimlashdagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlar;

Masalan, sifat bo'yicha qo'llanmada qandaydir jarayon uchun javobgarlik belgilangan, lekin bu jarayon bo'yicha protsedurada javobgar sifatida boshqa shaxslar ko'rsatilgan, ularning lavozim yo'riqnomalarida esa bu javobgarlik haqida hech narsa deyilmagan.

•faoliyatni bayon qilishda «umumiy so'zlar» dan foydalanilishi. Hujjat matnidagi bunday joylar, bu faoliyatni amalga oshirish tartibi belgilanmaganligini yoki bu faoliyat umuman amalga oshirilmasligini bildiradi. Bu holatda auditor, joylardagi tekshirishda bu faoliyat qanday amalga oshirilishini tekshirish kerakligi to'g'risida o'ziga qayd qilib qo'yishi kerak.

Agar hujjatlar mos emas deb tan olinsa, auditorlar guruhi rahbari audit dasturini boshqarish uchun javobgar va tekshirilayotgan bo'linma rahbariga auditni davom ettirish yoki ettirmaslik tugrisidagi qarorlarni qabul qilish uchun xabar qilishi kerak.

29.3. Tekshiruv ishtirokchilari, tekshiruv komitsiyasi tarkibi tuzish.

Auditni joylarda o'tkazish uchun tayyorgarlik.

Bu bosqichda quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak:

1. Auditorlar guruhini rahbari audit rejasini tayyorlashi kerak.

Audit rejasi o'z ichiga:

-Audit maqsadlari va mezonlari;

-tekshirilishi kerak bo'lgan ma'sul shaxslar, bo'linmalar va jarayonlar ko'rsatilgan holda audit hajmlari;

-auditni o'tkazish sanasi va joyi.

-audit bilan bog'liq tadbirlar, shu jumladan kirish va yakuniy yig'ilishlarni o'tkazish vaqti va joylarini o'z ichiga olishi kerak.

Reja audit dasturini boshqarish uchun javobgar tomonidan tasdiqlanishi va tekshirilayotgan bo'linmaga audit joyida boshlangungacha taqdim qilinishi kerak.

Tekshirilayotgan bo'linma tomonidan bildirilgan istalgan e'tirozlar auditorlar guruhi rahbari, tekshirilayotgan bo'linma rahbari va audit dasturini boshqarish uchun javobgarlar tomonidan birgalikda hal kilinishi kerak.

2. Auditorlar guruhi rahbari auditorlar guruhi a'zolari orasida, tekshirishni turli sohalarini o'ziga xos xususiyatlari va auditorlarni shaxsiy sifatlari, bilimi, ko'nikmalari va tajribasini hisobga olgan holda ularning majburiyatlarini taqsimlashi kerak.

3. Auditorlar guruhi a'zolari ishchi hujjatlarni:

a) chek (umumiy savol) - varaqlar;

b) audit guvohliklari, kuzatmalarini ro'yxatga olish uchun shakllar va yig'ilishlar bayonnomalarini tayyorlashlari kerak

CHek-varaq – bu auditor tekshirishi kerak bo'lgan savollarni nazorat ro'yxati. Tekshirishga tayyorgarlik bosqichida chek-varaqlarni tayyorlash muhim hisoblanadi. CHek-varaqlar auditor tomonidan tekshirilayotgan faoliyat turlari tegishli tarzda bajarilayotganligini yoki bajarilmayotganligini aniqlash uchun tuziladi.

U tekshirilayotgan bo'linma xodimlariga savollar ko'rinishida, yoki auditor tekshirishni o'tkazishni rejalashtirayotgan barcha bandlarni ko'rsatgan holda, auditor uchun eslatma holida tuzilishi mumkin.

Bo'linmalarni o'ziga xos faoliyatini tekshirish uchun hujjatlar tahlil natijalarini hisobga olgan holda auditorlar alohida chek – varaqlarni tayyorlashlari kerak.

Auditorlar guruhi rahbari auditni o'tkazish usullarini tushuntirishi mumkin.

Yig'ilish davomida auditorlar guruhi rahbari yakuniy yig'ilishni o'tkazish sanasi, vaqti, joyini xabar qilishi va tekshirilayotgan bo'linma vakillariga savollar berish uchun imkoniyat berishi kerak.

Auditorlar o'z majburiyatlarini bajarishni boshlagungacha, auditorlar guruhi rahbari jalb kilingan auditorlar xavfsizlik texnikasi qoidalari bilan tanishganiga ishonch hosil qilishi kerak.

Kichik tashkilotlarda auditorlarni tekshirilayotgan xodimlar bilan tanishtirish va ularga hamrox bo'luvchilarni biriktirishga ehtiyoj yo'q. Bu holda kirish yig'ilishi, auditorlar guruhi rahbarini audit qanday o'tkazilishi to'g'risida xabar berishidan iborat bo'ladi.

Ma'lumotlarni yig'ish va tekshirish. Auditor, ma'lumot olishni turli manbalaridan foydalangan holda, tekshirilganidan so'ng audit guvohligi bo'ladigan ma'lumotlarni yig'adi.

Audit guvohliklarini audit mezonlariga nisbatan baholash natijasida muvofiqlik, nomuvofiqlik yoki yaxshilash imkoniyatlarini ko'rsatuvchi audit kuzatishlari paydo bo'ladi.

Audit kuzatishlarini tahlili asosida, to'g'rilovchi va oldini oluvchi amallar zaruriyati yoki mumkin bo'lgan yaxshilashlar sohasini ko'rsatuvchi audit natijalari bo'yicha xulosa tuziladi.

Audit kuzatishlarini shakllantirish. Audit kuzatishlari hujjatlashtirilishi va tekshirilayotgan faoliyat sohasi uchun javobgar bo'lgan xodimlar e'tiboriga etkazilishi kerak.

Agar auditor nomuvofiklik mavjudligini aniqlasa, u bu nomuvofiqlikni ichki audit utkazish protsedurasi bilan belgilangan tarzda qayd qilishi kerak (masalan, chek-varaqda tegishli qayd qilinadi va nomuvofiklik to'g'risida bayonnoma to'ldiriladi).

Auditor faqat aniqlangan faktlardan kelib chiqishi va ularni talablarning ma'lum bandiga biriktirishi kerak. U olingan audit guvohliklari to'g'riligi va nomuvofiqliklar tushunarli ekanligini tasdiqlash uchun holatni tekshirilayotgan bo'linma vakili bilan muhokama qilishi kerak. Aniqlangan fakt haqiqatda mavjudligini bo'linma vakili nomuvofiqlik to'g'risidagi bayonnomani imzolash orqali tasdiqlaydi.

Har bir tashkilot o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda nomuvofiqlik to'g'risidagi bayonnoma shaklini ishlab chiqadi.

Nomuvofiqlik to'g'risida yozuvlar quyidagilarni ta'minlash uchun qisqa, lekin tushunarli bo'lishi kerak:

- samarali to'g'rilovchi amallarni ishlab chiqilishi;

- nomuvofiqlik bartaraf qilinganligini tekshirayotgan auditor uchun to'liq aniqlik bo'lishi (bu nomuvofiqlikni aniqlagan auditor bo'lmasligi mumkin).

Auditor nuqtai-nazaridan faoliyatni noto'g'ri amaliyoti to'g'risida guvohlik beruvchi va rahbariyatga xabar qilish kerak bo'lgan, lekin qo'llanilayotgan protseduralarda talab belgilanmagan holat aniqlangan holda, u chek-varaqda qayd qilishi va bayonnomadagi «Nomuvofiqlik» so'zini o'rniga «E'tiroz» yozishi va e'tirozini rasmiylashtirishi mumkin.

E'tiroz quyidagi hollarda rasmiylashtirilishi mumkin:

- auditor, aniqlangan holat keyinchalik nomuvofiqlikni keltirib chiqaradi deb hisoblasa;

- auditor, tekshirilayotgan faoliyat yaxshilanishi kerak yoki bunday imkoniyatga ega deb hisoblasa.

Nomuvofiqliklar gradatsiyasi

Tashqi auditda nomuvofiqliklar «Ahamiyatga ega» va «kam ahamiyatli» larga bo'linadi. Ba'zan «O'ta jiddiy» nomuvofiqlik tushunchasi qo'llaniladi. U yoki bu darajadagi nomuvofiqliklar miqdoridan kelib chiqqan holda, umuman sifat tizimini standart talablariga muvofiqligi to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Ahamiyatga ega nomuvofiqliklarga misollar:

- tashkilot rahbariyati tomonidan sifat tizimini tahlili o'tkazilmaydi;
- sifat tizimi jarayonlari resurslar bilan ta'minlanmaydi;
- to'g'rilovchi amallarni natijaviyligi tahlili bajarilmaydi;
- sifatga ta'sir kiluvchi o'lchov vositalarining asosiy qismi qiyoslovdan o'tkazilmaydi;
- ishlab chiqilishi, yuritilishi majburiy bo'lgan hujjatlashtirilgan protsedura mavjud emas;

-ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilinadigan sharoitlari mavjud emas.

Kam ahamiyatli nomuvofiqliklarga misollar:

- ba'zi to'g'rilovchi amallarga grafikka muvofiq tugallanmagan;
- qiyoslanmagan o'lchov vositasi borligi aniqlangan (yagona holat);
- olib borilishi majburiy bo'lgan yozuvlarning yukligi aniqlangan.

Standartni bir bandiga tegishli bo'lgan bir nechta past ahamiyatli nomuvofiqliklarni ahamiyatga ega bir nomuvofiqlik sifatida qarash amaliyoti mavjud.

Ichki auditlarda nomuvofiqliklarni gradatsiyasi majburiy emas, lekin u tashkilotga muammolarni muhimligini baholashda foydali bo'lishi mumkin.

Takrorlash uchun savollari

1. Sifat menejmenti tizimi hujjatlariga qanday talablar belgilangan?
2. Sifat bo'yicha qo'llanmaga ta'rif bering.
3. Sifat bo'yicha qo'llanmaga ISO 9001 standartida kelitirilgan talablarni tushuntiring.
4. Sifat bo'yicha qo'llanma qanday maqsadlarda qo'llaniladi? hujjatlari ishlab chiqilishi lozim?
5. Qanday hujjatlar boshqariladigan bo'lib hisoblanadi?
6. "Hujjat" atamasiga ta'rif bering.

30§.Sifat menejmenti tizimining ishchi holatini baholash, uning natijaviyligi va smaradorligini aniqlashdan qo'llaniladigan vosita va usullar.

30.1. Sifat menejmenti tizimda axborot texnologiyalarini qo'llash. Auditorlarni va audit bo'yicha guruh rahbarini baholash ob'ektiv, izchil, haqiqiy va ishonchli natijalarni ta'minlash maqsadida audit dasturidagi tadbirlarga muvofiq rejalashtirilishi, amalga oshirilishi va hujjatlashtirilishi kerak. Baholash jarayoni

o'qitish va tajribalarni oshirishning boshqa usullariga bo'lgan ehtiyojni ko'rsatish kerak.

Auditorlarni baholash turli bosqichlarda amalga oshiriladi:

- auditor bo'lishni hoxlovchi shaxslarni dastlabki baholash;
- auditorlarni bayon qilingan audit bo'yicha guruhni tuzish jarayonining bir qismi sifatida baholash;

- bilim va ko'nikmalarni ma'lum darajada ushlab va yaxshilash uchun zarur bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash maqsadida auditor layoqatini doimiy baholash. Baholashning bu bosqichlari o'rtasidagi bog'liqlik ko'rsatilgan.

Bayon qilingan jarayon bosqichlari baholashning har bir bosqichida ishlatilishi mumkin.

Baholash jarayoni. Baholash jarayoni 4 ta asosiy bosqichni o'z ichiga oladi:

1-bosqich. Audit dasturining ehtiyojlariga javob berish uchun shaxsiy sifatlar, bilimlar va ko'nikmalarni aniqlash

Tegishli bilim va ko'nikmalarni aniqlashda quyidagilarni hisobga olish kerak:

- tekshiriladigan tashkilotning hajmi, faoliyat turi va murakkabligini;
- audit dasturining maqsadlari va hajmini;
- sertifikatlashtirish va akkreditlash talablarini;
- tekshiriladigan tashkilotning menejmenti uchun audit jarayonining rolini;
- audit dasturi bo'yicha talab qilinadigan mahfiylik darajasini;
- tekshiriladigan menejment tizimining murakkabligini.

2-bosqich. Baholash mezonlarini aniqlash

Mezonlar miqdori (yillardagi amaliy ish staji, ma'lumoti, o'tkazilgan auditlar soni, auditga o'qitish soatlarining hajmi kabilar) yoki sifat jihatidan (namoyish qilinadigan shaxsiy sifatlar, bilimlar yoki o'rgatishdagi yoki ish jarayonidagi ko'nikmalarning xarakteristikalarini) bo'lishi mumkin.

3-bosqich. Tegishli baholash usulini tanlash

Baholashni tanlab olingan bita yoki bir nechta usullardan foydalangan holda bir kishi yoki hay'at amalga oshiradi. Foydalanilganda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- bayon qilingan usullar imkoniyatlar diapazoni bo'lib, barcha hollarda ishlatilolmaydi;

- bayon qilingan turli usullar o'zining ishonchliligi bilan farq qilishi mumkin;
- odatda ob'ektiv, mos keluvchi, haqqoniy va ishonchli natijaga erishish uchun birlashgan usullar tanlanadi.

Bilimlar va ko'nikmalar

Sifat menejmenti tizimlari yoki ekologik menejment tizimlari auditorlarning umumiy bilimlari va ko'nikmalari.

Auditorlar quyidagi sohalarda bilimlar va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak:

a) Auditning mohiyatlari, tadbirlari va usullari – auditorlarning ularni tanlash va turli auditlarga qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishi va auditlar kerakli va tizimli tarzda o'tkazilishini ta'minlash uchun. Auditor quyidagi harakatlarni amalga oshirishga tayyor bo'lishi kerak:

- auditning mohiyatlari, tadbirlari va usullarini qo'llash;
- ishlarni samarali rejalashtirish va tashkil qilish;
- auditni belgilangan vaqt ichida o'tkazish;
- ustivorlikni aniqlash va jiddiy holatlarga e'tibor berish;
- samarali so'rov, tinglash, kuzatish, hujjatlar analizi, yozuvlar va ma'lumotlar yordamida ma'lumotlar yig'ish;
- audit uchun tanlama tadqiqotlarning tegishli usullari va natijalarini tushunish;
- to'plangan ma'lumotlar aniqligini tekshirish;
- audit xulosalari va yakunlarini tasdiqlash uchun audit guvohliklarining etarliligi va muvofiqligini tasdiqlash;
- audit xulosalari va yakunlari ishonchliligiga ta'sir qiluvchi omillarni baholash;
- audit vaqtida faliyatni yozish uchun ishchi hujjatlardan foydalanish;
- ma'lumotlar maxfiyligini saqlash;
- tilni bilishi yoki tarjimon yordamida samarali ma'lumot almashish;

b) Audit sohasini qamray olish va audit mezonlarini qo'llay olish uchun – menejment tizimi va havola qilinadigan hujjatlar. Bu sohadagi bilim va ko'nikmalar quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- menejment tizimini turli tashkilotlarga qo'llash;
- menejment tizimi elementlarining o'zaro ta'siri;
- audit mezonlari sifatida qo'llaniladigan sifat menedjmenti tizimining yoki ekologik menejment tizimining standartlari, qo'llaniladigan tadbirlar yoki menejment tizimining boshqa hujjatlari;
- havola qilinadigan hujjatlarning farqi va ustivorlari;
- havola qilinadigan hujjatlarning audit vaqtidagi turli holatlarga qo'llanilishi;
- ma'lumot tizimi va jarima solish uchun usullar, hujjatlar, ma'lumotlar va yozuvlarni tarqatish va boshqarish xavfsizligini ta'minlash;

s) Auditorga tekshiriladigan tashkilotning ish tizimini tushunishga imkon berish uchun – tashkiliy lahzalar. Bu sohadagi bilim va ko'nikmalar quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- tashkilotning xajmi, tuzilishi va vazifalari va uning tarkibidagi (bo'limlarning) o'zaro aloqalarini;

- umumiy biznes – jarayonlar va tegishli atamalarni;

- tekshiriladigan tashkilotning madaniy va ijtimoiy urf-odatlarini;

d) auditor bu sohada ishlashga imkon berish va tekshiriladigan tashkilotlarga qo'yiladigan talablarni tushunish uchun predmetga doir qo'llaniladigan qonunlar, texnikaviy reglamentlar. Bu sohadagi bilimlar va ko'nikmalar quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- maxalliy, regional va milliy qoidalar majmui, qonunlar, me'yoriy huquqiy hujjatlar va texnikaviy reglamentlar;

- bitimlar va shartnomalar;

- xalqaro bitim va konvensiyalar;

- tashkilot bajarish majburiyatini olgan boshqa talablar.

Audit bo'yicha guruh rahbarlarining umumiy bilim va ko'nikmalari.

Audit bo'yicha guruh rahbarlari auditni samarali va foydali o'tkazishga ko'maklashish uchun auditga rahbarlik qilish bo'yicha qo'shimcha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Audit bo'yicha guruh rahbari quyidagi ishlarni bajarishga tayyor bo'lishi kerak:

- auditni rejalashtirish va audit vaqtida resurslardan samarali foydalanishga;

- audit buyurtmachisi va tekshiriladigan tashkilot bilan aloqa vaqtida audit bo'yicha guruhni tanishtirish;

- audit bo'yicha guruh a'zolarining ishlarini tashkil qilish va ularni ishga jo'natish;

- stajerlar ishiga rahbarlik va kuzatib borishni ta'minlash;

- audit bo'yicha yakuniy xulosa olish uchun audit bo'yicha guruhga rahbarlik qilish;

- ziddiyatlardan ogohlantirish va ularni bartaraf qilish;

- audit bo'yicha hisobotni tayyorlash va tugatish.

30.2. Sifat bo'yicha menejerlarga qo'yiladigan talablar va ularni tayyorlash. Sifat menejmenti tizimi auditorlarining maxsus bilimlari va ko'nikmalari. Sifat menejmenti tizimining auditorlari quyidagi sohalarda bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak:

a) Sifatga aloqador bo'lgan usul va texnologiyalarga – auditorga sifat menejmenti tizimini tekshirish va audit bo'yicha zarur xulosalar olish hamda audit bo'yicha tegishli yakunlar qilishga imkon berish uchun. Bu sohadagi bilim va ko'nikmalar quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- sifat bo'yicha atamalarni;

- sifat menejmenti tizimlarini va ularni qo‘llashni;
- sifat menejmenti usullari va ularni qo‘llashni (masalan, jarayonlarning statistik nazorati, rad etishlarining va ularning oqibatlarining analizi va boshq.);

b) Xizmat ko‘rsatish bilan birga jarayonlar va mahsulotni – auditorga audit o‘tkaziladigan texnologik o‘ziga xoslikni tushunishga imkon berish uchun. Bu sohadagi bilim va ko‘nikmalar quyidagilarni o‘z ichiga olishi lozim:

- ma‘lum sohadagi atamalarini;
- xizmat ko‘rsatish bilan birga jarayonlar va mahsulotlarning texnikaviy xarakteristikalarini;
- ma‘lum sohadagi jarayonlar va ish tajribasini.

Ekologik menejment tizimi auditorlarining maxsus bilim va ko‘nikmalari

Ekologik menejment tizimining auditlari quyidagi sohalarga bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak:

a) ekologik menejment usullari va texnologiyalari – auditorga ekologik menejment tizimini tekshirish va auditning zarur kuzatuvlarini va audit bo‘yicha yakuniy xulosalarni olishga imkon berish uchun. Bu sohadagi bo‘lim va ko‘nikmalar quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- ekologiya bo‘yicha atamalarini;
- ekologik menejment prinsiplari va ularni qo‘llashni;
- ekologik menejment usullarini (ekologik samaradorlikni baholash, hayotiy darvni baholash, ekologik menejment samadorligini baholash va boshq. kabi);

b) Atrof-muhit muxofazasi bilan bog‘liq bo‘lgan atrof-muhit va texnologiyalar to‘g‘risidagi fanni – auditorga inson faoliyati bilan atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabat asosini tushuntirishga imkon berish uchun. Bu sohadagi bilim va ko‘nikmalar quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- inson faoliyatining atrof-muhitga ta‘sirini;
- ekotizimlarning o‘zaro ta‘sirini;
- atrof-muhitni tashkil etuvchilarni (masalan, havo, suv, er):
- tabiiy resurslardan foydalanishni boshqarishni (masalan, qazib olinadigan yoqilg‘ilar, suv, flora va fauna);
- atrof-muhit muxofazasining asosiy usullarini;

s) Faoliyatning texnik va ekologik tomonlari – auditorga tekshiriladigan tashkilotning maxsuloti, xizmat ko‘rsatish turlari va faoliyatning atrof-muhit bilan o‘zaro ta‘sirini tushunishga imkon berish uchun. Bu sohadagi bilim va ko‘nikmalar quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- iqtisodiyotning ma‘lum sohasidagi atamalarini;
- ekologik masalalar va atrof-muhitga ta‘sirini;
- ekologik masalalar ahamiyatini baholash usllarini;

- ichki jarayonlar, mahsulot va xizmat ko'rsatishlarning tanqidiy tavsifini;
- monitoring va o'lchashlarning usullarini;
- ifloslanishni oldini olish texnologiyalarini.

Auditorning ma'lumoti, amaliy tajribasi, ularni o'qitish va audit o'tkazish tajribasi. Auditorlar. Auditorlar ma'lumotga, amaliy ish tajribasiga ega bo'lishlari, audit bo'yicha o'quv mashg'ulotlari kursini o'tishlari va auditorlik ish tajribasiga ega bo'lishi kerak:

a) ular 7.3-bandida bayon qilingan bilim va ko'nikmalarni egallashga imkon beruvchi to'liq ma'lumotga ega bo'lishlari kerak;

b) ular bayon qilingan bilim va ko'nikmalarini oshirishga yordam beruvchi ish tajribasiga ega bo'lishlari kerak. Amaliy ish tajribasi texnikaviy, boshqaruv yoki qarorlar qabul qilish, muammolarni bartaraf etish va boshqa rahbar yoki maxsus mutaxassis shaxslar, shu darajadagi xodimlar yoki boshqa qiziquvchi tomonlar bilan ma'lumot almashish bo'yicha tajribalarni ham qo'shib hisoblaganda kasbiy sohada bo'lishi kerak.

Amaliy tajriba yana bajariladigan ish bilim va tajribalarni quyidagi sohalarda oshirishga yordam beradigan lavozimlarda ham bo'lishi kerak:

- sifat menejmenti tizimining auditorlari uchun sifat menedjmenti;
- ekologik menejment tizimining auditorlari uchun ekologik menedjment;

s) ular bayon qilingan bilim va ko'nikmalarning o'sishini ta'minlovchi audit bo'yicha o'quv kurslarini o'tishlari kerak. Bu o'qish shu tashkilotning o'zida yoki boshqa tashkilotda bo'lishi mumkin;

d) ular bayon qilingan faoliyat bo'yicha auditlar o'tkazish tajribasiga ega bo'lishlari kerak.

Takrorlash uchun savollari

1. "YOzuv" tushunchasining mohiyatini ochib bering.
2. Hujjatlarni dolzarblikka qayta ko'rib chiqish nima uchun kerak?
3. Qaysi hujjatlar ichki va qaysi ujjatlar tashqi hujjatlarga tegishli?
4. Tashkilot resurslar bilan ta'minlashi uchun qanday talablarni bajarishi lozim?
5. Layokatlilik nima?
6. Ishlab chiqarish muhiti deganda nima tushuniladi?

GLOSSARIYLAR

1.«Sertifikatlashtirish milliy tizimi» — davlat miqyosida amal qiladigan, sertifikatlashtirish o‘tkazishda o‘z tartib va boshqaruv qoidalariga ega bo‘lgan tizim;

2.«Mahsulotlarni sertifikatlashtirish» (matnda bundan keyin «sertifikatlashtirish» deb yuritiladi) — mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlashga oid faoliyat;

3.«Muvofiqlik sertifikati» — sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga binoan berilgan hujjat;

4.«Muvofiqlik belgisi» — muayyan mahsulot yoxud xizmat aniq standartga yoki boshqa normativ hujjatga mos ekanligini ko‘rsatish uchun mahsulotga yoxud ko‘rsatilgan xizmatga doir hujjatga qo‘yiladigan, belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan belgi;

2. GLOSSARIY

1.«Mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) sertifikatlashtirish tizimi» — ayni bir xil standartlar va qoidalar qo‘llaniladigan muayyan mahsulotlar, ishlar yoki xizmatlarga taalluqli sertifikatlashtirish tizimi;

2.«Sifat bo‘yicha ekspert-auditor» — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda attestatsiyadan o‘tkazilgan, muvofiqlikni baholash sohasidagi ishlarni olib borish uchun tegishli malakaga ega bo‘lgan mutaxassis;

3.«Sertifikatlashtirish bo‘yicha inspeksiya organi» — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan, sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ustidan sertifikatlashtirish organlarining topshirig‘iga ko‘ra inspeksiya nazoratini amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

4.«Sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ustidan inspeksiya nazorati» — sertifikatlashtirilgan mahsulotlarning sertifikatlashtirilayotganda belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladigan sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy takroriy baholash tartib-taomili.

3. GLOSSARIY

1.Akkreditatsiya — yuridik shaxslarning muayyan faoliyat sohasida muvofiqlikni baholashga doir ishlarni bajarishga vakolatli ekanligini Milliy akkreditatsiya organi tomonidan rasman tasdiqlash;

2.Akkreditatsiya sohasi — muvofiqlikni baholash organining akkreditatsiya chog‘ida Milliy akkreditatsiya organi tomonidan belgilanadigan faoliyati sohasi;

3.Inspeksiya nazorati — mahsulotni, ishlab chiqarish jarayonlarini, xizmatlarni, menejment tizimlarini, muvofiqlikni baholash organlarini ularning muvofiqlikni baholash davrida belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladigan davriy qayta baholash tartib-taomili;

4.Inspeksiya organi — yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspeksiyani va inspeksiya nazoratini o‘tkazish uchun belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan yuridik shaxs;

4. GLOSSARIY

1. Milliy akkreditatsiya tizimi — muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish qoidalarini va tartib-taomilini belgilaydigan normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq davlat miqyosida faoliyat ko'rsatuvchi tizim;

2. Muvofiqlikni baholash — mahsulot, ishlab chiqarish jarayonlari, xizmatlar, menejment tizimlari, xodimlar, muvofiqlikni baholash organlarining normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash bo'yicha faoliyat;

3. Muvofiqlikni baholash organlari — yuridik shaxs bo'lgan va muvofiqlikni baholashga doir ishlarni bajarish uchun belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan inspeksiya organlari, sinov va kalibrlash laboratoriyalari (markazlari), mahsulotni, xizmatlarni, menejment tizimlarini, xodimlarni sertifikatlashtirish organlari;

4. Muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya — ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki ijrochi mahsulotning normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlaydigan hujjat;

5. GLOSSARIY

1. Muvofiqlikni tasdiqlash — normativ-huquqiy hujjatlarning, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning talablari bajarilganligi isbotlangani haqida Milliy akkreditatsiya organi yoki muvofiqlikni baholash organlari tomonidan qabul qilingan qarorga asoslangan hujjatlashtirilgan (akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma, muvofiqlik sertifikatini va muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya tarzidagi) tasdiq;

2. Xodimlar — muvofiqlikni baholashga doir ishlarni amalga oshirish uchun tayyorgarlikka va malakaga ega bo'lgan mutaxassislar.

3. Bolalarbop oziq-ovqat mahsulotlari — bolalar organizmining (uch yoshgacha) fiziologik xususiyatlariga javob beradigan maxsus oziq-ovqat mahsulotlari;

4. Gigena sertifikatini — oziq-ovqat mahsuloti, texnologiya, uskuna va boshqa jarayonlar amaldagi sanitariya normalari va qoidalariga mos ekanligini tasdiqlaydigan hujjat;

6. GLOSSARIY

1. Ovqatga qo'shiladigan biologik faol qo'shimchalar — oziq-ovqat xom ashyosini qayta ishlash yo'li bilan yoki sun'iy usulda hosil qilingan hamda bevosita ovqat bilan birga iste'mol qilishga yoki oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga qo'shishga mo'ljallangan tabiiy yoxud tabiiyga aynan o'xshaydigan biologik faol moddalarning konsentratlari;

2. Oziq-ovqatlar — oziq-ovqat xom ashyosidan tayyorlangan hamda natural yoki qayta ishlangan holda iste'mol qilinadigan mahsulotlar;

3. Oziq-ovqat mahsuloti — oziq-ovqat xom ashyosi, (shu jumladan etil spirti), oziq-ovqatlar (shu jumladan alkogolli ichimliklar) va ularning tarkibiy qismlari, oziq-ovqat xom ashyosi va oziq-ovqatlarga tegib turadigan moddalar,

materiallar, yordamchi va qadoqlash materiallari hamda ulardan tayyorlangan buyumlar birga;

4.Oziq-ovqat mahsuloti muomalasi — oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish, tayyorlash, xarid qilish, qayta ishlash, etkazib berish, saqlash, tashish va realizatsiya qilish bilan bog‘liq faoliyat;

7. GLOSSARIY

1.Oziq-ovqat mahsulotini realizatsiya qilish — oziq-ovqat mahsulotini ma‘lum shartlar bilan sotish, etkazib berish va topshirishning boshqa shakllari;

2.Oziq-ovqat mahsulotining sifati — oziq-ovqat mahsulotining iste‘mol xossalari belgilab beradigan va uning odamlar hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfsizligini ta‘minlaydigan mezonlar majmui;

3.Oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi — oziq-ovqat mahsulotining sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya qoidalari va normalariga mosligi;

4.Oziq-ovqat xom ashyosi — oziq-ovqatlar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan o‘simlik, hayvonot, mikrobiologiya, shuningdek minerallar ob‘ektlari, suv;

8. GLOSSARIY

1.Oziq-ovqatlarni hamda oziq-ovqat xom ashyosini taqqoslash — oziq-ovqatlar hamda oziq-ovqat xom ashyosi aniq turdagi va nomdagi mahsulotga doir normativ va (yoki) texnikaviy hujjatda belgilab qo‘yilgan muhim mezonlarga mos kelishini aniqlash;

2.Oziq-ovqat mahsulotining yaroqlilik muddati (foydalanish muddati) — bu muddat davomida oziq-ovqat mahsulotini saqlash, tashish, realizatsiya qilish chog‘ida xavfsizlik normalari va qoidalari talablariga rioya etilgan taqdirda u foydalanishga yaroqli bo‘lib turadi, bu muddat tamom bo‘lganidan keyin esa mahsulot odamlar hayoti va salomatligi uchun xavfli bo‘lib qolishi mumkin;

3.Oziq-ovqat mahsulotini qalbakilashtirish — oziq-ovqat xom ashyosining hamda oziq-ovqatlarning xossalari va mezonlarini ataylab o‘zgartirish yoki ularni almashtirib qo‘yish;

4.Oziq-ovqat qo‘shimchalari — oziq-ovqatlarga belgilangan xossalarni baxsh etish va (yoki) ularni saqlab qolish maqsadida ataylab qo‘shiladigan tabiiy holdagi yoki sintez qilingan moddalar, birikmalar;

9. GLOSSARIY

1. Toksikologiya-gigiena ekspertizasi — oziq-ovqat mahsuloti ustida amalga oshiriladigan bir turkum laboratoriya tadqiqotlari bo‘lib, ular mavjud normalar va qoidalar bilan qiyoslashga mo‘ljallangan bo‘ladi;

2.Kadoqlash materiallari, yordamchi materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar — oziq-ovqat mahsulotini muomala jarayonida tashqi ta‘sirlardan himoyalash maqsadida ishlatiladigan vositalar.

3.Akkreditatsiya — yuridik shaxslarning muayyan faoliyat sohasida muvofiqlikni baholashga doir ishlarni bajarishga vakolatli ekanligini Milliy akkreditatsiya organi tomonidan rasman tasdiqlash;

4.Akkreditatsiya sohasi — muvofiqlikni baholash organining akkreditatsiya chogʻida Milliy akkreditatsiya organi tomonidan belgilanadigan faoliyati sohasi;

10. GLOSSARIY

1.Inspeksiya nazorati — mahsulotni, ishlab chiqarish jarayonlarini, xizmatlarni, menejment tizimlarini, muvofiqlikni baholash organlarini ularning muvofiqlikni baholash davrida belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladigan davriy qayta baholash tartib-taomili;

2.Inspeksiya organi — yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspeksiyaning va inspeksiya nazoratini oʻtkazish uchun belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan yuridik shaxs;

3.Milliy akkreditatsiya tizimi — muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish qoidalari va tartib-taomilini belgilaydigan normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq davlat miqyosida faoliyat koʻrsatuvchi tizim;

4.Muvofiqlikni baholash — mahsulot, ishlab chiqarish jarayonlari, xizmatlar, menejment tizimlari, xodimlar, muvofiqlikni baholash organlarining normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash boʻyicha faoliyat;

11. GLOSSARIY

1.Muvofiqlikni baholash organlari — yuridik shaxs boʻlgan va muvofiqlikni baholashga doir ishlarni bajarish uchun belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan inspeksiya organlari, sinov va kalibrlash laboratoriyalari (markazlari), mahsulotni, xizmatlarni, menejment tizimlarini, xodimlarni sertifikatlashtirish organlari;

2.Muvofiqlik toʻgʻrisidagi deklaratsiya — ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki ijrochi mahsulotning normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlaydigan hujjat;

3.Muvofiqlikni tasdiqlash — normativ-huquqiy hujjatlarning, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning talablari bajarilganligi isbotlangani haqida Milliy akkreditatsiya organi yoki muvofiqlikni baholash organlari tomonidan qabul qilingan qarorga asoslangan hujjatlashtirilgan (akkreditatsiya toʻgʻrisidagi guvohnoma, muvofiqlik sertifikatini va muvofiqlik toʻgʻrisidagi deklaratsiya tarzidagi) tasdiq;

4.Xodimlar — muvofiqlikni baholashga doir ishlarni amalga oshirish uchun tayyorgarlikka va malakaga ega boʻlgan mutaxassislar.

12. GLOSSARIY

1.«Mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) sertifikatlashtirish tizimi» — ayni bir xil standartlar va qoidalar qoʻllaniladigan muayyan mahsulotlar, ishlar yoki xizmatlarga taalluqli sertifikatlashtirish tizimi;

2.«Sifat boʻyicha ekspert-auditor» — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda attestatsiyadan oʻtkazilgan, muvofiqlikni baholash sohasidagi ishlarni olib borish uchun tegishli malakaga ega boʻlgan mutaxassis;

3.«Sertifikatlashtirish bo'yicha inspeksiya organi» — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan, sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ustidan sertifikatlashtirish organlarining topshirig'iga ko'ra inspeksiya nazoratini amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

4.«Sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ustidan inspeksiya nazorati» — sertifikatlashtirilgan mahsulotlarning sertifikatlashtirilayotganda belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladigan sertifikatlashtirilgan mahsulotlarni davriy takroriy baholash tartib-taomili.

13. GLOSSARIY

1. Akkreditatsiya — yuridik shaxslarning muayyan faoliyat sohasida muvofiqlikni baholashga doir ishlarni bajarishga vakolatli ekanligini Milliy akkreditatsiya organi tomonidan rasman tasdiqlash;

2.Akkreditatsiya sohasi — muvofiqlikni baholash organining akkreditatsiya chog'ida Milliy akkreditatsiya organi tomonidan belgilanadigan faoliyati sohasi;

3.Inspeksiya nazorati — mahsulotni, ishlab chiqarish jarayonlarini, xizmatlarni, menejment tizimlarini, muvofiqlikni baholash organlarini ularning muvofiqlikni baholash davrida belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladigan davriy qayta baholash tartib-taomili;

4. Inspeksiya organi — yukni ortishdan oldin va (yoki) yukni tushirish vaqtidagi inspeksiyaning va inspeksiya nazoratini o'tkazish uchun belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan yuridik shaxs;

14. GLOSSARIY

1.Milliy akkreditatsiya tizimi — muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish qoidalari va tartib-taomilini belgilaydigan normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq davlat miqyosida faoliyat ko'rsatuvchi tizim;

2. Muvofiqlikni baholash — mahsulot, ishlab chiqarish jarayonlari, xizmatlar, menejment tizimlari, xodimlar, muvofiqlikni baholash organlarining normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash bo'yicha faoliyat;

3.Muvofiqlikni baholash organlari — yuridik shaxs bo'lgan va muvofiqlikni baholashga doir ishlarni bajarish uchun belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan inspeksiya organlari, sinov va kalibrlash laboratoriyalari (markazlari), mahsulotni, xizmatlarni, menejment tizimlarini, xodimlarni sertifikatlashtirish organlari;

4.Muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya — ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki ijrochi mahsulotning normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlaydigan hujjat;

15. GLOSSARIY

1.Muvofiqlikni tasdiqlash — normativ-huquqiy hujjatlarning, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning talablari bajarilganligi isbotlangani haqida Milliy akkreditatsiya organi yoki muvofiqlikni baholash organlari tomonidan qabul qilingan qarorga asoslangan hujjatlashtirilgan

(akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma, muvofiqlik sertifikatini va muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiya tarzidagi) tasdiq;

2.Xodimlar — muvofiqlikni baholashga doir ishlarni amalga oshirish uchun tayyorgarlikka va malakaga ega bo'lgan mutaxassislar.

3.Bolalarbop oziq-ovqat mahsulotlari — bolalar organizmining (uch yoshgacha) fiziologik xususiyatlariga javob beradigan maxsus oziq-ovqat mahsulotlari;

4.Gigiena sertifikatini — oziq-ovqat mahsuloti, texnologiya, uskuna va boshqa jarayonlar amaldagi sanitariya normalari va qoidalariga mos ekanligini tasdiqlaydigan hujjat;

16. GLOSSARIY

1.Ovqatga qo'shiladigan biologik faol qo'shimchalar — oziq-ovqat xom ashyosini qayta ishlash yo'li bilan yoki sun'iy usulda hosil qilingan hamda bevosita ovqat bilan birga iste'mol qilishga yoki oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga qo'shishga mo'ljallangan tabiiy yoxud tabiiyga aynan o'xshaydigan biologik faol moddalarning konsentratlari;

2.Oziq-ovqatlar — oziq-ovqat xom ashyosidan tayyorlangan hamda natural yoki qayta ishlangan holida iste'mol qilinadigan mahsulotlar;

3.Oziq-ovqat mahsuloti — oziq-ovqat xom ashyosi, (shu jumladan etil spirti), oziq-ovqatlar (shu jumladan alkogolli ichimliklar) va ularning tarkibiy qismlari, oziq-ovqat xom ashyosi va oziq-ovqatlarga tegib turadigan moddalar, materiallar, yordamchi va qadoqlash materiallari hamda ulardan tayyorlangan buyumlar birga;

4.Oziq-ovqat mahsuloti muomalasi — oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish, tayyorlash, xarid qilish, qayta ishlash, etkazib berish, saqlash, tashish va realizatsiya qilish bilan bog'liq faoliyat;

17. GLOSSARIY

1.Oziq-ovqat mahsulotini realizatsiya qilish — oziq-ovqat mahsulotini ma'lum shartlar bilan sotish, etkazib berish va topshirishning boshqa shakllari;

2.Oziq-ovqat mahsulotining sifati — oziq-ovqat mahsulotining iste'mol xossalari belgilab beradigan va uning odamlar hayoti va sog'lig'i uchun xavfsizligini ta'minlaydigan mezonlar majmui;

3.Oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi — oziq-ovqat mahsulotining sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya qoidalari va normalariga mosligi;

4.Oziq-ovqat xom ashyosi — oziq-ovqatlar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan o'simlik, hayvonot, mikrobiologiya, shuningdek minerallar ob'ektlari, suv;

18. GLOSSARIY

1.Oziq-ovqatlarni hamda oziq-ovqat xom ashyosini taqqoslash — oziq-ovqatlar hamda oziq-ovqat xom ashyosi aniq turdagi va nomdagi mahsulotga doir normativ va (yoki) texnikaviy hujjatda belgilab qo'yilgan muhim mezonlarga mos kelishini aniqlash;

2.Oziq-ovqat mahsulotining yaroqlilik muddati (foydalanish muddati) — bu muddat davomida oziq-ovqat mahsulotini saqlash, tashish, realizatsiya qilish chogʻida xavfsizlik normalari va qoidalari talablariga rioya etilgan taqdirda u foydalanishga yaroqli boʻlib turadi, bu muddat tamom boʻlganidan keyin esa mahsulot odamlar hayoti va salomatligi uchun xavfli boʻlib qolishi mumkin;

3.Oziq-ovqat mahsulotini qalbakilashtirish — oziq-ovqat xom ashyosining hamda oziq-ovqatlarning xossalari va mezonlarini ataylab oʻzgartirish yoki ularni almashtirib qoʻyish;

4.Oziq-ovqat qoʻshimchalari — oziq-ovqatlarga belgilangan xossalarni baxsh etish va (yoki) ularni saqlab qolish maqsadida ataylab qoʻshiladigan tabiiy holdagi yoki sintez qilingan moddalar, birikmalar;

19 GLOSSARIY

1.Audit – kelishilgan audit mezonlarining bajarilish darajasini aniqlash maqsadida audit dallillarini olish va ularni ob`ektiv baholashdagi muntazam, mustaqil va hujjatlashtirilgan jarayon.

Izoh - Ba`zan, birinchi tomon oʻtkazadigan auditlar deb ataluvchi ichki auditlar odatda tashkilotning tomonidan oʻzi yoki uning nomidan ichki maqsadlar uchun oʻtkaziladi va muvo-fiqlik haqidagi deklaratsiya uchu asos boʻlishi mumkin.

Tashqi auditlar odatda “ikkinchi tomon oʻtkazadigan auditlar” yoki “uchinchi tomon oʻtkazadigan auditlar” deb ataluvchi auditorlarni oʻz ichiga oladi.

Ikkinchi tomon oʻtkazadigan auditorlarni tashkilotning faoliyatidan manfaatdor boʻlgan tomonlar, masalan, iste`molchilar yoki ularning nomidan boshqa shaxslar oʻtkazadi.

Uchinchi tomon oʻtkazadigan auditorlarni tashqi mustaqil tashkilotlar oʻtkazadi. Bu tashkilotlar talablarga, masa-lan, ISO 9001 va ISO 14001 talablarga muvofiqlikni sertifikatlashtiradi yoki roʻyxatga oladi.

Agar ikkita yoki bir nechta tashkilotlar tekshiriladigan tashkilotni auditini birgalikda oʻtkazadigan boʻlsa, bu “birgalikda oʻtkaziladigan audit” deb ataladi.

Oʻzbekiston Respublikasida sifat menejmenti tizimini ichki tekshirish yoki sertifikatlashtirish, sertifikatlashtirish boʻyicha akkreditlangan idoralarning va sinov laboratoriyalarining faoliyatini inspeksion tekshiruv auditga taaluqli faoliyatga namunaviy misol boʻladi.

2.Audit buyurtmachisi - auditga buyurtma bergan tashkilot.

3.Audit boʻyicha guruh – audit oʻtkazadigan bir yoki bir nechta auditorlar (sifat tizimini sertifikatlashtirish boʻyicha ekspert-auditorlar).

Izohlar:

1. Audit guruhida auditorlardan biri odatda audit guruhining rahbari etib tayinlanadi.

2. Audit guruhi stajerlarni va, zarur boʻlganda texnik ekspertlarni oʻz ichiga olishi mumkin.

Guruh ishi audit guruhi a`zolarining vakolati boʻlmagan kuzatuvchilar ishtirok etishi mumkin.

4.Audit dalili – audit mezonlari bilan bogliq boʻlgan va tekshirilishi mumkin boʻlgan yozuvlar, faktlarni bayoni yoki boshqa axborot.

Izoh – audit dalili sifat yoki miqdorga oid bo‘lishi mumkin.

20 GLOSSARIY

1. Audit dasturi – muayyan vaqt oraligida rejalashtirilgan va muayyan maqsadga erishishga qaratilgan bir yoki bir nechta auditlar majmui.

2. Audit kuzatuvlari - audit dalilini audit mezonlariga bog‘liq ravishda baxolash natijasi.

Izoh – audit kuzatuvlari audit muzonlariga muvofiqlik yoki nomuvofiqlikni yoki yaxshilash imkoniyatlari borligini ko‘rsatish mumkin.

3. Audit mezonlari – havolalar shaklida qo‘laniladigan siyosat, proseduralar yoki talablar majmui.

4. Audit natijalari bo‘yicha hulosa - audit maqsadlarini va barcha audit ko‘rsatuvlarini ko‘rib chiqqandan keyin audit guruhi tomonidan berilgan auditning chiqish ma‘lumotlari.

21 GLOSSARIY

1. Auditor - (sifat tizimlarini sertifikatlashtirish bo‘yicha ekspert-auditor) audit o‘tkazishga layoqatli shaxs

2. Axborot - ahamiyatga molik bo‘lgan ma‘noli ma‘lumotlar

3. Validatlash (tasdiqlash) – aniq maqsadlarga foydalanish yoki qo‘llanish uchun mo‘ljallangan talablarning bajarilganligi ob‘ektiv dalillar keltirish yo‘li bilan tasdiqlash.

Izohlar:

1. “Tasdiqlangan” atamasi mos maqomni belgilash uchun ishlatiladi.

2. qo‘llanish shartlari real yoki modellashtirilgan bo‘lishi mumkin.

Loyiha, konstruktorlik hujjatlari, texnologik hujjatlar, ishlab chiqilgan mahsulotga qo‘yilgan texnik shartlarga va chiqarilgan mahsulotlarni qabul sinovlarining dalolatnomasini tasdiqlash validatlash (tasdiqlash)ga taaluqli faoliyatga misol bo‘ladi.

4. Verifikatlash – belgilangan talablarning bajarilganligini ob‘ektiv dalillar keltirish yo‘li bilan tasdiqlash.

Izohlar:

1. “Verifikatlangan” atamasi mos maqomni belgilash uchun foydalaniladi.

2. Tasdiqlashga bo‘yicha faoliyat quyidagi faoliyatlarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- alternativ hisoblarni amalga oshirish.

- yangi loyixa bo‘yicha tuzilgan ilmiy-texnik hujjatlarni sinab ko‘rilgan loyihaga tuzilgan o‘xshash hujjatlar bilan taqqoslash, sinovlarni va namoyish o‘tkazish.

- hujjatlarni, chiqarishdan oldin tahlil etish.

Loyihalashdagi chiqish ma‘lumotlarining kirish talablariga muvofiqligini tekshirish, audit, vaqtida aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf etish bo‘yicha tuzatish harakatlarining bajarilganligini tekshirish verifikatlashga taaluqli faoliyatga massa bo‘ladi.

22 GLOSSARIY

1.Gradatsiya – bir xil vazifaga mo‘ljallangan mahsulot, jarayonlar yoki tizimlar sifatiga bo‘lgan turli talablarga berilgan klass, sort, toifa yoki razryad.

Misol – Aviabilet klassi yoki mehmonxonalar bildirgichidagi mehmonxona toifasi.

Izoh – Sifatga qo‘yiladigan talabni aniqlashda gradatsiya odatda belgilanadi.

2.Gradatsiyani pasaytirish – nomuvofiq mahsulotning boshlangich talablardan farqlanuvchi talablarga muvofiq kelishi uchun uning gradatsiyani o‘zgartirish.

3.Doimiy yaxshilash – talablarni bajarish imkoniyatini oshirishga qaratilgan takrorlanuvchi faoliyat.

Izoh – Maqsadlarni belgilash va sifatni yaxshilash imkoniyatlarini topish jarayoni audit kuzatuvlari va audit natijalari bo‘yicha xulosalar, ma‘lumotlar tahlili, rahbariyat tomonidan bajarilgan tahlil yoki boshqa vositalardan foydalanuvchi doimiy jarayon bo‘lib, bular odatda, kuzatish harakatlariga yoki oldini olish harakatlariga olib keladi.

4.YOzuv – erishilgan natijalarni yoki faoliyatning amalga oshirilganligi to‘grisidagi dalillarni o‘z ichiga olgan hujjat.

Izohlar:

1. YOzuvlar, masalan, kuzatuvchanlikni va verifikatlash, o‘tkazilganligi to‘grisidagi dalillarni, oldini olish xarakatini va tuzatish harakatlarini hujjatlashtirishda foydalanishi mumkin.

2. Odatda yozuvlarni qayta ko‘rib chiqishlar boshqarishni talab etmaydi.

23 GLOSSARIY

1.Etkazib beruvchi – mahsulotni etkazib beruvchi tashkilot yoki shaxs.

Misol –Ishlab chiqaruvchi, ulgurji savdo qiluvchi, chakana savdo qiluvchi korxonalar yoki mahsulotni sotuvchi, xizmatlarni bajaruvchi, axborotni etkazib beruvchi.

Izohlar:

1. Etkazib beruvchi tashkilotga nisbatan ichki yoki tashqi bo‘lishi mumkin.

2. Kontraktli vaziyatda etkazib beruvchi ba‘zan “pudratchi” deyiladi.

2.Jarayon – kirishlarni chiqishlarga o‘zgartiruvchi o‘zaro boglangan va o‘zaro harakat kiluvchi faoliyat turlarining majmui.

Izohlar:

1. Jarayonga kirishlar odatda boshqa jarayonlarning chiqishlari bo‘ladi.

2. Tashkilotdagi jarayonlar odatda boylikni orttirish maqsadida boshqariluvchan sharoitlarda rejalashtiriladi va bajariladi.

3. So‘nggi mahsulotning muvofiqligini tasdiqlash qiyin yoki iqtisodiy jihatdan maqsadga nomuvofiq bo‘lgan jarayon ko‘pincha “maxsus jarayonga” kiritiladi.

3.Imkoniyatlar – tashkilot, tizim, yoki jarayonning talablarni qondiradigan mahsulot ishlab ishlab chiqarish imkoniyati.

Izoh – Jarayonning statistikasi sohasidagi imkoniyatlariga tegishli atamalar ISO 3534-2 da keltirilgan.

4. Infratuzilma - (tashkilot) tashkilotning o'z vazifasini bajarishi uchun zarur bo'lgan binolar, jixozlar va ta'minot majmui.

24 GLOSSARIY

1. Iste'molchi - mahsulotni oluvchi tashkilot yoki shaxs.

Misol – Mijoz, buyurtmachi, so'ngi foydalanuvchi, chakana savdogar, benifitsiarva xaridor.

Izoh – Iste'molchi tashkilotga nisbatan ichki yoki tashqi bo'lishi mumkin.

2. Iste'molchilar qoniqqanligi – iste'molchilarning o'z talablarning bajarilganlik darajasi idrok qilishi.

Izohlar:

1. Iste'molchilarning shikoyatlari ularning kam qoniqqanligining umumiy ko'rsatkichi bo'ladi, ammo shikoyatlarning o'qligi iste'molchilarning yuqori darajada qoniqqanligini bildirishi shart emas.

2. Iste'molchilarning talablari ular bilan kelishilgan va bajarilgan taqdirda ham bu iste'molchilarning yuqori darajada qoniqqanligini anglatishi shart emas.

3. Ishlab chiqarish muhiti – ish bajariladigan sharoitlar majmui.

Izoh – SHaroitlar fizik, ijtimoiy psixologik va ekologik omillarni (jumladan, xarorat, tan olish va ragbarlantirish tizimlari, ekonomika va atmosfera tarkibini) o'z ichiga oladi.

4. Qayta yasash – nomuvofiq mahsulotning belgilangan talablarga muvofiq kelishi uchun unga nisbatan ko'rilgan harakat.

Izoh – ta'mirlash qayta yasashdan o'laroq, nomuvofiq mahsulotning qismlariga ta'sir etishi yoki ularni o'zgartirishi mumkin.

25 GLOSSARIY

1. Kuzatuvchanlik – ko'rilayotgan narsaning kelib chiqish tarixini, qo'llanilishini yoki uning joylashgan o'rnini kuzatish imkoniyatlari

Izohlar:

1. mahsulot ko'rilayotgan "kuzatuvchanlik" quyilagilarga nisbatan qo'llanishi mumkin:

- materiallar va butlovchi qismlarning kelib chiqishi

- ishlov berish tarixi

- etkazib berilgandan so'ng mahsulotni taqsimlanishi va joylashgan o'rin.

2. VIM:1993,da merologiya sohasida keltirilgan ta'rif qabul qilingan ta'rifdir.

2. Layoqatlilik – o'z bilimlari va mahoratini aniq qo'llay olishlik qobiliyati.

3. Loyiha – cheklangan muddat, narx va resurslarni o'z ichiga olgan, muayyan talablarga mos maqsadga erishish uchun bajarilgan, boshlangich va oxirgi sanalari ko'rsatilgan muvofiqlashtirilgan va boshqariladigan faoliyat majmuidan iborat bo'lgan noyob jarayon.

Izohlar:

1. Alohida loyiha yirikroq loyihaning bir qismi bo'lishi mumkin.

2. Ba'zi loyihalarda maqsadlar mukammalashtiriladi, mahsulotning tavsiflari esa loyihaning rivojlanishi borasida mos holda aniqlanadi.

3. Loyihaning chiqish elementi bir buyum yoki mahsulotning bir nechta qismlari bo'lishi mumkin.

4. ISO 10006:1997 dan moslashtirib olingan.

4.Loyihalash va ishlab chiqish - talablarni belgilangan tavsiflarga yoki mahsulot, jarayon yoki tizim uchun tuzilgan me`yoriy texnik hujjatga aylantiruvchi jarayonlar majmui.

Izohlar:

1. “Loyihalash” va “ishlab chiqish” atamalaridan ba`zan, sinonimlar sifatida, ba`zan esa loyihalash yoki umuman ishlab chiqish jarayoning turli bosqichlarini aniqlash uchun foydalaniladi.

2. Loyihalash va ishlab chiqishob`ektini belgilash uchun aniqlovchi so`zlardan foydalanish mumkin (masalan, mahsulotni loyihalash va ishlab chiqish yoki jarayonni loyihalash va ishlab chiqish).

26 GLOSSARIY

1.Malaka berish jarayoni – belgilangan talablarni bajarish imkoniyatini namoyish qilish jarayoni

Izohlar:

1. “Malaka berilgan” atamasi mos maqomni belgilash uchun ishlatiladi.

2. Malaka berish xodimlarga, mahsulotga, jarayonlarga yoki tizimlarga nisbatan qo`llaniladi.

Misol – auditorlar (sifat tizimlarini, sertifikatlashtirish bo`yicha ekspertlar)ga malaka berish, materialga malaka berish.

2.Manfaatdor tomon – tashkilotning faoliyatidan yoki yutuqidan manfaatdor bo`lgan shax syoki guruh.

Misol – iste`molchilar, sohiblar, tashkilot xodimlari, etkazib teruvchilar, bankirlar, assosiatsiyalar, sheriklar yoki jamiyat.

Izoh – Guruh tashkilotdan, uning bir qismidan Ki bir nechta tashkilotlardan iborat bo`lishi mumkin.

3.Mahsulot – jarayon natijasi

Izohlar:

1. Mahsulotlarning to`rtta toifasi bor:

- xizmatlar (masalan, yuk tashish)
- dasturiy vositalar (masalan, komp`yuter dasturi, lug`at)
- texnik vositalar (masalan, motorning qismi)
- qayta ishlanadigan materiallar (masalan, surkov mollari)

Mahsulotning ko`p turlari mahsulotning turli umumiy toifalariga kiradigan elementlarni o`z ichiga oladi. Mahsulotni xizmatlar, dasturiy vositalar, texnik vositalar yoki qayta ishlanadigan materiallar kiritish shu mahsulotdagi ustunlik qiladigan elementga bog`liq. Masalan, etkazib beriladigan mahsulot “avtomobil” texnik vositalar (masalan, shinalar), qayta ishlanadigan materiallar (yoqilgi, sovitish suyuqligi), dasturiy vositalar (motorni dasturiy boshqarish, haydovchi uchun qo`llanma) va xizmatlardan iborat (avtomobildan foydalanish to`g`risidagi sotuvchi tomonidan beriladigan tushun-tirishlar).

2. Xizmat etkazib beruvchi va noiste`molchining o`zaro hamkorligida amalga oshirilgan kamida bitta harakat natijasidir. Xizmatlar odatda nomoddiy bo`ladi. Xizmat ko`rsatish quyidagilarni o`z ichiga olishi mumkin:

- iste'molchi eikazib bergan moddiy mahsulot ustida bajarilgan faoliyat (masalan, ta'mir talab avtomobil)

- iste'molchi eikazib bergan nomoddiy mahsulot ustida bajarilgan (masalan, soliq miqdorini aniqlash uchun zarur bo'lgan daromad to'g'risida ariza)

- nomoddiy mahsulotni berish (masalan, bilimlarni berish ma'nosidagi axborot)

- iste'molchilar uchun qulay sharoitlarni yaratib berish (masalan, mexmonxonalarda va restoranlarda)

Dasturiy vosita axborotga ega bo'ladi va u odatda nomoddiy bo'ladi, shuningdek yondashishlar, operatsiyalar yoki proseduralar shaklida ham bo'lishi mumkin.

Texnik vosita odatda moddiy bo'ladi va uning miqdori hisoblab topiladigan tavsif bilan ifodalanadi. Qayta ishlanadigan materiallar odatda moddiy bo'ladi va ularning miqdori uzluksiz tavsif bilan ifodalanadi. Texnik vositalar va qayta ishlanadigan materiallar ko'pincha tovarlar deb ataladi.

3. Sifatni ta'minlash asosan mo'ljallangan mahsulotga qaratilgan.

4.Menedjment tizimi – siyosat va maqsadlarni ishlab chiqish va bu maqsadlarga erishish tizimi.

Izoh – tashkilot menedjmenti tizimi turli menedj-ment tizimlarini, jumladan sifat menedjmenti tizimi, moliyaviy faoliyat menedjmenti tizimi yoki atrof-muxitni muxofaza qilish menedjmenti tizimini o'z ichiga olishi mumkin.

27 GLOSSARIY

1.Menejment – tashkilotga rahbarlik qilish va boshqarish bo'yicha o'zaro muvofiqlashtirilgan faoliyat.

Izoh – Ingliz tilida “management” atamasi ba'zan odamlarga, ya'ni tashkilotga rahbarlik qilish va boshqarish uchun vakolatlangan mas'ul shaxsga yoki xodimlar guruhiga taaluqli bo'ladi. “Management” bu ma'noda foydalanilganda uni yuqorida ta'riflangan “management” tushunchasi bilan aralashtirib yubormaslik maqsadida doim aniqlovchi so'zlar bilan qo'llanish lozim.

Masalan, “rahbariyat taminlashi lozim” emas, balki “yuqori rahbariyat ta'minlashi lozim» iborasi ma'qul bo'ladi.

2.Metrologik tavsif – o'lchash natijalariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan farqlovchi xususiyat.

Izohlar:

1. o'lchash asbob uskunalari odatda bir nechta met-rologik tavsifga ega bo'ladi.

2. Metrologik tavsifkalibrlanishi mumkin.

3.Me'yoriy texnik hujjatlar - talablarni belgilovchi hujjatlar

Izoh - Me'yoriy texnik hujjatlar faoliyatga (masalan, hujjatlashtirilgan hujjatlar, jarayon yoki sinash usuliyatiga oid texnologik hujjat) yoki mahsulotga taaluqli bo'lishi mumkin (masalan, mahsulotga qo'yiladigan texnikaviy shartlar, foydalanishga oid hujjatlar.

4.Muvofiqlik – talabningbajarilganligi.

Izohlar:

1. Ushbu ta`rif ISO/IEC 2 qo`llanmasida keltirilgan ta`rifga mos keladi, lekin ISO 9000 kontsepsiyasiga mos kelishi uchun undan yangicha ifodalanganligi bilan farqlanadi.

2. Ingliz tilida “conformance” atamasi sinonim sifatida yozilgan, lekin unga e`tirozlar bo`lgan

28 GLOSSARIY

1.Talab – ehtiyoj yoki belgilangan kutilma bo`lib, odatda mo`ljallanadi yoki majburiy bo`ladi.

Izohlar:

1. “Odatda mo`ljallanadi” tushunchasi ko`rilayotgan ehtiyojlar yoki ko`tilmalar mo`ljallanayotganda tashkilot, uning iste`molchilari va boshqa manfaatdor tomonlarning umum qabul qilingan amaliyotini bildiradi.

2. Talabning aniq muayyan turini belgilash uchun masalan, mahsulotga qo`yiladigan talablar, sifat tizimiga qo`yiladigan talablar, iste`molchining talabi kabi aniqlovchi so`zlar qo`llanilishi mumkin.

3. Belgilangan talab bo`lib masalan, hujjat aniqlangan talab hisoblanadi.

4. Talablarni turli manfaatdor tomonlar ko`rsatishi mumkin.

2.Nomuvofiq mahsulotni utillashtirish – nomuvofiq mahsulotdan dastlab mo`ljallangandek foydalanishga yo`l qo`ymaslik uchun unga nisbatan ko`rilgan harakat.

Misol –qayta ishlash, yo`qotish

Izoh – Nomuvofiq xizmat sodir bo`lganda uni qo`llanish xizmat ko`rsatishni to`xtatish yo`li bilan bartaraf etiladi.

3.Nomuvofiqlik- talabning bajarilmaganligi

4.Nuqson – mo`ljallangan yoki belgilangan foydalanish bilan bog`liq bo`lgan talabning bajarilmaganligi

Izohlar:

1. Nuqson va nomuvofiqlik tushunchalari o`rtasidagi farq muhimdir, chunki uning tagida yuridik xarakterga ega, ayniqsa mahsulotning sifati uchun javobgarlik masalasi bilan bogliq bo`lgan ma`no bor.

2. Iste`molchining bu atamalarning qaysi biridan foydalanishi axborot xarakteriga, jumladan etkazib beruvchi tomonidan yuborgan foydalanish va texnik xizmat ko`rsatishga oid qo`llanma bogliq bo`lishi mumkin.

29 GLOSSARIY

1.Ob`ektiv dalillar – biror nasaning borligi yoki rostligini tasdiqlovchi ma`lumotlar.

Izoh – ob`ekti dalil kuzatish, o`lchash, sinash, yoki boshqa usullar bilan olinishi mumkin.

2.Oldini olish harakati – yuzaga chiqishi mumkin bo`lgan nomuvofiqlik yoki boshqa noma`qul vaziyatning sodir bo`lishiga yo`l qo`ymaslik uchun ularning sababini bartaraf etishga qaratilgan oldini olish harakati.

Izohlar:

1. YUZaga chiqishi mumkin bo`lgan nomuvo-fiqlikning bir nechta sabablari bo`lishi mumkin.

2. Oldini olish harakati voqeaning sodir bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun tuzatish harakati esa – bu voqeaning takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida bajariladi.

3.Prosedura - faoliyatni yoki jarayonni amalga oshirishning belgilangan usuli.

Izohlar:

1. Prosedura hujjatlashtirilgan yoki hujjatlashtirilmagan bo'lishi mumkin.

2. Agar prosedura hujjatlashtirilgan bo'lsa, ko'pincha “yozma prosedura” yoki “hujjatlashtirilgan prosedura” atamalaridan foydalaniladi. Prosedurani o'z ichiga olgan hujjat “hujjatlashtirilgan prosedura” deb atalishi mumkin.

4.Puxtalik – tayyorlik, buzilmaslik, ta'mirlashga, yaroqlilik, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mir bilan ta'minlanganlik xususiyatlarini ifodalash uchun qo'llaniladigan atama.

Izoh – Puztalik xususiyati faqat miqdorsiz umumiy tavsiflash uchun qo'llaniladi. [IEC 60060-191:1990]

30 GLOSSARIY

1.Talab – ehtiyoj yoki belgilangan kutilma bo'lib, odatda mo'ljallanadi yoki majburiy bo'ladi.

Izohlar:

1. “Odatda mo'ljallanadi” tushunchasi ko'rilayotgan ehtiyojlar yoki kutilmalar mo'ljallanayotganda tashkilot, uning iste'molchilari va boshqa manfaatdor tomonlarning umum qabul qilingan amaliyotini bildiradi.

2. Talabning aniq muayyan turini belgilash uchun masalan, mahsulotga qo'yiladigan talablar, sifat tizimiga qo'yiladigan talablar, iste'molchining talabi kabi aniqlovchi so'zlar qo'llanilishi mumkin.

3. Belgilangan talab bo'lib masalan, hujjat aniqlangan talab hisoblanadi.

4. Talablarni turli manfaatdor tomonlar ko'rsatishi mumkin.

2.Sinash - belgilangan proseduraga muvofiq bir yoki bir nechta tavsiflarni aniqlash.

3.Sifat – xususiy tavsif majmuining talablarga muvofiq darajasi

Izohlar:

1. “Sifat” atamasi yomon, yaxshi yoki a'lo kabi sifatlar bilan qo'llanishi mumkin.

2. “Xususiy” atamasi “rejalangan” atamadan farqli o'laroq biron narsaning ichida ekanligini bildiradi, ayniqsa bu doimiy tavsifga tegishli bo'lsa.

4.Sifat bo'yicha qo'llanma – tashkilotning sifat menejmenti tizimini aniqlovchi hujjat.

Izoh – sifat bo'yicha qo'llanmalar tashkilotning yirikligi va murakkabligidan kelib chiqqan holda yozilish shakli va batafsilligi jihatidan o'zaro farqlanishi mumkin.

QO‘LLANMA UCHUN OLINGAN ADABIYOT VA MANBALAR.

Asosiy adabiyotlar

1. Ismatullaev P.R., Matyakubova P.M., Turaev SH.A. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Darslik. T.: Lesson-Press, 2015.423 6.
2. Ismatullaev P.R., Axmedov B.M., Matyakubova P.M., Xamrokulov F.X., Turaev SH.A. Sertifikatlashtirish asoslari va sifat menejmenti. Darslik. Toshkent, Sano-standart, 2014. - 330 6.
3. Abduvaliev A.A. i metrologii i upravleniya kachestvom Izdatelstvo TGTU, 2002. - 287 s. dr. Основы стандартизации, сертификации продукции. Учебное пособие. - Tashkent:
4. Axmedov B.M., Ismatullaev P.R., Turaev SH.A. Sertifikatlashtirish va sifatni boshkarish asoslari, o‘kuv kullanma. O‘zR O MTV; TDTU. – Toshkent 2007.-233 6.
5. Axmedov B.M., Ismatullaev P.R., Turobjonov S.M., YUsupov E.D., Turaev SH.A. Основы системы менеджмента качества. Изд-во ипд Узбекистан. - Tashkent, 2009.-208 s.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bagishlangan Oliy Majlis palatalarining kushma majlisidagi nutki. -T.: "O‘zbekiston" NMIU, 2016.-
2. Mirziyoev SH.M. Konun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash - yurt tarakkiyoti va xalk farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kabul kilinganining 24 yilligiga bagishlangan tantanali marosimdagi maruza 2016 yil 7 dekabr. T: "O‘zbekiston" NMIU. 2016-486.
3. Mirziev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalkimiz bilan birga kuramiz. - T.: "O‘zbekiston"NMIU, 2017.- 488 6. buyicha
4. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish Xarakatlar strategiyasi tugrisida. - T. 2017 yil 7 fevral, PF-4947-sonli Farmoni
5. "Standart" ilmiy-texnikaviy jurnali, "O‘zstandart" Agentligi.
6. "Методы менеджмента качества" ilmiy-texnikaviy jurnali, Rossiya Federatsiyasi.
7. Trofimov, A.V. Audit kachestva: uchebnoe posobie / A.V. Trofimov Tambov: Izd-vo Tamb. gos. texn. un-ta, 2009.-96 s. - 100 ekz.

8. Nikitin V.A. Upravlenie kachestvom na baze standartov ISO 9000-2000 1-izdanie Teoriya i praktika menedjmenta. Iz-vo Piter, 2004.-272s.

9. Nikitin V. A., Filoncheva V. V. Upravlenie kachestvom na baze standartov ISO 9000:2000. 2-izdanie Politika. Otsenka formirovanie. Teoriya i praktika menedjmenta. Iz-vo Piter, 2004. - 127 s.

10. Menedjment kachestva eksporta: Kniga otvetov dlya predpriyatiy-eksporterov malogo i srednego biznesa. - B.: Al Salam, 2005.-318 s. (Sekrety trgovli).

Axborot manbaalari

1. <http://www.gov.uz> - O'zbekiston Respublikasi Hukumatining rasmiy sayti.
2. <http://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi konun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
3. <http://www.standart.uz> - "9 standart" agenligi.
4. <http://www.smsiti.uz> sertifikatlashtirish ilmiy tadkikot institutn
5. <http://www.easc.org.by> - Меjgosudarstvenный Sovet po standart metrologii i sertifikatsii Sodrujestva Nezavisimых Gosudarstv
6. <http://www.ziyonet.uz> - Ta'lim portali
7. <http://www.window.edu.ru> - Butun Rossiya ta'lim portali Standartlashtirish, metrologiya PO

MUNDARAJA

	ANNOTATSIYA	3
	KALIT SO‘ZLAR	4
	KIRISH	5
I-BOB	FANGA KIRISH. FANNING MAQSAD VA VAZIFALARI..	7
1§	Faniga kirish. Fanning maqsad va vazifalari	7
2§	Sertifikatlashtirish faoliyati	15
3§	Sertifikatlashtirishning me’yoriy va qonuniy asoslari.....	22
4§	Sertifikatlashtirish bo‘yicha asosiy tushunchalari.....	37
II-BOB	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SERTIFIKATLASH-TIRISH FAOLIYATI	48
5§	O‘zbekiston respublikasida sertifikatlashtirish faoliyati	48
6§	Sertifikatlashtirish milliy tizimida qatnashuvchi idoralar	57
III-BOB	SERTIFIKATLASHTIRISH	66
7§	O‘zbekiston Respublikasida maxsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi.....	66
8§	Muvofiqlikni tasdiqlash va baxolash uchun maxsulotni sinash..	78
9§	Sertifikatlash ob’ektlarni inspeksion nazorati.....	84
10§	O‘zbekiston Respublikasi akkreditlashtirish milliy tizimining asosiy qoidalari	90
11§	Mahsulotlarni ixtiyoriy ekologik markirovkalash.....	97
12§	Halol sertifikatlashtirish.....	112
13§	O‘zbekiston Respublikasining “Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida”gi qonuni.....	121
14§	Xorijiy sertifikatlashtirish tizimi. Xalqaro, xududiy va milliy miqiyosida sertifikatlashtirishning rivojlanishi. Evropa davlatlari, Amerika, Angliya, Germaniya, Fransiya, Turkiya, Xitoy, va Rossiya davlatlari sertifikatlashtirish tizimlari va ularning faoliyati.....	133
15§	Xizmatlarni sertifikatlashtirish. Xizmatlarni sertifikatlashtirish tartibi. Xizmatlarni sertifikatlashtirish sxemasi. Xizmatlarni boxolash usullari.	142
IV-BOB	SIFAT MENEJMENT TIZIMI	152
16§	Sifat, mahsulot sifatini boshqarish.....	152
17§	Sifat menejmenti tizimi to‘g‘risidagi ta’limot tarixi.....	158
18§	ISO 9000 seriyali standartlar, xorijiy davlatlarda sifatni boshqarish tizimlari.....	164

19§	Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish idoralariga umumiy talablar	173
20§	Sifat menejmenti tizimiga talablar.....	180
21§	Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish	189
22§	Sifat menejmenti tizimini tekshirish.....	199
23§	Sifat menejmenti tizimini hujjatlashtirish.....	209
V-BOB.	SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI JORIY ETISH.....	217
24§	Sifat menejmenti tizimini joriy etish.....	217
25§	Sifat tizimini ichki va tashqi auditlari.....	223
VI-BOB.	SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI SERTIFIKAT LASHTIRISH.....	234
26§	Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish bo'yicha ekspertlarga qo'yiladigan talablar.....	234
27§	Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish.....	238
28§	Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish bosqichlari.....	242
29§	Audit o'tkazish qoida va tartiblari.....	250
30§	Sifat menejmenti tizimining ishchi holatini baholash, uning natijaviyligi va smaradorligini aniqlashdan qo'llaniladigan vosita va usullar.....	258
	GLOSSARIY.....	264
	QO'LLANMA UCHUN OLINGAN MANBALAR va ADABIYOTLAR xamda QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR.....	278
	MUNDARAJA.....	280
	SODERJANIE.....	282

СОДЕРЖАНИЕ

	АННОТАЦИЯ	3
	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА.....	4
	ВВЕДЕНИЕ.....	5
ГЛАВА I	ВВЕДЕНИЕ В НАУКУ. СЕЛИ И ЗАДАЧИ НАУКИ.....	7
1§	Введение в науку. Сели и задачи науки.....	7
2§	Сертификатсионная деятельность	15
3§	Нормативно-правовая база сертификации	22
4§	Основные понятия в сертификации	37
ГЛАВА II	СЕРТИФИКАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	48
5§	Сертификатсионная деятельность в Республике Узбекистан..	48
6§	Агентства, участвующие в национальной системе сертификации	57
ГЛАВА III	СЕРТИФИКАЦИЯ	66
7§	Порядок сертификации продукции в Республике Узбекистан.....	66
8§	Тестирование продукта для подтверждения и отсенки соответствия.....	78
9§	Инспекционный контроль объектов сертификации	84
10§	Основные правила национальной системы аккредитации Республики Узбекистан.....	90
11§	Добровольная экологическая маркировка продукции.....	97
12§	Халаяльная сертификация	112
13§	Закон Республики Узбекистан «Об отсенке соответствия»..	121
14§	Зарубежная система сертификации. Развитие международной, региональной и национальной сертификации. Системы сертификации и их деятельность в странах Европы, Америки, Англии, Германии, Франции, Турции, Китая, России	133
15§	Сертификация услуг. Процедура сертификации услуг. Схема сертификации услуг. Методы отсенки услуг.....	142
ГЛАВА IV	СИСТЕМА КОНТРОЛЯ КАЧЕСТВА	152
16§	Качество, управление качеством продукции.....	152
17§	История учения о системе менеджмента качества.....	158
18§	Стандарты серии ИСО 9000 в зарубежных странах системы управления качеством	164
19§	Общие требования к органам по сертификации систем менеджмента	173
20§	Требования к системе менеджмента качества.....	180
21§	Сертификация системы менеджмента качества	189

22§	Проверка системы менеджмента качества	199
23§	Документирование системы менеджмента качества	209
ГЛАВА V	ВНЕДРЕНИЕ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ..	217
24§	Внедрение системы управления качеством	217
25§	Внутренние и внешние аудиты системы качества.....	223
ГЛАВА VI	СЕРТИФИКАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА.....	234
26§	Требования к специалистам по сертификации систем менеджмента качества.....	234
27§	Сертификация системы менеджмента качества.....	238
28§	Этапы сертификации системы менеджмента качества.....	242
29§	Правила и процедуры аудита.....	250
30§	Инструменты и методы, используемые для оценки рабочего состояния системы менеджмента качества, определения ее результативности и эффективности.....	258
	ГЛОССАРИЙ.....	264
	ИСТОЧНИКИ И ССЫЛКИ И ДОПОЛНИТЕЛЬНЫЕ ССЫЛКИ ДЛЯ РУКОВОДСТВА	278
	МУНДАРАЖА.....	280
	СОДЕРЖАНИЕ.....	282

O‘QUV ADABIYOTINING NASHR RUXSATNOMASI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim
vazirligining 20 22 yil “30” Dekabr dagi
“429”-sonli buyrug‘iga asosan

N.J.BADALOV, F.A.RAHMONOV, Y.R.NAJMIDDINOVA
(muallifning familiyasi, ismi-sharifi)


Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati
(ta’lim yo‘nalishi (mutaxassisligi))
menejmenti (tarmoqlar bo‘yicha)

_____ ning
talabalari (o‘quvchilari) uchun tavsiya etilgan

Sertifikatlashtirish asoslari va sifat menejmenti
(o‘quv adabiyotining nomi va turi: darslik, o‘quv qo‘llanma)

_____ ga
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr
etishga ruxsat berildi.

Vazir



A.Toshqulov

№ 429 - 185